O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining 95 yilligiga bag‘ishlanadi

T.I.YAHYOYEV

XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA BOSHQARUV HISOBI VA TAHLILI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Monografiya

Samarqand – 2026

UO‘K: 338.465(575.1)
Y 90
KBK: 65.9(2)315

T.I.Yahyoyev.

Xizmat ko‘rsatish korxonalari samaradorligini baholashda boshqaruv hisobi va tahlili metodologiyasini takomillashtirish *[Matn]:* ***Monografiya*** */ Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2026 - 260 bet.*

Monografiyada qurilish xizmatlarining boshqa xizmat turlaridan alohida xususiyatlari, qurilish sohasining mamlakatni rivojlanishidagi muhim jihatlari, aholi turmush darajasini yaxshilashda qurilish sohasining o‘rni, qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda aktivlar tahlilini amalga oshirishsa axborot manbalari, qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda aktivlar tahlilini tizimli, kompleks amalga oshirish hamda omilli tahlilni qo‘llanilishini alohida yo‘nalishlari keltirilgan. Monografiya oliy o‘quv yurtlari talabalari va o‘qituvchilariga hamda doktorantlarga mo‘ljallangan. Undan xizmat ko‘rsatish sohasi va qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar aktivlari bo‘yicha muammolar bilan qiziquvchi mutaxassislar ham foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:
F.A.Safarov – SamISI professori v.b, i.f.d.
A.I.Aliqulov – Samarqand davlat veterinariyasi meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti professori, i.f.d.

Monografiya Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashining 2025-yil 27-noyabrdagi 4-sonli qaroriga asosan nashr etishga tavsiya etilgan.

ISNB: 978-9910-225-49-9

© T.I.Yahyoyev, SamISI. 2026 y.
© “STEP-SEL” MChJ nashryoti. 2026 y.

MUNDARIJA

KIRISH 6
I BOB.XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING NAZARIY HAMDA METODOLOGIK ASOSLARI 8
1.1.Xizmat ko‘rsatish korxonalarida samaradorlikni baholashning nazariy-uslubiy jihatlari 8
1.2.Xizmat ko‘rsatish korxonalari samaradorligini baholashning o‘ziga xos xususiyatlari 14
1.3. Xizmat ko‘rsatish korxonalarining samaradorligini baholashning boshqaruv hisobi va tahlilini nazariy asoslari 17
1 bob bo‘yicha xulosalar..... 24
II BOB. QURILISH XIZMATLARINI KO‘RSATUVCHI KORXONALARDA BOSHQARUV HISOBINI AMALGA OSHIRISHNING KONSEPTUAL YO‘NALISHLARI 26
2.1.Xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv hisobini amalga oshirishning hozirgi holati 26
2.2.Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda tannarx hisobining amaliy jihatlari 32
2.3.Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda daromadlar hamda xarajatlar mutanosibligiga qaratilgan boshqaruv hisobining metodologik jihatlari 38
II bob bo‘yicha xulosalar..... 43
III BOB. QURILISH XIZMATLARINI KO‘RSATUVCHI KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AKTIVLAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI 45
1.1.Qurilish xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalar samaradorlik darajasini baholashning alohida xususiyatlari va ularning nazariy asoslari. 45
3.2. Aktivlar tahlilini qurilish korxonalari samaradorligini boshqarishdagi o‘rni va ahamiyati..... 59
3.3. Qurilish korxonalarida aktivlar tahlilini amalga oshirishda axborot manbalari 66
III bob bo‘yicha xulosa. 77

IV BOB. QURILISH KORXONALARIDA AKTIVLAR TAHLILINI AMALGA OSHIRISHNING KONSEPTUAL YO‘NALISHLARI 80
4.1.Qurilish korxonalarida aktivlar holati hamda harakati tahlilini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari 80
4.2. Aktivlar samaradorligi tahlilini amalga oshirishda qurilish xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalarning alohida xususiyatlari 91
4.3. Xalqaro standartlarga moslashtirilgan aktivlar tahlilini amalga oshirishda qurilish korxonalarining o‘ziga xos xususiyatlari 104
IV bob bo‘yicha xulosa. 117
V BOB. QURILISH KORXONALARIDA AKTIVLAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI 120
5.1.Qurilish korxonalarida aktivlarni tizimli tahlilini amalga oshirish imkoniyatlari 120
5.2.Omilli tahlil imkoniyatlaridan foydalangan holda qurilish korxonalari aktivlari tahlilini takomillashtirish. 137
5.3. Qurilish korxonalari samaradorligini baholashda ko‘p omilli korrelyatsion-regression tahlilni takomillashtirish 154
V-bob bo‘yicha xulosa. 169
VI BOB. QURILISH XIZMATLARINI KO‘RSATUVCHI KORXONALARDA BOSHQARUV TAHLILINI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 170
6.1. Qurilish korxonalarida o‘zgaruvchan va doimiy xarajatlar bo‘yicha zararsizlik nuqtasini aniqlash va tahlilini metodologiyasini takomillashtirish 170
6.2. Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar samaradorligini o‘zgarishiga ta'sir etuvchi omillar va ularni tahlilini takomillashtirish 176
VI bob bo‘yicha xulosalar 185
VII BOB. QURILISH KORXONALARIDA AKTIVLAR BILAN BOGLIQ RISKLARNI TAHLIL QILISH IMKONIYATLARI ...187
7.1. Qurilish korxonalarida aktivlar bilan bog’liq risklarni baholashdagi taxminlarni tushuntirish.imkoniyatlari. 187
7.2. Qurilish korxonalarida aktivlar bilan bog’liq risklarni baholashdagi natijalarni tahlil qilishning statistik usullari. Ehtimollar matematikasi va simulyatsiya. Ehtimollik qoidalari. 193

7.3. Qurilish korxonalarida aktivlar bilan bog’liq risklarni baholashdagi ma'lumotlar va statistika. 207
VII bob bo‘yicha xulosalar 223
VIII BOB. QURILISH KORXONALARIDA MEHNAT RESURSLARI SAMARADORLIGI TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH 225
8.1.Qurilish korxonalarida inson resurslarini ifodalovchi ko‘rsatkilar tarkibida mehnat unumdorligi va ularni aniqlash yo‘llari..... 225
8.2. Qurilish korxonalarida mehnat unumdorligi o‘zgarish holati va uning dinamikasi tahlili. 228
8.3. Qurilish korxonalarida mehnat unumdorligi o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillar va ularni tahlil qilish yo‘llari. 231
8.4. Qurilish korxonalarida korxonalarda inson resurslarining qo‘nimsizligi va ularga ta’sir etuvchi omillar tahlili 237
VIII bob bo‘yicha xulosalar..... 244
XULOSA 245
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI 251

KIRISH

Jahonda qurilish tarmog‘i global sanoatda katta salmoqni egallaydi, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (UNESE) ma’lumotlariga ko‘ra Fransiyada qurilish tarmog‘ining YaIMdagi ulushi 2023-yil 4,1%ni, Bolgariyada 4,9%ni, Germaniyada 5,5%ni, Italiyada 4,9%ni tashkil qilgan bo‘lsa, MDH davlatlarida Rossiya Federatsiyasida 4,1%ni, Ozarbayjonda 6,4%ni, Qozog‘istonda 10,9%ni tashkil qilgan[1]. Global darajada qurilish sanoati o‘rganilganda rivojlanayotgan mamlakatlarda YaIMga nisbatan qurilish sohasining ulushi rivojlangan mamlakatlarga qaraganda birmuncha past hisoblanadi. Xalqaro Must-Know Constuction-statistics tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra Osiyo-Tinch okeani mintaqasi global qurilish sanoati daromadining 46%ini tashkil qiladi[2].

Jahonda qurilish sohasi, qurilish korxonalari hamda uning moliyaviy holati tahlili va aktivlar tahlilining nazariy, tashkiliy va metodologik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda, bularga: qurilish tarmog‘ining alohida xususiyatlarini ochib bergan holda qurilish korxonalarini hamda ularning faoliyatini tavsiflash hamda tasniflash, qurilish korxonalarida hisob hamda tahlilni alohida xususiyatlarini ochib berish, qurilish korxonalarida hisob va tahlilni xalqaro darajada bir xil olib borish, hisob va tahlil ma’lumotlarini barcha foydalanuvchilar o‘qiy olish imkoniyatini yaratish va qurilish korxonalarida hisob va tahlilni takomillashtirish orqali xorijiy investitsiyalar oqimini oshirish bilan bog‘liq tadqiqotlar olib borilmoqda.

O‘zbekistonda qurilish tarmog‘i yillar davomida o‘sish tendensiyasiga ega soha hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra mamlakatimizda qurilish tarmog‘i 2023-yilda yalpi ichki mahsulotni 12,6%ini tashkil qiladi. Ushbu tarmoqda band aholi soni 1 305,6 ming kishini tashkil qilgan.Qurilish sohasida 2023-yilda jami bajarilgan qurilish ishlarining 25,3%i yirik korxonalar hisobiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa 55,2%ini kichik

[1] https://unece.org/mission. https://w3.unece.org/PXWeb/en/Table?IndicatorCode
[2] https://www.autodesk.com/blogs/construction/top-construction-companies/

korxonalar hamda mikrofirmalar hisobiga, qolgan 19,5%i norasmiy sektorlar hisobiga to‘g‘ri kelgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibiy jihatdan qurilish ishlarining 70,1 foizini bino-inshoatlar qurilishi, 20,6 foizini fuqaro obyektlari qurilishi, 9,3 foizini ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tashkil qilgan[3].

[3] stat.uz

I BOB.XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING NAZARIY HAMDA METODOLOGIK ASOSLARI

1.1.Xizmat ko‘rsatish korxonalarida samaradorlikni baholashning nazariy-uslubiy jihatlari

Raqamli hamda innovatsion iqtisodiyot sharoitida har bir tarmoq o‘z resurslaridan samarali foydalanish orqali samaradorlikni oshirishga, asosiy e’tiborni esa intensiv samaradorlikni oshirishga qaratmoqda. Bunda korxonalar o‘z aktivlarini o‘zgartirmasdan bor resurslardan samarali foydalangan holda foydalilikni hamda natijaviylikni oshirishga harakat qiladi.

Xizmatlar sohasi bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmog‘i sifatida asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarda katta hajmni tashkil qilmoqda. Mamlakatda xizmatlar sohasining rivojlanishi hamda taraqqiy etishi, samaradorligi va natijaviyligining ortishi boshqa tarmoqlar hamda sohalarning ham rivojlanishiga turtki bo‘ladi.

Xizmatlar sohasi zamonaviy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish, innovatsiya va aholi farovonligining asosiy drayveri hisoblanadi. Bu mamlakatlarda sanoat va qishloq xo‘jaligiga nisbatan xizmatlar sohasi yalpi ichki mahsulot (YaIM)da eng katta ulushni egallaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning yetakchi qismiga aylangan. Masalan, 2024-yilda AQShda YaIMning taxminan 78 foizi xizmatlar hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, Yaponiyada – 72 foiz, Buyuk Britaniyada – 79 foiz, Germaniyada – 69 foiz, Fransiyada esa – 76 foizni tashkil qilgan. Bu mamlakatlarda ish bilan band aholining 70–80 foizi aynan xizmatlar sohasida mehnat qiladi. Bu esa iqtisodiyotning “intellektuallashuvi” va “postindustrial jamiyat” shakllanishini ko‘rsatadi.

Rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar faqat an’anaviy yo‘nalishlar (savdo, ta’lim, sog‘liqni saqlash) bilan cheklanib qolmagan. Ular yuqori texnologiyalarga asoslangan innovatsion xizmatlar tizimini yaratishga erishgan. Xususan, moliyaviy va bank xizmatlari sohasida investitsiya

banklari, sug‘urta, fintek kabi diversifikatsiya yo‘nalishlari orqali rivojlantirish ishlari amalga oshirilayotgan bo‘lsa, axborot-kommunikatsiya xizmatlarida IT, raqamli marketing, kiberxavfsizlik yo‘nalishlari bo‘yicha, logistika va transport xizmatlari sohasida xalqaro logistika tizimlarini yo‘lga qo‘yish, ta’lim va sog‘liqni saqlashda raqamli platformalarni joriy etish kabi diversifikatsiya yo‘nalishlari amalga oshirib kelinmoqda. Bu xilma-xillik xizmatlar sohasining barqarorligini ta’minlaydi va yangi ish o‘rinlari yaratadi.

Rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar sohasi raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq. Xususan, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya kabi mamlakatlarda raqamli iqtisodiyot xizmatlar ulushining katta qismini tashkil etadi. Bunda elektron tijorat (Amazon, Alibaba, eBay), onlayn ta’lim (Coursera, Udemy), telemeditsina va onlayn bank xizmatlari, sun’iy intellekt asosidagi xizmatlar tizimi faol rivojlanmoqda. Bu jarayon xizmatlar bozorini globallashtirib, milliy chegaralardan chiqib ketish imkonini yaratadi.

Rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar nafaqat ichki bozor uchun, balki eksport yo‘nalishida ham muhim manba hisoblanadi. AQSh va Buyuk Britaniyada eksport qilinayotgan xizmatlar ulushi umumiy eksportning 30–40 foizini tashkil etsa, Hindiston va Singapur kabi mamlakatlar IT va autsorsing xizmatlarini eksport qilib, katta valyutaviy daromad olmoqda.

Xizmatlar eksporti sanoat tovarlari eksportidan ko‘ra tezroq o‘smoqda. Bu tendensiya XXI asrdagi “xizmatlar iqtisodiyoti” davrini boshlab berdi.

Rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar sohasining o‘sishi, avvalo, yuqori malakali kadrlar va bilimga asoslangan iqtisodiyot bilan izohlanadi. Ta’lim, ilmiy tadqiqot va innovatsiya xizmatlari sohaning intellektual salohiyatini ta’minlab, yangilik yaratish va innovatsion biznes modellari ishlab chiqish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda rivojlangan mamlakatlarda “yashil iqtisodiyot” va ekologiyaga yo‘naltirilgan xizmatlar rivojlanmoqda. Bu yo‘nalishda energiya tejovchi injiniring xizmatlari, qayta tiklanuvchi energiya konsalting xizmatlari, ekoturizm, chiqindilarni qayta ishlash bilan

bog‘liq xizmatlar rivojlantirilmoqda. Bu xizmatlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik samaradorlikni ham ta’minlaydi.

Qurilish xizmatlari rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lib, ularning iqtisodiy barqarorligi, infratuzilmaviy yangilanishi va aholi turmush darajasini oshirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Bu mamlakatlarda qurilish faqat moddiy ne’mat yaratish vositasi emas, balki xizmatlar iqtisodiyotining samaradorligini belgilaydigan innovatsion tarmoq sifatida rivojlangan.

Rivojlangan mamlakatlarda qurilish xizmatlari yalpi ichki mahsulotning o‘rtacha 5–8 foizini tashkil etadi, biroq uning iqtisodiyotga ta’siri bevosita ko‘rsatkichlardan ancha kengdir. Sababi, qurilish xizmatlari sanoat, transport, energetika, turizm va ijtimoiy infratuzilmalarni ta’minlab beradigan asosiy bazani yaratadi.

Rivojlangan mamlakatlarda qurilish sohasi iqtisodiyotning yetakchi sohalaridan biri bo‘lib, AQShda qurilish sohasi YaIMning 6 foizi atrofini tashkil etadi, biroq u ishchi kuchining 7 foizini band qiladi va mamlakat infratuzilmasini yangilashda yetakchi o‘rinda turadi. Yaponiyada esa qurilish xizmatlari orqali “aqlli shaharlar” va energiya tejovchi binolar qurish dasturlari amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, Germaniyada qurilish xizmatlari “yashil iqtisodiyot”ning asosiy bo‘g‘ini sifatida ekotexnologiyalarga yo‘naltirilgan.

Qurilish xizmatlari rivojlangan mamlakatlarda faqat an’anaviy binolar qurish bilan cheklanib qolmay, innovatsion va raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda qurilish xizmatlarini rivojlantirishda ko‘plab zamonaviy modellar hamda instrumentlardan foydalanib kelinmoqda (1.1–rasm).

Rivojlangan mamlakatlarda qurilish xizmatlari “yashil iqtisodiyot” strategiyasining muhim qismi hisoblanadi. Bunda asosiy yo‘nalishlar quyidagilardan iborat:

• energiya tejovchi binolar qurish (LEED, BREEAM standartlari asosida);

• qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan inshootlar qurilishi;
• chiqindisiz va ekologik materiallardan foydalanish.



1.1–rasm. Rivojlangan mamlakatlarda qurilish xizmatlarini rivojlantirishda qo‘llanilayotgan zamonaviy modellar hamda instrumentlar[4]

Rivojlangan mamlakatlarda qurilish sohasi yuqori texnologiyalar talab qiladigan mehnat bozori bilan bog‘langan. Bu sohadagi ishchilar yuqori malakaga, muhandislik va raqamli ko‘nikmalarga ega bo‘lishi shart. Shu sababli qurilish sohasi ta’lim tizimi bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, maxsus universitetlar, kasbiy markazlar va injiniring institutlari orqali kadrlar tayyorlanadi.

Rivojlangan mamlakatlar qurilish xizmatlarini nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro miqyosda ham taklif etadi. Xususan, Yaponiya, Germaniya va AQSh kompaniyalari Osiyo va Afrikada yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirmoqda. Janubiy Koreya va Singapur kompaniyalari esa “aqlli shaharlar” qurilishi bo‘yicha yetakchi eksportchilardan hisoblanadi. Bu esa qurilish xizmatlarini jahon xizmatlar bozorida yuqori qiymatga ega tarmoqqa aylantirdi.

Xizmatlar sohasi rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida tobora muhim o‘rin egallab bormoqda. Bu soha sanoat va qishloq

[4] Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tizimlashtirilgan

xo‘jaligi bilan bir qatorda iqtisodiy o‘sish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishning asosiy manbai hisoblanadi. So‘nggi o‘n yilliklarda ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda xizmatlar sohasining YaIMdagi ulushi 50–60 foizgacha o‘sdi. Bu esa iqtisodiyotning “xizmatlar sektoriga burilishi”ni ifodalaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda xizmatlar sohasi iqtisodiy diversifikatsiya va barqaror rivojlanishni ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xizmatlar, ayniqsa transport, savdo, ta’lim, sog‘liqni saqlash, axborot texnologiyalari, moliya va turizm yo‘nalishlarida iqtisodiy faollikni kengaytirish va ish bilan bandlikni oshirishda asosiy manba hisoblanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda xizmatlar sohasi YaIMning o‘rtacha 55–60 foizini tashkil etib, ish bilan band aholining 40–50 foizi ushbu sohada faoliyat yuritadi. Afrika, Janubiy Osiyo va Markaziy Osiyo davlatlarida xizmatlar sohasi so‘nggi o‘n yil ichida eng tez o‘suvchi tarmoqqa aylandi.

1.1–jadval[5]

Rivojlanayotgan mamlakatlarda xizmatlar sohasining asosiy tarmoqlari

№	Xizmat turi	Natija
1.	**Savdo va transport xizmatlari**	tashqi savdo, logistika va regional integratsiya
2.	**Turizm**	tabiiy va madaniy resurslarga asoslangan, valyuta tushumi
3.	**Moliya va bank tizimi**	kichik biznesni qo‘llab-quvvatlovchi xizmatlar
4.	**Axborot-kommunikatsiya xizmatlari (ICT)**	raqamli iqtisodiyotni shakllantirish
5.	**Ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlari**	inson kapitalini rivojlantirish

Xizmatlar sohasi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, Hindiston, Filippin va Malayziya kabi mamlakatlarda IT va autsorsing xizmatlari eksportining ulushi tez o‘sib, YaIMning katta qismini tashkil

[5] Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tizimlashtirilgan

etayotgan bo‘lsa, Keniya, Vyetnam va O‘zbekiston kabi davlatlarda turizm, logistika va savdo xizmatlari tashqi savdo balansini diversifikatsiya qilmoqda.

Raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan mamlakatlarda xizmatlar sohasining yangi bosqichini boshlab berdi. Onlayn xizmatlar, elektron savdo (e-commerce), mobil bank, telemeditsina va raqamli ta’lim tizimlari xizmatlar bozorini kengaytirmoqda.

Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarda xizmatlar sohasining to‘liq salohiyatidan foydalanishga to‘sqinlik qilayotgan bir qator omillar mavjud:

birinchidan, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi; ikkinchidan, xizmatlar sifati va standartlarining past darajada bo‘lishi; uchinchidan, raqamli tengsizlik va kadrlar malakasining yetishmasligi; to‘rtinchidan, moliyaviy xizmatlarga yetarli darajada kirish imkonining cheklanganligi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun xalqaro tajribadan foydalanish, raqobat muhitini yaratish va xizmatlar bozorini liberallashtirish muhim ahamiyatga ega.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda qurilish xizmatlari YaIMda odatda 5–10 foiz atrofida ulushga ega bo‘ladi. Biroq uning iqtisodiy ta’siri bevosita ko‘rsatkichdan ancha katta bo‘lib, sanoat, transport, turizm, savdo va ta’lim sohalari rivojiga kuchli turtki beradi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda qurilish tarmog‘i iqtisodiy o‘sishning infratuzilmaviy drayveri hisoblanib, ushbu sohada ish bilan band aholining 7–12 foizi faoliyat yuritadi. Qurilish xizmatlariga kiritilgan investitsiyalar mamlakatdagi investitsiya faolligini va ichki talabni oshiradi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda qurilish xizmatlarining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Jumladan, Hindistonda “Smart Cities Mission” dasturi doirasida 100 ta shahar qurilish va infratuzilmani yangilash asosida rivojlantirilmoqda. Vyetnamda qurilish xizmatlari YaIMning 9 foizini tashkil etib, urbanizatsiya jarayonini tezlashtirmoqda. O‘zbekistonda esa “Yangi

O‘zbekiston” qurilish dasturlari orqali uy-joy, maktab va yo‘l infratuzilmasini yangilash iqtisodiy faollikni oshirmoqda.

Mamlakatimizda ham bugungi kunda xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda samaradorlik darajasini baholash bo‘yicha ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar mamlakatda qabul qilinayotgan qonun va qonunosti hujjatlari hamda ularni amaliyotga joriy etish bilan belgilanadi.

1.2.Xizmat ko‘rsatish korxonalari samaradorligini baholashning o‘ziga xos xususiyatlari

Xizmatlar sohasi zamonaviy iqtisodiyotda yetakchi o‘rin tutadi. Xizmat ko‘rsatish korxonalari samaradorligini baholash sanoat korxonalariga nisbatan murakkabroq bo‘lib, bu xizmatlarning nomoddiyligi, mijoz bilan bevosita aloqadorligi, sifatning subyektivligi va jarayonlarning variativligi bilan izohlanadi.

Xizmat ko‘rsatish korxonalari samaradorligini baholash sanoat va ishlab chiqarish korxonalariga nisbatan ancha murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. Buning asosiy sababi xizmatlarning nomoddiy tabiati, ishlab chiqarish va iste’mol jarayonlarining bir vaqtda amalga oshishi, mijoz omilining yuqori darajada ta’siri hamda sifat ko‘rsatkichlarining subyektivligi bilan izohlanadi. Shu bois xizmatlar sohasida samaradorlikni baholashda faqatgina an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan cheklanib qolish yetarli emas, balki nomoliyaviy mezonlar ham keng qo‘llanilishi lozim.

Xizmatlarning eng muhim xususiyati - ularning nomoddiyligidir. Ya’ni xizmatni ishlab chiqarishdan oldin uni ko‘rib, sinab yoki omborda saqlab bo‘lmaydi. Natijada xizmatlar samaradorligini baholashda aniq fizik o‘lchov birliklari mavjud emas. Bu holat baholash jarayonida mijoz fikri, qoniqish darajasi va kutilmalar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarning muhimligini oshiradi.

Xizmatlar sohasida faoliyat olib borayotgan korxonalarda samaradorlikni hisobash va baholash bo‘yicha xorijiy olimlar

P. Drucker, R. Kaplan, R. Norton, C. Gro‘nroos, L. Berry kabi[6] olimlar xizmatlar samaradorligini nafaqat moliyaviy natija, balki mijoz qoniqishi, ichki jarayonlar sifati va innovatsion salohiyat orqali baholash zarurligini ta’kidlaydilar. Kaplan va Norton tomonidan ishlab chiqilgan “Balanced Scorecard” modeli xizmatlar sektorida keng qo‘llaniladi.

Xizmatlarning nomoddiyligi sababli ularni oldindan sinab ko‘rish imkoni yo‘q. Shu bois baholashda mijoz fikri, servis sifati, vaqt omili va ishonchlilik muhim ahamiyat kasb etadi. Zeithaml, Parasuraman va Berry tomonidan ishlab chiqilgan “SERVQUAL” modeli xizmat sifati va samaradorligini baholashda asosiy vosita hisoblanadi[7].

Xizmatlar sohasida ishlab chiqarish va iste’mol jarayonlari bir vaqtning o‘zida sodir bo‘ladi. Masalan, ta’lim, tibbiyot, transport yoki konsalting xizmatlarida xizmat sifati bevosita ko‘rsatish jarayonida shakllanadi. Bu esa samaradorlikka xodimlarning malakasi, xizmat ko‘rsatish madaniyati va mijoz bilan muloqot sifati kuchli ta’sir ko‘rsatishini anglatadi.

Mazkur holatda xizmatlar samaradorligini baholashda:

- ✓ xodimlar unumdorligi;
- ✓ xizmat ko‘rsatish vaqti;
- ✓ mijozga moslashuvchanlik darajasi;
- ✓ shikoyatlar soni va ularni hal qilish tezligi kabi ko‘rsatkichlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xizmatlar sifatini baholash ko‘p jihatdan subyektiv xarakterga ega bo‘lib, u mijozlarning shaxsiy tajribasi, kutgan natijasi va psixologik holatiga bog‘liq. Bir xil xizmat turli mijozlar tomonidan turlicha baholanishi mumkin. Shu sababli xizmat ko‘rsatish korxonalarida samaradorlikni baholashda mijoz qoniqishi indeksi, mijoz sodiqligi, takroriy murojaatlar ulushi kabi ko‘rsatkichlar keng qo‘llaniladi.

C. Grönroos xizmatlar samaradorligini baholashda texnik sifat (nima xizmat ko‘rsatildi) va funksional sifat (xizmat qanday ko‘rsatildi)

[6] Kaplan R.S., Norton D.P. The Balanced Scorecard. Harvard Business School Press., . Grönroos C. Service Management and Marketing. Wiley., , World Bank – Services and Development: https://www.worldbank.org, OECD – Service Sector Productivity: https://www.oecd.org

[7] Zeithaml V., Parasuraman A., Berry L. Delivering Quality Service. Free Press.

tushunchalarini ajratib ko‘rsatadi. Bu yondashuv xizmatlar samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarida samaradorlikni baholashda moliyaviy ko‘rsatkichlar (daromad, foyda, rentabellik, xarajatlar darajasi) bilan bir qatorda nomoliyaviy ko‘rsatkichlar ham muhim hisoblanadi. Jumladan:

- mijozlar qoniqish darajasi;
- xizmat sifati indekslari;
- xodimlar aylanishi;
- innovatsion xizmatlar ulushi;
- raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi.

R. Kaplan va D. Norton tomonidan ishlab chiqilgan “Balanced Scorecard (BSC)” tizimi xizmatlar sohasida samaradorlikni baholashda keng qo‘llanilib, moliyaviy natijalar bilan mijozlar, ichki jarayonlar va rivojlanish omillarini o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish imkonini beradi.

Xizmatlar samaradorligi jarayon samaradorligi va natija samaradorligiga bo‘linadi.

Jarayon samaradorligi xizmat ko‘rsatish tezligi, moslashuvchanlik va resurslardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lsa, **natija samaradorligi** mijoz sodiqligi va bozor ulushi bilan ifodalanadi.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarida ROI, ROA kabi an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda mijoz qoniqishi indeksi, xodimlar aylanishi va servis sifati ko‘rsatkichlari ham qo‘llaniladi.

OECD va World Bank tadqiqotlariga ko‘ra, raqamli texnologiyalar xizmatlar samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. CRM, ERP va Big Data tahlillari xizmat jarayonlarini optimallashtiradi.

Gro‘nroos xizmatlar marketingi va samaradorligini integratsiyalashgan yondashuv asosida baholashni taklif etadi. Lovell va Wirtz esa xizmat qiymatini mijoz tajribasi orqali o‘lchashni tavsiya qiladi.

Rossiya va O‘zbekiston olimlari xizmatlar samaradorligini baholashda tarmoq xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi.

1.3. Xizmat ko‘rsatish korxonalarining samaradorligini baholashning boshqaruv hisobi va tahlilini nazariy asoslari

Xizmat ko‘rsatish korxonalarida samaradorlikni baholash korxonaning o‘tgan hisobot davrlariga nisbatan faoliyatidagi dinamik o‘zgarishlarni aniqlashga, korxonada resurslardan qay darajada samarali foydalanilganligini, qo‘shimcha jalb qilingan resurslarning samaradorlikni oshirishga ta’sirini baholashga imkon beradi. Shuningdek, ushbu samaradorlik darajasi saqlab qolinishi yoki rivojlantirilishi sharoitida korxonaning keyingi davr ko‘rsatkichlarini prognoz qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy raqamli va innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalari raqobatbardoshligini ta’minlash, resurslardan oqilona foydalanish va barqaror moliyaviy natijalarga erishish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xizmatlar sohasining nomoddiyligi, xizmat ko‘rsatish jarayonlarining murakkabligi va mijoz omilining ustuvorligi samaradorlikni baholashda an’anaviy yondashuvlarning yetarli emasligini ko‘rsatadi. Shu bois xizmat ko‘rsatish korxonalarida samaradorlikni baholashda boshqaruv hisobi va boshqaruv tahliliga asoslangan nazariy yondashuv muhim ahamiyatga ega.

Boshqaruv hisobi - bu korxona ichki boshqaruv ehtiyojlari uchun mo‘ljallangan, rejalashtirish, nazorat va qaror qabul qilishni axborot bilan ta’minlovchi tizimdir.

Boshqaruv hisobi bo‘yicha ko‘plab olimlar o‘z izlanishlarini olib brogan hamda bu jarayon davom etib kelmoqda.

Xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan berilgan boshqaruv hisobi ta’riflarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mazkur tushuncha asosan korxona faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishni axborot bilan ta’minlashga qaratilgan ichki hisob tizimi sifatida talqin etiladi. Xorijiy olimlar (P. Drucker, R. Kaplan va D. Norton, C. Drury va boshqalar) boshqaruv hisobining strategik yo‘naltirilganligini, moliyaviy va nomoliyaviy ko‘rsatkichlar uyg‘unligini hamda menejment qarorlarini qo‘llab-quvvatlashdagi rolini alohida ta’kidlaydilar. Ushbu yondashuvlarda boshqaruv hisobi

korxonaning uzoq muddatli rivojlanish maqsadlariga erishish vositasi sifatida qaraladi.

1.3-jadval[8]

Xorijiy hamda mahalliy olimlarning boshqaruv hisobi bo‘yicha ta’riflari

Olimlar	Ta’rif mazmuni	Manba
P. Drucker	Boshqaruv hisobi – menejmentni samarali qaror qabul qilish uchun zarur axborot bilan ta’minlovchi tizim.	Drucker P. Management: Tasks, Responsibilities, Practices. Harper & Row.
R. Kaplan, D. Norton	Boshqaruv hisobi strategik maqsadlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan moliyaviy va nomoliyaviy axborot tizimidir.	Kaplan R.S., Norton D.P. The Balanced Scorecard. Harvard Business School Press.
C. Drury	Boshqaruv hisobi – rejalashtirish, nazorat va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun xarajatlar va daromadlar haqidagi axborotni tayyorlash jarayonidir.	Drury C. Management and Cost Accounting. Cengage Learning.
Garrison, Noreen, Brewer	Boshqaruv hisobi – korxona ichki foydalanuvchilari uchun mo‘ljallangan hisob tizimi bo‘lib, operativ va strategik qarorlarga xizmat qiladi.	Garrison R., Noreen E., Brewer P. Managerial Accounting. McGraw-Hill.
Sh.A. Musayeva	Boshqaruv hisobi – korxona resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan ichki axborot tizimi hisoblanadi.	Musayeva Sh.A. Boshqaruv hisobi. O‘quv qo‘llanma.
A. Abdukarimov	Boshqaruv hisobi korxona faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va tahlil etishga xizmat qiluvchi axborot bazasidir.	Abdukarimov A. Iqtisodiy tahlil va boshqaruv hisobi. Darslik.

[8] Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tizimlashtirilgan

Mahalliy olimlar ta’riflarida esa boshqaruv hisobining amaliy jihatlari, xususan, resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni nazorat qilish va xo‘jalik faoliyati natijalarini tahlil qilish funksiyalari ustuvor o‘rin egallaydi. Bu yondashuvlar boshqaruv hisobini korxona ichki boshqaruv mexanizmining muhim elementi sifatida talqin etib, uning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi ahamiyatini ochib beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqgan holda xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv hisobi nafaqat xarajatlar va daromadlarni hisobga olish bilan cheklanib qolmasligi, balki xizmatlar sifatini, mijozlar qoniqishini, jarayonlar samaradorligini va innovatsion faoliyat natijalarini ham qamrab oluvchi kompleks axborot-tahliliy tizim sifatida shakllantirilishi lozim. Ayniqsa, xizmatlar sohasining nomoddiyligi va mijoz omilining ustuvorligi boshqaruv hisobini strategik va moslashuvchan yondashuv asosida tashkil etishni talab etadi.

Bundan kelib chiqadiki, boshqaruv hisobi xizmat ko‘rsatish korxonalarida samaradorlikni baholashning nazariy va amaliy asosi bo‘lib, u boshqaruv tahlili bilan uzviy bog‘langan holda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga xizmat qilishi zarur. Mazkur yondashuv korxonaning joriy faoliyatini baholash bilan bir qatorda, uning kelgusi rivojlanish istiqbollarini prognoz qilish imkonini ham beradi.

Korxonalarda boshqaruv hisobi bilan bir qatorda boshqaruv tahlili ham muhim hisoblanadi. Ushbu jarayonsiz mavjud ma’lumotlar asosida korxonaga baho berish mumkin emas.

Xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan berilgan boshqaruv tahlili ta’riflarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu tushuncha mazmunan korxona faoliyatini baholash, boshqaruv qarorlarini asoslash hamda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan tahliliy jarayon sifatida talqin etiladi. Biroq olimlarning yondashuvlarida boshqaruv tahlilining vazifalari, ko‘lam va yo‘nalishlari turlicha talqin etilgan.

1.4-jadval[9]

Xorijiy hamda mahalliy olimlarning boshqaruv hisobi bo‘yicha ta’riflari

Olim (muallif)	Berilgan ta’rifi	Manba
P. Drucker	Boshqaruv tahlili – bu menejment qarorlarini qabul qilish jarayonida tashkilot faoliyati natijalarini baholash va kelgusi harakatlarni asoslashga xizmat qiluvchi tahliliy jarayondir.	Drucker P. Management: Tasks, Responsibilities, Practices. Harper & Row.
R. Anthony, V. Govindarajan	Boshqaruv tahlili boshqaruv nazorati tizimining ajralmas qismi bo‘lib, rejalarning bajarilishi va resurslardan foydalanish samaradorligini baholashga qaratilgan.	Anthony R., Govindarajan V. Management Control Systems. McGraw-Hill.
C. Drury	Boshqaruv tahlili boshqaruv hisobi ma’lumotlari asosida xarajatlar, natijalar va samaradorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish orqali qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlaydi.	Drury C. Management and Cost Accounting. Cengage Learning.
R. Kaplan, D. Norton	Boshqaruv tahlili strategik maqsadlarga erishish darajasini moliyaviy va nomoliyaviy ko‘rsatkichlar orqali baholashga xizmat qiladi.	Kaplan R.S., Norton D.P. The Balanced Scorecard. Harvard Business School Press.
Sh.A. Musayeva	Boshqaruv tahlili – bu korxona faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida boshqaruv hisobi axborotlari asosida olib boriladigan tahliliy jarayondir.	Musayeva Sh.A. Boshqaruv hisobi va tahlili. O‘quv qo‘llanma.
A. Abdukarimov	Boshqaruv tahlili korxona resurslaridan foydalanish, moliyaviy natijalar va iqtisodiy samaradorlikni baholashga qaratilgan boshqaruv instrumentidir.	Abdukarimov A. Iqtisodiy tahlil. Darslik.

Xorijiy olimlar, xususan, P. Drucker boshqaruv tahlilini menejment qarorlarini qabul qilish jarayoniga bevosita xizmat qiluvchi analitik mexanizm sifatida ko‘rib, uni strategik rejalashtirish va boshqaruv nazoratining ajralmas qismi sifatida baholaydi. R. Anthony va V. Govindarajan boshqaruv tahlilining nazorat funksiyasiga alohida urg‘u berib, uni rejalarning bajarilishi va resurslardan foydalanish samaradorligini monitoring qilish vositasi sifatida talqin etadilar. Kaplan

[9] Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tizimlashtirilgan

va Norton yondashuvida esa boshqaruv tahlili strategik maqsadlar bilan bog‘langan bo‘lib, moliyaviy va nomoliyaviy ko‘rsatkichlar tizimi orqali korxona faoliyatining natijaviyligini baholashga qaratilgan.

Mazkur xorijiy yondashuvlarda boshqaruv tahlili strategik yo‘naltirilgan, uzoq muddatli rivojlanishga qaratilgan va qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlovchi tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Уларда boshqaruv tahlili faqat o‘tgan davr natijalarini baholash bilan cheklanmay, balki kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini aniqlash va prognozlashga xizmat qilishi ta’kidlanadi.

Mahalliy olimlar ta’riflarida esa boshqaruv tahlilining amaliy jihatlari ustuvor o‘rin egallaydi. Xususan, Sh.A. Musayeva boshqaruv tahlilini boshqaruv hisobi axborotlariga tayangan holda samaradorlikni oshirishga qaratilgan tahliliy jarayon sifatida talqin etadi. A. Abdukarimov esa boshqaruv tahlilini resurslardan foydalanish, moliyaviy natijalar va iqtisodiy samaradorlikni baholashga xizmat qiluvchi boshqaruv instrumenti sifatida izohlaydi. Ushbu yondashuvlarda boshqaruv tahlilining operativligi, amaliy yo‘naltirilganligi va nazorat funksiyasi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv tahlili xorijiy va mahalliy yondashuvlarning afzalliklarini uyg‘unlashtirgan holda shakllantirilishi lozim. Ya’ni, u bir tomondan strategik maqsadlarga yo‘naltirilgan, uzoq muddatli rivojlanish istiqbollarini baholovchi vosita bo‘lishi, ikkinchi tomondan esa operativ boshqaruv qarorlarini qabul qilishda aniq, ishonchli va tezkor axborot bilan ta’minlashi zarur.

Shuningdek, boshqaruv tahlilini xizmatlar sohasining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan cheklab qo‘ymaslik zarur. Xizmat sifati, mijozlar qoniqishi, xizmat ko‘rsatish jarayonlarining samaradorligi, xodimlar mehnat unumdorligi va innovatsion faoliyat natijalari boshqaruv tahlilining muhim ob’ektlari sifatida qaralishi lozim.

Shu bilan birga, boshqaruv tahlili xizmat ko‘rsatish korxonalarida samaradorlikni baholashning asosiy nazariy va amaliy vositasi bo‘lib, u boshqaruv hisobi bilan uzviy bog‘langan holda korxonaning joriy

holatini tahlil qilish, ichki zaxiralarni aniqlash hamda strategik va operativ boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash imkonini beradi.

Olib borilgan tadqiqotlar hamda o‘rganishlar natijasida xizmat ko‘rsatish korxonalari samaradorligini boshqaruv hisobi va tahlili bilan o‘zaro bog’lagan holda samaradorlikni yanada oshishini ta’minlaydigan “Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar samaradorligini baholashning boshqaruv hisobi va tahlili asosidagi HTS modeli” ishlab chiqildi (1.2-rasm[10]).

Ushbu model qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda samaradorlikni baholash jarayonini boshqaruv hisobi va boshqaruv tahlili axborotlari asosida kompleks yondashuv orqali amalga oshirishni nazarda tutadi. Modelda boshqaruv qarorlarini qabul qilishga xizmat qiluvchi axborotlar tizimli ravishda shakllantiriladi va tahlil qilinadi.

Modelning birinchi bosqichida birlamchi va yig‘ma hujjatlar, operativ hisob ma’lumotlari asosida boshqaruv hisobi shakllantiriladi. Bunda korxona faoliyatiga oid quyidagi axborotlar tayyorlanadi:

– aktivlar va passivlar holati hamda ularning harakati;

– korxonaning daromadlari va xarajatlari;

– mehnat resurslari holati va ulardan foydalanish;

– qurilish obyektlarining holati va smeta hujjatlari;

– biznes-reja va rejalashtirilayotgan tenderlar bo‘yicha axborotlar.

Mazkur axborotlar boshqaruv hisobi tizimida qayta ishlanib, keyingi tahlil bosqichi uchun axborot bazasini shakllantiradi.

Ikkinchi bosqichda boshqaruv hisobi axborotlari asosida boshqaruv tahlili amalga oshiriladi. Bu jarayonda amaldagi qonunlar va qonunosti hujjatlar, shuningdek operativ hisob ma’lumotlari inobatga olinadi.

Natijada quyidagi tahliliy ko‘rsatkichlar shakllantiriladi:
– biznes-rejaning bajarilishi bilan bog‘liq samaradorlik ko‘rsatkichlari;
– smeta xarajatlarining o‘zgarishi va ularning samaradorlikka ta’siri;
– operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat samaradorligi;
– mehnat va moddiy resurslardan foydalanish samaradorligi.

Ushbu ko‘rsatkichlar korxona faoliyatining real holatini baholash hamda mavjud muammolarni aniqlash imkonini beradi.

[10] Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi



1.2- rasm. Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarning samaradorligini baholashning boshqaruv hisobi va tahlili asosidagi HTS modeli

Modelning yakuniy bosqichida boshqaruv tahlili natijalari asosida samarali boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Ushbu qarorlar xarajatlarni optimallashtirish, resurslardan foydalanishni yaxshilash, investitsion faoliyatni faollashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga qaratiladi. Natijada korxonaning umumiy samaradorlik darajasi oshadi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur model qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda samaradorlikni baholashda boshqaruv hisobi va boshqaruv tahlilining uzviy bog‘liqligini ta’minlaydi hamda strategik va operativ boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun mustahkam axborot asosini yaratadi.

1 bob bo‘yicha xulosalar

1. Xizmat ko‘rsatish korxonalari samaradorligini baholash sanoat korxonalariga nisbatan murakkab bo‘lib, bu xizmatlarning nomoddiyligi, xizmat ko‘rsatish va iste’mol jarayonlarining bir vaqtda amalga oshishi hamda mijoz omilining ustuvorligi bilan izohlanadi.

2. Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xizmatlar sohasida samaradorlikni baholashda faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan cheklanib qolish yetarli emas, balki xizmat sifati, mijozlar qoniqishi, xodimlar mehnat unumdorligi va jarayon samaradorligi kabi nomoliyaviy ko‘rsatkichlarni ham hisobga olish zarur.

3. Xorijiy va mahalliy olimlarning yondashuvlari asosida aniqlanishicha, boshqaruv hisobi xizmat ko‘rsatish korxonalari samaradorligini baholashning asosiy axborot manbai bo‘lib, u resurslar, xarajatlar va natijalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradi.

4. Boshqaruv tahlili boshqaruv hisobi axborotlari asosida shakllanib, korxona faoliyatining joriy holatini baholash, ichki zaxiralarni aniqlash va samarali boshqaruv qarorlarini asoslashda muhim metodologik vosita hisoblanadi.

5. Samaradorlikni baholashning resurs, natija, jarayon va qiymat yondashuvlari xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini kompleks va tizimli baholash imkonini berib, ularning uyg‘un qo‘llanilishi baholash natijalarining aniqligini oshiradi.

6. Boshqaruv hisobi va boshqaruv tahlilining integratsiyalashuvi xizmat ko‘rsatish korxonalarida samaradorlikni baholashning metodologik asosini tashkil etib, strategik va operativ boshqaruv qarorlarini qabul qilishni axborot bilan ta’minlaydi.

7. Raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar xizmat ko‘rsatish korxonalari samaradorligini baholash jarayonini takomillashtirib, real vaqt rejimida tahlil qilish, prognozlash va boshqaruv qarorlarining aniqligini oshirish imkonini yaratadi.

8. Xizmatlar sohasining tarmoq va hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda samaradorlikni baholash metodologiyasini ishlab chiqish zarurligi aniqlanib, universal yondashuvlarning amaliy qo‘llanishi cheklanganligi asoslandi.

9. Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar misolida ishlab chiqilgan HTS (Hisob–Tahlil–Samaradorlik) modeli boshqaruv hisobi va boshqaruv tahliliga asoslangan samaradorlikni baholashning kompleks metodologik mexanizmi sifatida ilmiy jihatdan asoslandi.

10. Umuman olganda, xizmat ko‘rsatish korxonalari samaradorligini baholashning nazariy va metodologik asoslari korxonalarning barqaror rivojlanishini ta’minlash, raqobatbardoshligini oshirish hamda uzoq muddatli strategik maqsadlarga erishishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi xulosa qilindi.

II BOB. QURILISH XIZMATLARINI KO‘RSATUVCHI KORXONALARDA BOSHQARUV HISOBINI AMALGA OSHIRISHNING KONSEPTUAL YO‘NALISHLARI

2.1.Xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv hisobini amalga oshirishning hozirgi holati

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va bozor mexanizmlarini chuqurlashtirish jarayonida xizmat ko‘rsatish sohasi yetakchi tarmoqlardan biriga aylandi. Xizmatlar sohasining YaIMdagi ulushi ortib borayotgani, bandlik va tadbirkorlikni rivojlantirishdagi roli ushbu tarmoqda samarali boshqaruv tizimini, xususan, boshqaruv hisobini rivojlantirish zaruratini kuchaytirmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va bozor mexanizmlarini chuqurlashtirish jarayonida xizmat ko‘rsatish sohasi yetakchi tarmoqlardan biriga aylandi.

Xizmatlar sohasining YaIMdagi ulushi ortib borayotgani, bandlik va tadbirkorlikni rivojlantirishdagi roli ushbu tarmoqda samarali boshqaruv tizimini, xususan, boshqaruv hisobini rivojlantirish zaruratini kuchaytirmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va bozor mexanizmlarini chuqurlashtirish jarayonida xizmat ko‘rsatish sohasi yetakchi tarmoqlardan biriga aylandi. Xizmatlar sohasining YaIMdagi ulushi ortib borayotgani, bandlik va tadbirkorlikni rivojlantirishdagi roli ushbu tarmoqda samarali boshqaruv tizimini, xususan, boshqaruv hisobini rivojlantirish zaruratini kuchaytirmoqda.

O‘zbekistonda xizmatlar sohasi savdo, transport, aloqa, moliya, turizm, ta’lim, sog‘liqni saqlash kabi yo‘nalishlarni qamrab olib, iqtisodiy o‘sishning muhim drayveriga aylanmoqda. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi yillarda xizmatlar sohasi YaIMning yarmidan ortig‘ini tashkil etmoqda. O‘zbekistonda xizmatlar sohasi savdo, transport, aloqa, moliya, turizm, ta’lim, sog‘liqni saqlash kabi yo‘nalishlarni qamrab olib, iqtisodiy o‘sishning muhim drayveriga aylanmoqda. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi yillarda xizmatlar sohasi YaIMning yarmidan ortig‘ini tashkil etmoqda.

Boshqaruv hisobi korxona ichki ehtiyojlari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, rejalashtirish, nazorat va tahlilni axborot bilan ta’minlaydi. Xizmat ko‘rsatish korxonalarida u xarajatlarni nazorat qilish, xizmat tannarxini aniqlash va rentabellikni baholashda muhim ahamiyatga ega. Boshqaruv hisobi korxona ichki ehtiyojlari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, rejalashtirish, nazorat va tahlilni axborot bilan ta’minlaydi. Xizmat ko‘rsatish korxonalarida u xarajatlarni nazorat qilish, xizmat tannarxini aniqlash va rentabellikni baholashda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda boshqaruv hisobi bevosita alohida qonun bilan tartibga solinmagan bo‘lsa-da, Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun, Soliq kodeksi, Prezident farmon va qarorlari boshqaruv hisobi tizimiga bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv hisobi asosan moliyaviy hisob ma’lumotlariga tayanadi. Xarajatlar ko‘pincha to‘liq va aniq klassifikatsiya qilinmagan, bu esa boshqaruv qarorlarini qabul qilishda cheklovlarni yuzaga keltiradi.

Savdo va umumiy ovqatlanish, qurilish xizmatlari, transport va logistika, turizm va mehmonxona xo‘jaligi, moliyaviy xizmatlar tarmoqlarida boshqaruv hisobining rivojlanish darajasi turlicha.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ERP, CRM va boshqa raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish jarayoni faollashdi. Bu boshqaruv hisobini avtomatlashtirish va tezkor axborot olish imkonini bermoqda. So‘nggi yillarda

Boshqaruv hisobi samarali ishlashi uchun yuqori malakali mutaxassislar zarur. Hozirgi kunda xizmatlar sohasida boshqaruv hisobi bo‘yicha kadrlar yetishmasligi mavjud.

Amaliyotda boshqaruv hisobi rivojiga quyidagi omillar to‘sqinlik qilmoqda: normativ aniqlikning yetishmasligi, axborot tizimlarining past darajada joriy etilishi, kadrlar malakasining yetarli emasligi.

Rivojlangan mamlakatlarda boshqaruv hisobi strategik boshqaruvning ajralmas qismi hisoblanadi. O‘zbekistonda ushbu tajribani moslashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Kelgusida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv hisobini rivojlantirish raqamli transformatsiya, kadrlar tayyorlash va metodologiyani takomillashtirish bilan chambarchas bog‘liq.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv hisobining markaziy obyekti xarajatlar hisoblanadi.

2.1-jadval[11]

Boshqaruv hisobida xarajatlarni boshqarish bo‘yicha qo‘llaniladigan asosiy instrumentlar

№	Instrument nomi	Qo‘llash yo‘nalishlari
1.	**Xarajatlarni markazlar bo‘yicha hisobga olish (Cost Centers)**	Xarajatlar xizmat turlari, bo‘limlar, filiallar yoki loyiha kesimida hisobga olinadi. Bu instrument xizmat tannarxini aniqroq aniqlash va mas’uliyatni kuchaytirishga xizmat qiladi.
2.	**Faoliyatga asoslangan tannarx hisobi (ABC – Activity Based Costing)**	Xizmatlar ko‘rsatishda xarajatlarni bevosita faoliyat turlari orqali taqsimlash imkonini beradi. Ayniqsa, ko‘p bosqichli va murakkab xizmatlarda samarali hisoblanadi.
3.	**Standart xarajatlar tizimi (Standard Costing)**	Oldindan belgilangan me’yorlar asosida haqiqiy xarajatlar bilan taqqoslash orqali chetlanishlar aniqlanadi va boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Shu bilan birga boshqaruv hisobi rejalashtirishsiz samarali ishlamaydi. Shu sababli xizmat ko‘rsatish korxonalarida quyidagi instrumentlar keng qo‘llaniladi:

Boshqaruv hisobida xarajatlarni boshqarish, rejalashtirish hamda byudjetlashtirishdan keying bosaqich bu tahlil va nazoratdir. Boshqaruv hisobida tahlil va nazorat bosqichida quyidagi instrumentlardan foydalaniladi.

[11] Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tizimlashtirilgan

2.2-jadval[12]

Boshqaruv hisobida rejalashtirish va byudjetlashtirish bo‘yicha qo‘llaniladigan asosiy instrumentlar

№	Instrument nomi	Qo‘llash yo‘nalishlari
1.	**Byudjetlashtirish tizimi (Budgeting)**	Daromadlar, xarajatlar, pul oqimlari va investitsiyalar bo‘yicha byudjetlar tuziladi. Bu instrument xizmatlar hajmi va moliyaviy natijalarni oldindan prognoz qilishga imkon beradi.
2.	**Moslashuvchan byudjet (Flexible Budget)**	Xizmatlar hajmi o‘zgarishiga mos ravishda byudjet ko‘rsatkichlarini qayta hisoblash imkonini beradi.
3.	**Biznes-rejalashtirish instrumentlari**	Xizmatlar portfeli, narx siyosati va bozor strategiyasini shakllantirishda qo‘llaniladi.

2.3-jadval[13]

Boshqaruv hisobida tahlil va nazorat bo‘yicha qo‘llaniladigan asosiy instrumentlar

№	Instrument nomi	Qo‘llash yo‘nalishlari
1.	**Chetlanishlar tahlili (Variance Analysis)**	Reja va haqiqiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farqlar aniqlanib, ularning sabablari tahlil qilinadi.
2.	**Rentabellik va samaradorlik ko‘rsatkichlari tizimi**	Xizmatlar bo‘yicha rentabellik, marjinal daromad, xarajatlar samaradorligi aniqlanadi.
3.	**Break-even tahlil (zararsizlik nuqtasi)**	Xizmatlar hajmi va daromadlar o‘rtasidagi bog‘liqlik asosida minimal foydasiz hajm aniqlanadi.

Boshqaruv hisobida muhim instrumentlar guruhidan biri bu strategic boshqaruv instrumentlaridir. Ushbu instrumentlar asosida korxonaning keying davrlari bo‘yicha strategic rejalar ishlab chiqiladi.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv hisobini samarali tashkil etish va amalga oshirish ko‘p jihatdan zamonaviy boshqaruv instrumentlaridan kompleks va tizimli foydalanishga bog‘liq. Ushbu instrumentlar korxona faoliyatini rejalashtirish, xarajatlarni nazorat qilish, natijalarni baholash hamda strategik va operativ boshqaruv qarorlarini asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xizmatlar sohasining o‘ziga xos xususiyatlari, jumladan, xizmatlarning nomoddiyligi, xizmat ko‘rsatish jarayonlarining murakkabligi va mijoz omilining ustuvorligi

[12] Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tizimlashtirilgan
[13] Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tizimlashtirilgan

boshqaruv hisobida qo‘llaniladigan instrumentlarning mazmunini kengaytirishni taqozo etadi.

2.4-jadval[14]

Boshqaruv hisobida strategic boshqaruv bo‘yicha qo‘llaniladigan asosiy instrumentlar

№	Instrument nomi	Qo‘llash yo‘nalishlari
1.	**Balanced Scorecard (BSC)**	Moliyaviy, mijozlar, ichki jarayonlar va rivojlanish ko‘rsatkichlarini uyg‘un baholash imkonini beradi.
2.	**KPI (Key Performance Indicators)**	Xizmat sifati, mijozlar qoniqishi, xizmat ko‘rsatish tezligi kabi asosiy ko‘rsatkichlar orqali nazorat amalga oshiriladi.
3.	**Strategik xarajatlar tahlili**	Uzoq muddatli raqobat ustunligini ta’minlashga qaratilgan xarajatlar baholanadi.

Amaliyotda boshqaruv hisobining asosiy instrumentlari, avvalo, xarajatlarni hisobga olish va nazorat qilishga qaratilgan. Xizmat ko‘rsatish korxonalarida xarajatlar ko‘pincha bo‘limlar, xizmat turlari, loyiha yoki mas’uliyat markazlari kesimida hisobga olinadi. Bu yondashuv xarajatlar uchun javobgarlikni aniq belgilash va xizmat tannarxini to‘g‘ri aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, faoliyatga asoslangan tannarx hisobi (Activity Based Costing) xizmatlar ko‘rsatish jarayonida yuzaga keladigan bilvosita xarajatlarni aniqroq taqsimlashga xizmat qilib, murakkab va ko‘p bosqichli xizmatlarda yuqori samaradorlik beradi. Shuningdek, standart xarajatlar tizimi orqali rejalashtirilgan va haqiqiy xarajatlar o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlash, chetlanishlar sabablarini tahlil qilish va ularni bartaraf etish imkoniyati yaratiladi.

Boshqaruv hisobini amalga oshirishda rejalashtirish va byudjetlashtirish instrumentlari alohida o‘rin tutadi. Xizmat ko‘rsatish korxonalarida daromadlar, xarajatlar, pul oqimlari va investitsiyalar bo‘yicha byudjetlar tuzish boshqaruv qarorlarining asoslanganligini oshiradi. Moslashuvchan byudjetlash instrumentlari esa xizmatlar hajmi

[14] Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tizimlashtirilgan

va bozor sharoitlaridagi o‘zgarishlarga mos ravishda reja ko‘rsatkichlarini qayta ko‘rib chiqish imkonini beradi. Biznes-rejalashtirish instrumentlari xizmatlar portfelini shakllantirish, narx siyosatini belgilash va bozor strategiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, boshqaruv hisobini strategik boshqaruv bilan uzviy bog‘laydi.

Shakllantirilgan boshqaruv hisobi axborotlari keyingi bosqichda tahlil va nazorat instrumentlari orqali chuqurlashtiriladi. Reja va haqiqiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi chetlanishlarni tahlil qilish, rentabellik va samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash, shuningdek, zararsizlik nuqtasini hisoblash xizmat ko‘rsatish korxonalarida iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu instrumentlar yordamida xizmatlar hajmi, xarajatlar darajasi va moliyaviy natijalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniqlanib, boshqaruv qarorlarining iqtisodiy oqibatlari baholanadi.

Zamonaviy sharoitda boshqaruv hisobining instrumentlari strategik boshqaruv elementlari bilan boyitilmoqda. Balanced Scorecard va KPI tizimlari moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda xizmat sifati, mijozlar qoniqishi, ichki jarayonlar samaradorligi va xodimlar rivojlanishini baholash imkonini beradi. Bu esa boshqaruv hisobini faqat qisqa muddatli moliyaviy natijalarga emas, balki uzoq muddatli barqaror rivojlanishga yo‘naltiradi.

Raqamli texnologiyalar va axborot tizimlari boshqaruv hisobini amalga oshirishda tobora muhim instrumentga aylanib bormoqda. ERP, CRM va sohaviy axborot tizimlari orqali boshqaruv hisobi, moliyaviy hisob va operatsion jarayonlar integratsiyalashadi, natijada real vaqt rejimida axborot olish va tezkor tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi. Bu jarayon boshqaruv qarorlarining aniqligi va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Umuman olganda, xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv hisobini amalga oshirishda qo‘llanilayotgan instrumentlar xarajatlar, daromadlar va natijalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi. Ushbu instrumentlarning

kompleks va uyg‘un qo‘llanilishi xizmat ko‘rsatish korxonalarining raqobatbardoshligini ta’minlash hamda ularning barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

2.2. Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda tannarx hisobining amaliy jihatlari

Korxonalarda tannarxni hisoblash usullari ishlab chiqarish (yoki xizmat ko‘rsatish) jarayonining texnologik xususiyatlari, mahsulot (xizmat) turi, xarajatlar tarkibi va boshqaruv ehtiyojlariga bog‘liq holda tanlanadi. Tannarxni to‘g‘ri hisoblash mahsulot narxini belgilash, foydani aniqlash, xarajatlarni nazorat qilish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliyotda tannarxni hisoblashning bir qator asosiy usullari mavjud bo‘lib, ularning har biri muayyan sharoitlarda qo‘llaniladi.

Buyurtmali (buyurtma bo‘yicha) tannarx hisoblash usuli

Buyurtmali tannarx hisoblash usuli individual buyurtmalar asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlar yoki bajariladigan ishlar uchun qo‘llaniladi. Ushbu usulda xarajatlar har bir buyurtma, loyiha yoki obyekt kesimida alohida hisobga olinadi. Buyurtmali usul, ayniqsa, qurilish, ta’mirlash, loyiha-izlanish ishlari, maxsus xizmatlar ko‘rsatishda keng tarqalgan.

Bu usulning afzalligi shundaki, har bir buyurtma bo‘yicha tannarxni aniq aniqlash va uning rentabelligini baholash mumkin. Kamchiligi esa hisobning murakkabligi va xarajatlarni taqsimlash jarayonining mehnat talab etishidadir.

Jarayonli (bosqichli) tannarx hisoblash usuli

Jarayonli tannarx hisoblash usuli bir xil turdagi mahsulotlar ommaviy ishlab chiqariladigan yoki xizmatlar uzluksiz jarayon asosida ko‘rsatiladigan korxonalarda qo‘llaniladi. Bu usulda xarajatlar alohida buyurtmalar bo‘yicha emas, balki ishlab chiqarish jarayonlari yoki bosqichlari bo‘yicha hisobga olinadi.

Mazkur usul energetika, transport, aloqa, umumiy ovqatlanish va ayrim xizmat ko‘rsatish sohalarida keng qo‘llaniladi. Jarayonli usul

hisobni soddalashtiradi, biroq alohida mahsulot yoki xizmat bo‘yicha tannarxni aniqlashda aniqlik darajasi nisbatan past bo‘lishi mumkin.

Normativ tannarx hisoblash usuli

Normativ tannarx hisoblash usuli oldindan belgilangan me’yorlar (normativlar) asosida tannarxni hisoblashga asoslanadi. Ushbu usulda materiallar, mehnat va boshqa resurslar bo‘yicha me’yoriy xarajatlar belgilanadi hamda haqiqiy xarajatlar bilan taqqoslanadi.

Normativ usul tannarxni operativ nazorat qilish, chetlanishlarni aniqlash va ularning sabablarini tahlil qilish imkonini beradi. Shu sababli bu usul sanoat korxonalarida, shuningdek, yirik xizmat ko‘rsatish va qurilish tashkilotlarida samarali hisoblanadi.

Faoliyatga asoslangan tannarx hisoblash usuli (ABC – Activity Based Costing)

Faoliyatga asoslangan tannarx hisoblash usuli xarajatlarni mahsulot yoki xizmatlarga bevosita emas, balki ularni vujudga keltiruvchi faoliyat turlari orqali taqsimlashga asoslanadi. Bu usul, ayniqsa, bilvosita xarajatlar ulushi yuqori bo‘lgan korxonalarda samarali hisoblanadi.

ABC usuli xizmatlar sohasida, masalan, bank, sug‘urta, logistika, IT va konsalting xizmatlarida keng qo‘llanilib, xizmat tannarxini aniqroq aniqlash va narx siyosatini asoslash imkonini beradi.

To‘liq tannarx hisoblash usuli (Absorption Costing)

To‘liq tannarx hisoblash usulida mahsulot yoki xizmat tannarxiga ishlab chiqarish bilan bog‘liq barcha xarajatlar — to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita, doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlar kiritiladi. Ushbu usul moliyaviy hisobotlarni tuzishda keng qo‘llaniladi.

To‘liq tannarx usuli korxonaning umumiy xarajatlarini qoplash darajasini aniqlashga yordam beradi, biroq qisqa muddatli boshqaruv qarorlarini qabul qilishda har doim ham yetarli axborot bermaydi.

O‘zgaruvchan tannarx hisoblash usuli (Direct Costing)

O‘zgaruvchan tannarx hisoblash usulida mahsulot tannarxiga faqat o‘zgaruvchan xarajatlar kiritiladi, doimiy xarajatlar esa davr xarajatlari sifatida hisobdan chiqariladi. Ushbu usul marjinal daromadni aniqlash va zararsizlik nuqtasini hisoblashda muhim ahamiyatga ega.

Direct costing usuli boshqaruv qarorlarini qabul qilish, narxlarni belgilash va mahsulot assortimentini optimallashtirishda keng qo‘llaniladi.

Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda tannarx hisobi boshqaruv hisobining eng muhim va murakkab yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Qurilish faoliyati uzoq muddatli, kapital sig‘imi yuqori, ko‘p bosqichli va smeta-intizomga kuchli bog‘liq bo‘lgani sababli tannarxni aniqlash va hisobga olish jarayoni o‘ziga xos amaliy xususiyatlarga ega. Tannarx hisobining to‘g‘ri tashkil etilishi qurilish korxonalarining moliyaviy barqarorligi, rentabelligi va raqobatbardoshligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Amaliyotda qurilish xizmatlari tannarxi qurilish obyektini barpo etish jarayonida sarflanadigan barcha resurslarning puldagi ifodasi sifatida shakllanadi. Ushbu resurslarga materiallar, mehnat resurslari, mashina va mexanizmlar, transport xizmatlari, energiya resurslari hamda umumxo‘jalik va boshqaruv xarajatlari kiradi. Qurilish xizmatlarining o‘ziga xos jihati shundaki, xarajatlar ko‘pincha aniq bir mahsulotga emas, balki loyiha, obyekt yoki ish bosqichlari kesimida shakllanadi. Shu bois tannarx hisobida loyiha va obyektlar bo‘yicha alohida hisob yuritish muhim ahamiyatga ega.

Qurilish korxonalarida tannarx hisobining amaliy jihatlaridan biri xarajatlarni to‘g‘ri guruhlash va klassifikatsiya qilish bilan bog‘liq. Amaliyotda xarajatlar odatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita, doimiy va o‘zgaruvchan, shuningdek ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlariga ajratiladi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar bevosita qurilish obyektiga taalluqli bo‘lib, materiallar va ishchi kuchi xarajatlarini o‘z ichiga oladi. Bilvosita xarajatlar esa bir vaqtning o‘zida bir nechta obyektlarga xizmat qiladigan xarajatlar bo‘lib, ular smeta va tanlangan taqsimlash bazalari asosida obyektlar o‘rtasida taqsimlanadi.

Tannarx hisobining amaliy jihatlarida smeta tannarxi va haqiqiy tannarx o‘rtasidagi farqlarni aniqlash alohida ahamiyatga ega. Smeta tannarxi qurilish boshlanishidan oldin rejalashtirilgan xarajatlarni ifodalasa, haqiqiy tannarx amalda sarflangan resurslar asosida shakllanadi. Amaliyotda narxlarning o‘zgarishi, inflyatsiya, loyiha

hajmining kengayishi yoki texnologik o‘zgarishlar tufayli smeta va haqiqiy tannarx o‘rtasida sezilarli tafovutlar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu tafovutlarni aniqlash va tahlil qilish tannarxni nazorat qilish hamda kelgusida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun muhim hisoblanadi.

Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda tannarx hisobining yana bir muhim amaliy jihati - bu boshqaruv hisobi tizimi bilan uzviy bog‘liqligidir. Boshqaruv hisobi orqali tannarx elementlari bo‘yicha batafsil axborot shakllantiriladi, xarajatlarning me’yorlardan chetlanishi aniqlanadi va ularning sabablariga baho beriladi. Bu esa xarajatlarni optimallashtirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va rentabellikni ta’minlash imkonini beradi.

So‘nggi yillarda qurilish xizmatlarida tannarx hisobining amaliyoti raqamli texnologiyalar bilan boyitilmoqda. ERP tizimlari, BIM texnologiyalari va loyiha boshqaruvi dasturlari orqali xarajatlarni real vaqt rejimida kuzatish, smeta va haqiqiy tannarxni taqqoslash hamda avtomatlashtirilgan tahlilni amalga oshirish imkoniyati yaratilmoqda. Bu esa tannarx hisobining aniqligi va ishonchliligini oshirib, boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilaydi.

Amaliyotda uchraydigan asosiy muammolardan biri tannarx hisobining fragmentarligi, ya’ni xarajatlar to‘liq va tizimli ravishda hisobga olinmasligidir. Shuningdek, normativ-me’yoriy bazaning yetarlicha moslashmaganligi, malakali kadrlar yetishmasligi va axborot tizimlarining past darajada joriy etilishi tannarx hisobining samaradorligini pasaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun tannarx hisobini boshqaruv hisobi va boshqaruv tahlili bilan integratsiyalashgan holda rivojlantirish zarur.

Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda tannarxni hisoblash jarayoni boshqa tarmoqlarga nisbatan murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, bu holat qurilish ishlarining uzoq muddatli xarakterga egaligi, obyektlar bo‘yicha individual yondashuv talab etilishi hamda xarajatlarning smeta asosida rejalashtirilishi bilan izohlanadi. Shu sababli qurilish korxonalarida tannarxni hisoblashda umumiy usullar bilan bir qatorda, sohaga xos maxsus yondashuvlar ham qo‘llaniladi.

Qurilish xizmatlarida tannarxni hisoblashda eng keng tarqalgan usullardan biri buyurtmali (buyurtma bo‘yicha) tannarx hisoblash usuli hisoblanadi. Ushbu usulda xarajatlar har bir qurilish obyektiga, loyiha yoki shartnoma kesimida alohida hisobga olinadi. Qurilish ishlari odatda individual buyurtmalar asosida bajarilganligi sababli mazkur usul amaliyotda eng mos va samarali hisoblanadi. Buyurtmali usul qurilish obyektining haqiqiy tannarxini aniqlash, har bir loyiha bo‘yicha foyda va rentabellikni baholash imkonini beradi. Biroq bu usulda hisob yuritish murakkab bo‘lib, xarajatlarni to‘liq va o‘z vaqtida hujjatlashtirishni talab etadi.

Qurilish korxonalarida tannarxni hisoblashda normativ tannarx hisoblash usuli ham muhim o‘rin tutadi. Ushbu usul qurilish materiallari, mehnat resurslari va mashina-mexanizmlardan foydalanish bo‘yicha belgilangan me’yorlarga asoslanadi. Normativ tannarx hisoblash usuli smeta intizomini mustahkamlash, xarajatlarning rejalashtirilgan me’yorlardan chetlanishini aniqlash va ularning sabablarini tahlil qilish imkonini beradi. Qurilish sohasida bu usul ayniqsa muhim, chunki resurslar narxining o‘zgaruvchanligi va inflyatsion omillar tannarxga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Amaliyotda qurilish xizmatlari tannarxini aniqlashda to‘liq tannarx hisoblash usuli (absorption costing) ham qo‘llaniladi. Ushbu usulda qurilish obyektining tannarxiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita xarajatlarning barchasi kiritiladi. Bu yondashuv moliyaviy hisobotlarni tuzishda, shuningdek, qurilish loyihalarining umumiy moliyaviy natijasini baholashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ushbu usul qisqa muddatli boshqaruv qarorlarini qabul qilishda yetarli darajada moslashuvchan emasligi bilan ajralib turadi.

Qurilish korxonalarida boshqaruv qarorlarini qabul qilishda o‘zgaruvchan tannarx hisoblash usuli (direct costing) ham qo‘llaniladi. Bu usulda tannarx tarkibiga faqat o‘zgaruvchan xarajatlar kiritilib, doimiy xarajatlar davr xarajatlari sifatida alohida hisobga olinadi. Ushbu yondashuv qurilish xizmatlari hajmini rejalashtirish, zararsizlik nuqtasini aniqlash va qisqa muddatli iqtisodiy qarorlarni asoslashda samarali hisoblanadi. Biroq, qurilish sohasida doimiy xarajatlar ulushi

yuqori bo‘lgani sababli direct costing usuli ko‘pincha to‘liq tannarx usuli bilan birgalikda qo‘llaniladi.

So‘nggi yillarda qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda faoliyatga asoslangan tannarx hisoblash usuli (ABC - Activity Based Costing)dan foydalanish ham kengayib bormoqda. Ushbu usul bilvosita xarajatlarni ularni vujudga keltiruvchi faoliyat turlari orqali obyektlar o‘rtasida taqsimlashga asoslanadi. Qurilish loyihalarida boshqaruv, nazorat, loyiha boshqaruvi va texnik xizmatlar kabi bilvosita xarajatlar ulushi katta bo‘lgani sababli ABC usuli tannarxni yanada aniqroq aniqlash imkonini beradi.

Qurilish xizmatlarida tannarxni hisoblashning alohida xususiyatlaridan biri xarajatlarning bosqichma-bosqich shakllanishidir. Qurilish ishlari odatda bir necha bosqichda amalga oshirilgani sababli tannarx ham ish bosqichlari, kalendar reja va bajarilgan ishlar hajmi asosida aniqlanadi. Shuningdek, qurilish obyektlari hududiy joylashuvi, iqlim sharoiti va texnologik murakkabligi tannarxga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Yana bir muhim xususiyat shundaki, qurilish xizmatlarida tannarx hisobi smeta hujjatlari bilan chambarchas bog‘langan. Smeta tannarxi rejalashtirilgan xarajatlarni ifodalasa, haqiqiy tannarx bajarilgan ishlar bo‘yicha amalda sarflangan resurslar asosida aniqlanadi. Ushbu ikki ko‘rsatkich o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilish tannarxni boshqarish va samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda tannarxni hisoblash usullari va ularning alohida xususiyatlari qurilish faoliyatining murakkabligi va o‘ziga xosligi bilan belgilanadi. Buyurtmali, normativ, to‘liq, o‘zgaruvchan va faoliyatga asoslangan tannarx hisoblash usullarining kompleks qo‘llanilishi qurilish korxonalarida tannarxni aniq hisoblash, xarajatlarni nazorat qilish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

2.3. Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda daromadlar hamda xarajatlar mutanosibligiga qaratilgan boshqaruv hisobining metodologik jihatlari

Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda daromadlar tuzilmasi ularning faoliyat yo‘nalishi, shartnomaviy munosabatlari va bajariladigan ishlarning xususiyatlariga bog‘liq holda shakllanadi. Qurilish faoliyati, odatda, uzoq muddatli loyihalar, bosqichma-bosqich bajariladigan ishlar va yirik moliyaviy majburiyatlar bilan tavsiflanganligi sababli daromadlarni aniqlash va hisobga olish jarayoni ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Daromad turlarini to‘g‘ri aniqlash va tasniflash qurilish korxonalarining moliyaviy natijalarini baholash, rentabellikni aniqlash hamda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda asosiy daromad turi qurilish-pudrat ishlari bo‘yicha daromadlar hisoblanadi. Ushbu daromadlar buyurtmachi bilan tuzilgan shartnomalar asosida bajarilgan qurilish-montaj ishlari, ta’mirlash, rekonstruksiya va modernizatsiya ishlari uchun olinadi. Amaliyotda mazkur daromadlar qurilish ishlarining bosqichma-bosqich bajarilishi, bajarilgan ishlar dalolatnomalari va smeta hujjatlari asosida tan olinadi.

Qurilish korxonalarida muhim daromad manbalaridan yana biri loyiha-qidiruv va muhandislik xizmatlari bo‘yicha daromadlardir. Bunga loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, texnik-iqtisodiy asoslash, muhandislik izlanishlari va texnik nazorat xizmatlari kiradi. Ushbu daromadlar ko‘pincha asosiy qurilish ishlariga qo‘shimcha tarzda yoki mustaqil xizmat sifatida shakllanadi.

Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda ijara xizmatlaridan olinadigan daromadlar ham muhim ahamiyatga ega. Bunga qurilish texnikasi, mexanizmlar, uskunalar va maxsus transport vositalarini ijaraga berishdan olinadigan daromadlar kiradi. Ushbu daromad turi ayniqsa yirik qurilish korxonalarida qo‘shimcha daromad manbai sifatida xizmat qiladi.

Qurilish korxonalarida materiallar va qurilish resurslarini realizatsiya qilishdan olingan daromadlar ham shakllanishi mumkin. Bu

daromadlar ortiqcha yoki foydalanilmagan qurilish materiallarini sotish, shuningdek, buyurtmachilarga qo‘shimcha materiallar yetkazib berish orqali olinadi. Ushbu daromadlar odatda asosiy faoliyatdan tashqari daromadlar sifatida hisobga olinadi.

Amaliyotda qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda subpudrat xizmatlaridan olingan daromadlar ham mavjud bo‘lib, bunda korxona boshqa tashkilotlar tomonidan bajarilgan ishlarni muvofiqlashtirish yoki boshqarish orqali daromad oladi. Shuningdek, ayrim hollarda korxona subpudratchi sifatida faoliyat yuritib, yirik loyihalarda ishtirok etadi va shu asosda daromad shakllantiradi.

Qurilish korxonalarida qo‘shimcha va yordamchi xizmatlardan olinadigan daromadlar ham uchraydi. Bunga qurilish obyektlarida texnik xizmat ko‘rsatish, kafolat muddati davomida xizmatlar ko‘rsatish, konsalting va maslahat xizmatlari kiradi. Ushbu daromadlar ko‘pincha asosiy qurilish ishlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, korxonaning umumiy daromad tuzilmasini diversifikatsiya qiladi.

Shuningdek, qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda moliyaviy daromadlar ham shakllanishi mumkin. Bunga bank omonatlari bo‘yicha foizlar, valyuta kursi farqlaridan olingan daromadlar va boshqa moliyaviy operatsiyalar natijasida yuzaga keladigan tushumlar kiradi. Ushbu daromadlar odatda asosiy faoliyatdan tashqari daromadlar sifatida hisobga olinadi.

Umuman olganda, qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda daromad turlari asosiy qurilish-pudrat ishlari bilan cheklanib qolmay, loyiha-qidiruv, ijara, subpudrat, qo‘shimcha xizmatlar va moliyaviy operatsiyalar orqali shakllanadi. Daromadlarning to‘g‘ri tasniflanishi va boshqaruv hisobida aniq aks ettirilishi qurilish korxonalarining moliyaviy holatini baholash, daromad va xarajatlar mutanosibligini ta’minlash hamda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur hisoblanadi.

Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda xarajatlar tuzilmasi qurilish ishlarining murakkabligi, uzoq muddatli loyihalar, ko‘p bosqichli jarayonlar va smeta-intizom bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi. Xarajatlarni to‘g‘ri tasniflash va hisobga olish qurilish

korxonalarining tannarxini aniqlash, daromad va xarajatlar mutanosibligini ta’minlash hamda moliyaviy natijalarni baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda xarajatlar, avvalo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar va bilvosita xarajatlarga ajratiladi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar bevosita qurilish obyektiga yoki loyiha bajarilishiga taalluqli bo‘lib, ularni aniq bir obyekt yoki shartnoma bo‘yicha hisobga olish mumkin. Ushbu xarajatlarga qurilish materiallari, butlovchi qismlar, ishchi kuchi mehnat haqi, ijtimoiy ajratmalar hamda qurilish jarayonida bevosita foydalaniladigan mashina va mexanizmlar bilan bog‘liq xarajatlar kiradi.

Bilvosita xarajatlar esa bir vaqtning o‘zida bir nechta qurilish obyektlariga xizmat qiladigan xarajatlar bo‘lib, ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri aniq bir loyiha bilan bog‘lab bo‘lmaydi. Bunday xarajatlarga boshqaruv va umumxo‘jalik xarajatlari, qurilish maydonini tashkil etish, texnik nazorat, loyiha boshqaruvi, muhandislik xizmatlari hamda yordamchi bo‘limlar faoliyati bilan bog‘liq xarajatlar kiradi. Bilvosita xarajatlar odatda tanlangan taqsimlash bazalari asosida obyektlar o‘rtasida taqsimlanadi.

Qurilish korxonalarida xarajatlarni iqtisodiy elementlar bo‘yicha tasniflash ham keng qo‘llaniladi. Ushbu tasnifga ko‘ra xarajatlar material xarajatlari, mehnat xarajatlari, ijtimoiy ajratmalar, amortizatsiya va boshqa xarajatlarga bo‘linadi. Material xarajatlari qurilish materiallari, yoqilg‘i-energetika resurslari va butlovchi qismlarni xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lsa, mehnat xarajatlari ishchilar va muhandis-texnik xodimlarning ish haqi hamda unga bog‘liq to‘lovlarni o‘z ichiga oladi.

Amaliyotda qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda xarajatlar doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarga ham ajratiladi. O‘zgaruvchan xarajatlar bajarilgan qurilish ishlari hajmiga bevosita bog‘liq bo‘lib, materiallar va ishchi kuchi xarajatlari bunga misol bo‘la oladi. Doimiy xarajatlar esa qurilish hajmiga nisbatan qisqa muddatda o‘zgarmas bo‘lib, boshqaruv apparati xarajatlari, ijara to‘lovlari va amortizatsiya xarajatlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu tasnif zararsizlik

nuqtasini aniqlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlari va noishlab chiqarish xarajatlariga ham bo‘linadi. Ishlab chiqarish xarajatlari bevosita qurilish ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lsa, noishlab chiqarish xarajatlari marketing, sotish, ma’muriy va boshqa umumxo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq xarajatlarni o‘z ichiga oladi.

Shuningdek, qurilish korxonalarida smeta xarajatlari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular loyiha boshlanishidan oldin rejalashtirilgan xarajatlarni ifodalaydi. Haqiqiy xarajatlar esa amalda bajarilgan ishlar asosida shakllanadi. Smeta va haqiqiy xarajatlar o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilish xarajatlarni nazorat qilish va samaradorlikni oshirishda muhim metodologik vosita hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqsak, qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda xarajat turlarini to‘g‘ri tasniflash va boshqaruv hisobida aniq aks ettirish tannarxni aniqlash, daromad va xarajatlar mutanosibligini ta’minlash hamda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning muhim sharti hisoblanadi. Xarajatlarning iqtisodiy mazmuni va ularning qurilish faoliyatidagi o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borilgan boshqaruv hisobi qurilish korxonalarining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash daromadlar va xarajatlar o‘rtasidagi mutanosiblikni to‘g‘ri shakllantirish va boshqarishga bevosita bog‘liqdir. Qurilish faoliyatining uzoq muddatli, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan va kapital sig‘imi yuqori bo‘lgan xususiyati daromadlar va xarajatlarni hisobga olishda an’anaviy yondashuvlardan ko‘ra chuqurroq metodologik asoslarni talab etadi. Shu sababli qurilish korxonalarida daromadlar va xarajatlar mutanosibligini ta’minlashga qaratilgan boshqaruv hisobi alohida metodologik yondashuv asosida tashkil etilishi lozim.

Boshqaruv hisobining metodologik asoslari, avvalo, daromad va xarajatlarni loyiha, obyekt, shartnoma va mas’uliyat markazlari

kesimida hisobga olishga tayangan holda shakllantiriladi. Qurilish xizmatlarida daromadlar ko‘pincha bajarilgan ishlar hajmiga, qurilish bosqichlariga yoki shartnoma shartlariga muvofiq ravishda tan olinadi. Shu bilan birga, xarajatlar ham aynan shu davr va bosqichlarga mos ravishda taqsimlanishi zarur. Mazkur metodologik yondashuv daromad va xarajatlarning bir davrga to‘g‘ri kelishini, ya’ni ularning iqtisodiy mazmun jihatidan mutanosibligini ta’minlaydi.

Qurilish korxonalarida daromadlar va xarajatlar mutanosibligini ta’minlashda moslashtirish (matching) tamoyili boshqaruv hisobining asosiy metodologik negizi hisoblanadi. Ushbu tamoyilga ko‘ra, muayyan davrda olingan daromadlar aynan shu daromadlarni shakllantirish uchun qilingan xarajatlar bilan taqqoslanishi lozim. Amaliyotda bu tamoyil bajarilgan ishlar hajmini aniqlash, ularni hujjatlashtirish va smeta asosida xarajatlarni bosqichlar bo‘yicha taqsimlash orqali amalga oshiriladi.

Daromad va xarajatlar mutanosibligini boshqarishda byudjetlashtirish va rejalashtirish metodologiyasi muhim o‘rin tutadi. Qurilish korxonalarida daromadlar byudjeti, xarajatlar byudjeti va pul oqimlari byudjetining o‘zaro uyg‘unlashtirilishi loyiha davomida moliyaviy nomutanosibliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Moslashuvchan byudjetlash usullaridan foydalanish qurilish ishlarining hajmi yoki muddati o‘zgarishi sharoitida daromad va xarajatlar nisbatini qayta baholash imkonini beradi.

Boshqaruv hisobining metodologik jihatlaridan yana biri xarajatlarni to‘g‘ri klassifikatsiya qilish va taqsimlash bilan bog‘liqdir. Qurilish xizmatlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita xarajatlarning aniq ajratilishi, bilvosita xarajatlarni esa asoslangan taqsimlash bazalari orqali obyektlar o‘rtasida taqsimlash daromadlar bilan xarajatlar o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlaydi. Ayniqsa, faoliyatga asoslangan tannarx hisobi (ABC) metodologiyasi bilvosita xarajatlarning daromad shakllanishiga ta’sirini aniqroq ochib berish imkonini yaratadi.

Daromad va xarajatlar mutanosibligini baholashda boshqaruv tahlili metodologiyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda loyiha bo‘yicha rentabellik, marjinal daromad, smeta va haqiqiy ko‘rsatkichlar

o‘rtasidagi tafovutlar, shuningdek, zararsizlik nuqtasi aniqlanadi. Ushbu tahliliy ko‘rsatkichlar daromadlarning xarajatlarni qoplash darajasi va foyda shakllanish mexanizmini baholash imkonini beradi.

Qurilish xizmatlarida daromad va xarajatlar mutanosibligini ta’minlashda raqamli texnologiyalarga asoslangan boshqaruv hisobi metodologiyasi tobora keng qo‘llanilmoqda. ERP va BIM tizimlari orqali bajarilgan ishlar hajmi, sarflangan resurslar va moliyaviy natijalar real vaqt rejimida kuzatilib, daromad va xarajatlar o‘rtasidagi nisbat tezkor baholanadi. Bu esa moliyaviy risklarni kamaytirish va boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda daromadlar hamda xarajatlar mutanosibligiga qaratilgan boshqaruv hisobining metodologik jihatlari moslashtirish tamoyiliga asoslangan daromad va xarajatlarni tan olish, byudjetlashtirish, xarajatlarni to‘g‘ri taqsimlash va tahliliy instrumentlardan kompleks foydalanishni nazarda tutadi. Ushbu metodologik yondashuv qurilish korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, rentabellikni oshirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

II bob bo‘yicha xulosalar

1. Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual yo‘nalishlari qurilish faoliyatining uzoq muddatli, loyiha asosida va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Shu sababli boshqaruv hisobi loyiha, obyekt va shartnoma kesimida yuritilishi zarur.

2. Qurilish korxonalarida boshqaruv hisobining asosiy konseptual yo‘nalishlaridan biri xarajatlar va daromadlar o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash bo‘lib, bu moslashtirish (matching) tamoyiliga asoslangan holda amalga oshirilishi lozim.

3. Qurilish xizmatlarida boshqaruv hisobi tizimi tannarxni aniqlash, smeta va haqiqiy xarajatlar o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlash hamda ularni tahlil qilish orqali resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

4. Qurilish korxonalarida boshqaruv hisobining konseptual rivojlanishi xarajatlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita xarajatlarga ajratish, shuningdek, bilvosita xarajatlarni asoslangan taqsimlash bazalari orqali obyektlar o‘rtasida taqsimlash zaruratini taqozo etadi.

5. Boshqaruv hisobini amalga oshirishda buyurtmali, normativ va faoliyatga asoslangan tannarx hisoblash usullarining integratsiyalashgan holda qo‘llanilishi qurilish xizmatlari tannarxini aniq hisoblash va boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

6. Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda boshqaruv hisobining muhim konseptual yo‘nalishlaridan biri byudjetlashtirish va moliyaviy rejalashtirish tizimini joriy etish bo‘lib, bu loyiha davomida daromadlar va xarajatlar oqimini muvozanatlash imkonini beradi.

7. Boshqaruv hisobini boshqaruv tahlili bilan uzviy bog‘lash orqali qurilish korxonalarida rentabellik, marjinal daromad va zararsizlik nuqtasi kabi ko‘rsatkichlar asosida qarorlar qabul qilish imkoniyati kengayadi.

8. Qurilish xizmatlarida boshqaruv hisobining zamonaviy konseptual yo‘nalishlaridan biri raqamli texnologiyalar va axborot tizimlariga asoslangan boshqaruv hisobini joriy etish bo‘lib, ERP va BIM tizimlari orqali real vaqt rejimida tahlil va nazoratni amalga oshirish imkonini beradi.

9. Qurilish korxonalarida boshqaruv hisobining konseptual rivojlanishi kadrlar malakasini oshirish, boshqaruv hisobi bo‘yicha maxsus bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash zaruratini yuzaga keltiradi.

10. Umuman olganda, qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda boshqaruv hisobini amalga oshirishning konseptual yo‘nalishlari xarajatlar, daromadlar va natijalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ularning kompleks va tizimli joriy etilishi qurilish korxonalarining moliyaviy barqarorligi, raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

III BOB. QURILISH XIZMATLARINI KO‘RSATUVCHI KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AKTIVLAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1.Qurilish xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalar samaradorlik darajasini baholashning alohida xususiyatlari va ularning nazariy asoslari.

Xizmat ko‘rsatish sohasi mamlakat iqtisodiyotida muhim tarmoq hisoblanib mamlakat yalpi ichki mahsulotida katta salmoqni tashkil qiladi. Xizmat ko‘rsatish sohasi o‘z o‘rnida juda ko‘plab tarmoqlarga bo‘linadi.

Xizmat ko‘rsatish tarmog‘i mamlakatning tabiiy resurslarini kamaytirmasdan mamlakat iqtisodiy o‘sishini ta’minlab beruvchi tarmoq hisoblanadi. Aynan shu bois rivojlangan mamlakatlarning yalpi ichki mahsulotida xizmatlar sohasning ulushi yuqori hisoblanadi.

Xalqaro darajada xizmatlarni Suzette Blakemore tomonidan moddiy hamda moliyaviy ehtiyojlarni qondiruvchi xizmatlar, dam olish va ovqatlanish ehtiyojlarini qondiruvchi xizmatlar, ijtimoiy xizmatlar hamda vositachilik xususiyatiga ega xizmatlar sifatida tasniflagan (3.1-rasm).



3.1-rasm. Xizmatlar sohasini tasniflanishi[15]

[15] Suzette Blakemore “Project management for the unoffissial project manager” Californiya-2024, 254 c.

С.А. Айдиева o‘zining “Методические основы строительстве на современном этапе хозяественние” dissertatsiya ishida xizmatlarni inson tanasiga moddiy harakatlar bilan ko‘rsatiladigan xizmatlar, tovar va boshqa moddiy obyektlarga qaratilgan moddiy harakatlar orqali ko‘rsatiladigan xizmatlar, inson ongiga qaratilgan nomoddiy harakatlar bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar hamda nomoddiy aktivlar bilan nomoddiy harakatlar orqali amalga oshiriladigan xizmatlar sifatida tasniflagan (3.1-jadval).

3.1-jadval

Xizmatlarni tasniflanishi[16]

Xizmatlar sohalari	Xizmatlar turlari
Inson tanasiga moddiy harakatlar bilan ko‘rsatiladigan xizmatlar	Sog‘liqni saqlash xizmatlari, go‘zallik saloni xizmatlari, sartaroshlik xizmatlari, massaj xizmatlari va boshqa xizmatlar
Tovar va boshqa moddiy obyektlarga qaratilgan moddiy harakatlar orqali ko‘rsatiladigan xizmatlar	Qurilish xizmatlari, savdo xizmatlari, transport xizmatlari, yuk tashish xizmatlari va boshqa xizmatlari
Inson ongiga qaratilgan nomoddiy harakatlar bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar	Ta’lim xizmatlari, aloqa xizmatlari, xayriya xizmatlari teatr tomosha xizmatlari va boshqa xizmatlar
Nomoddiy aktivlar bilan nomoddiy harakatlar orqali amalga oshiriladigan xizmatlar	Yuridik konsalting xizmatlari, sug‘urta xizmatlari, bank xizmatlari, qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdisi bilan bog‘liq xizmatlar

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan davlat xaridlari sohasida foydalaniladigan xizmatlarning yagona milliy klassifikatorida xizmatlarni quyidagi turlarga ajratgan[17].

1. Suv ta’minoti, suv ajratkich, chiqindilarni yo‘q qilish va saralash xizmatlari;
2. Inshootlar va boshqa obyektlarni qurish hamda ta’mirlash ishlari bo‘yicha amalga oshiriladigan xizmatlar;
3. Ulgurji va chakana savdo xizmatlari; avtotransport vositalari va mototsikllarni ta’mirlash xizmatlari;

[16] Айдиева С.А. Методические основы строительстве на современном этапе хозяественние:08.00.05: махачкала.2000 г. 41 стр.
[17] https://tasniflagich.mf.uz/

4. Ulgurji va chakana savdo xizmatlari va avtotransport vositalari va mototsikllarni ta’mirlash xizmatlari;

5. Avtotransoprt vositalari va mototsikllarning ulgurji savdosidan tashqari ulgurji savdo bo‘yicha xizmatlar;

6. Avtotransoprt vositalari va mototsikllarning chakana savdosidan tashqari chakana savdo bo‘yicha xizmatlar;

7. Transport va ombor xo‘jaligi xizmatlari;

8. Mehmonxona xo‘jaligi va umumiy ovqatlanish xizmatlari;

9. Axborot va aloqa sohasidagi xizmatlar;

10. Moliyaviy va sug‘urta xizmatlari;

11. Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar;

12. Ilmiy, muhandislik-texnik va kasbiy faoliyat bilan bog‘liq xizmatlar;

13. Ma’muriy va yordamchi xizmatlar;

14. Ijara va lizing bo‘yicha xizmatlar;

15. Davlat boshqaruvi va harbiy xavfsizlikni ta’minlash sohasidagi xizmatlar; majburiy ijtimoiy ta’minot xizmatlari;

16. Ta’lim sohasidagi xizmatlar;

17. Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar va ijtimoiy xizmatlar;

18. San’at, ko‘ngilochar, dam olish va sport sohasidagi xizmatlar;

19. Jamoat tashkilotlari xizmatlari; aholi uchun boshqa xizmatlar;

20. Uy xo‘jaligida o‘z ehtiyoji uchun ishlab chiqariladigan turli tovarlar va xizmatlar, shu jumladan uy xodimlari uchun ish beruvchining xizmatlari.

Shu bilan birga inshootlar va boshqa obyektlarni qurish hamda ta’mirlash ishlari bo‘yicha amalga oshiriladigan xizmatlarni quyidagi turlarga ajratgan:

- 41 - Binolar va binoni qurish bo‘yicha xizmatlar;
- 42 - Fuqarolik qurilishi sohasidagi inshootlar va qurilish xizmatlar;
- 43 - Maxsus qurilish xizmatlar.

Ushbu 3 guruh qurilish xizmatlari ham alohida qurilish xizmatlariga tasniflangan hamda klassifikatsiyasi ishlab chiqilgan (3.2-jadval).

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 23-sentabr 2024-yilda qurilish sohasida dolzarb masalalarga bag‘ishlangan

yig‘ilishida “Qurilish iqtisodiyotning barcha tarmoqlari rivojlanishiga katta turtki beradigan xizmat sohasidir. Har bir loyiha qurilish materiallari va jihozlarga, ishchi va mutaxassislarga talabni oshiradi. Yangi majmualar atrofida yangi ish o‘rinlari, infratuzilma va xizmatlar paydo bo‘ladi” deb ta’kidlagan edi.

3.2-jadval

Inshootlar va boshqa obyektlarni qurish hamda ta’mirlash ishlari bo‘yicha amalga oshiriladigan xizmatlar klassifikatori

№	Klassifikatsiya kodi	Nomi
1.	43.91.19.110-00001	Bino va inshootlarning tomlarini yopishning har qanday turlarini o‘rnatish bo‘yicha qurilish xizmatlari
2.	43.91.19.120-00001	Suv oqadigan quvurlarni montaj qilish bo‘yicha qurilish xizmatlari
3.	43.91.19.120-00002	Tomlarni yopish ishlarini montaj qilish bo‘yicha qurilish xizmatlari
4.	42.21.22.110-00001	Suvning yoki oqova suvlarning joyidagi quvurlarini yotqizish bo‘yicha qurilish xizmatlari
5.	41.20.40.900-00007	Binolarni rekonstruksiya qilish bo‘yicha qurilish xizmatlari
6.	42.22.22.120-00001	Elektr podstansiya qurilish xizmatlari

Qurilish biror inshootni tayyorlash jarayoni, shuningdek shunday jarayon ketayotgan joydir. Qurilish murakkab jarayon bo‘lib, unda bir necha vazifalar amalga oshiriladi. Bu soha moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri, turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish, ishni yuritish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot), keng ma’noda yaratuvchilik jarayoni. Tugallangan va foydalanishga topshirish uchun tayyorlangan ishlab chiqarish korxonalari, turar joylar, jamoat binolari, inshootlari va boshqa

obyektlar qurilish mahsulotlari hisoblanadi. Qurilishda ishlab chiqarish sikli nisbatan uzun bo‘lib (bir necha oydan bir necha yilgacha), ishlab chiqarish jarayoni turli ob havo sharoitida ochiq usulda olib boriladi. Pudrat va xo‘jalik usulidagi qurilishni va montaj ishlarini, shuningdek, bino, inshootlarni kapital ta’mirlash ishlarini qurilish tashkilotlari va maxsus tashkilotlar, loyihalash, loyiha-konstruktorlik va qidiruv tashkilotlari, foydalanishga topshirish va razvedkaparmalash tashkilotlari amalga oshiradi. Tiklanadigan obyekt xususiyatlariga ko‘ra sanoat, transport, qishloq, suv xo‘jaligi, uy-joy, kommunal, ijtimoiy-madaniy va boshqa qurilishlarga bo‘linadi.

Qurilish xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlariga xizmat ko‘rsatib, asosiy fondlarni qayta takror ishlab chiqarish uchun sharoitlarni ta’minlaydi, xalq xo‘jaligining maqbul tarkibini barpo etish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni maqsadga muvofiq joylashtirish, respublikaning yangi tabiiy boyliklarini o‘zlashtirish, bo‘sh mehnat resurslarini ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etishga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikada qurilish ishlari pudrat, subpudrat va qisman xo‘jalik usullarida olib boriladi. Qurilish industriyasi negizini davlat, aksiyadorlik, shirkat, xususiy, qo‘shma va boshqa pudrat qurilish-montaj tashkilotlari, shuningdek, o‘z moddiy-texnika va ishlab chiqarish bazasiga, malakali ishchi va mutaxassis kadrlarga ega bo‘lgan korxonalar, transport va boshqa yordamchi xo‘jaliklar tashkil etadi. O‘zbekistonda qurilish-montaj kompaniyalari, korporatsiyalari, qurilish aksiyadorlik jamiyatlari va birlashmalari, quyi pudrat tashkilotlari, kichik korxonalar, qo‘shma korxonalar, loyiha va ilmiy hamda qurilish sohasiga moslashtirilgan ilmiy tadqiqot institutlari faoliyat ko‘rsatadi.

Qurilish tashkilotlari faoliyati respublikamizning amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq asosiy va asosiy bo‘lmagan faoliyat turlariga bo‘linadi. Asosiy faoliyatga buyurtmachilar uchun bajarilgan qurilish, qurilish-montaj ishlari, jihozlarni o‘rnatish, rekonstruksiya, kengaytirish, obodonlashtirish, kapital va joriy ta’mirlash ishlari, shuningdek o‘z maqsadlarida foydalanish va sotish uchun mo‘ljallangan qurilish materiallari va moslamalarini ishlab chiqish va shu kabi boshqa ishlar kiradi.

Asosiy bo‘lmagan faoliyatga qurilish tashkilotlarining moliyaviy, investitsiya va boshqa faoliyat turlari kiradi. Qurilish tashkilotlari asosiy faoliyatiga kiruvchi ishlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Qurilish ishlari deganda yangi bino va inshootlarni yaratilishi bilan bog‘liq jarayonlar majmuasi tushuniladi.

Qurilish tarmog‘i boshqa tarmoqlardan ko‘plab alohida xususiyatlari bo‘yicha farqlanadi. Uning asosiy farqlaridan biri, bu qurilish korxonalari tomonidan ko‘rsatilayotgan ish va xizmatlarning natijalarining farqlanishidir. Shunday qurilish xizmatlari mavjudki, natijada yangi moddiy ko‘rinishga ega alohida obyekt paydo bo‘ladi ammo yana shunday qurilish ishlari mavjudki, natijada ma’lum bir obyektning shakli o‘zgaradi yoki o‘sha obyekt modernizatsiya qilinadi.

Bundan tashqari qurilish faoliyatini tahlil nuqtayi nazaridan boshqa faoliyat turlaridan farqli jihatlari quyidagilardan iborat.

1. Qurilish faoliyati uzoq davriylikka ega ekanligi;
2. Bajarilgan ish bo‘yicha har bir hisobot davrida moliyaviy natijani aniqlashda muammolar vujudga kelishi;
3. Mehnat samaradorligini aniqlashni aniq tizimi mavjud emasligida (subpudratchi tashkilot xodimlari mehnat unumdorligi);
4. Qurilish korxonalarida xarajatlarni xususiyatiga ko‘ra davriy tan olish tizimi yetarlicha takomillashtirilmaganligi;
5. Qurilish korxonalarini moliyaviy holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlarini xalqaro talablarga moslashtirilmaganligi;
6. Korxona tomonidan tender asosida bajarish uchun olingan qurilish ishining daromadi aniqligi ammo unga sarflanadigan xarajatlar o‘zgaruvchanligi.

Korxonalar o‘z faoliyatini amalga oshirish jarayonida albatta moddiy, moliyaviy hamda nomoddiy aktivlardan foydalanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirining 2022-yil 1-noyabrdagi 189-son buyrug‘i asosida “Qurilishda ishlab chiqarishni tashkil qilish” shaharsozlik normalari va qoidalarida qurilish ishlarini tashkillashtirish bo‘yicha quyidagi vazifalar belgilandi:

Qurilish ishlarini tashkil qilishning moddiy-texnik ta’minoti bo‘yicha:

Birinchidan, qurilish-montaj ishlarini bajarish va obyektni qurish uchun elementlar hamda konstruksiyalarni tayyorlashga kerak bo‘ladigan qurilish materiallari va konstruksiyalariga bo‘lgan ehtiyoj loyiha hujjati bilan belgilanadi.

Ikkinchidan, qurilayotgan obyektni moddiy-texnik jihatdan ta’minlash ishlab chiqarish-texnologik ishlab chiqarish asosida amalga oshirilishi lozim. Bunda, qurilish konstruksiyalari, materiallari va muhandislik uskunalarini yetkazib berish texnologik komplektlar bilan qurilish-montaj ishlarini bajarish texnologiyasi va muddatlariga bog‘langan holda olib boriladi.

Uchinchidan, materiallar, elementlar, buyumlar, konstruksiyalar va uskunalarni tashish amaldagi davlat standartlari talablariga mos kelishi hamda ularning shikastlanish ehtimoli bartaraf etilishi lozim.

Qurilish-montaj ishlarining sifatini ta’minlash:

Birinchidan, obyektda qurilish-montaj ishlarining sifati, ishonchliligi va zilzilabardoshligini ta’minlash texnik, iqtisodiy va tashkiliy ishlarni amalga oshirish orqali bajariladi.

Ikkinchidan, qurilish-montaj ishlarining sifatini ishlab chiqarish nuqtayi nazaridan nazorat qilish ishchi hujjatlar, konstruksiyalar, buyumlar, materiallar va uskunalarni kirish nazoratidan o‘tkazishni hamda alohida qurilish jarayonlari va qurilish-montaj ishlarini qabul qilish nazoratini o‘z ichiga oladi.

Uchinchidan, noyob va murakkab obyektlarni qurishda muhimlik darajasi yuqori bo‘lgan konstruksiyalarni qabul qilish va yopiq ishlar dalolatnomalari loyihadagi alohida ko‘rsatmalar va texnologik shartlarni hisobga olgan holda tuzilishi lozim.



3.2-rasm. Qurilish korxonalarida aktivlarning tasniflanishi

To‘rtinchidan, qurilish-montaj ishlarining sifatli bajarilishi qurilish-montaj ishlari va qurilishi tugallangan obyektlar sifatining amaldagi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlariga

va ishchi chizmalarga muvofiqligini ta’minlashga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga olishi lozim..[18]

Qurilish ishlarini tashkillashtirishda moddiy-texnik bazani ta’minlash hamda qurilish jarayoniga qo‘yiladigan talablar qurilish korxonalarida aktivlar hamda ularning harakatini tartibga solishni muhimlik darajasini ochib bergan.

Qurilish korxonalarida aktivlarning tasniflanishi muddatiga ko‘ra, moddiy mavjudligiga ko‘ra, pul oqimlari xususiyatiga ko‘ra, korxona faoliyatida ishtirokiga ko‘ra, passiv daromad keltirishiga ko‘ra hamda strategik rejalar ishlab chiqilishida ahamiyatliligiga ko‘ra tasniflanadi.

Muddatiga ko‘ra aktivlar uzoq muddatli hamda qisqa muddatli aktivlarga bo‘linadi. Moddiy mavjudligiga ko‘ra aktivlar moddiy aktivlar ya’ni qo‘l bilan ushlab, ko‘z bilan ko‘rib bo‘ladigan aktivlarga hamda nomoddiy aktivlar ya’ni moddiy ko‘rinishga ega bo‘lmagan aktivlarga bo‘linadi.

Pul oqimlari xususiyatiga ko‘ra moliyaviy ya’ni qarzlarni to‘lash yoki ma’lum hisob-kitobni amalga oshirish jarayonida erkin foydalaniladigan aktivlar hamda hisob-kitobni amalga oshirish jarayonida qiyinchilik tug‘diradigan aktivlarga bo‘linadi.

Korxona faoliyatida ishtirokiga ko‘ra aktivlar faol, doimiy jarayonda foydalaniladigan hamda nofaol, ma’lum bosqichda ishlatilib qolgan bosqichlarda harakatsiz qoladigan aktivlar sifatida tasniflanadi.

Aktivlarni tasniflashdan maqsad — kompaniyaning aktivlarini ularning tabiati, foydalanish muddati, likvidligi, va boshqa xususiyatlariga ko‘ra guruhlarga ajratishdir. beradi:

Turli xil aktivlar guruhlarga bo‘lingani sababli, moliyaviy hisobotlarda ularni alohida ko‘rsatish va tahlil qilish osonlashadi. Aktivlarning qaysi turiga qancha mablag‘ sarflanganini bilish boshqaruv uchun resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi.

[1818] O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirining 2022-yil 1-noyabrdagi 189-son buyrug‘i “Qurilishda ishlab chiqarishni tashkil qilish” shaharsozlik normalari va qoidalarida qurilish ishlarini tashkillashtirish”.

O‘rganilgan qurilish faoliyatining alohida xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qurilish korxonalarida aktivlar quyidagicha tasniflandi(3.2-rasm).

Qurilish korxonalarida amalga oshiriladigan qurilish xizmatlari ham o‘ziga xos tarzda tasniflandi (3.3-rasm).



3.3-rasm. Qurilish korxonalari tomonidan bajariladigan ish(xizmatlarni) alohida xususiyatlariga ko‘ra tasniflanishi

Ushbu jihatlar inobatga olinib qurilish korxonalari tomonidan amalga oshirilayotgan ish(xizmat)larni ularning bajarilish muddati, ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish xususiyati mavjudligi, natijalarning farqlanishi, subpudratchilar xizmatidan foydalanish darajasi hamda ko‘rsatilayotgan ish(xizmat)larning tartiblashtirish yo‘nalishlarini inobatga olgan holda qurilish korxonalari tomonidan bajariladigan ish(xizmat)lar natijalarining farqli jihatlari inobatga olinib yangi moddiy ko‘rinishdagi obyekt yaratadigan hamda ta’mirlash xususiyatiga ega bo‘lgan ish(xizmat)lar kabi tasniflasak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ushbu tasnifdan kelib chiqib qurilish korxonalarida bajariladigan qurilish ishlari hisobini yuritish jarayonida 2000 – asosiy ishlab chiqarish schyoti tarkibida ikkita analitik schyotlar:

2010 – yangi obyekt yaratilishi bo‘yicha ko‘rsatiladigan ish(xizmat)lar;

2020 – ta’mirlash hamda rekonstruksiya bo‘yicha ko‘rsatiladigan ish(xizmat)lar kabi ochilishi hamda hisob alohida yuritilishi maqsadga muvofiqdir.

Natijada davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan tashkil qilingan KPI – korxonalarning muhim samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholash tizimiga kiritilgan qurilish korxonalarining samaradorlik ko‘rsatkichlariga kiritilgan “qurilish korxonalarining yangi obyektlar yaratuvchanlik koeffitsiyenti” ko‘rsatkichini aniqlash hamda statistika tomonidan qabul qilinadigan “12 korxona shakli”, 1-kb shakli hamda 4-kb (qurilish, savdo, xizmat) hisobotlarini to‘ldirish jarayonida ma’lum qulayliklar yaratadi.

Qurilish korxonalarining yangi obyektlar yaratuvchanlik koeffitsiyenti quyidagicha aniqlanadi.

$$\mathbf{YK=YQO/JBX}$$

YK – yaratuvchanlik koeffitsiyenti,

YQO – yangi qurilgan obyektlar miqdori,

JBQ – jami bajarilgan qurilish ishlari.

Qurilish korxonalarida bajariladigan qurilish ishlarining yakuniy natijasi bo‘yicha tasniflanishi bevosita mamlakatimizda bugunda

qurilish korxonalarining reyting ko‘rsatkichlarini aniqlashda ham o‘z samarasini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda qurilish korxonalari reytingi Qurilish vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi kategoriyalar bo‘yicha reyting.mc.uz. sayti orqali baholanib kelinmoqda. Bu kategoriyalar qurilish korxonalarining mamlakatimizda o‘rni, boshqa qurilish korxonalari bilan raqobatlasha olish darajasi, tenderlarda qatnashish jarayonida g‘oliblikga erishish imkoniyatlari hamda qaysi darajadagi qurilish obyektlarini qurishga da’vogarlik qilishigacha o‘z imkoniyatlarini belgilab beradi (3.4-rasm).



3.4-rasm. Qurilish korxonalarini baholash kategoriyalari

Qurilish korxonalari ushbu kategoriyalar bo‘yicha baholanishi natijasida to‘rtta guruhga ajratiladi (3.3-jadval).

Endilikda qurilish korxonalari o‘zining darajalarini o‘zgarishini ushbu kategoriyalar orqali yaratilgan sayt bo‘yicha kuzatib borishlari hamda o‘z faoliyatini yaxshilash yo‘llari bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishlari mumkin.

Yuqorida keltirilgan kategoriyalarga ahamiyat qaratiladigan bo‘lsa beshta kategoriyadan uchtasini, ya’ni moliyaviy ko‘rsatkichlar, moddiy-texnik baza hamda raqobatbardoshlik kategoriyalarini aktivlar tahlilisiz amalga oshirish mumkin emas.

Korxonalarda aktivlar bu boshqaruv tizimi, investorlar hamda butun mamlakat darajasida ham o‘ta muhimdir. Shu boisdan aktivlar tahlilini uzluksiz amalga oshirib borish muhim zaruriyatdir. Aktivlar tahliliga ko‘plab xorijiy hamda mamlakatimiz olimlari o‘z ta’riflarini ishlab chiqqan. Masalan, M.I. Bakanov aktivlar tahliliga quyidagicha ta’rif

bergan: “Aktivlarni tahlil qilish – bu korxona va tashkilotlarning aktivlarini aniqlash va tahlil qilish jarayoni. Aktivlar ko‘chmas mulk yoki asbob-uskunalar kabi moddiy intellektual mulk kabi nomoddiy bo‘lishi mumkin. Aktivlarni tahlil qilish korxonaga uning aktivlari bilan bog‘liq risklarni aniqlash va qaysi aktiv eng qimmat va saqlanishi kerakligini aniqlashga yordam beradi”. Yuqoridagi ta’rifdagidek aktivlar tahlilini faqatgina ko‘rsatkichlar yoki ko‘rsatkichlar tizimi deb qaralsa “aktivlar tahlili” terminini to‘liq qamrab ololmagan hisoblanadi. Bundan tashqari L.I. Donsova, N.A.Nikifolovalar aktivlar tahliliga “Aktivlarni tahlil qilish moliyaviy rejalashtirish va boshqarishning muhim qismi hisoblanadi[19]” deb ta’rif bergan.

3.3-jadval

Qurilish korxonalari baholanishi natijasida to‘rtta guruhga ajratilishi

Ishonchlilik toifasi	Reyting bahosi	Ishonchlilik darajasi	% dan	% gacha
A	AAA	1-yuqori daraja	85	100
	AA	2-yuqori daraja	75	85
	A	3-yuqori daraja	65	75
B	BBB	1-o‘rta daraja	55	65
	BB	2-o‘rta daraja	40	55
	B	3-o‘rta daraja	35	40
C	CCC	1- qoniqarli daraja	30	35
	CC	2- qoniqarli daraja	25	30
	C	3- qoniqarli daraja	20	25
D	DDD	1- quyi daraja	7	20
	DD	2- quyi daraja	5	7
	D	3- quyi daraja	0	5

Yuqorida berib o‘tilgan ta’riflar albatta korxonaning aktivlari tahlilini ma’lum darajada yoritib bergan. Ushbu ta’riflardan kelib chiqqan holda qurilish korxonalarida aktivlar tahliliga ta’rif ishlab chiqildi.

Qurilish korxonalari aktivlari tahlili bu qurilish korxonalarida mavjud aktivlari holati, harakati hamda samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash, korxona aktivlari bilan bog‘liq risklarni

[19] L.I.Donsova, N.I. NIkiforova., “Анализ финонсовой отчётност”, M: Дело и сервис, стр-6.

baholash, aktivlarga sarmoya kiritish hamda sotish to‘g‘risidagi boshqaruv qarorlarini qabul qilish, aktivlar samaradorligini oshirish strategiyalarini ishlab chiqishdan iborat[20].

Ushbu berib o‘tilgan ta’rif qurilish korxonalarida aktivlar tahlilining barcha jihatlarini qamrab olgan hamda qurilish korxonalarining moliyaviy holatini baholashga xizmat qiladi.

Barcha korxonalar o‘z faoliyati uning natijalari bo‘yicha ma’lum axborotlarga ega bo‘lishni, investorlar esa investitsiya kiritiladigan obyekt to‘g‘risida aniq va ishonchli axborot olishga shu bilan birga ushbu axborotlarni o‘qish, obyektni hozirgi holatini baholash, risk darajasini to‘g‘ri aniqlashga intiladi. Korxonalarda o‘z faoliyati qay darajada olib borilayotganligi, keyingi davrlarda korxonani yanada rivojlantirish, o‘zida mavjud qo‘shimcha imkoniyatlarni aniqlash hamda samarali boshqaruv qarorlarni qabul qilish uchun umumiy faoliyat davomida davomiy zarurat mavjud bo‘ladi. Ammo boshqaruv apparati oldida yig‘ilgan axborotlarni o‘qiy olish, “raqamlarni gapirtirish” kabi dolzarb muammolar vujudga keladi. Korxona faoliyat natijalarini o‘zida mujassamlashtirgan raqamlarni tahlilsiz “gapirtirish”, ularni yetarli darajada “o‘qish” mumkin emas. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki qurilish korxonalarida aktivlar tahlili korxonaning ayni paytdagi moliyaviy holatini dinamik hamda tarkibiy o‘zgarishlarni, faoliyat davomidagi omillar ta’sirini hamda mavjud foydalanilmayotgan imkoniyatlarni aniqlash dastagi hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib qurilish korxonalarida aktivlar tahlilini amalga oshirishdan maqsad belgilab olinadi. Qurilish korxonalarida aktivlar tahlilini amalga oshirishdan maqsad qurilish korxonalarining ayni vaqtdagi moliyaviy holatini hamda moliyaviy holatni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni dinamik o‘rganish, ushbu tahlil natijasida korxonaning moliyaviy holatini kelgusi darajasini prognozlash va korxonalarda moliyaviy holatni yaxshilovchi mavjud lekin foydalanilmayotgan imkoniyatlarni aniqlash va ularni amaliyotga joriy qilish bo‘yicha takliflar yaratish hisoblanadi.

[20] Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi.

Keltirilgan maqsadga muvofiq qurilish korxonalarining aktivlari tahlili oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

- qurilish korxonalarining moliyaviy holatini baholovchi ko‘rsatkichlarni xalqaro standartlarga moslashtirish;
- qurilish korxonalarining moliyaviy hamda iqtisodiy salohiyatini baholash;
- korxonaning aktivlari hamda uning tashkil topish manbalarining holatini baholash;
- korxonaning aktivlari hamda uning tashkil topish manbalarining harakatini tahlil qilish;
- korxonaning aktivlari hamda uning tashkil topish manbalarining samaradorligini aniqlash;
- korxonaning rentabelligi, daromadliligi hamda natijaviyligini o‘rganish;
- qurilish korxonalarining aktivlar bilan ta’minlanganligini baholash;
- qurilish korxonalarining to‘lovga qodirligini hamda moliyaviy barqarorligini aniqlash;
- samarasiz aktivlar harakatini aniqlash hamda ularni rentabellikka chiqarish;
- korxonaning investitsiya samaradorligini baholash;
- korxonada mavjud ammo foydalanilmayotgan imkoniyatlarni aniqlash hamda ularni amaliyotga joriy qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Demak qurilish korxonalarida moliyaviy holat tahlili korxonaning to‘liq moliyaviy holatiga “tashxis qo‘yuvchi” hamda aniqlangan kamchiliklarni “davolash yo‘llarini” ishlab chiquvchi soha hisoblanadi.

3.2. Aktivlar tahlilini qurilish korxonalari samaradorligini boshqarishdagi o‘rni va ahamiyati

Qaysi bir korxonani olib qaramaylik uning faoliyat samaradorligi korxonada mavjud boshqaruv tizimi hamda ular tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarga bevosita bog‘liqdir.

Bozor munosabatlari yoki bozor mahsulotlariga iste’molchilarning xohish-istaklari o‘zgara boshlashi bilan boshqaruvda ko‘plab usullar bir-

biriga qo‘shilib, bir-birini ba’zida inkor qiladi, ba’zida qo‘llab-quvvatlaydi. Bunday vaziyatlarda qo‘shimcha usullarni qo‘llash ham talab qilinadi.

Boshqaruv bu – o‘ziga xos yuksak san’at va mahoratni talab qiluvchi tanlov, shu tanlov asosida qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilishdir[21].

Har bir korxona o‘z faoliyatini amalga oshirishda ma’lum boshqaruv usullaridan foydalanadi. Barcha rahbarlar xodimlarini boshqarish va ularni rag‘batlantirish maqsadida boshqarishning iqtisodiy usulidan foydalanishlari kerak. Lekin ba’zi rahbarlar individual rag‘batlantirishga, boshqa bir rahbarlar esa jamoani rag‘batlantirishga ko‘proq mablag‘ ajratishga harakat qilishadi. Har bir rahbar o‘z tajribasi, bilimi hamda uzoqni ko‘ra bilish qobiliyatiga ko‘ra boshqaruv tizimini yuritadi. Bugungi kunda boshqaruv tizimlarining eng maqbuli bu strategik boshqaruvdir. Strategik boshqaruv – bu firma maqsadlariga erishish uchun uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqishni ta’minlash va rejalar tizimi orqali bu strategiyani amalga oshirishning boshqaruv mexanizmlarini yaratishdir[22].

Ta’kidlangan mulohazalardan kelib chiqib, boshqaruvning mukammalligini ta’minlashda hozirgi vaqtda asosan quyidagi boshqaruv usullari ommaviy holda, an’anaviy tarzda qo‘llaniladi:

1. To‘g‘ridan-to‘g‘ri direktivalarga asoslangan tashkiliy ma’muriy usullar;

2. Iqtisodiy me’yorlashtirishga asoslangan iqtisodiy usullar;

3. Xodimlarning ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida qo‘llaniladigan ijtimoiy – psixologik usullar[23] .

Faqat tahlil va sintezni qo‘shib olib borilgandagina hodisa va jarayonlarni dialektik aloqadorlikda ilmiy o‘rganilishini ta’minlash mumkin. Aslini olganda strategik boshqaruvning asosini tahlil va qaror qabul qilish egallaydi. Strategik boshqaruvning mazmuni quyidagilardan

[21] М.Шарифхўжаев, Ё.Абдуллаев.Дарслик.Тошкент. “Ўқитувчи”, 2001.5- бет.

[22] Б.Каттакишиев, Н.Саидахмедова, Д.Казакова, И.Файзиева. Иқтисодиёт ва менежмент фанидан практикум. Тошкент-2019.154 бет.

[23] Пардаева О.М. Хизмат кўрсатиш сохосида оилавий тадбиркорликни ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш йўллари. Иқтисод фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Самарқанд, 2020 й, 44-бет.

iborat: firma yo‘nalish va asosiy maqsadlarini belgilab olish, firma tashqi muhitini tahlil qilish, undagi ichki vaziyatni tahlil qilish, o‘rta bo‘g‘inlarda strategiyani tanlash va ishlab chiqish, diversifikatsiyalangan firmaning portfelini tahlil qilish, uning tashkiliy tuzilmasini loyihalash, integratsiya darajasini va boshqaruv tizimini tanlash, strategiyani, tuzilmani hamda boshqaruvni takomillashtirish[24] .

Qurilish korxonalarida aktivlar tahlili natijalaridan foydalanuvchilar quyidagilar (3.5-rasm).

Qurilish korxonalarida aktivlar tahlili natijalaridan foydalanuvchilar			
Investorlar	**Menejerlar**	**Hissadorlar**	**Jamiyat hamda boshqa foydalanuvchilar**
O‘z kapitalini qanday taqsimlash, investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish va daromadlarini maksimal darajada oshirish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishda	O‘z aktivlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, texnik xizmat ko‘rsatishni optimallashtirish, samaradorlikni oshirish hamda raqobatda yutish uchun	Korporatsiyalar, banklar, hukumatning o‘z aktivlariga nisbatan muvofiqligini kuzatib borish, aktivlarni baholash va nazorat qilish uchun	Infratuzilma, atrof-muhit, madaniyat va ta’lim kabi obyektlar bo‘yicha yetarli ma’lumotlarga ega bo‘lishi uchun

3.5-rasm. Qurilish korxonalarida aktivlar tahlili natijalaridan foydalanuvchilar.

Investorlarga qurilish korxonalarida aktivlar tahlili natijalarini kuzatib borish korxonalarga kiritilishi kutilayotgan investitsiyalarning xavfi hamda o‘zgaruvchanligini baholashga va shunga mos ravishda va strategiyalarini o‘zgartirishga yordam beradi.

Menejerlar uchun esa aktivlar tahlili natijalari aktivlarni eskirishi, yaroqsiz holga kelishi, zararga ishlashi, o‘g‘irliklarni oldini olish hamda zararlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

[24] Б.Каттакишиев, Н.Саидахмедова, Д.Казакова, И.Файзиева. Иқтисодиёт ва менежмент фанидан практикум. Тошкент-2019.155 бет.

Hissadorlar aktivlarni sotib olish, boshqarish va voz kechishni tartibga soluvchi qoida hamda strategiyalarni qo‘llashiga xizmat qiladi.

Jamiyat uchun aktivlar tahlili natijalari soliq uchun soliq bazasini hisoblash hamda kelgusi soliq tushumlarini prognoz qilish, kredit tashkilotlari kredit berish yoki bermaslikni aniqlash uchun foydalaniladi.

Aktivlar tahlili natijalari quyidagi sohalarda va jarayonlarda keng qo‘llanilishi mumkin:

1. **Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va tahlil qilish**. Aktivlar tahlili kompaniyaning moliyaviy holatini, uning aktivlari qiymatini va ularning samaradorligini ko‘rsatishda muhimdir.

2. **Investitsiya qarorlarini qabul qilishda**. Investorlar va menejerlar aktivlarning likvidligi, rentabelligi va amortizatsiya darajasini tahlil qilib, qaysi aktivlarga sarmoya kiritishni hal qiladilar.

3. **Kredit berish jarayonida**. Bank va moliyaviy institutlar qarz berishdan oldin kompaniyaning aktivlari tahlilini o‘tkazib, kredit xavfini baholaydilar.

4. **Ichki boshqaruv va strategik rejalashtirishda**. Kompaniya rahbariyati aktivlarning samaradorligini o‘rganib, resurslarni qayta taqsimlash, xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish bo‘yicha qarorlar qabul qiladi.

5. **Soliq va audit tekshiruvlarida**. Aktivlar holatini aniqlash soliq hisobotlari va audit natijalari uchun zarur bo‘ladi.

6. **Qiymatni aniqlash va baholashda**. Kompaniya yoki uning aktivlarini sotish, birlashtirish yoki qo‘shilish jarayonlarida aktivlar tahlili ularning bozor qiymatini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi.

Qurilish korxonalarida aktivlar tahlilini amalga oshirish hamda amalga oshirilgan tahlil natijalari orqali samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmi quyidagi tartibda amalga oshiriladi (3.6-rasm).
Ushbu taklif qilingan mexanizm qurilish korxonalarida aktivlar tahlilini amalga oshirishda foydalanilishi:

Birinchidan, tahlilni amalga oshirish jarayoni uchun zarur bo‘lgan barcha hisoblanadigan hamda hisoblanmaydigan axborot manbalaridan axborotlar yig‘iladi;



3.6-rasm. Qurilish korxonalarida aktivlar tahlilini amalga oshirish hamda amalga oshirilgan tahlil natijalari orqali samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmi.

Ikkinchidan, to‘plangan axborotlar to‘liqligi natijasida joriy tahlilning samaradorlik darajasi ortadi;

Uchinchidan, birlamchi qabul qilingan boshqaruv qarorlarining amaliyotda ishlash samaradorligi qayta baholanadi;

To‘rtinchidan, yakuniy boshqaruv qarorlari qabul qilinadi va ularning samaradorlik darajasi muntazam o‘rganilib boriladi.

Korxonada strategik boshqaruv tizimining asosi bu tahlilga bog‘liqdir. Chunki ushbu tahlil natijalari orqaligina boshqaruv qarorlarini qabul qilishi mumkin. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishga asos bu axborot va ular asosida olib boriladigan tahlil natijasidir.

Boshqaruv qarorlariga ham albatta ma’lum talablar qo‘yiladi: aniq yo‘nalishga ega bo‘lishi hamda korxona manfaatlarini to‘liq ifoda etishi, ilmiy-amaliy jihatdan asoslanishi, aniq muddatlarda qabul qilinishi va amalga oshirilishi, tezkor bo‘lishi, yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega bo‘lishi lozim. Boshqaruv qarorlarini ushbu talablarga javob berishi uchun esa albatta tahlil natijalariga ham talablar qo‘yiladi (3.7-rasm).



3.7-rasm. Qurilish korxonalarida moliyaviy holat tahlili natijalariga qo‘yiladigan asosiy talablar.

Qurilish korxonalarida aktivlar tahlili natijalari har bir subyekt uchun ma’lum savollarga javob topishga xizmat qiladi. Xususan, korxona rahbarlari hamda bo‘lim boshliqlariga korxonaning hozirgi holati, aktivlari hamda ularning tashkil topish manbalari haqida hamda ularning harakati, aktivlar samaradorligi, samara keltirmayotgan hamda samarasi past bo‘lgan aktivlar mavjud yoki mavjud emasligi, korxonada bugungi kunda mavjud ammo foydalanilmayotgan imkoniyatlarni mavjudligi to‘g‘risidagi savollarga javob topishga xizmat qiladi.

Ushbu korxona boshqaruv apparati xodimlari tomonidan moliyaviy holat tahlili natijalari asosida korxonaning keyingi harakat strategiyasi ishlab chiqiladi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Korxona ta’sischilari uchun moliyaviy holat tahlili quyidagi korxonaga kiritgan investitsiyasi samaradorligini, korxonadagi o‘z mablag‘lari naqdligini hamda korxona dividentliligini aniqlash imkonini beradi va korxonadagi ulushi harakatini ushbu aniqlangan natijalar bo‘yicha boshqarishga zamin yaratadi. Qurilish korxonalarida aktivlar tahlili natijalaridan keng foydalanadigan tashqi foydalanuvchilardan biri bu investorlar bo‘lib hisoblanadi. Investorlar tahlil ko‘rsatkichlari asosida korxonaga investitsiya kiritish yoki kiritmaslik bo‘yicha qarorlar qabul qiladi. Soliq idoralari esa qurilish korxonalarida aktivlar tahlili natijalari va uning prognozlari asosida korxona tomonidan davlat budjetiga soliq hamda budjetdan tashqari jamg‘armalar hisobiga yo‘naltirilishi kutilayotgan mablag‘lar to‘g‘risida axborotlarga ega bo‘ladi. Kredit tashkilotlari korxonaga berilayotgan qarz mablag‘larini qaytara olmaslik riskini aniqlashga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi keltirilganlardan ko‘rinib turibdiki, qurilish korxonalarida aktivlar tahlili natijalari korxonaga bog‘liq barcha subyektlar tomonidan korxonaga bog‘liq bo‘lgan qarorlarni qabul qilishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

3.3. Qurilish korxonalarida aktivlar tahlilini amalga oshirishda axborot manbalari

Axborotlar inson tafakkurida sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan jarayonlar to‘g‘risida doimiy ravishda olinishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar majmuidan iborat. Biroq, sodir bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar birorta manbada, hujjatda o‘z ifodasini topmog‘i lozim. Aynan ushbu axborotlar iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladi. Shu tufayli iqtisodiyotni boshqarish va tahlil qilish uchun bizga barcha axborotlar ichidan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o‘zida aks ettiradigan, qonuniy kuchga ega bo‘lgan hujjatlarda o‘z aksini topgan iqtisodiy axborotlar olinadi[25].

Qaysi bir amalga oshirilayotgan faoliyat turini olmaylik albatta qaysidir resurslardan foydalangan holda o‘z faoliyatini amalga oshiradi hamda ko‘zlangan natijaga erishishga harakat qiladi. Masalan, ishlab chiqarish korxonalari moddiy hamda mehnat resurslari asosida yangi mahsulot yaratadi va yakuniy natijada korxona uchun tayyor mahsulot paydo bo‘ladi, savdo korxonalarida esa ishlab chiqarish korxonalari natijasi ya’ni tayyor mahsulotlarni tovarlarga aylantiradi va ushbu tovarlarni sotish orqali foydaga chiqishga harakat qilishadi, xizmat ko‘rsatish korxonalarida esa asosan inson resursining intellektual salohiyatidan foydalaniladi hamda ushbu asosida foydalilikka erishishga harakat qilinadi. Demak bundan ko‘rinib turibdiki qaysi bir jarayonni olib qaramang ular uchun xom-ashyo mavjud ya’ni qaysidir resurslar asosida yangi bir qiymat yaratishga harakat qilinadi. Aktivlar tahlili ham tor ma’noda aynan bir jarayon deb qarasak, keng ma’noda esa faoliyat turi bo‘lib hisoblanadi. Aktivlar tahlilining “xom-ashyosi” esa bu axborotdir. Tahlil mavjud axborotlar asosida belgilangan tahliliy ko‘rsatkichlarni aniqlash hamda aniqlangan ko‘rsatkichlar asosida korxonaning moliyaviy holatiga baho berishga xizmat qiladi. Korxonada iqtisodiy tahlilni amalga oshirishdagi axborotlarning realligi esa tahlil natijalarining samaradorligini oshishiga hamda ushbu asosida qabul qilingan boshqaruv qarorlarining o‘zini oqlashiga xizmat qiladi.

[25] М.Қ.Пардаев. Иқтисодий таҳлил назарияси. Дарслик. Тошкент.:2018.151 бет.

Axborotlar ma’lum xususiyatlariga ko‘ra turlicha guruhlarda tasniflanadi. Professor M.Q.Pardayev axborotlarni qayerda ifodalanishiga ko‘ra: og‘zaki axborotlar, hujjatlarda ifodalanadigan axborotlar hamda elektron mashinalarda aks ettiriladigan axborotlar kabi tasniflaydi. Professor I.T.Abdukarimov tomonidan esa aktivlar tahlilining axborot manbalari quyidagicha tasniflanadi:

- buxgalteriya hisobi va hisoboti;
- statistik hisob va hisobot ma’lumotlari;
- operativ hisob va hisobot ma’lumotlari;
- tanlab olingan hisobot ma’lumotlari[26].

Professorlar G.V.Savitskaya[27] hamda V.Ya.Podznyakov[28]lar aktivlar tahlilini amalga oshirishda foydalaniladigan axborot manbalarini normativ reja ma’lumotlari, hisob ma’lumotlari hamda hisobdan tashqari ma’lumotlar sifatida tasniflaydi, G.N.Liferenko fikricha aktivlar tahlilini amalga oshirishda tahlilning axborotlari sifatida quyidagilar hisobga olinadi:

- Normativ hamda instruktiv manbalar;
- Reja va prognoz ma’lumotlari;
- Hisobot ma’lumotlari;
- Analitik ma’lumotlar[29].

Yuqoridagilar bilan birgalikda iqtisodiy tahlilda axborot manbalari sifatida quyidagilarni ham kiritish mumkin.

1. **Ichki manbalar**

- **Kompaniya ichki hisobotlari:** moliyaviy hisobotlar, balanslar, foyda va zarar hisoboti, pul oqimi hisoboti.
- **Boshqaruv hisobotlari:** rejalar, budjetlar, ichki auditorlik hisobotlari.
- **Korxona ichki ma’lumotlar bazasi:** ishlab chiqarish, savdo, inventarizatsiya bo‘yicha ma’lumotlar.

2. **Tashqi manbalar**

[26] Abdukarimov I.T. Moliyaviy hisobotni o‘qish va tahlil qilish yo‘llari. T:Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 1999- yil. 6-bet.
[27] Г.В.Савицкая Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Учеюник. М: ИНФРА-М 2009.стр-117
[28] В.Поздняков Анализ и диагностика. ФХДП. М: ИНФРА-М, 2008, стр-18.
[29] Г.Н.Лиференко Финансовий анализ. М:Экзамен. 2005г. Стр-24.

- **Davlat statistikasi:** davlat organlari tomonidan e’lon qilinadigan iqtisodiy ko‘rsatkichlar, inflyatsiya, ishsizlik darajasi, yalpi ichki mahsulot (YaIM) ma’lumotlari.
- **Banklar va moliya institutlari hisobotlari:** kreditlar, foiz stavkalari, moliyaviy bozorlar statistikasi.
- **Ilmiy va o‘quv adabiyotlar:** iqtisodiyot bo‘yicha kitoblar, maqolalar, tadqiqotlar.
- **Axborot agentliklari va yangiliklar:** so‘nggi iqtisodiy yangiliklar, bozor tahlillari.
- **Xalqaro tashkilotlar:** Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF), BMT va boshqalar tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar.

3. **Internet va elektron resurslar**
   - Rasmiy veb-saytlar, elektron kutubxonalar, iqtisodiy forumlar, ma’lumotlar bazalari.

Qurilish korxonalarida aktivlar tahlilini amalga oshirishdagi axborot manbalarini quyidagi guruhlarga ajratishimiz mumkin (3.8-rasm).



3.8-rasm. Qurilish korxonalarida aktivlar tahlilini amalga oshirishdagi axborot manbalari.

Qurilish korxonalarida aktivlar tahlilini amalga oshirishda axborot manbalarining tasniflanishiga ko‘ra foydalanish qamroviga ko‘ra axborot manbalari hisoblanadi.

Foydalanish qamroviga ko‘ra axborot manbalari aktivlar tahlilini amalga oshirishda axborot manbalaridan foydalanish darajasiga qarab ikki guruhga ajratiladi.

1. Asosiy axborot manbalari,
2. Yordamchi axborot manbalari.

Qurilish korxonalarida aktivlar tahlilini amalga oshirishda foydalaniladigan axborotlarni olish manbasiga ko‘ra ya’ni axborotlar korxonaning o‘zining ichida shakllantirilganmi yoki korxonadan tashqarida shakllantirilgan axborotligiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi.

1. Ichki axborot manbalari (korxonaning ichida shakllantirilgan axborotlar),
2. Tashqi axborot manbalari (korxonadan tashqarida shakllantirilgan axborotlar).

Axborot manbalariga tartibga solinishiga ko‘ra ya’ni axborot beruvchi manbalar aniq qonun hujjatlari asosida tartibga solinganligiga ko‘ra quyidagi ikki guruhga bo‘linadi.

1. Tartibga solingan axborot manbalari,
2. Tartibga solinmagan axborot manbalari.

Yuqorida berib o‘tilgan axborot manbalarining barchasi qurilish korxonalarini aktivlar tahlilini amalga oshirishda quyidagi vazifalarni bajarib beradi:

birinchidan, qurilish korxonalarida aktivlar tahlilini amalga oshirishda aniqlanishi kerak bo‘lgan ko‘rsatkichlarni hisoblash uchun asos bo‘luvchi barcha axborotlar bilan ta’minlaydi,

ikkinchidan, korxonaning aktivlar holatiga birlamchi baho berishga asos bo‘lib xizmat qiladi ya’ni axborot manbalarida keltirilgan axborotlarning o‘zi boshqa ko‘rsatkichlarni aniqlamasdan korxonaga birlamchi baho berishga asos bo‘ladi,

uchinchidan, aktivlar tahlilini amalga oshirishda muhim vosita bo‘lib hisoblanadi.

Qurilish korxonalarida moliyaviy holat tahlilini amalga oshirish jarayonida axborot va ma’lumotni bir-biridan farqlashimiz lozim. Ma’lumotlar deganda, sodir bo‘lgan hodisa va jarayonlarni o‘zida ifoda etgan birlamchi hujjatlar va boshqa vositalarda aks ettiriladigan raqamlar, belgilar, xabarlar tushuniladi. Axborotlar deganda, yuqorida ta’kidlanganidek, shu ma’lumotlarni jamlash, ularni ishlatish orqali ma’lum tizimga keltirish natijasida hosil bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ifoda etadigan ma’lumotlar majmui tushuniladi. Qurilish korxonalarida moliyaviy holat tahlilini amalga oshirishda foydalaniladigan axborot manbalariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin (3.4-jadval).

Yuqorida keltirilgan jadvalda aks ettirilgan barcha axborot manbalari ma’lum shakllarga hamda ushbu shakllar o‘zining axborot turlariga va qamroviga ega.

Korxonalarda aktivlar tahlilini amalga oshirishda asosiy axborot manbalaridan biri bu moliyaviy hisobot shakllaridir. Adliya vazirligi tomonidan 26.07.1998-yilda tasdiqlangan 1-son buxgalteriya hisobi milliy standartiga muvofiq moliyaviy hisobot shakllariga quyidagilar kiradi.

1. Buxgalteriya balansi-1 shakl,
2. Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot-2 shakl,
3. Asosiy vositalar harakati to‘g‘risidagi hisobot – 3 shakl (bugungi kunda ushbu hisobot shaklini soliq idoralariga topshirish to‘xtatilgan ammo korxona o‘z faoliyati davomida foydalanishi mumkin),
4. Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot – 4 shakl,
5. O‘z sarmoyasi to‘g‘risidagi hisobot – 5 shakl,
6. Izohlar, tushuntirishlar va hisob-kitoblar .

Yuqorida keltirilgan hisobot shakllarining har birining o‘zining axborot qamrovi mavjud. Masalan, buxgalteriya balansi korxoning aktivlari hamda ularning tashkil toppish manbalarini o‘zida aks ettirsa, moliyaviy natijalar to‘g’risidagi hisobot korxonaning daromad, xarajat hamda foyda turlari to‘g’risidagi axborotlarni o‘zida aks ettiradi. Pul

oqimlari harakati to‘g’risidagi hisobotda korxonaning malum hisobot davridagi pul mablag’lari o‘z aksini topadi.

3.4-jadval

Qurilish korxonalarida aktivlar tahlilini amalga oshirishda foydalaniladigan axborot manbalari [30].

Axborot manbalari	**Asosiy**	**Yordamchi**	**Ichki**	**Tashqi**	**Tartibga solingan**	**Tartibga solinmagan**
Moliyaviy hisobot shakllari	+	-	+	-	+	-
Statistik hisobot shakllari	-	+	-	+	+	-
Soliq idoralari tekshiruv natijalari	-	+	-	+	-	+
Tashqi audit natijalari	+	-	-	+	-	+
Ichki audit natijalari	+	-	+	-	-	+
Korxona hisob siyosati	+	-	+	-	-	+
Buxgalteriya hisobi regestr ma’lumotlari	+	-	+	-	+	-
Smeta ko‘rsatkichlari	-	+	+	-	+	-
Biznes reja ma’lumotlari	-	+	+	-	-	+
Obyektlar bo‘yicha hisob ma’lumotlari	-	+	+	-	-	+

Ushbu hisobot shakllari moliyaviy hisob xalqaro standartlari hamda rivojlangan mamlakatlarda foydalanilayotgan o‘z standartlari bo‘yicha qisman farqlanadi (3.5-jadval).

[30] Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi.

3.5-jadval

Xalqaro hamda milliy standartlar bo‘yicha moliayviy hisobot shakllarining o‘xshash jihatlari.

MHXSlari bo‘yicha	Rossiya moliyaviy hisoblash tartibi bo‘yicha	BHMS lari bo‘yicha
Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot	Buxgalteriya balansi	Buxgalteriya balansi
Foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot	Foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot	Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot
Kapital o‘zgarishi to‘g‘risidagi hisobot	Kapital o‘zgarishi to‘g‘risidagi hisobot	Asosiy vositalar harakati to‘g‘risidagi hisobot
Pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot	Pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot	O‘z sarmoyasi to‘g‘risidagi hisobot
Hisob siyosati va tushuntirishlar	Buxgalteriya balansiga ilova	Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot
	Olingan mablag‘larning maqsadli ishlatilishi haqida hisobot	Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari to‘g‘risidagi hisobot
		Moliyaviy hisobotlarga izohlar.

Tahlilning globallashuvida asosiy muammoli vaziyatlardan biri bu barcha rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy hisobot va unda aks ettiriladigan ko‘rsatkichlarning birxillashtirilmaganligi hisoblanadi. Bugungi kunda ko‘pchilik davlatlarda moliyaviy hisobni yuritish va moliyaviy hisobotni birxillashtirish masalalari ketmoqda.

3.6-jadval[31]

MHXSni qabul qilgan davlatlar

Afrika davlatlari	Botsvana, Misr Arab Respublikasi, Keniya, Malavi, Mozambik, Namibiya, Janubiy Afrika Respublikasi, Tanzaniya.
Amerika davlatlari	Bagam orollari, Barbados, Braziliya, Kanada, Xitoy, Kosta-Rika, Dominikan Respublikasi, Ekvador, Gvatemala, Gayana, Gaiti, Gonduras, Yamayka, Nikaragua, Panama, Peru, Urugvay, Venesuela.
Osiyo davlatlari	Armaniston, Bahrayn, Bangladesh, Gruziya, Xitoy, Hindiston, Isroil, Iordaniya, Qozog‘iston, Livan, Nepal,

[31] S.N.Tashnazarov. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) avtoreferati. T.: 2019. 74-bet.

	Ummon, Filippin, Qatar, Singapur, Janubiy Koreya, Tojikiston, Birlashgan Arab Amirliklari, O‘zbekiston.
Yevropa davlatlari	Avstriya, Belorussiya, Belgiya, Bosniya va Gersogovina, Bolgariya, Xorvatiya, Kipr, Chexiya Respublikasi, Daniya, Estoniya, Finlyandiya, Fransiya, Germaniya, Gretsiya, Vengriya, Islandiya, Irlandiya, Italiya, Latviya, Lixtenshteyn, Lyuksemburg, Makedoniya, Niderlandiya, Norvegiya, Polsha, Portugaliya, Ruminiya, Rossiya, Serbiya, Slovakiya, Sloveniya, Ispaniya, Shvetsiya, Turkiya, Ukraina, Buyuk Britaniya.
Okeaniya davlatlari	Avstraliya, Fiji, Yangi Zelandiya, Yangi Gvineya.

Xalqaro darajada moliyaviy hisob yurutish hamda hisobotlarning birxillashuvi global darajada quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

Birinchidan, barcha mamlakatlarda tahliliy ko‘rsatkichlarni birxillashtirish imkoniyati yaratiladi;

Ikkinchidan, global darajada korxonalarning moliyaviy hamda iqtisodiy ko‘rsatkichlarini bir-biri bilan taqqoslash mumkin bo‘ladi;

Uchinchidan, taqqoslash natijalari asosida investorlarning o‘z investitsiyalarini kiritish bo‘yicha qarorlar qabul qilish va bu qabul qilingan qarorlarning samaradorlik darajasi oshadi;

To‘rtinchidan, dunyoning turli mamlakatlarida bir vaqtning o‘zida faoliyat olib boradigan korxonalarda moliyaviy hisobotlarni shakllantirishda mavjud muammolar yechiladi.

Har qaysi moliyaviy hisobot shakllarining alohida xususiyatlari hamda alohida ko‘rsatkichlar qamrovi mavjud. Masalan moliyaviy hisobotning birinchi shakli buxgalteriya balansi korxonaning ma’lum sanadagi aktivlari, xususiy kapitali hamda kreditorlik qarzlari to‘g‘risidagi axborotlarni o‘zida jamlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1226-son bilan ro‘yxatga olingan 15-son buxgalteriya hisobi milliy standarti “Buxgalteriya balansi” da quyidagicha ta’rif berilgan.

Xo‘jalik subyektlarini boshqarish uchun, eng avvalo, ulardagi mablag‘lar haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish kerak. Shu bilan birga ular, mablag‘larning qanday turlariga ega va bu mablag‘lar qanday manbalardan tashkil topganligini bilish kerak bo‘ladi. Bunday

ma’lumotlar umumlashtirilgan holda pul ko‘rsatkichlarida ma’lum bir sanaga berilishi kerak. Mablag‘lar tarkibi va qanday maqsadlarga mo‘ljallanganligini o‘rganish uchun ularni iqtisodiy jihatdan guruhlash zarur. Mana shu ma’lumotlar buxgalteriya balansi yordamida olinadi. Buxgalteriya balansi xo‘jalik mablag‘larini ularning turlari va tashkil topish manbalari bo‘yicha muayyan bir davrga pulda ifodalanib, umumlashtirib aks ettirish va iqtisodiy guruhlash usulidir. Mablag‘lar turlari va ularning manbalarini ajratib ko‘rsatish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002-yil 7-fevralda 31-sonli buyruq bilan qabul qilingan balans ikki qismdan iborat bo‘lgan jadval shaklida tuzilgan. Uning chap tomonida mablag‘lar turlari va ularning joylanishi keltiriladi va u aktiv qism deb nomlanadi, passiv qism deb nomlanadigan o‘ng tomonida mablag‘lar manbalari va ularning qanday maqsadlarga atalganligi ko‘rsatiladi.

Buxgalteriya balansi moliyaviy hisobotning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi, xo‘jalik yurituvchi subyektning mulkiy va moliyaviy ahvoli haqidagi axborotni to‘playdi hamda oshkor qiladi.

Buxgalteriya balansi ikki qism hamda to‘rt bo‘limdan iborat.

1-qism aktiv qismi ikki bo‘limdan iborat:

- Uzoq muddatli aktivlar,
- Joriy aktivlar.

2-qism passiv qism ikki bo‘limdan iborat:

- Xususiy kapital,
- Majburiyat.

3.7-jadval[32]

Buxgalteriya balansi

Aktiv	Passiv
Uzoq muddatli aktivlar	Xususiy kapital
Joriy aktivlar	Majburiyatlar

Korxonaning buxgalteriya balansi korxonaning ma’lum sanadagi aktivlari hamda uning tashkil topish manbalarining tengligini ifodalab beradi.

[32] K.B.Urazov, M.E.Po‘latov. Buxgalteriya hisobi. Darslik. Toshkent-2020.47-bet.

Aktiv = Xususiy kapital + Majburiyat

Buxgalteriya balansidagi axborotlar asosan quyidagi maqsadlar uchun muhim hisoblanadi:

- Kompaniyaning moliyaviy barqarorligini baholash uchun.
- Kredit beruvchilar va investorlar uchun qaror qabul qilishda asos.
- Soliq hisobotlarini tayyorlashda.
- Ichki boshqaruv va rejalar tuzishda.

Buxgalteriya hisobi milliy standartlari bo‘yicha mamlakatimizda amalda bo‘lgan buxgalteriya balansida xizmatlar sohasi bo‘yicha tugallanmagan ish(xizmat)lar hajmi 2010 – schyot qoldig‘i sifatida 160-satrda aks ettiriladi. Qurilish korxonalarining alohida xususiyatlari inobatga olingan holda buxgalteriya balansida quyidagicha aks ettirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

3.8-jadval

Qurilish korxonalari tomonidan tuziladigan buxgalteriya balansida bajarilayotgan ish(xizmat)lar qoldig‘ini aks ettirish

Ko‘rsatkich nomi	**Satr kodi**	**Hisobot davri boshiga**	**Hisobot davri oxiriga**
Jami bajarilayotgan ish (xizmat) (**161satr+162satr**)	**160**	-	-
Yangi obyektlar qurish bo‘yicha bajarilayotgan ish (xizmat)	**161**	-	-
Ta’mirlash hamda rekonstruksiya qilish bo‘yicha bajarilayotgan ish(xizmat)lar	**162**	-	-

Ushbu berilgan taklifning amaliyotga qo‘llanilishi qurilish korxonalari faoliyatida quyidagi qo‘shimcha imkoniyatlarni yaratadi.

Birinchidan, qurilish korxonalarida statistik hisobotlarni to‘ldirishdagi qiyinchiliklar bartaraf etiladi;

Ikkinchidan, qurilish korxonalarida tahlil jarayonida yaratuvchanlik koeffitsiyentini aniqlashda yetarli axborot bilan ta’minlanadi;

Uchinchidan, qurilish korxonalarining qancha miqdorda yaratilgan yangi qurilish obyektlari hamda qancha ta’mirlash ishlari mavjudligini muntazam kuzatib borish mumkin bo‘ladi;

To‘rtinchidan, real xarajatlar hamda smeta xarajatlari taqqoslama tahlili olib borish imkoni vujudga keladi.

Moliyaviy hisobot shakllaridan ko‘rsatkichlar olingan holda aktivlar tahlilini amalga oshirish jarayonida moliyaviy hisobot shakllaridagi ko‘rsatkichlarning bir-biriga mosligi albatta ko‘rib chiqilishi lozim.

Moliyaviy hisobot shakllaridagi ko‘rsatkichlarning bir-biriga mosligini tekshirish quyidagi sabablarga ko‘ra juda muhim:

1. **Hisobotlarning to‘liqligi va ishonchliligi**
Agar barcha hisobotlar (balans, foyda va zarar hisobotlari, pul oqimi hisobotlari) o‘zaro mos kelsa, demak ma’lumotlar to‘g‘ri va to‘liq qayd etilgan.
2. **Moliyaviy holatni aniq baholash uchun**
Mos kelmaydigan ko‘rsatkichlar moliyaviy tahlilning noto‘g‘ri bo‘lishiga olib kelishi mumkin, natijada qarorlar xato bo‘ladi.
3. **Xatoliklar va firibgarliklarni aniqlash**
Hisobotlar o‘rtasidagi nomuvofiqliklar buxgalteriya xatolari, hisob-kitoblarda noto‘g‘ri yozuvlar yoki hatto firibgarlik belgisi bo‘lishi mumkin.
4. **Investorlar va kreditorlar ishonchini oshirish**
Moliyaviy hisobotlarning mosligi ularning haqqoniyligi va shaffofligini ko‘rsatadi, bu esa tashqi foydalanuvchilarning kompaniyaga bo‘lgan ishonchini oshiradi.
5. **Soliq va auditorlik talablari uchun**
Soliq organlari va auditorlar kompaniyaning moliyaviy hisobotlarini tekshiradi, ularning mosligi qonuniy talablarni bajarishda muhim.

Qurilish korxonalarida aktivlar tahlilini amalga oshirishdan avval ushbu hisobot ma’lumotlarini bir-biriga mosligi tahlil qilinsa:

Birinchidan, axborotlarning birlamchi realligi tekshiriladi;

Ikkinchidan, olib borilayotgan aktivlar tahlili natijalarining samaradorlik darajasi ortishiga va muhim boshqaruv qarorlarini qabul qilishiga xizmat qiladi.

3.9-jadval

Aktivlar tahlilini amalga oshirish jarayonida moliyaviy hisobot shakllaridagi ko‘rsatkichlarning bir-biriga mosligi.

Hisobot shakllari	Satr	Buxgalteriya balansi							
		320/1	320/2	350/1	350/2	410/1	410/2	480/1	480/2
Pul oqimlari harakati to‘g‘risidagi hisobot	230	=	-	-	-	-	-	-	-
	240	-	=	-	-	-	-	-	-
	250	-	-	=	-	-	-	-	-
	290	-	-	-	=	-	-	-	-
Xususiy capital harakati to‘g‘risidagi hisobot	010/3	-	-	-	-	=	-	-	-
	110/3	-	-	-	-	-	=	-	-
	010/9	-	-	-	-	-	-	=	-
	110/9	-	-	-	-	-	-	-	=

III bob bo‘yicha xulosa.

1. Qurilish tarmog‘i mamlakatning iqtisodiy hamda ijtimoiy hayotida muhim ahamiyatga ega, bir tomondan mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qilsa ikkinchi tarafdan mamlakatning yangilanishini ko‘rsatib berishga ega va aholini uy-joy bilan ta’minlanish darajasini yaxshilovchi hamda tarmoq sifatida alohida xususiyatlari mavjud bo‘lgan soha hisoblanadi.

2. Qurilish korxonalarida aktivlar tahlilini amalga oshirish korxonaning aktivlari hamda uning tashkil topish manbalarini holati, harakati va samaradorligi bilan bir qatorda korxonaning to‘lovga qodirligi, moliyaviy barqarorligi, moliyaviy mustaqilligi, moliyaviy qaramligi, daromadliligi, natijaviyligi hamda samaradorligini ifodalab beradi.

3. Qurilish korxonalari tomonidan bajariladigan ish (xizmat)lar ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish xususiyatiga ega ekanligi

inobatga olinib qurilish korxonalari tomonidan amalga oshirilayotgan ish (xizmat)larning tasnifi ishlab chiqildi.

4. Qurilish korxonalarida boshqaruv tizimini rivojlantirishda, boshqaruv qarorlari samaradorligini oshirishda hamda tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilishda moliyaviy holat tahlilining ahamiyati va zaruriyat ekanligi ochib berildi.

5. Qurilish korxonalarida moliyaviy holat tahlilini amalga oshirish jarayonida foydalaniladigan axborot manbalari ma'lum xususiyatlariga ko‘ra tasniflandi.

6. Qurilish korxonalarining alohida xususiyatlari inobatga olinib qurilish korxonalarida bajarilayotgan qurilish xizmatlarining obyektlar qurish hamda ta'mirlash va rekonstruksiya qilish xususiyatini o‘zida aks ettirish nuqtayi nazaridan bajarilayotgan qurilish xizmatlari qoldiq summalarini buxgalteriya balansida aks ettirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan tavsiyaning iqtisodiy hamda ijtimoiy ahamiyati asoslandi.

7. Qurilish korxonalarining alohida xususiyatlari inobatga olinib qurilish korxonalarida bajarilayotgan qurilish xizmatlarining obyektlar qurish hamda ta'mirlash va rekonstruksiya qilish xususiyati bo‘yicha qurilish korxonalarining yangi bino va inshootlar yaratish qobiliyatini belgilab beruvchi yaratuvchanlik koeffitsiyentini aniqlash algoritimi ishlab chiqildi.

8. Qurilish korxonalarida olib borilayotgan tahlil jarayonini muhimligini aks ettiruvchi, boshqaruv jarayonida qaysi bo‘g‘inlarda ishlashi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirishda muhim dastak ekanligini ifodalovchi qurilish korxonalarida aktivlar tahlili va boshqaruv tizimini bog‘lovchi mexanizm ishlab chiqildi.

9. Respublika bo‘yicha barcha qurilish korxonalarining KPI samaradorlik ko‘rsatkichlari taqqoslanishi hamda natijalar bo‘yicha “A”, “B”, “C” hamda “D” kategoriyalarga ajratilishida aktivlar tahlilining muhimligi va ahamiyati ochib berildi.

10. Qurilish korxonalarida aktivlar tahlili natijalarining samaradorlik darajasini oshirish hamda tahlilni uzliksiz va olib borish

uchun zarur axborot manbalari o‘rganildi. O‘rganilish natijasida axborotlarning ma’lum xususiyatlariga ko‘ra guruhlarga ajratildi. Axborot manbalarining guruhlarga ajratilishi qurilish korxonalarida aktivlar tahlilini amalga oshirish jarayonida qaysi axborot manbalarining tahlil natijasiga ta’siri muhimligi baholandi.

IV BOB. QURILISH KORXONALARIDA AKTIVLAR TAHLILINI AMALGA OSHIRISHNING KONSEPTUAL YO‘NALISHLARI

4.1.Qurilish korxonalarida aktivlar holati hamda harakati tahlilini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari

Iqtisodiyotni rivojlantirish ushbu sohaga yangi innovatsiyalarni olib kirish, sohani modernizatsiya qilib borish, sohaga investitsiyalarni yo‘naltirish hamda eng muhimi kiritilgan investitsiyalar va innovatsiyalar samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash hamda ularni baholash hisoblanadi. Amalga oshiriliyotgan jarayon, ma’lum obyekt, jismoniy shaxs, ma’lum ish quroli yoki mehnat predmetini olmaylik albatta o‘zining ma’lum belgilari hamda o‘zligini ifodalab beruvchi ko‘rsatkichlari mavjuddir. Ko‘rsatkichlar va undagi ifoda etiladigan raqamlar jamiyat hayotida muhim ahamiyatga egadir. Buni muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Eng muhimi mamlakatimiz iqtisodiy siyosatida noreal raqamlar ortidan quvish, amalga oshmaydigan xomxayollarni haqiqat sifatida taqdim etishdek noma’qul ish uslubi tanqidiy qayta ko‘rib chiqildi. Amaliy natijadorlik, inson manfaati va yana bir bor inson manfaati islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi[33]” kabi fikrlarida ham ko‘rishimiz mumkin.

Ko‘rsatkichlarning hisoblash yo‘llarining aniqligi va tushunarlikgi, ko‘rsatkichlarning maqsadliligi uning samaradorligini ta’minlaydi. Iqtisodiy ko‘rsatkichlar deb, jamiyatda va uning har bir bo‘g‘inida sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni raqamlarda ifoda etuvchi ma’lum kategoriyaning nomi bilan ataluvchi tushunchaga aytiladi[34].

Korxonalarda aktivlarsiz faoliyat olib borish mumkin emas, aktivlar vositasida faoliyat olib borilmoqdami demak aktivlar doimo harakatdadir.

Korxonalarda aktivlarni holati hamda harakati tahlilini amalga oshirishga quyidagi zaruratlar mavjud.

[33] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Т.:”Ўзбекистон” НМИУ, 2018. – 4 бет.

[34] М.Қ.Пардаев. Иқтисодий таҳлил назарияси. Дарслик. Тошкент 2018.121 бет.

Birinchidan, korxonalar o‘z faoliyatini amalga oshirish jarayonida to‘liq foydalanadigan resurslardir;

Ikkinchidan, korxona faoliyati davomiyligini saqlash uchun mavjud aktivlar holatini baholash va shu asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish zarurati har doim korxonalarda mavjud;

Uchinchidan, korxona faoliyati uzluksizligini ta’minlash uchun korxonaga har doim aktivlar kirimi hamda chiqimi mavjud ekanligi;

To‘rtinchidan, korxonaning aktivlari harakati korxonaga daromad kelishini ta’minlashi.

Qurilish korxonalarida aktivlar holati tahlili bu korxona aktivlarining yaroqlilik darajasini, eskirish darajasini, umumiy aktivlaridagi ulushini, ma’lum xususiyatiga ko‘ra mavjud aktivlar guruhidagi ulushini aniqlash jarayonlarini amalga oshiruvchi tahlil hisoblanadi. Korxonalarda aktivlar tahlili ko‘proq buxgalteriya balansining vertikal tahlilining bir qismi sifatida ham yurutiladi. Korxonalarda aktivlar holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar sifatida korxonaning uzoq muddatli aktivlarini jami aktivlaridagi ulushi ya’ni korxonada mavjud aktivning qancha qismini uzoq muddatli aktivlar tashkil qilishi, joriy aktivlarning jami aktivlaridagi ulushi ya’ni joriy aktivlar jami aktivlarni qancha qismini tashkil qilishi, uzoq muddatli aktivlarni o‘zining tarkibiy qismlari asosiy vositalarni jami aktivlardagi ulushi yoki uzoq muddatli aktivlardagi ulushi, nomoddiy aktivlarning jami aktivlardagi yoki uzoq muddatli aktivlardagi ulushi, joriy aktivlarning tarkibiy tuzilishi, tovar-moddiy zaxiralarning joriy aktivlardagi ulushi yoki jami aktivlardagi ulushi kabi ko‘rsatkichlari ham aniqlanib tahlil qilinadi.

Qurilish korxonalarida aktivlar tahlilini amalga oshirishda aktivlar holati tahlilining olib borilishi korxonaning bir vaqtning o‘zida moliyaviy salohiyatini hamda iqtisodiy salohiyatini baholashga ma’lum darajada xizmat qiladi.

Korxonaning qancha aktivi mavjudligi, yaroqlilik darajasi, xodimlarni aktivlar bilan ta’minlanganlik darajasi va shu kabi ko‘rsatkichlar iqtisodiy salohiyatni ifodalab bersa, aktivlar rentabelligi, daromadliligi hamda natijaviyligi, korxonaning to‘lovga qodirligi,

moliyaviy mustaqilligi va shu kabi ko‘rsatkichlar moliyaviy salohiyatni ifodalaydi.

Aktivlar holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlarga quyidagi ko‘rsatkichlar kiradi (4.1-jadval).

4.1-jadval

Korxonalarda aktivlar holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkichlar nomi	Ko‘rsatkichni aniqlash yo‘li	Ko‘rsatkichlar
Uzoq muddatli hamda joriy aktivlarning balansdagi ulushi		
Uzoq muddatli aktivlarning balansdagi ulushi	$UMABU = \frac{UMA}{B}*100$	UMA-uzoq muddatli aktivlar, B-Balans.
Joriy aktivlarning balansdagi ulushi	$JABU = \frac{JA}{B}*100$	JA-joriy aktivlar, B-Balans.
Uzoq muddatli hamda joriy aktivlarning tarkibiy ko‘rsatkichlari		
Asosiy vositalarning uzoq muddatli aktivlardagi ulushi	$As.v.u. = \frac{As.v.q.q.}{UMA}*100$	*As.V.Q.Q*-asosiy vositalarning qoldiq qiymati, *UMA*-uzoq muddatli aktivlar.
Nomoddiy aktivlarning uzoq muddatli aktivlardagi ulushi	$N.a.u. = \frac{N.A.Q.Q}{UMA}*100$	*N.A.Q.Q*-nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymati, *UMA*-uzoq muddatli aktivlar.
Tovar moddiy zaxiralarning joriy aktivlardagi ulushi	$TMZU = \frac{TMZ}{JA}*100$	*TMZ*-tovar moddiy zaxiralar, *JA*-joriy aktivlar.
Pul mablag‘larining joriy aktivlaridagi ulushi	$PMU = \frac{PM}{JA}*100$	*PM*-pul mablag‘lari, *JA*-joriy aktivlar.
Asosiy vositalar hamda nomoddiy aktivlar holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar		
Asosiy vositalarning yangilanish koeffitsiyenti	$AVYaK = \frac{YaSAV}{YOAVBQ}$	*YaSAV*-yangi sotib olingan asosiy vositalar, *YOAVBQ*-yil oxiridagi asosiy vositalarning hisobot davri oxiridagi boshlang‘ich qiymati
Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti	$AVEK = \frac{JE}{YOAVBQ}$	*JE*-jamlangan eskirish, *YOAVBQ*-yil oxiridagi asosiy vositalarning hisobot davri oxiridagi boshlang‘ich qiymati
Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti	$AVYaRK = \frac{AVQQ}{YOAVBQ}$	*AVQQ*-Asosiy vositalarning qoldiq qiymati, *YOAVBQ*-yil oxiridagi asosiy vositalarning hisobot davri oxiridagi boshlang‘ich qiymati
O‘z mablag‘larining naqdligi		

O‘z mablag‘larining naqdligi	*O‘MN= O‘MM-UMA*	*O‘MM*-o‘z mablag‘lari manbasi, *UMA*-uzoq muddatli aktivlar.
O‘z va uzoq muddatli qarz mablag‘larining naqdligi		
O‘z va uzoq muddatli qarz mablag‘larining naqdligi	*O‘UQMN= O‘MM+UMKQ-UMA*	*O‘MM*-o‘z mablag‘lari manbasi, *UMA*-uzoq muddatli aktivlar, *UMKQ*-uzoq muddatli kreditorlik qarzlari.

Har qaysi faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalarda aktivlar shu faoliyat xususiyatidan kelib chiqqan holda harakatlanadi va joylashtiriladi.

“O‘zqishloqelektrqurilish” AJning mavjud aktivlari to‘g‘risida quyida ma’lumotlar olindi (4.2-jadval).

4.2-jadval

“O‘zqishloqelektrqurilish” AJning mavjud aktivlari to‘g‘risida ma’lumot

Mln.so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	31.12.2021-yil holatiga	31.12.2022-yil holatiga	31.12.2023-yil holatiga
1	Asosiy vositalarning qoldiq qiymati	17 865 567,00	16 695 308,00	24 572 428,16
2	Uzoq muddatli investitsiyalar	2 746 484,00	2 737 399,00	2 715 137,42
Jami uzoq muddatli aktivlar		**20 612 051,00**	**19 432 707,00**	**27 287 565,58**
4	Tovar-moddiy zaxiralar	11 047 034,00	11 426 025,00	23 524 143,96
5	Qisqa muddatli debitorlik qarzlar	45 120 361,00	18 798 799,00	47 801 028,46
6	Pul mablag‘lari	10 752 109,00	7 010 515,00	11 748 998,01
Jami joriy aktivlar		**66 919 504,00**	**37 235 339,00**	**83 074 170,43**
Jami aktivlar		**87 531 555,00**	**56 668 046,00**	**110 361 736,01**

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki “O‘zqishloqelektrqurilish” AJning yillar mobaynidagi o‘zgarish dinamikasini quyidagi rasmda ko‘rish mumkin (4.1-rasm).



4.1-rasm. “O‘zqishloqelektrqurilish” AJning aktivlar harakati dinamikasi

“O‘zqishloqelektrqurilish” AJning aktivlar harakati dinamikasidan aksionerlik jamiyatining joriy aktivlari hamda jami aktivlar qiymatlari 2022-yil 31- dekabr holati bo‘yicha sezilarli darajada o‘zgarganligini ko‘rish mumkin.

4.3-jadval

“O‘zqishloqelektrqurilish” Ajning 2023-yil 31-dekabr holatiga aktivlar holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkichlar nomi	Ko‘rsatkichni aniqlash yo‘li	Aniqlangan ko‘rsatkichlar
Uzoq muddatli hamda joriy aktivlarning balansdagi ulushi		
Uzoq muddatli aktivlarning balansdagi ulushi	$UMABU = \frac{UMA}{B}*100$	$UMABU = \frac{27\ 287\ 565,58}{110\ 361\ 736,01}*100=24,73$
Joriy aktivlarning balansdagi ulushi	$JABU = \frac{JA}{B}*100$	$JABU = \frac{83\ 074\ 170,43}{B110\ 361\ 736,01}*100=75,27$
Uzoq muddatli hamda joriy aktivlarning tarkibiy ko‘rsatkichlari		
Asosiy vositalarning uzoq muddatli aktivlardagi ulushi	$As.v.u. = \frac{As.v.q.q.}{UMA}*100$	$As.v.u. = \frac{24\ 572\ 428,16}{27\ 287\ 565,58}*100=90,05$
Uzoq muddatli investitsiyalarning uzoq muddatli aktivlardagi	$N.a.u. = \frac{N.A.Q.Q}{UMA}*100$	$N.a.u. = \frac{2\ 715\ 137,42}{27\ 287\ 565,58}*100=9,95$

ulushi		
Tovar moddiy zaxiralarning joriy aktivlardagi ulushi	$TMZU = \frac{TMZ}{JA}$*100	$TMZU = \frac{23\ 524\ 143,96}{83\ 074\ 170,43}$*100=28,32
Pul mablag‘larining joriy aktivlaridagi ulushi	$PMU = \frac{PM}{JA}$*100	$PMU = \frac{11\ 748\ 998,01}{83\ 074\ 170,43}$*100=14,14*
Qisqa muddatli debitorlik qarzlarining joriy aktivlaridagi ulushi	$QMIU = \frac{QMI}{JA} * 100$	$PMU = \frac{47\ 801\ 028,46}{83\ 074\ 170,43} * 100 = 57,54$

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki “O‘zqishloqelektrqurilish” AJning 2023-yil 31-dekabr holatiga aktivlarining asosiy qismini ya’ni 75,27 foizini joriy aktivlar tashkil qilgan bo‘lsa, qolgan 24,73 foizi uzoq muddatli aktivlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Qurilish korxonalarida aktivlar holati bu ushbu korxonada aktivlarning joylashtirilishi yoki shakllantirilishi bilan tasniflanadi. Qurilish korxonalarining faoliyat xususiyatidan kelib chiqqan holda boshqa faoliyat turlarida alohida ajralib turadigan xususiyatlari quyidagilardan iborat.

Birinchidan, qurilish obyektlarini qurilish jarayoni uzoq vaqt davom etishi inobatga olinib uzluksiz qurilish ishlarida foydalaniladigan aktivlar hamda qurilish jarayonining ma’lum bosqichida foydalaniladigan aktivlar sifatida turkumlanishi;

Ikkinchidan, qurilish korxonalarida asosiy vositalarni bo‘sh turib qolishini oldini olish nuqtayi nazaridan o‘z faoliyatida to‘liq foydalaniladigan hamda ijaraga berilgan aktivlar.

Ushbu alohida xususiyatlar inobatga olinib qurilish korxonalarida aktivlar holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tahlilida yuqorida berilgan ko‘rsatkichlar bilan birga qo‘shimcha quyidagi ko‘rsatkichlarni aniqlash aktivlar holati tahlili samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

4.4-jadval[35]

Qurilish korxonalari faoliyatining alohida xususiyatiga ko‘ra qurilish korxonalarida aktivlar holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar.

Ko‘rsatkichlar nomi	Ko‘rsatkichni aniqlash yo‘li	Ko‘rsatkichlar
Qurilish jarayonining ma’lum bosqichlarida foydalaniladigan aktivlar ulushi	$MBFA\ ulushi = \frac{MBFA}{JA}*100$	*MBFA*-ma’lum bosqichda foydalaniladigan aktivlar, *JA*-jami aktivlar.
Ijaraga berilgan aktivlarning jami aktivlardagi ulushi	$IBA\ ulushi = \frac{IBAO}{JA}*100$	*IBA*-ijaraga berilgan aktivlar miqdori, *JA*-jami aktivlar miqdori.

Korxonalarda eng muhim va doimo nazoratda bo‘ladigan jihat bu korxonalar aktivlari hamda tashkil topish manbalarining harakatini muntazam kuzatib borishidir. Buning asosiy sababi esa korxonada qaysidir aktivning harakati to‘xtab qolishi korxona faoliyatini to‘xtashiga yoki harakatsiz qolgan aktivning rentabelligini tushishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun qurilish korxonalarida yana bir guruh ko‘rsatkichlar borki bu korxonaning aktivlar hamda tashkil topish manbalarining harakatini ifodalab beradi.

Harakatni ifodalovchi ko‘rsatkichlarda asosan gorizontal tahlil qo‘llaniladi hamda korxona aktivlari va ularning tashkil topish manbalari dinamik o‘rganiladi. Qurilish korxonalari aktivlari hamda ularning tashkil topish manbalarining harakatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar quyidagicha aniqlanadi (4.5-jadval).

[35] Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi.

4.5-jadval

Qurilish korxonalarida aktivlar harakatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar.

Ko‘rsatkichlar nomi	Ko‘rsatkichni aniqlash yo‘li	Ko‘rsatkichlar
Korxona aktivlari hamda kapitalining dinamik harakati ko‘rsatkichlari		
Uzoq muddatli aktivlarning dinamik o‘zgarishi %da	$UMAdo‘\% = \frac{UMAyo}{UMAyb} * 100 - 100$	*UMAdo‘* – uzoq muddatli aktivlarning dinamik o‘zgarishi foizda, *UMAyb* – uzoq muddatli aktivlar yil boshiga, *UMAyo* – uzoq muddatli aktivlar yil oxiriga.
Uzoq muddatli aktivlarning dinamik o‘zgarishi so‘mda	*UMAs = UMAyo - UMAyo*	*UMAs* – uzoq muddatli aktivlarning dinamik o‘zgarishi so‘mda, *UMAyb* – uzoq muddatli aktivlar yil boshiga, *UMAyo* – uzoq muddatli aktivlar yil oxiriga.
Joriy aktivlarning dinamik o‘zgarishi %da	$JAdo‘\% = \frac{JAyo}{JAyb} * 100 - 100$	*JAdo‘* – uzoq muddatli aktivlarning dinamik o‘zgarishi foizda, *JAyb* – uzoq muddatli aktivlar yil boshiga, *JAyo* – uzoq muddatli aktivlar yil oxiriga.
Joriy aktivlarning dinamik o‘zgarishi so‘mda	*JAs = JAyo - JAyo*	*JAs* – uzoq muddatli aktivlarning dinamik o‘zgarishi so‘mda, *JAyb* – uzoq muddatli aktivlar yil boshiga, *JAyo* – uzoq muddatli aktivlar yil oxiriga.
Korxona aktivlarining aylanish koeffitsiyentlari hamda aylanish kunlarini ifodalovchi ko‘rsatkichlar		
Korxonaning debitorlik qarzlari aylanish kuni Debitorlik qarzlarining aylanish koeffitsiyenti	$DQak = \frac{DQo‘m}{ST}$	*DQak* – debitorlik qarzlarining aylanish kuni, *DQo‘m* – debitorlik qarzlarining o‘rtacha miqdori, *ST*- korxona sof tushimi.
	$DQqk = \frac{ST}{DQo‘m} * 365$	*DQqk* – debitorlik qarzlarining aylanish kuni, *DQo‘m* – debitorlik qarzlarining o‘rtacha miqdori, *ST*- korxona sof tushumi.

Yuqorida keltirilgan har bir ko‘rsatkich tahlil natijalaridan foydalanuvchilarga hamda tahlil jarayonini amalga oshiruvchilarga ma’lum savollarga javob berishga xizmat qiladi. Uzoq muddatli aktivlarning jami aktivlaridagi ulushi bu korxonaning uzoq muddatli aktivlari jami aktivning necha foizini tashkil qilishini ifodalasa, korxonaning asosiy vositalarining yaroqlilik koeffitsiyenti korxona asosiy vositalarining eskirish hisoblanmagan qiymatini foizda ifodalab beradi, asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti korxona asosiy vositalarining qancha qismi o‘z qiymatini xarajat sifatida sarf etganligini ko‘rsatsa, o‘z mablag‘lari naqdligi asosan ta’sischilar hamda korxona rahbari uchun korxona ish faoliyatini to‘xtatgan taqdirda ta’sischilarga qisqa muddatda qancha mablag‘ bera olishiga javob beradi. Korxonaning harakatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar agar foizda dinamik o‘rganilgan bo‘lsa demak ushbu ko‘rsatkichni yillar davomida necha foizga oshganligini ko‘rsatib beradi. Agarda ushbu ko‘rsatkich so‘mda ifodalangan bo‘lsa demak ushbu ko‘rsatkichni o‘tgan hisobot davrlarga nisbatan necha so‘mga o‘zgarganligini ifodalaydi. Aktivlarning aylanish koeffitsiyenti korxona aktivlarining ma’lum hisobot davrida necha marta o‘z qiymatini pul shakliga aylanganligini, aylanish kuni esa ushbu aktivlarning o‘rtacha necha kunda pulga aylanganligini ifodalaydi.

Korxonalarda aktivlar holati hamda harakati ko‘rsatkichlarini tahlil qilinishi korxonaning asosan moliyaviy holatini baholashga xizmat qiladi.

Korxonaning moliyaviy holati uning moliyaviy resurslari bilan ta’minlanganlik darajasini, raqobatbardoshlik va bankrotlik darajasini moliyaviy barqarorlik va to‘lovga qodirlik holatini, davlat va boshqa xo‘jalik subyektlari oldidagi majburiyatlarini bajarishga qodirligini va shu kabi ko‘rsatkichlarni tavsiflovchi kategoriya va jarayonlar natijalarini mazmunini o‘z ichiga oladi. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, korxonaning moliyaviy holatini baholash va tahlil qilish uning mulkiy holatini mavjudligi, moliyaviy barqarorligi, moliyaviy natijalarni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar bo‘yicha amalga oshiriladi. Bular bir guruh moliyaviy koeffitsiyentlardir. Moliyaviy koeffitsiyentlari orqali tahlil qilishning mohiyati moliyaviy hisobotlar asosida hisoblangan

ma’lumotlarni o‘rtacha forma me’yorlari yoki oldingi yillardagi ko‘rsatkichlar miqdori bilan, yoki boshqa firma yoki korxona ma’lumotlari bilan maxsus koeffitsiyentlari miqdorini solishtirish hisoblanadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, moliyaviy koeffitsiyentlari miqdori turli tarmoq va sohalarda turlicha bo‘ladi. Bir tarmoqda mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning turli hududlarida bir xil iqtisodiy o‘sish va salohiyat bo‘lmaganligi sababli bir tarmoqning o‘zida ham alohida koeffitsiyentlari tizimiga amal qilmaydi.

Korxonalarda moliyaviy holat tahlilini amalga oshirish jarayonida aniqlanishi lozim bo‘lgan ko‘rsatkichlar tizimi bo‘yicha ko‘plab xorijiy hamda mahalliy olimlar o‘z qarashlarini berib o‘tgan. M.To‘laxo‘jayev tomonidan moliyaviy holat tahlilini amalga oshirishda quyidagi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish tavsiya qilingan[36]:

1. Likvidlilik koeffitsiyentlari, joriy likvidlilik, muhlatli likvidlilik, mutloq likvidlilik, sof aylanma mablag‘lar.
2. Ishchan aktiv koeffitsiyentlari: aktivlar aylanishi, debitorlik qarzlarning aylanishi, kreditorlik qarzlarning aylanishi, moddiy ishlab chiqarish zaxiralarining aylanishi, operatsiya davrining uzunligi.
3. Rentabellik koeffitsiyentlari: aktivlar rentabelligi, realizatsiya rentabelligi, korxonaga tegishli mablag‘lar rentabelligi.
4. Kapitalning tarkibiy koeffitsiyentlari: moliyaviy bog‘liqlik koeffitsiyenti, mulk koeffitsiyenti, kreditorni muhofaza qilish koeffitsiyenti, aksiyaning foydaliligi koeffitsiyenti.
5. Bozorga oid koeffitsiyentlar: baho – foyda nisbati, aksiyaning daromadligi, aksiyaning balansdagi qiymati, to‘langan dividendlarning salmog‘i .

Ushbu tavsiya etilgan ko‘rsatkichlar korxonalarning moliyaviy holatini ma’lum darajada ko‘rsatib berishga xizmat qiladi. Ammo korxonaning moliyaviy holatini moliyaviy barqarorligini, moliyaviy mustaqilligi hamda moliyaviy qaramlilik kabi muhim jihatlarini ochib bera olmaydi. Korxonalarda moliyaviy holat tahlilini amalga oshirishda

[36] М.Тулахўжаевнинг “Молиявий коэффицентларнинг таҳлили” номли мақоласида. “Солиқ ва божхона хабарномалари” рўзномасининг 22 – сони.1995 йил.

tahliliy koeffitsiyentlari bo‘yicha A.N.Li va S.I.Shevchinkolar quyidagi tavsiyalarni bergan[37].

Moliyaviy holatni unumli baholash;

Moliyaviy barqarorligini (mustahkamligini) tahlil etish koeffitsiyentlari likvidik koeffitsiyentlari, korxona kapitalining tarkibiy koeffitsiyentlari, moliyaviy mustahkamligini baholash mezoni;

Korxonalar faoliyati samaradorligi tahlili, korxonalarning haqiqiy samaradorligi, korxonalarning potensial ko‘rsatkichlari, ishchanlik – aktivlik koeffitsiyentlari hamda korxona xarajatlariga, foydalariga ta’sir etuvchi omillar tahlili.

1996-yil “O‘zbekiston Respublikasi moliya qonunlari” to‘plamining 5 – ilovasida davlat tasarrufidan chiqarilgan boshqa mulk shakllariga aylantirilgan korxonalar investitsiyalar loyihalari va kredit resurslarini olish uchun biznes rejalar tuzish to‘g‘risidagi tavsiyalar chop etilgan. Bu tavsiyalarda korxonalarning moliyaviy holatini tahlil qilish maqsadida quyidagi moliyaviy koeffitsiyentlari tasdiqlangan:

- joriy likvidlik koeffitsiyenti;
- moliyaviy nomustaqillik koeffitsiyenti;
- mulk mustaqillik koeffitsiyenti;
- moliyaviy mustahkamlik koeffitsiyenti;
- asosiy fondlarni tiklash koeffitsiyenti;
- aktivlar rentabelligi.

Korxonalarning moliyaviy holatini tahlil qilish jarayonida foydalaniladigan koeffitsiyentlari bo‘yicha berilgan takliflar korxonaning moliyaviy holatini ma’lum tomonlarini ochib berishga xizmat qiladi. Ammo korxonaning moliyaviy holatini to‘liq ko‘rsatib bera olmaydi hamda qurilish korxonalari faoliyatining alohida xususiyatlarini ochib bera olmaydi.

Shundan kelib chiqib qurilish korxonalarining moliyaviy holatini baholashda korxonaning holat (uzoq muddatli hamda joriy aktivlarning balansdagi ulushi, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlarning eskirish hamda yaroqlilik koeffitsiyentlari, korxona sof aktivlari qiymati, o‘z

[37] А.Н.Ли ва С.И.Шевченколарнинг “Корхоналар молиявий таҳлилининг асосий йўналишлари” номли мақоласи. 1999 йил.“Ўзбекистон Республикасининг Молия ресурслари” тўплами.

mablag‘lari naqdligi, o‘z va qarz mablag‘lari naqdligi va b.q)ni, harakati (korxona aktivlari hamda tashkil topish manbalarining dinamik harakat koeffitsiyentlari, korxona aktivlari hamda kapitalining tarkibiy harakat ko‘rsatkichlari, korxona aktivlarining o‘z mablag‘lari hisobiga harakat ko‘rsatkichlari va b.q)ni hamda samaradorlik (aktivlar hamda passivlarning daromadlilik, natijaviylik hamda rentabellik va b.q)ni ko‘rsatib beruvchi ko‘rsatkichlar tizimini orqali baholashni tavsiya qilindi.

4.2. Aktivlar samaradorligi tahlilini amalga oshirishda qurilish xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalarning alohida xususiyatlari

Korxona uchun aktiv sifatida tan olinishining asosiy talablaridan biri egalik huquqi bo‘lishi bo‘lsa yana biri bu korxonaga samara olib kelishidir.

Har qanday harakat ma’lum samaraga erishish uchun amalga oshiriladi. Korxona tomonidan olib boriladigan har qanday faoliyatdan ham ma’lum samaralar kutiladi. Samara yoki samaradorlik bu nima?

Samara bu – natija, hosila yoki foyda.

Bundan kelib chiqadiki samara har qanday sodir bo‘lgan voqea-hodisadan olingan natija hisoblanar ekan.

Masalan qurilish korxonalari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hajmi bu qurilish korxonalari faoliyati samarasi ko‘rsatkichidir.

Mamlakatimizda qurilish korxonalari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining 2010-2023-yillardagi natijasi quyidagicha (15-jadval).

Samaradorlik bu –foydali bo‘lishlik yoki foydalilik.

Samaradorlik korxona ishlab chiqarish faoliyatining “ko‘zgusi” hisoblanadi. Bu “ko‘zgu”da ishlab chiqarishning barcha natijalarini ko‘rish mumkin.

Xizmat ko‘rsatish korxonalari samaradorligini oshirish ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda mehnat jarayonlari intensivligi va mehnat unumdorligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish, mehnat salohiyati samaradorligini ta’minlash,

ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati va natijadorligini oshirish, iste’molchilarning talab va ehtiyojlarini to‘liqroq qondirish bilan baholanadi[38].

Samaradorlik deganda — berilgan resurslar (vaqt, mehnat, moliya va boshqalar) yordamida maqsadga erishish darajasi yoki faoliyat natijasining darajasi tushuniladi. Ya’ni, samaradorlik — bu qandaydir jarayon yoki faoliyat qanchalik unumli, natijali va foydali ekanligini o‘lchovchi ko‘rsatkichdir.

Umumiy samaradorlikni quyidagicha tasniflash mumkin.

- **Resurslardan foydalanish samaradorligi** — resurslarni kamaytirib, ko‘proq natija olish.
- **Natijalar samaradorligi** — qo‘yilgan maqsad yoki vazifalarga erishish darajasi.
- **Iqtisodiy samaradorlik** — daromad yoki foyda bilan xarajatlar nisbatining yaxshiligi.

“Samaralilik” atamasi ishlab chiqarishning eng yuqori miqdoriga erishish uchun eng kam miqdordagi kirishlardan foydalanadigan samaradorlikning eng yuqori darajasini bildiradi.

Samaradorlik ma’lum mahsulot ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan keraksiz resurslar sonini, shu jumladan shaxsiy vaqt va energiyani kamaytirishni talab qiladi.

Samaradorlik o‘lchanadigan tushuncha bo‘lib, uni foydali ishlab chiqarishning umumiy kirishga nisbati yordamida aniqlash mumkin. Yuqori samaradorlik jismoniy materiallar, energiya va vaqt kabi resurslarning isrof qilinishini minimallashtiradi, shu bilan birga kerakli natijaga erishadi[39].

Samaradorlikka qo‘shimcha ta’rif beradigan bo‘lsa samaradorlik bu – olingan natijaning dinamik o‘zgarish darajasi hamda o‘rtacha natijadorlik darajasi sifatida baholash mumkin[40].

---

[38] Z.S.Artikov “Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalari samaradorligini oshirish imkoniyatlari” ilmiy maqola, JOURNAL OF MARKETING, BUSINESS AND MANAGEMENT(JMBM)/SJIF FACTOR: 5.57-02.05.2021.

[39]Carvalho, Thyago P., et al. "A systematic literature review of machine learning methods applied to predictive maintenance." *Computers & Industrial Engineering,* Vol. 137. 2019, 106024.

[40]. Elijah, Olakunle, et al. "An overview of Internet of Things (IoT) and data analytics in agriculture: Benefits and challenges." *IEEE Internet of things Journal,* Vol. 5, No .5. 2018, Pp. 3758-3773

4.6-jadval

Hududlar bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi

(*mlrd.so‘mda*)

№	Hududlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
1	O‘zbekiston Respublikasi	8245,8	9504,8	11753,9	15219,3	20060,4	25423,1	29413,9	34698	51129,3	71156,5	88130,3	107492,7	130790,9	150792,6
2	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	237,1	398,6	537,2	720,8	1053,5	1219,3	1171,8	1398,8	2182,7	3315,4	3992,5	4480,6	5272,4	5315,9
3	Andijon viloyati	345,3	534,4	672,9	862,7	1131,8	1341,9	1578	1782,9	2819,5	3539,1	4673	5657,8	6864,1	7384,3
4	Buxoro viloyati	580	793,5	978,5	1279,6	1648,4	2061,7	2202,9	2543,7	3581,2	4368,1	5659,8	7401,1	8448,7	9468,8
5	Jizzax viloyati	211,5	294,3	363,3	532,2	659,5	759,2	906,1	996,1	1564,3	2510,6	2715	3085,4	3446,4	3947,7
6	Qashqadaryo viloyati	699,2	791,5	997,9	1168,2	1560	2067,5	2560	2759,1	3701,1	4365,3	4832,6	6336,6	7793,8	9490,9
7	Navoiy viloyati	418,9	575	653,8	746	891,7	1019,2	1153,1	1313,5	2280,8	3464	3944,7	5155,5	5855	6744,1
8	Namangan viloyati	347,9	475,9	548,9	730,9	890,4	1010,4	1289,9	1475,2	2257,6	3471	4678,2	5556,7	6653,2	7342,2
9	Samarqand viloyati	519,7	745	926,2	1214,5	1562,8	2010,6	2194,9	2342,4	3299	4527,2	5755,3	7385,7	8895,4	10177,6
10	Surxondaryo viloyati	335,9	470,6	605,3	849,5	1051,5	1351,3	1554,8	1827	2879,7	3979,7	4774,7	5868,4	6521,9	7596,5
11	Sirdaryo viloyati	134,9	168	230,3	313	376,5	478,9	540,7	552,4	1001,1	1926,2	2407,6	2708,8	3260,1	3676,7
12	Toshkent viloyati	509,9	684,2	907,1	1151,7	1330,9	1562	1646,3	1825,4	3006,7	5594,1	7102,6	9401,2	12237,4	14339
13	Farg‘ona viloyati	489,2	671	806,5	1089,7	1396,2	1649	1840	1969,5	2942,7	4162,8	5473,9	6993,7	8646	9917,1
14	Xorazm viloyati	282,7	390,1	528,7	790,3	961,4	1174,7	1220,9	1375,8	1878,3	2496,8	2856,8	4228,5	4878,4	5766,6
15	Toshkent shahri	1228,4	1866,5	2300,5	2725,6	3460,1	4113	4633,4	6197,9	10870,7	16256,9	19215,4	26535,4	32946,3	37245,5

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turubdiki mamlakatimizda amalga oshirilgan qurilish xizmatlari 2023-yilda 150 792.6 mlrd.so‘mni tashkil qilgan. Hududlar bo‘yicha eng katta ko‘rsatkichni 37 245.5 mlrd.so‘m bilan Toshkent shahri egallagan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkich 3 947.7 mlrd.so‘m bilan Jizzax viloyatiga to‘g‘ri kelmoqda.

4.7-jadval

Hududlar bo‘yicha bajarilgan qurilish xizmatlarining o‘zgarish tendensiyasi

(*foizda*)

№	Hududlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
1	O‘zbekiston Respublikasi	105,1	107,8	113,7	117,2	117,6	118,8	107,2	106	114,3	122,9	109,5	106,8	106,6	107
2	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	121,8	150,8	121,8	119,9	119,3	105,3	89,4	112,3	125,8	128	107	103,8	107,3	94,7
3	Andijon viloyati	119,5	141,8	112,1	113	118,3	107,1	106,4	103,1	121,8	99,3	109,5	108,7	109,2	102,4
4	Buxoro viloyati	114,2	124,7	114,8	116,8	104,7	116,2	98,2	106,4	119,8	114,9	117	111,8	101,5	103,7
5	Jizzax viloyati	117,2	126,4	115	131,3	111,2	105,6	109,7	99	129	146,9	101,5	116,2	107	108
6	Qashqadaryo viloyati	125,2	104,9	114,6	105,1	116,7	124,9	114,4	99,9	110,9	103,2	98,3	117,6	105,3	109,8
7	Navoiy viloyati	127,2	123,7	112,5	109,9	112,4	102,2	100,3	105,4	147,5	125,6	94,6	116,8	105,5	107,9
8	Namangan viloyati	132,9	121,8	107,3	117,6	106,2	102,6	108,6	102,4	123	140,8	118,3	109,1	108,5	105,3
9	Samarqand viloyati	139,9	128,7	115,6	119,2	108,7	119,5	100,2	95,3	119,6	126,2	111,7	117,8	111,8	110,1
10	Surxondaryo viloyati	144,7	128,2	116,9	123,6	107,7	118,9	106,7	107,3	129,7	121,2	109	112,9	101,6	110,5
11	Sirdaryo viloyati	154,7	110	121,2	113,8	108,5	117,1	100,2	99,8	149	158,2	110,2	109,9	99,7	101,6
12	Toshkent viloyati	126,6	119,5	120,5	114	104	109,4	100,2	100,3	131,1	155,8	107,8	115,3	108,6	106,3
13	Farg‘ona viloyati	132,3	129,6	105,5	115,7	109,1	109	102,8	95,4	120,4	118,8	115,3	115,3	113,8	107,9
14	Xorazm viloyati	129,1	131	121,8	126,4	103,2	116	101,8	108,2	114	119,3	97,4	130,9	101,8	107,1
15	Toshkent shahri	89,4	136,2	111,9	109,8	115,9	107,3	102,8	120,5	136,5	135,5	106,6	118,3	104,4	103,9

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turubdiki mamlakatimizda qurilish xizmatlarining o‘zgarish tendensiyasi bo‘yicha 10,5 foiz bilan Surxondaryo viloyatiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, eng past o‘sish 1,6 foiz bilan Sirdaryo viloyatiga to‘g‘ri kelmoqda. Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa 2023-yilda qurilish xizmatlari hajmini 5,3% ga kamayishi kuzatilgan.

Qurilish korxonalari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining dinamik o‘zgarish darajasi birinchi samaradorlik ko‘rsatkichidir.

Mamlakatimizda qurilish korxonalari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining 2010-2023-yillardagi dinamikasi quyidagicha (16-jadval).

Qurilish xizmatlari hajmi o‘rganilganda qurilish xizmatlari umumiy hajmi orqali baholash yetarlicha xulosa chiqarishga kamlik qiladi. Buning sababi esa inflyatsiya ta’siri bilan baholanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida mavjud viloyat, shahar hamda tumanlarida ishchi kuchi taqsimotining turli xilligi, hududlarda uy-joyga bo‘lgan talabning turli darajada ekanligi hamda qurilish ishlarini amalga oshirishda zarur bo‘lgan qurilish materiallarining ishlab chiqarish korxonalarini turli hududlarda joylashganligi hisobiga hududlarda qurilayotgan uy-joyning tannarxi turlicha miqdorda shakllanadi.

Natijada mamlakatdagi viloyatlar bo‘yicha uy-joy narxlari bir-biridan farq qiladi.

Mamlakat darajasida 2022-2023-yillarda uy-joy narxlarining statistikasi o‘rganilda hamda quyidagi natijalar olindi (4.8-jadval).

4.8-jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2022-2023-yillarda uy-joy narxlarining statistikasi

№	Klassifikator	2022-Q1	2022-Q2	2022-Q3	2022-Q4	2023-Q1	2023-Q2	2023-Q3	2023-Q4
1	O‘zbekiston Respublikasi	101,3	104,7	105,6	103,9	102,6	103,5	110,4	113
2	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	101,2	101,7	102,8	100,3	102,1	102,7	109,6	113,7
3	Andijon viloyati	104,1	103,3	104,1	103,3	103,7	104,9	107,2	112
4	Buxoro viloyati	100,5	100,9	103,1	101,9	104,6	104,2	106,2	110,4
5	Jizzax viloyati	100,6	104,5	103,6	100,5	100,9	103,7	109	108,7
6	Qashqadaryo viloyati	100,7	103	103,1	100,7	105,6	103,4	106,5	109,8
7	Navoiy viloyati	100,8	100,7	101,8	102,6	101,6	102,8	107,9	109,2
8	Namangan viloyati	100,8	103,4	104,8	101,6	102,1	103,5	108,8	110,6
9	Samarqand viloyati	103,9	103	103,4	103,1	102,3	102	112	113,3
10	Surxondaryo viloyati	100,5	101,7	104,1	104,2	105,7	104,2	106,9	109,7
11	Sirdaryo viloyati	100,6	101,7	101,4	101,6	102	103,8	107,5	109,9
12	Toshkent viloyati	105,5	102,1	104,2	103,4	101,9	104,6	107,2	109,2

13	Farg‘ona viloyati	101,3	103,3	104,4	101,6	102,5	103,4	107,7	108,7
14	Xorazm viloyati	101,1	102,1	103,3	102,2	102	102,7	107,5	108,4
15	Toshkent shahri	100,4	106,3	107,1	104,9	102,3	103,8	112	115

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki mamlakatda 2022-2023-yillar davomida uy-joy narxlarining eng ko‘p ko‘tarilishi Toshkent shahriga eng past ko‘rsatkichi esa Xorazm viloyatiga to‘g‘ri kelmoqda.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida samaradorlik ko‘rsatkichlarining alohida o‘rni mavjud. Iqtisodiy faoliyat natijalilikni, foydalilikni taqozo etadi.

Korxona aktivlaridan oqilona foydalanib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin. Bunday faoliyat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘nalishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Samaradorlik ko‘rsatkichlari - bu, foydalilik, natijadorlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlardir. Ma’lumki, qandaydir natija olish uchun mehnat qilish, ishlash, mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish va ma’lum miqdorda xarajat qilish kerak. Samaradorlik ko‘rsatkichlari, avvalo, korxona faoliyatining sifat jihatlarini tavsiflovchi tushunchadir. U “samara” toifasidan kelib chiqadi hamda unga qaraganda murakkab va majmua tavsifiga ega. Samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun natijani shu natijaga erishishga sarflangan xarajatlar yoki resurslar bilan taqqoslash kerak. Demak, samaradorlik ishlab chiqarish faoliyati natijalar bilan ularga erishish uchun sarflangan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarning o‘zaro nisbatidir. Samaradorlik ko‘rsatkichlari chora sifatida ko‘plab texnik, iqtisodiy, loyiha va xo‘jalik qarorlarini avvaldan belgilab beradi. Korxona o‘zining xo‘jalik, ilmiy-texnik va investitsion siyosatini belgilashda samaradorlikdan kelib chiqadi.

Samaradorlik ko‘rsatkichlarini iqtisodiy va ijtimoiy turlarga bo‘lish shartli bo‘linish hisoblanadi. Moddiy ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan va mehnat xarajatlari bilan bog‘liq bo‘lgan natijalarning hammasini iqtisodiy va ma’lum ma’noda, ijtimoiy samara deb aytish mumkin. Bu yerda shuni eslatib o‘tish kerakki, iqtisodiy va ijtimoiy tushunchalarning sun’iy bo‘linishi haqida bahslashish mumkin. Lekin, iqtisod ijtimoiy hayotdan tashqarida bo‘lmagani kabi, ijtimoiy hayot ham iqtisodsiz bo‘lmaydi. Demak, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi.

Chunki amalga oshirilgan har bir ish ayni vaqtda ham iqtisodiy, ham ijtimoiy samara keltiradi. Iqtisodiy samaradorlik koʻrsatkichlari ishlab chiqarishning iqtisodiy natijasini koʻrsatadi. Masalan, mahsulot ishlab chiqarish-boshqaruv, yangi texnika va texnologiyani joriy etish, mehnat sifatini oshirish va hokazolarning natijasi. Iqtisodiy samara-material, mehnat, pul va boshqa resurslarni tejash tufayli erishilgan miqdor. U vaqtni tejash, qurilish muddatlarini qisqartirish, mehnat sarfini tejash, ish vaqtining zoye ketishini kamaytirish, mablagʻlar oborotini tezlashtirish, mahsulot yetishtirish hajmini oʻstirish, ishlar sifatini yaxshilash va boshqa natijalar bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy samaradorlik koʻrsatkichlari shaxsning har tomonlama kamol topishiga yordam beradigan tadbirlarni amalga oshirish samaradorligini ifodalaydi. U mehnat va turmush sharoitlari yaxshilanishida, xodimlar malakasini oshirishda aks etadi va asosiy oziq-ovqat, korxona tovarlarining aholi jon boshiga iste'mol qilinishi, ijtimoiy iste'mol fondlaridan beriladigan nafaqa va imtiyozlar, kadrlar tayyorlash boʻyicha xarajatlarning oʻsishi bilan tavsiflanadi. Ushbu samaralar ishlab chiqarishning oʻzida vujudga kelayotganini va birlashib bajarilgan mehnat tufayli ishlovchilar oʻrtasidagi munosabatlar ta'riflanishini nazarda tutsak, ularni ijtimoiy-iqtisodiy samara deb atasak boʻladi.

Afsuski, bozor sharoitlarida "samaradorlik" tushunchasi, garchi, daromad olish, xarajatlarni kamaytirish, mehnat samaradorligining oʻsishi, fond qaytimi, rentabellik va hokazolar samaradorlik tabiatiga mos kelib, bozor iqtisodiyoti talablariga zid kelmasa-da, baho, foyda, daromad, xarajat kabi tushunchalarga qaraganda kam qoʻllanilmoqda. Samarali ishlash degani oʻz mohiyatiga koʻra, moʻljallangan (rejalashtirilgan) foydani olish, noishlab chiqarish xarajatlari va yoʻqotishlarni kamaytirish, ishlab chiqarish quvvatlari va ishchi kuchidan yaxshiroq foydalanish, mehnat samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini yaxshilashni anglatadi.

Turli korxonalarda samaradorlikka erishish uchun mavjud ishlab chiqarish quvvatlari va boshqa xususiyatlardan kelib chiqqan holda, turli vosita va yoʻllardan foydalaniladi. Bunda vaqt omili, ya'ni samaradorlikka qisqa yoki uzoq muddatlarda erishishni moʻljallash,

asosiy rollardan birini o‘ynaydi. Masalan, korxona olayotgan foydasini qisqa vaqt mobaynida mahsulot sifatini yaxshilashni mablag‘ bilan ta’minlash, ishlab chiqarishni qayta qurollantirish va modernizatsiya qilish, xodimlar malakasini oshirishga ajratilayotgan mablag‘larni kamaytirish yo‘li bilan ko‘paytirishi mumkin. Uzoq muddatli rejalarda esa bu, foydaning kamayishiga va hattoki korxonaning bozordagi o‘rnini yo‘qotishi natijasida bankrotga uchrashiga olib kelishi mumkin.

Xorijiy firma va korxonalar o‘z faoliyatlarida samaradorlikka erishish uchun ishlab chiqarish texnika va texnologiyalariga e’tiborni kuchaytirishdan tashqari, mahsulot sifatini oshirish va uni reklama qilishga alohida e’tibor qaratmoqdalar. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadiki, samara va samaradorlik qotib qolgan kategoriyalar qatoriga kirmaydi hamda faqatgina pul ko‘rinishida o‘lchanmaydi. Samaradorlik va sifatli mehnat tufayli korxona:

*birinchidan***,** o‘zining iqtisodiy barqarorligi va bozordagi raqobatchilikka bardosh berishini ta’minlaydi,

*ikkinchidan***,** o‘z imidjini yaxshilaydi va hamkorlar bilan aloqalarini mustahkamlaydi,

*uchinchidan***,** xodimlarning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini yaxshilaydi.

Yuqorida keltirilganlardan xulosa qilishimiz mumkinki korxonalarda aktivlar tahlilini samaradorlik ko‘rsatkichlarisiz tasavvur qilish mumkin emas.

Qurilish korxonalarida aktivlar tahlili amalga oshirilganda asosiy tahliliy ko‘rsatkichlar bu samaradorlik ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Qurilish korxonalarida samaradorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilishdan maqsad korxonaning har bir amalga oshirilayotgan faoliyati, korxona tomonidan sarflanadigan har bir so‘m xarajatning qaytimi va foydaliligi hamda korxonada foydalanilayotgan barcha aktivlari bilan xususiy kapitalning foydaliligini baholash hisoblanadi.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib samaradorlik tahlili oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

- Korxona aktivlarining rentabelligini baholash;
- Korxona aktivlarining daromadliligini baholash;

- Korxona aktivlari natijaviyligini baholash;
- Korxonaning operatsion reja ko‘rsatkichini tahlil qilish;

Qurilish korxonalarining xizmat muddatining uzoqligi, korxona tomonidan har bir obyekt bo‘yicha olinadigan daromadning aniqligi ammo xarajatlarning o‘zgaruvchanligi, mamlakatimizda mavjud qurilish korxonalarining bajaradigan ishi subpudratchilar tomonidan bajarilishi kabi alohida xususiyatlarini hisobga olsak yuqorida o‘rganilishi lozim bo‘lgan barcha ko‘rsatkichlarni aniqlashda mavjud muammolar vujudga keladi. Qurilish korxonalarida aktivlar samaradorligini aniqlashda asosiy ko‘rsatkichlardan biri bu aktivlar rentabelligi hisoblanadi. Korxonalarda aktivlar rentabelligini aniqlashni bir nechta usullari berilgan. Shunday ko‘rsatkichlardan biri bu Uilyam Biver tomonidan tavsiya qilingan usul hisoblanadi. Bunga ko‘ra aktivlar rentabelligi quyidagicha aniqlanadi.

$$Ra = \frac{SF * 100}{A}$$

Bu yerda:

Ra – aktivlar rentabelligi;

Sf – korxonaning hisobot davridagi sof foydasi;

A – hisobot davridagi aktivlarning o‘rtacha qiymati[41].

Korxonalarda aktivlar rentabelligi bo‘yicha ko‘pchilik olimlar tomonidan yuqorida berilgan usul ma’qullangan hamda qo‘llanilib kelinmoqda. Korxonaning aktivlar samaradorligini hisoblash bo‘yicha esa professor M.Q. Pardayev tomonidan quyidagicha formula taklif qilingan.

$$FS = \frac{TM}{A}$$

Fs – Akiivlar samaradorligi;

Tm – Tovar mahsulot hajmi;

A – aktivlarning o‘rtacha yillik qiymati[42].

Qurilish korxonalarida bir qism ishlar subpudratchilar tomonidan bajarilishini hamda yana bir qismi ijaraga olingan aktivlar tomonidan

[41] Бернстайн Л.А. Анализ финонсовой отчётности: теория, практика и интерпритатsiя: Пер с анг.- М.: Финонсы и статистика, 1996.-7,480 стр.

[42] M.Q.Pardayev. “Moliyaviy va boshqaruv tahlili”. O‘quv qo‘llanma. Cho‘lpon.Toshkent-2012.

bajarilishini va qaysidir qism ishlar transport xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalar tomonidan bajarilishini inobatga oladigan bo‘lsak qurilish korxonalarida aktivlar rentabelligini aniqlashda yuqorida keltirilgan formula orqali aniqlash ko‘rsatkichni realligini ta’minlamaydi. Chunki qurilish korxonalarida sof foydani jami aktivlarning o‘rtacha qiymatiga bo‘lsak korxonaning aktivlarini rentabellik ko‘rsatkichini sun’iy oshirish bo‘lib qoladi. Bunga asosiy sabab erishilgan sof foydaning barchasi korxonaning aktivlari hissasiga to‘g‘ri kelmasligi lozim. Bu yerda subpudratchilar xizmati, transport xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar xizmati hamda ijaraga olingan asosiy vositalar samarasi hisobga olinmay qoladi. Shu sababdan qurilish korxonalarida rentabellik ko‘rsatkichlarini turlarga ajratib olish maqsadga muvofiqdir. Bular quyidagilar.

4.9-jadval

Qurilish korxonalari faoliyatning alohida xususiyatlari asosida rentabellik ko‘rsatkichlarini aniqlash usullari[43].

Qurilish korxonalari jami aktivlari rentabellik ko‘rsatkichlari		
Ko‘rsatkichlar nomi	**Ko‘rsatkichni aniqlash yo‘li**	**Ko‘rsatkichlar**
Individual rentabellik	$$IR = \frac{SF * \frac{JBI - STBI}{JBI} * 100}{A}$$	*IR*-individual rentabellik; *SF*-sof foyda; *JBI*-jami bajarilgan ish; *STBI*-subpudrvtchilar tomonidan bajarilgan ish; *A* – aktivlarning o‘rtacha miqdori.
Umumiy rentabellik	$$UR = \frac{SF * 100}{A}$$	*SF* – sof foyda; *A* – aktivlarning o‘rtacha miqdori; *UR*-umumiy rentabellik.

Qurilish korxonalarida asosiy vositalar rentabelligini hisoblashda ham ushbu formuladan foydalanilsa korxonada qurilish korxonalarining o‘z asosiy vositalariga tegishli qism sof foydasi ajratilib olinib shu orqali

[43] Muallif ishlanmasi.

asosiy vositalar rentabelligi aniqlanadi. Qurilish korxonalarida jami asosiy vosita xarajatlariga quyidagi xarajatlar kiritiladi:

1. Qurilish korxonalarida asosiy vositalariga hisoblangan eskirish xarajatlari;
2. Subpudratchilar tomonidan bajarilgan ishlardagi asosiy vositalarga qilingan xarajatlar;
3. Transport xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarga to‘langan haqlar;
4. Ijaraga olingan asosiy vositalarga to‘lanishi kerak bo‘lgan shartnoma summalari.

Smeta xarajatlarida barcha asosiy vositalarga qilinadigan xarajatlar alohida beriladi. Demak smeta bo‘yicha asosiy vositalar bo‘yicha xarajatlar jamlangan holda ko‘rsatiladi. Bundan kelib chiqadiki smeta bo‘yicha xarajatlarda qurilish korxonalarida asosiy vositalariga hisoblangan eskirish xarajatlari, subpudratchilar tomonidan bajarilgan ishlardagi asosiy vositalarga qilingan xarajatlar, transport xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarga to‘langan haqlar va ijaraga olingan asosiy vositalarga to‘lanishi kerak bo‘lgan shartnoma summalari umumlashtirilgan holda keltirilganligi sababli qurilish korxonalari o‘zining imkoniyatidan kelib chiqib jami bajariladigan qurilish ishlarini o‘z asosiy vositalari orqali amalga oshirsa qolganlarini ijara, subpudratchilar hamda xizmat ko‘rsatish korxonalari orqali amalga oshiradi. Shu sababli biz formulada birinchi qurilish korxonalari tomonidan asosiy vositalariga hisoblangan eskirish xarajatlarini ajratib olamiz hamda jami asosiy vositalar bo‘yicha qilingan xarajatlaridagi koeffitsiyentini aniqlaymiz.

Koeffitsiyent aniqlangach korxona sof foydasini ushbu koeffitsiyentga ko‘paytiramiz va shu orqali korxonaning o‘z asosiy vositalariga tegishli foyda summasini aniqlaymiz. Foyda summasini aniqlagach 100 ga ko‘paytirib asosiy vositalarning o‘rtacha miqdoriga bo‘lamiz. Natijada qurilish korxonalarida o‘rtacha har 100 so‘mlik asosiy vosita qancha miqdorda foyda olib kelayotganligini aniqlaymiz.

“Asl Mars Mo‘jizasi” MCHJning 2023-yilgi aylanma qaydnomasi hamda yillik qilingan smeta xarajatlarini o‘rganish orqali korxona 2023-

yilda asosiy vositalariga hisoblangan eskirish summasi 312 857.0 ming so‘mga tengligi hamda smeta bo‘yicha jami asosiy vositalar bo‘yicha xarajatlar 914 520.0 ming so‘mligi aniqlandi. Korxonaning moliyaviy hisobotining birinchi shakli “Buxgalteriya balansi” hamda ikkinchi shakli “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot” o‘rganilganda korxonada mavjud asosiy vositalarning yil boshidagi qiymati 3 420 000.0 ming hamda yil oxiriga 3 546 000.0 ming so‘mligi va korxona 542 000.0 ming so‘m sof foydaga chiqqanligi aniqlandi. Berilgan ma’lumotlar asosida “Asl Mars Mo‘jizasi” MCHJning asosiy vositalar rentabelligini aniqlaymiz.

Bunda dastlab asosiy vositalarning o‘rtacha miqdori aniqlanadi. Asosiy vositalarning o‘rtacha miqdorini aniqlashda oddiy o‘rtacha arifmetikadan foydalanamiz.

Asosiy vositalarning o‘rtacha miqdori:

$$AVo‘m = \frac{AVyb + AVyo}{2}$$

Bu yerda:

AVo‘m – asosiy vositalarning o‘rtacha miqlori,

AVyb – asosiy vositalarning yil boshidagi qiymati,

AVyo – asosiy vositalarning yil oxiridagi qiymati,

“Asl Mars Mo‘jizasi” MChJning asosiy vositalarining o‘rtacha qiymatini aniqlaymiz:

$$AVo‘m = \frac{AVyb + AVyo}{2} = \frac{3\,420\,000.0 + 3\,546\,000.0}{2} = 3\,483\,000.0$$

Natijadan ko‘rinib turibdiki, korxonaning asosiy vositalarining hisobot davridagi o‘rtacha qiymati 3 483 000.0 ming so‘mni tashkil qilar ekan. Asosiy vositalarning o‘rtacha qiymati aniqlangach korxonaning asosiy vositalari rentabelligini aniqlaymiz.

Asosiy vositalar rentabelligi:

$$\frac{542\,000.0 * \frac{312\,875.0}{914\,520.0} * 100}{3\,483\,000.0} = 5.3$$

Agarda biz ushbu ko‘rsatkichni boshqa faoliyat turlaridagi korxonalarda aniqlangani kabi asosiy vositalar rentabelligini aniqlasak quyidagi natijaga ega bo‘lar edik:

$$\frac{542\,000.0 * 100}{3\,483\,000.0} = 15.5$$

Olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, ikkinchi natijamizda korxona o‘rtacha ishlatayotgan har 100 so‘mlik asosiy vositasi orqali o‘rtacha 15 so‘m foydaga chiqmoqda, ammo erishilgan 542 000.0 so‘mlik foydani barchasi korxonaning o‘zining asosiy vositasi orqali olinmagan. Faoliyati davomida olingan sof foydaning faqatgina 34 % i qurilish korxonasining o‘zining asosiy vositalari hisobiga to‘g‘ri keladi. Chunki jami bajarilgan qurilish ishidagi asosiy vositalar bo‘yicha qilingan xarajatning 34 % i qurilish korxonasi asosiy vositalari hisobiga to‘g‘ri keladi.

$$U = \frac{312\,875.0}{914\,520.0} * 100 = 34.2$$

Shuning uchun olingan samaraning ya’ni sof foydaning ham 34 %ini olib rentabellikni hisoblash maqsadga muvofiq hisoblanib chiqadiki, qurilish korxonasi hisobot davrida o‘rtacha har 100 so‘mlik asosiy vositasidan 15 so‘m emas 5 so‘m sof foydaga erishgan deb aytishimiz mumkin.

Qurilish korxonalarida samaradorlik ko‘rsatkichlarining asosiylaridan yana biri bu asosiy vositalar daromadlilik ko‘rsatkichidir. Qurilish korxonalarida asosiy vositalar daromadliligini quyidagicha aniqlash maqsadga muvofiq:

$$D = \frac{JD * \frac{A}{SAX} * 100}{AV}$$

Bunda:

D – qurilish korxonalarida asosiy vositalar daromadliligi;

JD– hisobot davridagi jami daromad;

A – asosiy vositalarga hisobot davrida hisoblangan eskirish summasi;

SAX- smeta bo‘yicha jami asosiy vositalar bilan bog‘liq xarajatlari;

AV – asosiy vositalarning o‘rtacha miqdori.

Qurilish korxonalarida boshqa tur aktivlar bo‘yicha ham ushbu usullardan foydalangan holda rentabellik hamda daromadlilik ko‘rsatkichlari aniqlansa qurilish korxonalari aktivlarining samaradorlik ko‘rsatkichlarini realligi ta’minlangan hamda korxona aktivlarini boshqarish bo‘yicha qabul qilingan boshqaruv qarorlarini natijaviyligi oshishi ta’minlanadi.

4.3. Xalqaro standartlarga moslashtirilgan aktivlar tahlilini amalga oshirishda qurilish korxonalarining o‘ziga xos xususiyatlari

Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning asosida mamlakatda barcha sohalarini mavjud imkoniyatlar asosida maksimal rivojlantirish hamda shu orqali mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini mustahkamlash va aholi turmush darajasini yaxshilash, barcha sohalar bo‘yicha mamlakatning xalqaro bozordagi o‘rnini mustahkamlash hisoblanadi. Qaysi hudud yoki qaysi sohaga kirib bormang ushbu sohaning tartib-tamoyillarini bilmasangiz, unga amal qilmasangiz u sohada muqim qololmaysiz. Shu boisdan bugungi kunda hisob hamda tahlilning oldidagi asosiy masalalardan biri bu xalqaro standartlarga o‘tishdir. Bu borada mamlakatimizda bir qancha ishlar olib borilmoqda. Xususan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 24-fevral sanasida PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori imzolandi. Ushbu qabul qilingan qaror mamlakatimizda hisob hamda tahlilni yangi bosqichga olib chiqdi.

MHXSlari asosida moliyaviy hisobot tuzish korxonaga quyidagi imkoniyatlarni yaratib beradi:

Birinchidan, xalqaro darajada korxonalar faoliyatining bir-biri bilan taqqoslash imkoniyati yaratiladi;

Ikkinchidan, kompaniya faoliyati natijalarining shaffofligini oshiradi;

Uchinchidan, axborot foydalanuvchilarda bitta kompaniya doirasida moliyaviy ko‘rsatkichlarni davrlar bo‘yicha hamda bir nechta xil

kompaniyalar bo‘yicha esa taalluqli ko‘rsatkichlarni bir-biriga solishtirib tahlil o‘tkazish imkoniyati tug‘iladi;

To‘rtinchidan, kreditorlar, aksiyadorlar, kredit beruvchi tashkilotlarda kompaniyaga ishonch oshadi va yuqori ishonch bilan kompaniya faoliyatiga pul qo‘yadi, kompaniyaning kredit olish imkoniyati kengayadi;

Beshinchidan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xorijiy investorlar bilan hamkorlik yuksaladi;

Oltinchidan, dunyo bozorlariga chiqish, xomashyo, valyuta, mehnat birjalariga, xalqaro kapital bozoriga chiqish imkoniyatlari tug‘iladi;

Yettinchidan, kompaniya menejerlariga boshqaruv qarorlarini qabul qilishlari uchun ishonchli, obyektiv, uyg‘un hamda o‘z vaqtida tizimlashgan moliyaviy axborotlarni olish imkoniyatlari yuzaga keladi;

Sakkizinchidan, kompaniya faoliyatini budjetlashtirish, rejalashtirish va strategik rivojlanishini baholashda zarur axborotlar bilan ta’minlanadi;

To‘qqizinchidan, kompaniya boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, kompaniya raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot sifatini oshirish va eksport salohiyatini yuksaltirishga erishiladi.

Korxonalarda aktivlar tahlili yuzasidan mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan chop etilgan adabiyotlar soni shu darajada ko‘pki ularni o‘rganish asosida bitta xulosaga kelish mumkin, ya’ni xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyat holatini baholash doimo keng qiziquvchilar (menejerlar, mulk egalari va kontragentlar) e’tiboridagi muhim masalalardan biri bo‘lgan. Moliyaviy holat va undagi o‘zgarishlarni tahlil etish orqali nafaqat bo‘lib o‘tgan jarayonlarning samaradorligi va natijaviyligiga,balki ularning kelgusidagi kutilishlari ham qilinadi. Bu esa raqobatdosh iqtisodiyot sharoitida yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy holati va undagi o‘zgarishlarni baholash, tahlil etishda O‘zbekiston va xorij amaliyotining o‘xshash jihatlari juda ko‘p. Chunki global iqtisodiyot barcha davlatlarning hisob, audit va tahlil tizimida ham yagonalashuvni talab etadi. Xuddi shu sababli ham buxgalteriya hisobi va auditning,

moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlari ishlab chiqilgan va amal etilmoqda. Ya’ni, xalqaro iqtisodiy aloqalarning yagona “biznes tili” rasmiy jihatdan shakllangan. Shu sababli ham, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari asosida rivojlanuvchi barcha davlatlarda moliyaviy holat va undagi o‘zgarishlarni tahlil etish tashkiliy, uslubiy jihatdan farq qilsa ham mazmun jihatdan bir xilda yuritiladi.

Korxonalarda aktivlar tahlilining asosiy farqli jihatlarni xo‘jalik yuritish shart-sharoitlarining turlichaligida, buxgalteriya hisobotlari va ularni tuzish qoidalarida, uslubiy jihatlarda shuningdek ko‘proq nazariy asoslarda ko‘rish mumkin.

Shuningdek, xo‘jalik yuritishning shart-sharoitlari yuzasidan juda ko‘p farqli jihatlarni kuzatish mumkin. Bu birinchi navbatda, tizimning iqtisodiy rivojlanishi va boshqaruvning farqli jihatlari bilan xarakterlanadi[44].

Xo‘jalik yuritishning farqli jihatlari albatta axborot oqimini shakllantirishning amaldagi holatiga ham sezilarli ta’sir etadi. Bitta, xo‘jalik yurituvchi subyektlarni yirik, o‘rta va kichik biznes subyektlari qatoriga kiritishning o‘zi ham davlatlar o‘rtasida tubdan farq qiladi.

Rivojlangan davlatlarda buxgalterlarning bosh vazifasi korxonaning davlat oldidagi axborot majburiyatlarini (moliyaviy, soliq, bojxona, statistik hisobotlar orqali) hal etishga emas balki birinchi navbatda mulk egasi va menejerlarning samarali boshqaruvini ta’minlashga qaratilgan vazifalarni hal etib berishga qaratilgan.

Moliyaviy tahlil etishdagi o‘xshash jihatlarni buxgalteriya hisobining muhim tamoyili bo‘lgan mazmunning shakldan ustunligi tamoyili bilan izohlash mumkin. Rivojlangan davlatlar moliyaviy hisobotlari bilan O‘zbekistondagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tuziladigan moliyaviy hisobot shakllari soni va ularning nomlanishi yuzasidan bir muncha farq kuzatiladi.

Amalda tuziladigan va taqdim etiladigan moliyaviy hisobotning asosiy shakli “Buxgalteriya balansi” (1-shakl) rasmiy tuzilishi va mazmun bo‘yicha xorij amaliyotidan tubdan farq qilmaydi. Xalqaro

[44] Рахимов М.Ю. Иқтисодиёт субъектларининг молиявий ҳолатининг таҳлили.Т.: Молия-иқтисод, 2015.-316 б.

hamda milliy standartlar bo‘yicha buxgalteriya balansi tuzilishida ma’lum bir yangi aktiv guruhlari hamda ularni tan olish mexanizmlari farqlanishi mumkin.

Engeneering News-Record xalqaro qurilish korxonalari statistikasini yurituvchi tashkilot tomonidan 250 ta qurilish korxonalari ro‘yxati shakllantirilgan.

Tadqiqot ishida ushbu qurilish korxonalarining uchtasi ACS (Actividades de Construcsion Servicios) qurilsh korxonasi Ispaniya, “Hochtief Aktiengesellschaft” qurilish kompaniyasi Germaniya hamda VINCI qurilish korxonasi AQSH kabi qurilish korxonalarining moliyaviy holat ko‘rsatkichlari o‘rganildi.

O‘rganish natijasida ACS (Actividades de Construcsion Servicios) qurilish korxonasining 2023-yillik daromadi 34.94 mlrd. Yevro (39,26 mlrd.dollar)ni, “Hochtief Aktiengesellschaft” qurilish kompaniyasi 22,95 mlrd.Yevroni hamda VINCI qurilish korxonasi 43,93 mlrd. Yevroni tashkil qilishi aniqlandi.

Xalqaro qurilish tashkilotlarining daromad ko‘rsatkichlari bilan birga aktivlar holat, harakat hamda samaradorlik ko‘rsatkichlari ham o‘rganib chiqildi hamda o‘rganib chiqish natijasida moliyaviy hisob xalqaro standartlari asosida ishlab chiqilgan korxonalarning moliyaviy hisobot shakllaridan foydalanildi.

ACS (Actividades de Construcsion Servicios) qurilish korxonasining 2023-yil 31-dekabr holatiga moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisoboti quyidagicha (4.10-jadval).

4.10-jadval

ACS (Actividades de Construcsion Servicios) qurilish korxonasining 2023-yil 31-dekabr holatiga moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisoboti

Mln.dollar

Aktivlar	
Joriy aktivlar	
Pul mablag‘lari	32 800
Inventarlar	39 800
Jami joriy aktiv	72 600
Asosiy vositalar	
Boshlang‘ich qiymat	100 000
Jamlangan eskirish	2 000

Jami asosiy vositalar	98 000
Boshqa aktivlar	
Savdo belgilari	20 000
Jamlangan eskirish	8 000
Jami boshqa aktivlar	12 000
Jami aktivlar	**182 600**
Majburiyatlar	
Joriy majburiyatlar	
Ta’minotchilar bilan hisob-kitob	49 000
Hisoblangan xarajatlar	1 000
Jami joriy majburiyatlar	50 000
Uzoq muddatli majburiyatlar	25 000
Jami majburiyatlar	**75 000**
O‘z kapitali	
O‘z kapitali	
Oddiy aksiyalar	20 000
Taqsimlanmagan foyda	87 600
Jami o‘z kapitali	**107 600**
Jami passiv	**182 600**

ACS (Actividades de Construcsion Servicios) qurilish korxonasining
2023-yil 31-dekabr holatiga berilgan moliyaviy holat to‘g‘risigagi hisobot bo‘yicha korxonaning aktivlar holati o‘rganildi.

Birinchidan, asosiy vositalarni jami aktivlardagi ulushi ko‘rsatkichi.

$$Jami\ aktiv_{asosiy\ vosita\ \%} = \frac{Asosiy\ vosita}{Jami\ aktiv} * 100 = \frac{98\,000{,}00}{182\,600{,}00} * 100 = 54\%$$

Ikkinchidan, joriy aktivlarni jami aktivlardagi ulushi ko‘rsatkichi.

$$Jami\ aktiv_{joriy\ aktiv\ \%} = \frac{Joriy\ aktivlar}{Jami\ aktiv} * 100 = \frac{72\,600{,}00}{182\,600{,}00} * 100 = 40\%$$

Uchinchidan, boshqa aktivlarni jami aktivlardagi ulushi ko‘rsatkichi.

$$Jami\ aktiv_{boshqa\ aktiv\ \%} = \frac{Boshqa\ aktivlar}{Jami\ aktiv} * 100 = \frac{12\,000{,}00}{182\,600{,}00} * 100 = 6\%$$

Tahlil natijasida ACS (Actividades de Construcsion Servicios) qurilish korxonasining 2023-yil 31-dekabr holatiga aktivlarini 54%ini asosiy vositalar, 40%ini joriy aktivlar hamda 6%ini nomoddiy aktivlar tashkil qilganligi aniqlandi.

“Hochtief Aktiengesellschaft” qurilish kompaniyasining 2023-yil 31-dekabr holatiga moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisoboti quyidagicha (20-jadval).

“Hochtief Aktiengesellschaft” qurilish kompaniyasining 2023-yil 31-dekabr holatiga berilgan moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot bo‘yicha korxonaning aktivlar holati o‘rganildi.

Birinchidan, asosiy vositalarni jami aktivlardagi ulushi ko‘rsatkichi.

$$Jami\ aktiv_{asosiy\ vosita\ \%} = \frac{Asosiy\ vosita}{Jami\ aktiv} * 100$$

$$= \frac{2\ 300\ 000{,}00}{2\ 475\ 000{,}00} * 100 = 93\%$$

Ikkinchidan, joriy aktivlarni jami aktivlardagi ulushi ko‘rsatkichi.

$$Jami\ aktiv_{joriy\ aktiv\ \%} = \frac{Joriy\ aktivlar}{Jami\ aktiv} * 100 = \frac{175\ 000{,}00}{2\ 475\ 000{,}00} * 100$$

$$= 7\%$$

Tahlil natijasida Hochtief Aktiengesellschaft” qurilish kompaniyasining 2023-yil 31-dekabr holatiga aktivlarini 93%ini asosiy vositalar, 7%ini joriy aktivlar tashkil qilganligi aniqlandi.

Juda ko‘p mualliflar xo‘jalik subyektlari moliyaviy holatiga baho berishning muhim manbasi bo‘lgan buxgalteriya balansi va uning tarkibiy tuzilishini belgilashda aktivlarning likvidlik darajasi bo‘yicha qayta tarkiblanishi va qiziquvchilarning keng qatlami uchun ham tushunarli bo‘lishi lozimligini qayd etadilar[45].

4.11-jadval

Hochtief Aktiengesellschaft” qurilish kompaniyasining 2023-yil 31-dekabr holatiga moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisoboti

Aktivlar	
Joriy aktivlar	
Pul mablag‘lari	1 075 000,00

[45] Рахимов М.Ю. Иқтисодиёт субъектларининг молиявий ҳолатининг таҳлили.Т.: Молия-иқтисод, 2015.-316. б.

Kutilayotgan tushum	100 000,00
Jami joriy aktiv	**1 175 000,00**
Uzoq muddatli aktivlar	
Asbob va jihozlar	2 000 000,00
Yer va bino	300 000,00
Jami uzoq muddatli aktivlar	**2 300 000,00**
Jami aktivlar	**3 475 000,00**
Majburiyatlar	
Joriy majburiyatlar	
Qisqa muddatli qarz	800 000,00
Ta’minotchilar bilan hisob-kitob	1 080 000,00
To‘lanadigan soliq	90 000,00
Jami joriy majburiyat	**1 970 000,00**
Uzoq muddatli majburiyatlar	
Uzoq muddatli qarz	80 000,00
Pensiya va boshqa nafaqalar	105 000,00
Jami uzoq muddatli majburiyatlar	**185 000,00**
Jami majburiyatlar	**2 155 000,00**
O‘z kapitali	
Oddiy aksiya	1 285 000,00
Taqsimlanmagan foyda	35 000,00
Jami o‘z kapitali	**1 320 000,00**
Jami passiv	**3 475 000,00**

Moliyaviy holat tahlilining uslubiy jihatlarida ham ayrim farqlanishlar kuzatiladi. Lekin aksariyat hollarda ularning bir xilligini kuzatish mumkin.

Korxonalarda aktivlar tahlilini xalqaro standartlarga moslashtirishda amalga oshirish uchun olib boriladigan bosqichlar mavjud. Bular birinchidan, korxonaning aktivlar holati, harakati hamda samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni aniqlashda foydalaniladigan ko‘rsatkichlar guruhini xalqaro standartlarga moslashtirish, ikkinchidan, aniqlanadigan ko‘rsatkichlar tizimini aniqlash usullarini xalqaro standartlarga moslashtirish. Moliyaviy ko‘rsatkichlar bu nima? Moliyaviy ko‘rsatkichlar – korxonaning moliyaviy faoliyati natijalarini o‘zida aks ettiruvchi ko‘rsatkichlardir. Moliyaviy ko‘rsatkichlar xalqaro darajada kredit risklarini baholovchi, kelajakda foyda va dividendlar

haqida farazlarni shakllantiruvchi va moliyaviy menejerlar qarorlarini samaradorligini oshiruvchi kabi tasniflangan[46].

Rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy ko‘rsatkichlar likvidlilikni ifodalovchi, aktivlarni boshqarishdagi ahamiyat bo‘yicha, qarzlarni boshqarishdagi o‘rni bo‘yicha, samaradorlikni boshqarish bo‘yicha hamda bozor qiymatini aktivlarga ta’siri bo‘yicha guruhlarga ajratilgan (4.12-jadval).

4.12-jadval

Rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy holat ko‘rsatkichlar tizimi[47]

Likvidlik koeffitsiyentlari[48]	Aktivlarni boshqarish koeffitsiyentlari[49]	Qarzni boshqarish koeffiyentlari[50]	Rentabellik koeffitsiyentlari[51]	Bozor qiymati koeffitsiyentlari[52]
• Mutloq lividlik koeffitsiyenti, • Tez (shoshilinch) likvidlik koeffitsiyenti, • Joriy likvidlik koeffitsiyenti.	• Tovar ayriboshlash koeffitsiyenti, • Debitorlik qarzlarining aylanish koeffitsiyenti, • Aktivlar hamda kapital aylanish koeffitsiyentari	• Leveredj koeffitsiyenti, • Foizlarni qoplash koeffitsiyenti.	• Rentabellik koeffitsiyenti, • Daromadlilik koeffitsiyenti, • Natijaviylik koeffitsiyenti.	• Narx-daromad nisbati, • Bir aksiya uchun narx/ pul oqimi nisbati, • Aksiyalarning bozor/balans qiymati

Ushbu guruh ko‘rsatkichlari ham o‘z o‘rnida ma’lum ko‘rsatkichlar tizimini o‘z ichiga oladi.

Xorij amaliyotida moliyaviy holatni baholashda quyidagi tarkib ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish ham tavsiya etilgan.

---

[46] *Бригхэм Ю., Эрхардт М.* Финансовый менеджмент. 10-е изд. / Под. ред. к.э.н. Е. А. Дорофеева. — СПб.: Питер, 2007. — 960 с.

[47] Росс С., Вестерфилд Р., Джордан Б. Основы корпоративных финансов. — М.: Лаборатория Базовых Знаний, 2001. — 720 с

[48] В.С. Панфилов // Большая российская энциклопедия : [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов. — М. : Большая российская энциклопедия, 2004—2017., О. И. Лаврушина. Деньги, кредит, банки : учебник / колл. авт. ; под ред. засл. деят. науки РФ, д-ра экон. наук, проф.— 3-е изд. перераб. и доп. — М. : КНОРУС, 2006. — 560 с.

[49] Росс С., Вестерфилд Р., Джордан Б. Основы корпоративных финансов — М.: Лаборатория базовых знаний, 2001 — С.82-83 — 704 с. , Weygandt, J. J., Kieso, D. E., & Kell, W. G. (1996). *Accounting Principles* (4th ed.). New York, Chichester, Brisbane, Toronto, Singapore: John Wiley & Sons, Inc. p. 802..

[50] *Чернов В. Б., Уразбахтин И. Р.* Влияние оборачиваемости запасов на финансовый результат // Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия: Экономика и менеджмент,. — 2012. — № 9. — С. 40—42.

[51] *Прудников А.Г., Новожилов И. М., Лола Н. А.* Совершенствование методики анализа оборачиваемости материально-производственных запасов

[52] *Киперман Г.* При каких условиях выгоден кредит на текущие нужды? // Финансовая газета. Региональный выпуск. — 2007. — № 40.

1. Likvidlik ko‘rsatkichlari. Xalqaro amaliyotda ushbu ko‘rsatkichlar tizimi “liquidity ratios”[53] deb nomlanadi.

2. Moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari. Xalqaro amaliyotda ushbu ko‘rsatkichlar tizimi “finansial leverage[54]”, ayrim manbalarda “leverage ratios” deb nomlanadi.

3. Foyda, rentabellik ko‘rsatkichlari. Xalqaro amaliyotda mazkur ko‘rsatkichlar tizimi “profitability ratios” deb nomlanadi.

4. Ish aktivligi ko‘rsatkichlari. Xorij amaliyotida ushbu ko‘rsatkichlar tizimi “effisiensy ratios” deb nomlanadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, O‘zbekiston va xalqaro amaliyotda moliyaviy tahlilda keskin farqlanishlar yo‘q. Muammo nimada? Muammo, ularning yagona tizimga solinmaganligi va uslubiy, metodologik asoslar bir-biridan farq etishida deyish mumkin. Yana bir muhim jihat, xorij amaliyotida tijorat korxonalari, kompaniyalar ko‘rsatkichlarining bozor qiymatini tahliliga alohida urg‘u beriladi. Mazkur ko‘rsatkichlar qatoriga:

- sof foydaning muomaladagi aksiyalar soniga nisbati;
- dividend to‘lovlarining sof foydadagi salmog‘i;
- aksiyalarga yillik dividend to‘lovlarining ularning o‘rtacha bozor qiymatiga nisbati;
- aksiyaning bozor bahosining va bitta aksiyaga to‘g‘ri keladigan sof foyda nisbati ko‘rsatkichlari kiritiladi.

Mazkur ko‘rsatkichlar asosida firma va kompaniyalarning bozor aktivligi ko‘rsatkichlariga baho beriladi. O‘zbekiston amaliyotida ushbu tahlil turi moliyaviy holatni baholash masalalari doirasiga kirmaydi va faoliyat samaradorligining muhim ko‘rsatkichlari sifatida alohida o‘rganiladi. Mazkur tahliliy ko‘rsatkichlarlarni aniqlash, qiyosiy o‘rganishning zaruriy jihatlari va ahamiyatligi korxonanalarning moliya bozoridagi ishtiroki hamda aktivligining qay darajadaligi bilan

[53] K. R. Subramanyam FINANCIAL STATEMENT ANALYSIS, ELEVENTH EDITION Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by, 646 бет.
[54] K. R. Subramanyam FINANCIAL STATEMENT ANALYSIS, ELEVENTH EDITION Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by, 479- бет.

belgilanadi. Ya’ni bozor aktivligi ko‘rsatkichlarini baholash orqali investitsion faollik, jozibadorlik ko‘rsatkichlari baholanadi.

Korxonalarda hisobni hamda tahlilni amalga oshirishda xalqaro standartlar asosida amalga oshirish korxonaga ko‘plab imkoniyatlar yaratib beradi. Moliyaviy hisobning xalqaro standartlari hamda buxgalteriya hisobining milliy standartlari orqali ishlab chiqilgan moliyaviy hisobot shakllari bir muncha farqlanadi.

1. Hisobot shakllarining nomlanishi bo‘yicha.

Buxgalteriya hisobi milliy standartlari bo‘yicha:

1-shakl. Buxgalteriya balansi;

2-shakl. Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot;

3-shakl: Asosiy vositalar harakati to‘g‘risidagi hisobot;

4-shakl: Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot;

5-shakl: Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot.

Moliyaviy hisob xalqaro standartlari bo‘yicha:

1. moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot;
2. foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to‘g‘risidagi hisobot;
3. davr uchun kapitaldagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi hisobot;
4. davr uchun pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot;
5. izohlar, ya’ni ahamiyatli hisob siyosatlarining va boshqa tushuntirish ma’lumotlarining qisqa bayonini qamrab olgan izohlar;
6. oldingi davr uchun qiyosiy ma’lumot;
7. oldingi davr boshiga moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot, qachonki tadbirkorlik subyekti hisob siyosatini retrospektiv tarzda qo‘llasa, yoki o‘zining moliyaviy hisobotlaridagi moddalarni retrospektiv tarzda qayta hisoblashni amalga oshirsa, yoki qachonki u o‘zining moliyaviy hisobotlaridagi moddalarni qayta tasniflasa[55].

2. Hisobot shakllari qamrab oladigan ko‘rsatkichlar bo‘yicha.

Moliyaviy hisobning xalqaro standartlari bo‘yicha tuzilgan moliyaviy hisobot shakllari ko‘rsatkichlari bilan buxgalteriya hisobi milliy standartlari asosida tuzilgan moliyaviy hisobot shakllaridagi ko‘rsatkichlar bir muncha farqlanadi.

---

55 1-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti *Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish*

Buni birinchi shakl “Buxgalteriya balansi” ko‘rsatkichlarida ko‘rib chiqamiz. Ushbu shaklda keltirilgan ko‘rsatkichlardan farqli tomonlari quyidagilar:

- moliyaviy aktivlar;
- ulush bo‘yicha hisobga olish usuli bo‘yicha hisobga olingan investitsiyalar;
- biologik aktivlar;
- savdo bo‘yicha va boshqa debitorlik qarzlari;
- MHXS 5 «*Sotish uchun mo‘ljallangan uzoq muddatli aktivlar va davom ettirilmaydigan faoliyat»* ga muvofiq sotishga mo‘ljallangan sifatida tasniflangan aktivlar va sotishga mo‘ljallangan sifatida tasniflangan hisobdan chiqariladigan moddalarning guruhlariga kiritilgan aktivlar jami;
- savdo bo‘yicha va boshqa kreditorlik qarzlari;
- moliyaviy majburiyatlar:
- MHXS 5 ga muvofiq sotish uchun mo‘ljallangan sifatida tasniflangan hisobdan chiqariladigan moddalarning guruhlariga kiritilgan majburiyatlar;
- kapital tarkibida aks ettirilgan, nazorat kuchiga ega bo‘lmagan ulushlar;
- bosh tashkilotning mulk egalariga tegishli bo‘lgan, chiqarilgan kapital va kapitaldagi rezervlar.

Qurilish korxonalarida moliyaviy holat tahlilini xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonida asosiy e’tibor qaratilishi kerak bo‘lgan jihatlardan biri tahlil natijasi avvalo investorlar talablariga moslashtirilish lozim. Buning sababi moliyaviy hisob xalqaro standartlari asosida shakllantirilgan hisobot shakllari ya’ni tahlilning asosiy axborot manbasi asosan investorlar uchun xizmat qiladi.

Korxonalarda moliyaviy holatni ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri bu korxonaning to‘lovga qodirlik koeffitsiyentidir. Bu koeffitsiyentni aniqlash uchun dastlab xalqaro standartlar bo‘yicha majburiyatlarni so‘ndirish tartiblarini ko‘rib chiqamiz.

37-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti “Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar”da majburiyatlar – bu tashkilotning bo‘lib o‘tgan hodisalardan yuzaga keladigan mavjud javobgarligi bo‘lib, so‘ndirilishi natijasida tashkilotdan o‘zida iqtisodiy nafni mujassamlashtirgan resurslarning chiqib ketishi kutiladi[56]. Ushbu standartga asosan majburiyatlar asosiy majburiyatlar, baholangan majburiyatlar, yuridik majburiyatlar hamda shartli majburiyatlarga bo‘linadi. 19-son MHXSShQ sharhi “Moliyaviy majburiyatlarni ulushli instrumentlar bilan so‘ndirish”da debitor va kreditor debitorning kreditorga ulushli instrumentlar chiqarish orqali majburiyatni qisman yoki to‘liq so‘ndirish bilan natijalanadigan moliyaviy majburiyat shartlarini qayta ko‘rib chiqishlari mumkin. Bunday operatsiyalar ba’zida “Ulushli instrumentlar evaziga qarz instrumentlari svoplari” kabi ataladi deb izohlangan[57]. Yana bir standartga sharhda 17-son MHXSShQ sharhi “Pulsiz aktivlarning mulkdorlarga taqsimlanishi”da esa moliyaviy hisobotning xalqaro standardlari (MHXSlar) tashkilot o‘zining mulkdorlariga aktivlar taqsimlanishini (odatda dividendlar deb yuritiladi) qanday baholash lozimligi to‘g‘risida ko‘rsatma bermaydi. 1-son BHXS tashkilotdan aktivlar taqsimlanishi sifatida tan olingan dividendlar tafsilotlarini mulkdorlarga xususiy kapitaldagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi hisobotda yoki moliyaviy hisobotlarga izohlarda taqdim etishni talab qiladi. Mazkur sharh tashkilot tomonidan mulkdor sifatida ishtirok etadigan mulkdorlarga aktivlarning qaytarilmas taqsimlanishining quyidagi turlariga nisbatan qo‘llanadi: a) pulsiz aktivlarni taqsimlash (masalan, asosiy vositalar, 3-son MHXSda belgilangan bizneslar, boshqa tashkilotdagi egalik ulushlari yoki 5-son MHXSda belgilangan hisobdan chiqarilgan guruhlar); va mulkdorlarga pulsiz aktivlarni yoki pul muqobilini tanlash imkoniyatini beradigan taqsimlash deb berilgan. Bundan kelib chiqadiki xalqaro amaliyotda korxona majburiyatlarini so‘ndirishda uzoq muddatli investitsiyalardan ham foydalaniladi. Shundan kelib chiqib qurilish

[56] 37-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti “Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar”.
[57] 19-сон МҲХСШҚ Шарҳи “Молиявий мажбуриятларни улушли инструментлар билан сўндириш”.

korxonalarida to‘lov qobiliyati koeffitsiyentini quyidagicha aniqlashni tavsiya qilindi.

$$\boldsymbol{TQK = \frac{JA + UMI}{MKM}}$$

Bu yerda:

TQK – to‘lovga qodirlik koeffitsiyenti,

UMI – uzoq muddatli investitsiyalar,

MKM - muddati kelgan majburiyatlar.

Berilgan ushbu tavsiya orqali to‘lovga qodirlik koeffitsiyenti aniqlanganda korxonaning real to‘lovga qodirlik darajasi ifodalanadi. Buning sababi yuqorida keltirib o‘tilganidek xalqaro standartlarga muvofiq korxonalar majburiyatlarini so‘ndirishda ma’lum bir biznesning bir qismidan foydalanishi yoki ma’lum olingan aksiya yoki obligatsiyalar orqali ham amalga oshirishi mumkin. Bundan tashqari uzoq muddatli debitorlik qarzlari tarkibida qaytarilishi mumkin bo‘lgan vaqtinchalik farqlar bo‘yicha foyda solig‘idan ham foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

ACS (Actividades de Construcsion Servicios) hamda “Hochtief Aktiengesellschaft” qurilish korxonalarining mavjud ko‘rsatkichlari orqali to‘lovga qodirlik darajasi o‘rganilganda quyidagi natijalarga erishildi.

1. ACS (Actividades de Construcsion Servicios) korxonasining 2023-yil

31-dekabr holatiga to‘lovga qodirlik darajasi.

$$\boldsymbol{TQK = \frac{JA + UMI}{MKM} = \frac{72\,600,00}{50\,000,00} = 1,45}$$

2. “Hochtief Aktiengesellschaft” qurilish korxonasining 2023-yil

31-dekabr holatiga to‘lovga qodirlik darajasi.

$$\boldsymbol{TQK = \frac{JA + UMI}{MKM} = \frac{1\,175\,000,00}{1\,970\,000,00} = 0,6}$$

3. “O‘zqishloqelektrqurilish” aksionerlik jamiyatining qurilish korxonalarining 2023-yil 31-dekabr holatiga to‘lovga qodirlik darajasi.

$$TQK = \frac{JA + UMI}{MKM} = \frac{83\,074\,170,43 + 2\,715\,137,42}{36\,841\,792,00} = 2,33$$

Xalqaro darajada korxonining moliyaviy holatini ifodalab beruvchi yana muhim ko‘rsatkichlardan biri-bu: moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichidir. Bu ko‘rsatkichni aniqlashdan oldin korxona uchun shartli aktiv, baholangan aktiv, shartli majburiyat hamda baholangan majburiyat tushunchalariga aniqlik kiritib olamiz.

Baholangan majburiyat – bu noaniq bajarish muddatiga yoki noaniq qiymatga ega bo‘lgan majburiyatdir.

Shartli majburiyat – bu: (a) oldingi hodisalardan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan va uning mavjudligi faqatgina tashkilotning to‘liq nazorati ostida bo‘lmagan kelgusi noaniq hodisalarning biri yoki bir nechtasi sodir bo‘lishi yoki sodir bo‘lmasligi natijasida tasdiqlanadigan ehtimolli javobgarlikdir; yoki (b) oldingi hodisalardan yuzaga keladigan mavjud javobgarlik, lekin ular tan olinmaydi, chunki (i) javobgarlikni bajarish uchun o‘zida iqtisodiy nafni mujassamlashtirgan resurslarning chiqib ketishining talab etilishi ehtimoli yo‘q; yoki (ii) javobgarlikning qiymati yetarli darajada ishonchli baholana olmaydi.

Shartli aktiv – bu oldingi hodisalardan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan va uning mavjudligi faqatgina tashkilotning to‘liq nazorati ostida bo‘lmagan kelgusi noaniq hodisalarning biri yoki bir nechtasi sodir bo‘lishi yoki sodir bo‘lmasligi natijasida tasdiqlanadigan ehtimolli aktivdir[58].

IV bob bo‘yicha xulosa.

1. Korxonalarda aktivlarni holati hamda harakati tahlilini amalga oshirish zarurati mavjud ekanligi asoslandi.

2. Qurilish korxonalari faoliyatini alohida xususiyatlari inobatga olinib qurilish korxonalari faoliyatining alohida xususiyatiga ko‘ra qurilish korxonalarida aktivlar holatini ifodalovchi qurilish jarayonining ma’lum bosqichlarida foydalaniladigan aktivlar ulushi hamda ijaraga

[58]37-сон Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандарти Баҳоланган мажбуриятлар, шартли мажбуриятлар ва шартли активлар.

berilgan aktivlarning jami aktivlardagi ulushi koʻrsatkichlarini aniqlash tartibi keltirildi.

3. Qurilish korxonalarining moliyaviy holatini baholashda korxonaning holat (uzoq muddatli hamda joriy aktivlarning balansdagi ulushi, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlarning eskirish hamda yaroqlilik koeffitsiyentlari, korxona sof aktivlari qiymati, oʻz mablagʻlari naqdligi, oʻz va qarz mablagʻlari naqdligi va b.q)ni, harakati (korxona aktivlari hamda tashkil topish manbalarining dinamik harakat koeffitsiyentlari, korxona aktivlari hamda kapitalining tarkibiy harakat koʻrsatkichlari, korxona aktivlarining oʻz mablagʻlari hisobiga harakat koʻrsatkichlari va b.q)ni hamda samaradorlik (aktivlar hamda passivlarning daromadlilik, natijaviylik hamda rentabellik va b.q)ni koʻrsatib beruvchi koʻrsatkichlar tizimi orqali baholashni tavsiya qilindi.

4. Mamlakat darajasida qurilish xizmatlari 2023-yilda 150 792.6 mlrd. soʻmni tashkil qilganligi, hududlar boʻyicha eng katta koʻrsatkichni 37 245.5 mlrd. soʻm bilan Toshkent shahri, eng past koʻrsatkich 3 947.7 mlrd. soʻm bilan Jizzax viloyatiga toʻgʻri kelishi, qurilish xizmatlarining oʻzgarish tendensiyasi boʻyicha 10,5 foiz bilan Surxondaryo viloyatiga, eng past oʻsish 1,6 foiz bilan Sirdaryo viloyatiga toʻgʻri kelishi aniqlandi.

5. Qurilish korxonalarida bir qism ishlar subpudratchilar tomonidan bajarilishi hamda yana bir qismi ijaraga olingan aktivlar tomonidan bajarilishi va qaysidir qism ishlar transport xizmatlari koʻrsatuvchi korxonalar tomonidan bajarilishi inobatga olinib qurilish korxonalarida aktivlar rentabelligini aniqlashda mavjud formula orqali aniqlash koʻrsatkichni realligini ta’minlamasligi, chunki qurilish korxonalarida sof foydani jami aktivlarning oʻrtacha qiymatiga boʻlinsa korxonaning aktivlarini rentabellik koʻrsatkichi sun’iy oshirilib koʻrsatilishi, bunga asosiy sabab erishilgan sof foydaning barchasi korxonaning aktivlari hissasiga toʻgʻri kelmasligi, bu yerda subpudratchilar xizmati, transport xizmatlarini koʻrsatuvchi korxonalar xizmati hamda ijaraga olingan asosiy vositalar samarasi hisobga olinmay qolishi asoslandi hamda, qurilish korxonalarida rentabellik koʻrsatkichlarini turlarga ajratib

aniqlash kerakligi va rentabellik ko‘rsatkichlarini aniqlash algoritmlari berildi.

V BOB. QURILISH KORXONALARIDA AKTIVLAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI

5.1.Qurilish korxonalarida aktivlarni tizimli tahlilini amalga oshirish imkoniyatlari

Olib borilayotgan hamda amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan jarayonning natijasi albatta ushbu jarayonni amalga oshirish metodi, uning ishlab chiqilgan dasturi hamda amalga oshirish bosqichlarining tizimli ishlab chiqilganligiga bog‘liq hisoblanadi. Amalga oshirish yo‘llari hamda unda foydalanadigan usullar yig‘indisi esa jarayonni amalga oshirish metodi hisoblanadi.

Metod (yunoncha “metodos” - bilish yoki tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot) –voqelikni amaliy va nazariy egallash, o‘zlashtirish, o‘rganish, bilish uchun yo‘l- yo‘riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli. Metodologiya – tadqiqotchining nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimi hamda bunday tizim haqidagi ta’limot.

Buxgalteriya hisobining ajralmas elementi sifatida iqtisodiyotdagi tizimli tahlilning asoschisi fransuz olimi Jak Savari hisoblanadi. Tizimli tahlilni takomillashtirish bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilgan hamda ta’riflari berib o‘tilgan. Shunday ta’riflardan birida tizimli tahlilga quyidagicha ta’rif berilgan: tizimli tahlil – taqdim qilingan har qanday obyektni tizim sifatida tahlil orqali tadqiq qilish metodologiyasi[59]. Shunday ta’riflardan yana biri Rossiya Federatsiyasida nashr qilingan “Большая экономическая энцеклопедия”da keltirilgan quyidagi ta’rifdir: tizimli tahlil-ko‘p sonli usullar va vositalar orqali murakkab obyektlar, jarayonlar, ko‘p darajali va ko‘p komponentli tizimlarni o‘zaro aloqadorligiga kompleks yondashuv asosida tadqiq qilish usuli[60].

Korxonalarda tizimli tahlilni tashkil qilish bo‘yicha ko‘plab olimlarning o‘z izlanishlari va izlanish natijalari mavjud. Rus olimi L.I.Lopatnikov tizimli tahlil bo‘yicha o‘z izlanishlarini olib borib tizimli

[59] “Математика ва кебирнетика в экономике”. Словар справочник.Изд.2-е, перераб. Идоп. – М.:”Экономика”, 1975. – 515 бет.
[60] “Болшая экономическая энцеклопедия”. М.:Эскмо, 2007.-695 бет.

tahlilga “tizimli tahlil deganda, tizimli xarakterga ega bo‘lgan murakkab obyektlarni tadqiq qilishning umumiy prinsiplarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy fan tushuniladi” kabi ta’rif berib o‘tgan[61]. Bundan tashqari tizimli tahlil bo‘yicha Dj.A.Xoffer, J.F.Djorodj, J.S.Valachich, E.John, A.V.Antonov, V.S.Anfilatov, F.P.Tarasenko, A.A.Bogdanov[62] kabi xorijiy olimlar izlanishlar olib borgan. Mamlakatimiz olimlaridan M.Q.Pardayev, S.Otamuradov, V.A.Karimova, A. Xudoynazarov[63] kabilar tizimli tahlil bo‘yicha o‘z izlanishlarini olib borgan. Professor M.Q.Pardayev “tizimli tahlil deganda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar, jarayonlar va obyektlarni ko‘p sonli usullar va vositalar orqali, ularning o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligiga kompleks yondashuv asosida tadqiq qilish usuli tushuniladi[64]” degan ta’rifni bergan.

Demak yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan bo‘lsa qurilish korxonalarida moliyaviy holat tahlilini natijaviylik darajasi tahlil jarayonida tanlangan metod va tahlil jarayonida foydalaniladigan tahlil qilish usullariga chambarchas bog‘liq ekan. Bugungi kunga qadar korxonalarda moliyaviy holat tahlilini, xusuan aktivlar tahlilini amalga oshirishni bir nechta metodikasi ishlab chiqilgan va amaliyotda foydalanishga tavsiya etilgan. Ushbu metodikalardan biri bu A.D.Sheremet hamda R.S.Sayfulin tomonidan taklif qilingan metodika hisoblanadi (22-jadval).

Ushbu metodikaga ko‘ra korxonalarda moliyaviy holat tahlilini amalga oshirishda quyidagi jihatlarga alohida ahamiyat qaratish hamda quyida belgilangan tartibda va ketma-ketlikda amalga oshirish nazarda tutilgan. Ko‘rib chiqilayotgan metodika bo‘yicha moliyaviy holatni umumiy baholash va uni hisobot davri uchun o‘rganish korxonalar moliyaviy holati tahlilining birinchi bosqichi sifatida qaralib keyingi bosqichlar sifatida moliyaviy barqarorlikni tahlil qilish hamda korxonaning balans likvidligi, ishbilarmonlik faoliyati va to‘lov

[61] Л.И.Лапотников Экономика – математический словарь. – М.: “Наука”, 1987. – 323 бет.
[62] Дж.А.Хоффер, Ж.Ф.Джордж, Ж.С.Валачич. Современный системный анализ и проектирование. – США.: Пиарсон эдукatsion. 2002./, А.В.Антонов Системный анализ М. 2002., В.С.Анфилотов Системный анализ: учеб. Для вузов.2008.
[63] С.Отамуродов. Глобаллашув ва миллий-манавий хавфсизлик. Т. “Ўзбекистон”. 2013, В.А.Каримова ва бошқалар. Тизимли таҳлил асослари. Дарслик. Т. Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти. 2014., А.Худойназаров.Тизимли таҳлил.Дарслик.-Т.:ТДЮ,2016.
[64] М.Қ.Пардаев. Иқтисодий таҳлил назарияси. Тошкент 2022. Дарслик.202-203-бетлар.

qobiliyatini tahlil qilish muhim bosqichlari qaralgan va o‘z o‘rnida ushbu bosqichlarda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar beligilanadi.

5.1-jadval[65]

A.D.Sheremet hamda R.S.Sayfulin tomonidan korxona aktivlari hamda moliyaviy holatini tahlil qilish bo‘yicha taklif qilingan metodika

1.Moliyaviy holatni umumiy baholash va uni hisobot davri uchun o‘rganish
Umumiy balansni tuzish
Yalpi balans moddalari bo‘yicha gorizontal va vertikal tahlil qilish
Moliyaviy koeffitsiyentlarni hisoblash
O‘zgarishlarni aktiv va passiv balansi bo‘yicha batafsil aniqlash
2.Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilish
Zaxiralar va xarajatlarni shakllantirish uchun mablag‘larning ortiqcha (yetishmasligi) manbalarini aniqlash
Mablag‘lar manbalari bo‘yicha muomaladan tashqari aktivlarni qoplash darajasini aniqlash
3.Korxonaning balans likvidligi, ishbilarmonlik faoliyati va to‘lov qobiliyatini tahlil qilish
Balans likvidligini tahlil qilish
Aktiv va passiv moddalarini guruhlash
Aktiv va passivlarning tegishli summalarini taqqoslash
Joriy va istiqbolli balans likvidligini aniqlash
Likvidlik darajasini baholash
Biznesni tahlil qilish
Turli xil aktivlar guruhlari uchun tovar aylanmasi koeffitsiyentlarini hisoblash
Ularni standart qadriyatlar bilan taqqoslash va ishbilarmonlik faoliyatini baholash
To‘lov qobiliyatini tahlil qilish

[65] А.Д.Шеремет.,Р.С.Сайфулин. Молиявий таҳлил методикаси, ўқув қўлланма., М:ИНФРА-М, 112 бет, 2005.

A.D.Sheremet hamda R.S.Sayfulin tomonidan tavsiya qilingan korxonalar moliyaviy holati tahlilini hamda aktivlar tahlilini amalga oshirish metodikasi soddalashtirilgan tizimi, ko‘rsatkichlar miqdorining sezilarli darajada ixchamlashtirilganligi hamda tahlil jarayonini amalga oshirishda sarflanadigan vaqt nuqtayi nazaridan baho berilganda mukammal metodikalardan biri sifatida baholashimiz mumkin, ammo korxonaning moliyaviy holati baholanganda faqatgina aktivlar holati va korxonaning to‘lovga qodirlik darajasiga qarab korxonaning moliyaviy holatiga yetarli darajada baho berish mumkin emas deb hisoblayman. Chunki buyurtmachi korxonaning moliyaviy holati to‘g‘risida to‘liq axborotga ega bo‘lishi uchun korxonaning moliyaviy ko‘rsatkichlarining harakati hamda samaradorlikning tahliliy ko‘rsatkichlariga hamda holat ko‘rsatkichlariga birdek ehtiyoj sezadi. Korxonalarda moliyaviy holat tahlilini amalga oshirish metodikasi bo‘yicha yana bir olim V.V.Kovalev ham o‘z ta’riflarini berib o‘tgan (5.2-jadval).

V.V.Kovalev tomonidan korxonaning moliyaviy holat hamda aktivlarni tahlil qilish bo‘yicha tavsiya qilingan metodikada asosan tahlil jarayonini amalga oshirish bosqichlariga ahamiyat qaratilgan. Bundan tashqari V.V.Kovalev tomonidan tavsiya qilingan metod ko‘proq nazorat jihatiga katta e’tibor berilgan. Bizga ma’lumki moliyaviy holat tahlilini amalga oshirishda korxona tomonidan tasdiqlangan shaklda taqdim qilingan axborotlar asosida amalga oshiriladi. Agarda har bir o‘tkazilgan moliyaviy holat bo‘yicha tahlilda asosiy e’tiborni nazoratga qaratadigan bo‘lsak bevosita korxona faoliyatiga aralashish darajasi oshishiga olib keladi. Vaholanki, korxona ushbu o‘tkazilgan tahlil natijalari bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qiladi hamda korxonada tizimlashtirilgan boshqaruv tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Shu bilan birga V.V.Kovalev tomonidan tavsiya qilingan metodikani barcha korxonalar uchun birdek qo‘llab bo‘lmaydi, buning sababi esa barcha korxonalar birdek auditorlik tekshiruvidan o‘tmaydi. Korxonalarda moliyaviy holat tahlilini amalga oshirish metodikasi bo‘yicha tavsiya qilingan metodikalarni har birini alohida xususiyati mavjud.

5.2-jadval[66]

V.V.Kovalev tomonidan korxona aktivlari hamda moliyaviy holatini tahlil qilish bo‘yicha taklif qilingan metodika

O‘rganish yo‘nalishi	Amalga oshriladigan ishlar
Ekspress tahlil	Auditorlik xulosasi bilan tanishish
Tayyorgarlik bosqichi	Keyingi maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida qaror qabul qilish
	Tayyorgarlikni texnik tekshirish (hisoblash tartiblari, imzolarni tekshirish, hisobot shakllari)
Moliyaviy hisobotni dastlabki ko‘rib chiqish	Moliyaviy hisobotga tushuntirish xati bilan tanishish
Iqtisodiy o‘qish va hisobotni tahlil qilish	Iqtisodiy faoliyat natijalarini umumlashtirilgan baholash
	Mulkni, moliyaviy ahvolni baholash
	Moliyaviy koeffitsiyentlardan foydalanib rentabellikni baholash
Korxonaning moliyaviy holatini batafsil tahlil qilish	Korxonaning moliyaviy holatini batafsil tahlil qilish
Korxonaning iqtisodiy va moliyaviy holatini dastlabki ko‘rib chiqish	Moliyaviy xo‘jalik faoliyatining umumiy yo‘nalishining xususiyatlari
	“Kasal maqolalar”ni aniqlash
Korxonaning iqtisodiy salohiyatini baholash va tahlil qilish	Mulk holatini baholash
	Moliyaviy holatni baholash
Moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalarini baholash va tahlil qilish	Ishlab chiqarish faoliyatini baholash
	Daromadlilik tahlili
	Qimmatli qog‘ozlar bozoridagi vaziyatni baholash

Shunday metodikalardan biri G.V.Savitskaya tomonidan tavsiya qilingan metodika hisoblanadi. G.V.Savitskaya tomonidan tavsiya qilingan metodikada alohida yo‘nalishlar berilmagan. Ushbu metodikada aniq bajarilishi kerak bo‘lgan vazifalar belgilab berilgan. Bu vazifalar quyidagilardan iborat.

-mulk holati hamda kapital tarkibini baholash;

-kapitalni shakllantirish manbalarini tahlil qilish;

[66] Ковалев.В.В. Корхонанинг иқтисодий фаолиятини таҳлил қилиш. Дарслик. Проспект-2004. 240-бет.

-kapital taqsimotini tahlil qilish;
-kapitaldan foydalanish samaradorligi va intensivligini baholash;
-kapital rentabelligini tahlil qilish;
-kapital aylanmasini tahlil qilish;
-korxona moliyaviy holatini baholash;
-korxonaning moliyaviy barqarorligini tahlil qilish;
-likvidlik va to‘lov qobiliyatini tahlil qilish;
-kreditga layoqatlilik va bankrotlik xavfini baholash[67].

Korxonalarda moliyaviy holatni baholash hamda aktivlar tahlilini amalga oshirish bo‘yicha ishlab chiqilgan hamda xalqaro amaliyotda foydalanilayotgan o‘ziga xos metodikalarda yana biri bu V.I.Podolskiy tomonidan berilgan metodika hisoblanadi (5.3-jadval).

5.3-jadval[68]

V.I.Podolskiy tomonidan korxona aktivlari hamda moliyaviy holatini tahlil qilish bo‘yicha taklif qilingan metodika

O‘rganish yo‘nalishi	Amalga oshiriladigan ishlar
Korxonaning moliyaviy holatini va uning hisobot davridagi moliyaviy ko‘rsatkichlarining o‘zgarishini umumiy baholash	Buxgalteriya hisobotlari bilan tanishish
	Texnik tayyorgarlikni tekshirish
	Qiyosiy analitik balansni tuzish
	Hisobot davri uchun balans moddalari qiymatlarining o‘ziga xos og‘irliklarini hisoblash
	Balans moddalari o‘zgarishlarini davr boshidagi qiymatlarga hisoblash
	Balans moddalari o‘zgarishlarini umumiy analitik balansdagi o‘zgarishlarga hisoblash
Korxonaning to‘lov qobiliyatini va moliyaviy barqarorligini tahlil qilish	Qimmatli qog‘ozlar va xarajatlarni shakllantirish uchun ortiqcha yoki kam mablag‘larni hisoblash
	Korxonaning moliyaviy barqarorlik darajasini aniqlash
	Muxtoriyat koeffitsiyentini aniqlash
	Qarz va kapital nisbatini aniqlash
	Manevrlik koeffitsiyentini aniqlash
	Moliyalashtirish koeffitsiyentini aniqlash
Kampaniya balansining kreditga layoqatlik va	Mutloq likvidlik koeffitsiyentini aniqlash
	Qoplama yoki joriy likvidlikni aniqlash

[67] Савитская Г.В.Иқтисодий фаолиятни таҳлил қилиш. Қўлланма. ИНФРА-М, 2004. 69 бет.
[68] В.И.Подолский. Иқтисодий таҳлил. Қўлланма. СПб: Питер, 2004. 54 бет.

likvidligini aniqlash	
Amaldagi aktivlarni aylanishini tahlil qilish	Amaldagi aktivlarni aylanishini tahlil qilish
Korxona aktivlari aylanmasini tahlil qilish	Aktivlar aylanmasini aniqlash
	Aktivlarning o‘rtacha qiymatini aniqlash
	Tovar aylanishining davomiyligini aniqlash
	Pul mablag‘larini muomalaga jalb qilish ko‘rsatkichini o‘rganish
Debitorlik qarzlarini tahlil qilish	Debitorlik qarzlari ko‘rsatkichini hisoblash
	Debitorlik qarzlarini to‘lash muddatini belgilash
	Aylanma mablag‘larning umumiy hajmidagi debitorlik qarzlarining ulushi
	Shubhali debitorlik qarzlari holatini aniqlash
Tovar moddiy boyliklar oborotini tahlil qilish	Zaxiralar aylanmasi ko‘rsatkichini hisoblash
	Tovar-moddiy zaxiralarning yaroqlilik muddatini aniqlash
Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlil qilish	Hisobot davri uchun balans va sof foyda ko‘rsatkichlari dinamikasini baholash
	Mahsulot sotishdan olinadigan foyda o‘zgarishiga bir qator omillar ta’sirini miqdoriy baholash
	Korxonaning rentabellik ko‘rsatkichini hisoblash
Potensial bankrotlikni baholash	Joriy likvidlikni baholash
	O‘z mablag‘lari bilan ta’minlanganlikni baholash
	To‘lov qobiliyatini tiklash koeffetsentini baholash

V.I.Podolskiy tomonidan berilgan metodikada korxonaning moliyaviy holati hamda korxona aktivlari tahlilini amalga oshirishda korxonaning moliyaviy holatini va uning hisobot davridagi moliyaviy ko‘rsatkichlarining o‘zgarishini umumiy baholash, korxonaning to‘lov qobiliyatini va moliyaviy barqarorligini tahlil qilish, kompaniya balansining kreditga layoqatlik va likvidligini aniqlash, amaldagi aktivlarni aylanishini tahlil qilish, korxona aktivlari aylanmasini tahlil qilish, debitorlik qarzlarini tahlil qilish, tovar-moddiy boyliklar oborotini tahlil qilish, korxonaning moliyaviy natijalarini tahlil qilish hamda potensial bankrotlikni baholash kabi yo‘nalishlar tanlab olingan.

Tadqiqot jarayonida o‘rganilgan metodlar qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarning moliyaviy holati hamda aktivlar tahlilini

amalga oshirishda barcha muhim jihatlarini qamrab ololmaydi. Xususan, qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarning aktivlar harakati bo‘yicha quyidagi alohida xususiyatlari mavjud:

- qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar tomonidan bajarilgan ish(xizmat)lar hajmi summasining 5% miqdori buyurtmachi tomonidan uch yil davomida ushlab turiladi, bu bevosita qurilish korxonasining debitorlik qarzlarini oshishiga hamda aktivlarning likvidlik darajasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi;

- qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda mavjud asosiy vositalarning ma’lum qismlari qurilish jarayonining faqatgina bir bosqichidagina ishlatiladi va shu xususiyatiga ko‘ra qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda asosiy vositalarni operativ ijaraga berish holatlari ko‘p uchraydi;

- qurilish korxonalarida aktivlar harakati, holati hamda samaradorligini aniqlashda foydalaniladigan axborot manbalarining boshqa faoliyat turlariga nisbatan alohida xususiyatlari (smeta hujjatlari, qo‘shimcha kelishuv shartnomalari, davlat tomonidan belgilab berilgan normalar) mavjud bo‘lib boshqa faoliyatlardan farqlanadi.

Yuqorida ko‘rib o‘tgan metodlardan kelib chiqqan holda qurilish korxonalarida aktivlar tahlilini amalga oshirgan holda qurilish korxonalarining umumiy samaradorlik darajasini baholash imkoniyatini yaratuvchi quyidagi model ishlab chiqildi.

Ishlab chiqilgan modelning yuqorida o‘rganilgan modellardan alohida farqli xususiyati:

Birinchidan, tahlil jarayoni uchun kerak bo‘ladigan axborotlarni olish hamda tahlil jarayonini tashkil qilishda kompleks ko‘rsatkichlar belgilanib olinadi;

Ikkinchidan, kompleks tahlilni amalga oshirish jarayoni tizimlashtirilgan, korxonaning aktivlarini hisobot davri boshiga holati o‘rganilishi hisobot davri boshida mavjud aktivlarga baho berish imkoniyatini yaratadi, mavjud aktivlar asosida korxonaning dastlabki moliyaviy holati baholanadi, hisobot davri davomidagi aktivlar harakati o‘rganiladi hamda ularning samaradorligi baholanadi.



5.1-rasm.Qurilish korxonalari aktivlar tahlili orqali korxona moliyaviy holat darajasini baholovchi K5B5 modeli.

Olingan samaralar natijasida korxona aktivlaridagi o‘zgarishlar aniqlanib hisobot davri oxiriga aktivlar holati qayta tahlil qilinadi. Aktivlarning hisobot davri oxiridagi holati ko‘rsatkichlari asosida korxonaning yakuniy moliyaviy holati baholanadi;

Uchinchidan, aniqlangan ko‘rsatkichlar asosida korxonaning moliyaviy holati bo‘yicha kompleks xulosa ishlab chiqiladi;

To‘rtinchidan, qilingan xulosa hamda o‘rganilgan tahlillar asosida komleks boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Xalqaro darajada olib boriladigan qurilish tenderlari o‘rganilganda korxonaning moliyaviy holatini baholash jarayonida aktivlarning holati, harakati hamda samaradorlik darajasini baholashi hamda ushbu baholash natijalari muhimlik darajalari belgilanishi aniqlandi.

Qurilish korxonalarida umumiy moliyaviy holatni baholashda korxonaning aktivlari bo‘yicha quyidagi ko‘rsatkichlarni aniqlash tavsiya qilindi:

- korxona aktivlarining umumiy samaradorlik darajasi:
-

$$\boldsymbol{Umumiy\ aktivlar\ samaradorlik\ darajasi = AD * AR * AN}$$

AD – aktivlar daromadlilik darajasi;
AR – aktivlar rentabellik darajasi;
AN – aktivlar natijaviylik darajasi.

Ushbu ko‘rsatkich qurilish korxonalari aktivlarining umumiy samaradorlik darajasini ya’ni har 100 so‘m ishlatilgan o‘rtacha aktiv umumiy qancha samara olib kelayotganligini ifodalaydi.

- umumiy moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko‘rsatkich:
-

$$\boldsymbol{Korxona\ aktivlarining\ umumiy\ holati = TQ * MM * MB}$$

TQ – to‘lovga qodirlik koeffitsiyenti;
MM – moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti;
MB – moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti;

Ushbu ko‘rsatkich qurilish korxonalarining umumiy moliyaviy barqarorlik darajasini ya’ni moliyaviy holat darajasini ifodalab beradi.

- korxona aktivlarining umumiy harakat ko‘rsatkichi:
-

$$\boldsymbol{Korxona\ aktivlarining\ umumiy\ harakatchanlik\ ko'rsatkichi = O'K * AK}$$

O‘K – aktivlarning o‘zgarish koeffitsiyenti;
AK – aktivlarning aylanish koeffitsiyenti;

Ushbu ko‘rsatkich qurilish korxonalarida aktivlarning umumiy harakatchanlik darajasini ifodalab beradi.

O‘zbekiston Respublkasida qurilish tenderlarini o‘tkazishda korxonalar moliyaviy holatini baholashda umumiy tahliliy ko‘rsatkichlarning 42 foizi aktivlarning harakatiga, 28 foizi holatiga hamda 25 foizi harakatiga tegishli ekanligi hamda xalqaro qurilish tenderlarini muvofiqlashtirish tashkiloti CMD talablari asosida qurilish korxonalarida umumiy moliyaviy holatni baholashda umumiy tahliliy ko‘rsatkichlarning 34 foizi aktivlarning harakatiga, 38 foizi holatiga hamda 29 foizi harakatiga tegishli ekanligi aniqlandi.

Ushbu olingan natijalar asosida qurilish korxonalarining umumiy moliyaviy holatini ifodalashda quyidagi o‘rtacha foizlarda korxona aktivlarining umumiy samaradorlik ko‘rsatkichi 29 foiz ta’sirga, qurilish korxonalarining umumiy aktivlar harakatchanlik ko‘rsatkichi 38 foiz ta’sirga hamda qurilish korxonalari moliyaviy holat ko‘rsatkichi 33 foiz ta’sirga ega deb baholansa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ushbu olib borilgan tahlillar hamda tadqiqotlar natijasida korxonaning umumiy moliyaviy holatini quyidagicha aniqlash tavsiya qilindi.

$$\boldsymbol{KUMH = KAUS * 0,29 + KMH * 0,33 + KAUH * 0,38}$$

$KUMH - korxonaning\ umumiy\ moliyaviy\ holati;$
$KAUS - korxona\ aktivlarining\ umumiy\ samaradorligi;$
$KMH - korxona\ aktivlarining\ umumiy\ holati$
$KAUH - korxona\ aktivlarining\ umumiy\ harakatchanligi.$

Ushbu ko‘rsatkichning aniqlanishi qurilish korxonalariga hamda qurilish tenderlarini amalga oshiruvchi tashkilotlarga quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:

Birinchidan, qurilish korxonalari o‘zining barcha tahliliy ko‘rsatkichlarni umumlashtirgan umumiy moliyaviy holat ko‘rsatkichini aniqlash imkoniyati yaratiladi;

Ikkinchidan, qurilish tenderlarini amalga oshiruvchi tashkilotlarda tenderlarni amalga oshirishda tanlov qilinishida ko‘p ko‘rsatkichlarni aniqlash hamda umumiy baholash bo‘yicha muammoni oldi olinadi.

“Sam Texno Stroy Invest” MCHJning 2023-yil aktivlari hamda moliyaviy holati tahlili ko‘rib chiqildi (25-jadval).

Korxona faoliyatini K5B5 modeli bo‘yicha tahlil qilishda 5 ta bosqich bo‘yicha tahlil jarayoni olib borildi.

“Sam Texno Stroy Invest” MCHJning 2023-yil aktivlari hamda moliyaviy holati tahlilini K5B5 modeli bo‘yicha olib borilganda korxonaning barcha axborot manbalari moliyaviy hisobot shakllari, statistik hisobot shakllari, biznes reja ma’lumotlari, operativ hisob ma’lumotlari asosida aktivlar tahlilini baholovchi kompleks 5 bosqichli tahliliy tizim orqali, kompleks ko‘rsatkichlardan foydalangan holda tahlil qilindi.

1-bosqich. Korxonaning 2023-yil 1-yanvar holatiga korxonaning aktivlari holati baholandi. Korxonaning tarkibi o‘rganilishi natijasida quyidagi natijalarga erishildi (26-jadval).

“Sam Texno Stroy Invest” MCHJning 2023-yil 1-yanvar holatiga jami aktivlari 19 570 918 163,80 so‘mni tashkil qilgan. Shundan 51%i yani 9 932 632 880,43 so‘mi asosiy vositalarga, 41%i yani 7 938 228 746,00 so‘mi kapital qo‘yilmalar hissasiga va boshqalari korxona aktivlarining qolgan foizini tashkil qilgan.

K5B modeli bo‘yicha korxona aktivlarining yil boshiga holat ko‘rsatkichlari baholangach ikkinchi bosqich, korxonaning yil boshidagi moliyaviy holati baholanadi. “Sam Texno Stroy Invest” MCHJning 2023-yil 1-yanvar holatiga moliayviy holati baholandi hamda quyidagi natijalar olindi (5.4-jadval).

5.4-jadval

“Sam Texno Stroy Invest” MCHJning 2023-yil hisobot davridagi aktiv, passiv, daromad hamda xarajatlari aylanma vedomosti.

so‘mda

Schyot		Bosh qoldiq		Oborot		Oxirgi qoldiq	
Kod	Nomi	Debet	Kredit	Debit	Kredit	Debit	Kredit
01	Asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati	19 094 953 084,96		4 952 269 147,46	1 344 587 782,54	22 702 634 449,88	
02	Jamlangan eskirish		9 162 320 204,53	1 333 623 339,19	2 102 773 077,07		9 931 469 942,41
04	Nomoddiy aktivlarning boshlang‘ich qiymati	23 671 000,00				23 671 000,00	
05	Jamlangan eskirish		23 314 163,67		108 681,24		23 422 844,91
07	O‘rnatiladigan uskunalar			234 568 951,46	234 568 951,46		
08	Kapital qo‘yilmalar	7 938 228 746,00		1 894 087 295,00	4 732 256 575,00	5 100 059 466,00	
10	Xomashyo-material	563 376 644,90		819 349 026,32	1 150 466 755,21	232 258 916,01	
20	Tugallanmagan qurilish xizmatlari			31 735 443 336,60	31 735 443 336,60		
31	Kelgusi davr xarajatlari	14 944 051,88		223 178 253,00	238 122 304,88		
40	Xaridorlar oldidagi debitorlik qarz	117 300,00		6 309 296 022,88	5 962 309 628,48	347 103 694,40	
42	Xodimlarga berilgan avans	39 427 557,00		336 793 000,00	376 220 557,00		
43	Ta’minotchilar oldidagi debitorlik qarz	225 964 679,63		2 923 635 423,40	1 899 645 966,19	1 249 954 136,84	
44	Soliq oldidagi debitorlik qarz	109 105 030,08		671 977,10	13 401 676,32	96 375 330,86	
45	Budjetdan tashqari jamg‘armalar oldidagi debitorlik qarz	1 662 449,05		11 040 388,73		12 702 837,78	
47	Xodimlar oldidagi debitorlik qarz	184 505 877,34		798 821 825,96	795 956 469,59	187 371 233,71	
48	Boshqa debitorlik qarzlari	1 515 099,40		65 848 253,00	64 032 840,42	3 330 511,98	
50	Kassadagi pul			29 821 000,00	29 821 000,00		
51	Asosiy hisobraqamdagi pul	546 544 447,02		50 674 276 349,21	49 586 118 131,95	1 634 702 664,28	
55	Ikkilamchi hisobraqamlardagi pul	12 536 564,74		1 647 519 028,47	1 574 295 817,63	85 759 775,58	
60	Ta’minotchilardan kreditorlik qarzi		700 401 619,70	4 994 968 519,40	4 540 850 969,61		246 284 069,91
63	Xaridorlardan kreditorlik qarzi		971 658 627,78	50 264 719 540,37	50 723 213 142,59		1 430 152 230,00
64	Soliq oldidagi kreditorlik qarz		420 885 095,91	5 158 638 743,65	5 278 537 613,72		540 783 965,98

65	Budjetdan tashqari jamg'armalar oldidagi kreditorlik qarz		762 849 448,34	3 890 008 462,64	4 056 649 205,24		929 490 190,94
67	Xodimlar oldidagi kreditorlik qarz		837 257 065,06	32 893 573 603,26	32 912 788 692,00		856 472 153,80
69	Boshqa kreditorlik qarzlari		3 815 730,00	334 023 004,00	361 774 375,00		31 567 101,00
83	Ustav kapitali		2 321 917 981,00				2 321 917 981,00
85	Rezerv kapitali		4 791 298 328,60	1 724 209,00	441 000 000,00		5 230 574 119,60
87	Taqsimlanmagan foyda		8 760 834 267,41	5 639 400 540,74	7 012 355 691,10		10 133 789 417,77
90	Sof tushum			45 743 736 852,48	45 743 736 852,48		
91	Tannarx			31 735 443 336,60	31 735 443 336,60		
92	Aktivlarni chiqib ketishi			1 410 283 977,40	1 410 283 977,40		
93	Asosiy faoliaytdan boshqa daromadlar			1 877 083 452,93	1 877 083 452,93		
94	Davr xarajatlari			13 775 661 266,91	13 775 661 266,91		
98	Foyda solig‘i			794 430 658,18	794 430 658,18		
99	Yakuniy natija			53 316 166 743,79	53 316 166 743,79		
Jami		28 756 552 532,00	28 756 552532,00	355 820 105529,13	355 820 105 529,13	31 675 924 017,32	31 675 924 017,32

5.5-jadval

“Sam Texno Stroy Invest” MCHJning 2023-yilning 1-yanvar holatiga aktivlari tarkibi

Nomi	Summasi	Jami aktivga nisbatan %
Asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati	19 094 953 084,96	
Jamlangan eskirish		
Qoldiq qiymat	9 932 632 880,43	0,51
Nomoddiy aktivlarning boshlang‘ich qiymati	23 671 000,00	
Jamlangan eskirish		
Qoldiq qiymati	356 836,33	0,00
O‘rnatiladigan uskunalar		
Kapital qo‘yilmalar	7 938 228 746,00	0,41
Xomashyo-material	563 376 644,90	0,03
Tugallanmagan qurilish xizmatlari		
Kelgusi davr xarajatlari	14 944 051,88	0,00
Xaridorlar oldidagi debitorlik qarz	117 300,00	0,00
Xodimlarga berilgan avans	39 427 557,00	0,00
Ta’minotchilar oldidagi debitorlik qarz	225 964 679,63	0,01
Soliq oldidagi debitorlik qarz	109 105 030,08	0,01
Budjetdan tashqari jamg‘armalar oldidagi debitorlik qarz	1 662 449,05	0,00
Xodimlar oldidagi debitorlik qarz	184 505 877,34	0,01
Boshqa debitorlik qarzlari	1 515 099,40	0,00
Kassadagi pul		
Asosiy hisobraqamdagi pul	546 544 447,02	0,03
Ikkilamchi hisobraqamlardagi pul	12 536 564,74	0,00
Jami	**19 570 918 163,80**	**1,00**

5.6-jadval

“Sam Texno Stroy Invest” MCHJning 2023-yilning 1-yanvar holatiga korxonaning moliyaviy holati ko‘rsatkichlari.

№	Ko‘rsatkich nomi	Aniqlanish usuli	Natija	Normal darajasi
1.	To‘lovga qodirlik	Joriy aktiv/Muddati kelgan majburiyat	0,46	2
2.	Moliyaviy mustaqillik	Xususiy capital/Balans	0,81	0,5
3.	Moliyaviy qaramlik	Majburiyat/Balans	0,19	0,5
4.	Moliyaviy barqarorlik	Xususiy capital/Majburiyat	4,29	1

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki “Sam Texno Stroy Invest” MCHJning 2023-yil 1-yanvar holatiga to‘lovga qodirlik darajasi 0,46 ga teng va bu ko‘rsatkichning normal holatidan past. Buning sababi esa korxonada joriy aktivlarning kamligi bilan baholanadi. Moliyaviy mustaqillik darajasi esa 0,81 ni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkichning normal holatidan yuqori hisoblanadi hamda ijobiy tendensiya deb baholanadi. Moliyaviy qaramlik ko‘rsatkichi 0,19 ni tashkil qilgan hamda bu ko‘rsatkich ham ijobiy baholanadi. Korxonaning moliyaviy barqaror deb aytish mumkin, chunki unung moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichi normal darajadan 4 barobar yuqoriligi aniqlandi.

K5B5 modeli bo‘yicha keyingi bosqich korxona aktivlari harakat ko‘rsatkichlarini aniqlash hisoblanadi. Olib borilgan tahlillar natijasida quyidagi ko‘rsatkichlarga erishildi.

Korxonada 2023-yil davomida aktivlar 2 150 113 066.2 so‘mga yoki 11% ga oshgan. Aktivlarning 2023-yil davomida o‘rtacha miqdori 20 645 974 697,00 so‘mni tashkil qilgan.

5.7-jadval

“Sam Texno Stroy Invest” MCHJning 2023-yil davomidagi aktivlar harakati ko‘rsatkichlari.

	Bosh qoldiq	**Oxirgi qoldiq**	**Qanchaga**	**Necha foizga**
Nomi				
Asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati	19 094 953 084,96	22 702 634 449,88	3 607 681 364,92	18,9
Jamlangan eskirish	9162320205	9931469942	769 149 737,88	8,4
Qoldiq qiymat	9 932 632 880,43	12 771 164 507,47	2 838 531 627,04	28,6
Nomoddiy aktivlarning boshlang‘ich qiymati	23 671 000,00	23 671 000,00	0,00	0,0
Jamlangan eskirish	23314163,67	23 422 844,91	108 681,24	0,5
Qoldiq qiymati	356 836,33	248 155,09	-108 681,24	-30,5
Kapital qo‘yilmalar	7 938 228 746,00	5 100 059 466,00	-2 838 169 280,00	-35,8
Xomashyo-material	563 376 644,90	232 258 916,01	-331 117 728,89	-58,8
Kelgusi davr xarajatlari	14 944 051,88		-14 944 051,88	-100,0
Xaridorlar oldidagi debitorlik qarz	117 300,00	347 103 694,40	346 986 394,40	295811,1
Xodimlarga berilgan avans	39 427 557,00		-39 427 557,00	-100,0
Ta’minotchilar oldidagi debitorlik qarz	225 964 679,63	1 249 954 136,84	1 023 989 457,21	453,2
Soliq oldidagi debitorlik qarz	109 105 030,08	96 375 330,86	-12 729 699,22	-11,7
Budjetdan tashqari jamg‘armalar oldidagi debitorlik qarz	1 662 449,05	12 702 837,78	11 040 388,73	664,1
Xodimlar oldidagi debitorlik qarz	184 505 877,34	187 371 233,71	2 865 356,37	1,6
Boshqa debitorlik qarzlari	1 515 099,40	3 330 511,98	1 815 412,58	119,8
Asosiy hisobraqamdagi pul	546 544 447,02	1 634 702 664,28	1 088 158 217,26	199,1
Ikkilamchi hisobraqamlardagi pul	12 536 564,74	85 759 775,58	73 223 210,84	584,1
	19 570 918 163,80	21 721 031 230,00	2 150 113 066,20	11,0

Korxona aktivlarining o‘rtacha aylanish koeffitsiyenti quyidagiga teng:

$$Aktivlarning\ aylanish \text{ koeffitsiyenti} = \frac{Sof\ tushum}{Aktivlarning\ o'rtachamiqdori} = \frac{45\,743\,736\,852.48}{20\,645\,974\,697.00} = 2.2$$

Bundan xulosa qilish mumkinki korxonada o‘rtacha 20 645 974 697,00 so‘m aktiv bir yil davomida 2,2 marta aylanib kelgan.

K5B modelida keyingi bosqich korxona aktivlari samaradorligini aniqlsh hisoblanadi. Korxona aktivlari samaradorlik ko‘rsatkichlari quyidagicha (5.8-jadval).

5.8-jadval

“Sam Texno Stroy Invest” MCHJning 2023-yil davomidagi aktivlar samaradorligi ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkich nomi	Aniqlanish usuli	Natija
1.	Daromadlilik	Jami daromad/Aktivlarning o‘rtacha miqdori	2,31
2.	Rentabellik	Sof foyda*100/Aktivlarning o‘rtacha miqdori	6,65
3.	Natijaviylik	Ko‘rsatilgan xizmat tannarxi/Aktivlarning o‘rtacha miqdori	1,54

Jadval ma’lumotlari asosida xulosa qilinsa korxonada har bir so‘mlik aktiv 2,31 so‘m daromad olib kelgan bo‘lsa, har 100 so‘mlik aktivga 6,65 so‘m sof foyda to‘g‘ri kelmoqda, bundan tashqari har bir so‘mlik o‘rtacha aktiv 1,54 so‘mlik xizmat yaratganligi aniqlandi.

5.2.Omilli tahlil imkoniyatlaridan foydalangan holda qurilish korxonalari aktivlari tahlilini takomillashtirish.

Korxonalarda iqtisodiy tahlil jarayonini amalga oshirishdan asosiy maqsadlardan biri bu korxonaning iqtisodiy ko‘rsatkichlariga omillar ta’sirini hisoblashdir. Ushbu jarayonda omilli tahlilni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Omilli tahlil deganda natija ko‘rsatkichining o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi turli omillarning ta’sirini iqtisodiy tahlilning an’anaviy, matematik va boshqa usullar orqali kompleks o‘rganish

asosida aniqlash yo‘llaridir[69]. Iqtisodiy tahlil jarayonida omillarning ayrim tomonlari, xususiyatlarini inobatga olib turkumlash va har birini alohida - alohida ta’riflash lozim. Iqtisodiy adabiyotlarda omillar qator belgilari bo‘yicha tasniflanadi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ijobiy va salbiy omillar;
- korxona faoliyatiga bog‘liq (ichki) omillar, bog‘liq bo‘lmagan (tashqi) omillar;
- ishlab chiqarishning intensiv va ekstinsiv omillari;
- ishlab chiqarish va muomala jarayonlari omillari.

Xo‘jalik yuritish samaradorligini oshirish imkoniyatini aniqlashda ijobiy ta’sir etuvchi omillar harakatini kuchaytirish va ularning salbiy ta’sirini tugatish rezervlar deb ataladi. Deduktiv usul, asosan moliyaviy–iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladi. Bunda avvalo xo‘jalik faoliyatini belgilovchi umumiy ko‘rsatkichlar o‘rganilib, so‘ngra ular bo‘laklarga bo‘linadi. Ko‘rsatkichlarni bo‘laklarga bo‘lish aslini olganda tahlil demakdir. Induktiv usul ko‘pincha texnik-iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladi, ya’ni avval, ayrim olingan ish uchastkalaridagi ko‘rsatkichlar har tomonlama tekshirilib, so‘ngra ana shu aniq ko‘rsatkichlardan korxonaning xo‘jalik faoliyatini belgilovchi umumlashgan iqtisodiy ko‘rsatkichlar darajasiga chiqiladi. Iqtisodiy tahlil usuli mazkur predmetni o‘rganish jarayoniga umumiy jihatdan yondashuvdir. Shu sababli, tahlil usulini unga bo‘ysinuvchi maxsus usullari bilan aralashtirib bo‘lmaydi. Zero, aniq shart - sharoit natijasida u yoki bu usullarning o‘zgarishi ehtimoldan xoli emas.

Korxonada sodir bo‘ladigan barcha faoliyat natijalari albatta ma’lum omillar ta’sirida vujudga keladi. Omillar deganda, shu natija ko‘rsatkichi miqdorining ko‘payishi yoki kamayishiga sabab bo‘ladigan jarayonlarni ifodalovchi iqtisodiy ko‘rsatkichlar majmui tushuniladi. Natija va omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik iqtisodiy ko‘rsatkichlarda ifodalanadi. Natija bu iqtisodiy ko‘rsatkich bo‘lib iqtisodiy jarayonlar natijasini ma’lum birlikda ifodalaydi[70]. Barcha omillarni natijaga ta’sirini baholash esa iqtisodiy tahlilning an’anaviy usullari orqali

[69] М.Қ.Пардаев. Иқтисодий таҳлил назарияси. Тошкент 2022. Дарслик.202 бет.
[70] М.Қ.Пардаев. Иқтисодий таҳлил назарияси. Тошкент 2022. Дарслик.202-203 бетлар.

amalga oshiriladi. Iqtisodiy tahlil qilish jarayonida turli usullar va metodikalar qo‘llaniladi. Bu usul va metodikalardan foydalanish jarayonida tahlil metodining asosiy jihatlarining kompleksligi va tizimlashganligi yaqqol ko‘rinadi. Xo‘jalik jarayonlarining umumiy birligi, o‘ziga xos tuzilish va tarkibga egaligi hamda murakkab tavsifdagi o‘zaro bog‘liqligi tahlil usullari va metodikalarini qo‘llashda asosiy e’tiborda turadi. Tahlilning usul va metodikalarini qo‘llashda korxonaning xo‘jalik va boshqa turdagi faoliyatini bir butun tizim ekanligi, uning umumiy yakuniy natijasi mavjudligi nazarda tutilgan holda faoliyatning turli tomonlari va elementlari ham alohida, ham birgalikda o‘rganilib, ularning o‘zaro bog‘liqligi, biri ikkinchisining ta’siridan kelib chiqishi, ya’ni ketma-ketligi aniqlanib, barcha omillar asosiy hamda asosiy bo‘lmagan guruhlarga bo‘linib, ular o‘zaro uyg‘unlashtirilgan hamda tizimga solingan holda yakuniy natijaga omillarning birgalikdagi bevosita va bilvosita ta’siri hisoblanadi. Tahlil usullarini qo‘llash o‘rganilayotgan jarayonlarning bir-biriga bog‘liqligi, o‘zgarish sababi, ta’sir ko‘rsatgan omillar va qo‘shimcha sabablarni aniqlashga yordam beradi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida aksariyat yetuk iqtisodchi olimlarimiz tahlilning usullarini iqtisodiy adabiyotlarda shartli ravishda ikki guruhga ajratib ko‘rsatishmoqda. Iqtisodiy tahlilining usullarini quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

1. An’anaviy usullar guruhi.
2. Iqtisodiy-matematik usullar guruhi.

Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan an’anaviy usullar to‘g‘risida ko‘plab olimlarimizni o‘z qarashlari mavjud. Shunday iqtisodchi olimlardan biri professor M.Q.Pardayev. iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan an’anaviy usullarga quyidagicha fikrlar keltirib o‘tgan: “An’anaviy usullar eng qadimgi usullar bo‘lib, ularning asosiy qismi tahlil vujudga kelgan kundan boshlab qo‘llanilib kelinayotgan usullardir. Bularga quyidagilar kiradi: taqqoslash usuli, muvozanat usuli, farqli usul, qayta hisoblash usuli, zanjirli almashtirish usuli, indeks usuli, integral usuli, nisbiy ko‘rsatkichli usul, teng taqsimlash usuli

kabilardir".[71] Demak natijaga omillar ta'sirini aniqlashda quyidagi tahliliy usullardan bevosita foydalanish mumkin:

- solishtirish usuli,
- muvozanat usuli,
- qayta hisoblash usuli,
- zanjirli almashtirish usuli,
- farqlash usuli,
- nisbiy miqdorlardan foydalanish usuli,
- indeks usuli,
- integral usuli,
- kichik sonlardan foydalanish usuli.

Ushbu keltirilgan har bir usulning o'zining qo'llash doirasi hamda foydalanish texnikasi mavjud.

Iqtisodiy-matematik usullar iqtisodiy tahlil fanining takomillashib borishi natijasida vujudga kelgan bo'lib, bunda turli dasturiy ta'minotlar va matematik usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qurilish korxonalarida aktivlar tahlilini amalga oshirishda esa ushbu usullarni qo'llashning alohida xususiyatlari mavjud.

Qurilish korxonalarida aktivlar tahlilini amalga oshirishda asosiy ko'rsatkichlar guruhi bu holatni ifodalovchi ko'rsatkichlar hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar guruhi tarkibiga kiruvchi ko'rsatkichlardan biri esa bu uzoq muddatli aktivlarning balansdagi ulushi ko'rsatkichidir.

Uzoq muddatli aktivlarning balansdagi ulushi quyidagicha aniqlanadi:

$$UMA_{bu\%} = \frac{UMA}{B}$$

$UMA_{bu\%}$ - uzoq muddatli aktivlarning balansdagi ulushi,

UMA - uzoq muddatli aktivlar,

B - jami balans.

Ushbu ko'rsatkichni reja ko'rsatkichlariga nisbatan o'zgarishiga omillar ta'sirini hisoblash jarayonida iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan an'anaviy usullardan qayta hisoblash usulidan foydalanilsa maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki qayta hisoblash usuli aynan natijaga ikkita

[71] М.Қ.Пардаев. Иқтисодий таҳлил назарияси. Дарслик. Тошкент-2021. 234-бет.

omil ta’sir etganda qo‘llaniladi. Qayta hisoblash usulini qo‘llash tartibi quyidagicha ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

1-bosqich: Natijaning reja hamda haqiqatdagi ko‘rsatkichlari aniqlanadi hamda umumiy farq aniqlanadi.

$$UMA_{bu\%r} = \frac{UMA_r}{B_r} * 100$$

$UMA_{bu\%r}$ - uzoq muddatli aktivlarning balansdagi ulushining rejadagi qiymati,

UMA_r - uzoq muddatli aktivlarning rejadagi qiymati,

B_r - jami balansning rejadagi qiymati.

$$UMA_{bu\%h} = \frac{UMA_h}{B_h} * 100$$

$UMA_{bu\%h}$ - uzoq muddatli aktivlarning balansdagi ulushining haqiqatdagi qiymati,

UMA_h - uzoq muddatli aktivlarning haqiqatdagi qiymati,

B_h - jami balansning haqiqatdagi qiymati.

Umumiy farq quyidagicha aniqlanadi:

$$UMA_{bu\%}=UMA_{bu\%h} - UMA_{bu\%r}$$

2-bosqich. Natijaga omillar ta’sirini aniqlash uchun natija qayta hisoblab olinadi. Buning uchun natijaga ta’sir qiluvchi birinchi omilning haqiqatdagi miqdori hamda natijaga ta’sir qiluvchi ikkinchi omilning rejadagi miqdorlari bilan qayta hisoblab olinadi.

$$UMA_{bu\%qh} = \frac{UMA_h}{B_r} * 100$$

3-bosqich. Natijaga birinchi omilning ta’siri aniqlanadi. Buning uchun natijaning qayta hisoblangan miqdoridan natijaning rejadagi miqdori ayriladi.

$$\Delta UMA_{bu\%1} = UMA_{bu\%qh} - UMA_{bu\%r}$$

4-bosqich. Natijaga ikkinchi omilning ta’siri aniqlanadi. Buning uchun natijaning haqiqatdagi miqdoridan natijaning qayta hisoblangan miqdori ayriladi.

$$\Delta UMA_{bu\%2} = UMA_{bu\%h} - UMA_{bu\%qh}$$

5-bosqich. Natijaga omillar ta’siri to‘ri hisoblanganligi tekshiriladi. Buning uchun omillar ta’siri yig‘indisi umimiy farqqa teng bo‘lishi kerak.

Korxonalarda uzoq muddatli aktivlarning jami aktivlardagi ulushining o‘zgarish tendensiyalariga omillar ta’sirini quyidagi amaliy materiallar orqali ko‘rib chiqishimiz mumkin. “Asl Mars Mo‘jizasi” MChJ to‘g‘risida quyidagi axborotlar berilgan (5.9-jadval).

5.9-jadval

“Asl Mars Mo‘jizasi” MCHJning 2023-yillik soddalashtirilgan balansi.

(ming so‘mda)

Aktiv	Rejada	Haqiqatda
Uzoq muddatli aktivlar	120 000.0	150 000.0
Joriy aktivlar	180 000.0	190 000.0
Balans	**300 000.0**	**340 000.0**
Passiv		
Xususiy capital	210 000.0	260 000.0
Majburiyat	90 000.0	80 000.0
Balans	**300 000.0**	**340 000.0**

“Asl Mars Mo‘jizasi” MCHJning uzoq muddatli aktivlarining balansdagi ulushi aniqlanganda quyidagi natijalar olindi.

$$UMA_{bu\%r}=\frac{120\ 000.0}{300\ 000.0}*100=40\%$$

$$UMA_{bu\%h}=\frac{150\ 000.0}{340\ 000.0}*100=44\%$$

“Asl Mars Mo‘jizasi” MCHJning uzoq muddatli aktivlarning balansdagi ulushi yuqoridagi hisob-kitoblardan ko‘rinib turubdiki rejaga nisbatan 4% o‘sgan. Ushbu o‘zgarishga korxonaning uzoq muddatli aktivlarining o‘zgarishini hamda korxona balansining (jami aktivlarining) o‘zgarishini ta’sirini aniqlash uchun natijaga ikkita omil ta’sir etganda qo‘llaniladigan iqtisodiy tahlilning an’anaviy usullaridan

biri qayta hisoblash usulidan foydalanildi hamda natijaga omillar ta’siri aniqlandi.

5.10-jadval

“Asl Mars Mo‘jizasi” MCHJning uzoq muddatli aktivlarning balansdagi ulushining o‘zgarishiga omillar ta’siri hisob-kitobi

Bosqich	Aniqlash yo‘li	Ta’siri
1.	$44\% - 40\% = 4\%$	
2.	$\frac{150\,000.0}{300\,000.0} * 100 = 50\%$	
3.	50%-40%=10%	**10 %**
4.	4%-50%=-6%	**-6%**
5.	$10\% + (-6\%) = 4\%$	**4%**

Keltirilgan jadval ma’lumotlari orqali korxonaga xulosa beradigan bo‘lsak “Asl Mars Mo‘jizasi” MCHJning uzoq muddatli aktivlarining rejaga nisbatan haqiqatda 30 000.0 ming so‘mga oshganligi uzoq muddatli aktivlarning balansdagi ulushini 10% ga oshishiga hamda jami aktivlarning 40 000.0 birlikga oshganligi esa ushbu ko‘rsatkichni 6 %ga kamayishiga olib kelgan. Umumiy uzoq muddatli aktivlarning balansdagi ulushi 4 %ga oshgan.

Bundan tashqari qurilish korxonalarida alohida xususiyatga ega ko‘rsatkichlardan biri bu mehnat unumdorligi ko‘rsatkichi hisoblanadi. Qurilish korxonalari faoliyati davomida jami bajarilgan qurilish ishlarining hammasi ham qurilish korxonasining o‘zi tomonidan bajarilmaydi. Bu jarayonda maxsus mutaxassis talab qilinadigan ishlar mavjud bo‘ladi. Ushbu vaziyatda qurilish korxonalariga subpudratchi tashkilotlar yordamga keladi. Qurilish korxonalarida mehnat unumdorligini aniqlashda umumiy tahlil usulidan foydalanib barcha bajarilgan ishlarni xodimlarning o‘rtacha soniga bo‘lib aniqlaydigan bo‘lsak korxona xodimlari mehnat unumdorligini sun’iy oshirgan

hisoblanamiz. Chunki barcha bajarilgan qurilish ishlarida subpudratchilar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ham mavjud. Shu sababdan qurilish korxonalarida mehnat unumdorligini aniqlashda quyidagi usuldan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi deb hisoblaymiz.

$$MU = \frac{Q - S}{X}$$

Bu yerda:
MU – qurilish korxonalarida mehnat unumdorligi,
Q – jami bajarilgan qurilish ishlari,
S – subpudratchilar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari,
X – xodimlarning o‘rtacha soni.

Ko‘pchilik korxonalarda mehnat unumdorligiga faqat ikkita omil jami bajarilgan ish hamda korxonadagi o‘rtacha xodimlar soni ta’siri baholangan. Shu bois natijaga omillar ta’siri hisoblanganda qayta hisoblash usulidan keng foydalanilgan. Ammo qurilish korxonalarida mehnat unumdorligiga uchta omil ta’sir ko‘rsatadi. Bunda natijaga omillar ta’sirini hisoblaganda uch va undan ko‘p omil ta’sir etganda zanjirli almashtirish usulini qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Qurilish korxonalarida mehnat unumdorligiga omillar ta’sirini hisoblash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

1-bosqich. Natijaning rejadagi hamda haqiqatdagi miqdorlari aniqlanib umumiy farq topiladi.

Natijaning rejadagi qiymati.

$$MU_r = \frac{Q_r - S_r}{X_r}$$

Bu yerda:

MUr – qurilish korxonalarida mehnat unumdorligining rejadagi qiymati,

Qr – rejalashtirilgan qurilish ishlari,

Sr – subpudratchilar tomonidan bajarilishi rejalashtirilgan qurilish ishlari,

Xr – rejadagi xodimlarning o‘rtacha soni.

Natijaning haqiqatdagi miqdori.

$$MU_h = \frac{Q_h - S_h}{X_h}$$

Bu yerda:

MUh– qurilish korxonalarida mehnat unumdorligining haqiqatdagi qiymati,

Qh– haqiqatda bajarilgan qurilish ishlari qurilish ishlari,

Sh– subpudratchilar tomonidan haqiqatda bajarilgan qurilish ishlari,

Xh– haqiqatda ishlagan xodimlarning o‘rtacha soni.

Natijaning umumiy farqi.

$$\triangle MU \quad = MU_h - MU_r$$

2-basqich. Natijaga birinchi omilning ta’siri aniqlanadi. Bunda natija birinchi omilning haqiqatdagi miqdori hamda ikkinchi va uchunchi omillarning rejadagi miqdori bilan hisoblanib olingan natijadan mehnat unumdorligining rejadagi miqdori ayriladi.

$$\triangle MU_q = \frac{Q_h - S_r}{X_r} - \frac{Q_r - S_r}{X_r}$$

3-bosqich. Natijaga ikkinchi omilning ta’siri hisoblanadi. Bunda birinchi hamda ikkinchi omillarning haqiqatdagi hamda uchinchi omilning rejadagi miqdori orqali aniqlangan natijadan birinchi omilning haqiqatdagi hamda ikkinchi va uchinchi omilllarning rejadagi miqdorlari orqali aniqlangan natijadan ayriladi.

$$\triangle MU_s = \frac{Q_h - S_h}{X_r} - \frac{Q_h - S_r}{X_r}$$

4-bosqich. Natijaga uchinchi omilning ta’siri hisoblanadi. Bunda natijaning haqiqatdagi miqdoridan birinchi hamda ikkinchi omillarning haqiqatdagi hamda uchinchi omilning rejadagi miqdori orqali hisoblangan natija ayriladi.

$$\triangle MU_x = \frac{Q_h - S_h}{X_h} - \frac{Q_h - S_h}{X_r}$$

5-bosqich. Natijaga omillar ta’siri to‘g‘ri hisoblanganligi tekshiriladi.

Barcha omillar ta’siri natijaning umumiy farqiga teng chiqsa natijaga omillar ta’siri to‘rg‘i hisoblangan sanaladi.

Tadqiqot olib borish jarayonida o‘rganilgan qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarning amaliy materiallaridan foydalanilgan holda mehnat unumdorligiga omillar ta’siri ko‘rib chiqildi. “Asl Mars Mo‘jizasi” MChJ to‘g‘risida quyidagi axborotlar berilgan.

5.11-jadval.

“Asl Mars Mo‘jizasi” MCHJ 2023-yil to‘g‘risidagi biznes rejasidan hamda 1 kb shaklidagi statistik hisobotidan olingan ma’lumotlar.

№	Ko‘rsatkich nomi	Rejada	Haqiqatda
1	Jami qurilish ishlari (ming so‘mda)	15 000 000.0	17 640 000.0
2	Subpudratchilar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari (ming so‘mda)	4 200 000.0	7 400 000.0
3	Xodimlarning o‘rtacha soni	40	38

1-bosqich. Natijaning rejadagi hamda haqiqatdagi miqdorlari aniqlanib umumiy farq topiladi.

Natijaning rejadagi qiymati.

$$\frac{15\ 000\ 000.0 - 4\ 200\ 000.0}{40} = 270\ 000.0$$

Hisoblangan natijadan ko‘rinib turibdiki “Asl Mars Mo‘jizasi” MCHJ rejasi bo‘yicha o‘rtacha bitta xodim bir yil davomida 270 000.0 ming so‘mlik qurilish ishi bajarishi lozim.

Natijaning haqiqatdagi miqdori.

$$\frac{17\ 640\ 000.0 - 7\ 400\ 000.0}{38} = 269\ 473.0$$

Natijaning umumiy farqi.

$$\Delta MU = MU_h - MU_r = 269\ 473.0 - 270\ 000.0 = -527.0$$

“Asl Mars Mo‘jizasi” MCHJning bitta xodimi haqiqatda 2023-yilda 269 473.0 ming so‘mlik qurilish ishlarini bajargan.

2-basqich. Natijaga birinchi omilning ta’siri aniqlanadi. Bunda natija birinchi omilning haqiqatdagi miqdori hamda ikkinchi va uchinchi

omillarning rejadagi miqdori bilan hisoblanib olingan natijadan mehnat unumdorligining rejadagi miqdori ayriladi.

$$\frac{17\,640\,000-4\,200\,000}{40}-\frac{15\,000\,000.0-4\,200\,000.0}{40}=$$

$$336000.0-270000.0=66\,000.0$$

3-bosqich. Natijaga ikkinchi omilning ta'siri hisoblanadi. Bunda birinchi hamda ikkinchi omillarning haqiqatdagi hamda uchinchi omilning rejadagi miqdori orqali aniqlangan natijadan birinchi omilning haqiqatdagi hamda ikkinchi va uchinchi omilllarning rejadagi miqdorlari orqali aniqlangan natijadan ayriladi.

$$\frac{17\,640\,000.0-7\,400\,000.0}{40}-\frac{17\,640\,000-4\,200\,000}{40}=$$

$$=256\,000.0-336\,000.0=-80\,000.0$$

4-bosqich. Natijaga uchinchi omilning ta'siri hisoblanadi. Bunda natijaning haqiqatdagi miqdoridan birinchi hamda ikkinchi omillarning haqiqatdagi hamda uchinchi omilning rejadagi miqdori orqali hisoblangan natija ayriladi.

$$\frac{17\,640\,000-4\,200\,000}{40}-\frac{17\,640\,000.0-7\,400\,000.0}{40}=$$

$$=269\,473.0-256\,000.0=13473$$

5-bosqich. Natijaga omillar ta'siri to'g'ri hisoblanganligi tekshiriladi.

$$66\,000.0+(-80\,000.0)+13\,473.0=-527.0$$

Hisoblangan natijaga har bir omilning ta'sirlari yig'indisi umumiy farqqa teng. Bundan kelib chiqadiki natijaga omillar ta'siri to'g'ri hisoblangan. Ushbu hisob-kitoblar bo'yicha korxonaga xulosa beradigan bo'lsak, korxonada umumiy qurilish hajmining 2 640 000.0 ming so'mga oshganligi mehnat unumdorligini 66 000.0 so'mga hamda xodimlarning o'rtacha sonini 2 birlikka kamayganligi mehnat unumdorligini 13 473.0 ming so'mga oshishiga olib kelgan, ammo qurilish ishlarining subpudratchilar tomonidan bajarilgan qismi 3 600 000.0 ming so'mga oshishi qurilish korxonasi xodimlari mehnat unumdorligini 80 000.0 ming so'mga kamayishiga olib kelgan. Natijada umumiy mehnat unumdorligi 527.0 ming so'mga

pasaygan. Korxona o‘z xodimlarini o‘ziga kerakli bo‘lgan soha bo‘yicha qayta tayyorlashi yoki korxonaga kerakli mutaxassislarni jalb qilishi taklif qilinadi.

Qurilish korxonalari hamda qurilish sohasining boshqaruv organlari oldida bugungi kunda asosiy masala bu korxonaning umumiy moliyaviy salohiyati hamda ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini aniqlash bo‘lib qolmoqda.

Bu zaruratning tug‘ilishiga esa quyida jarayonlarning vujudga kelishi sabab bo‘lmoqda.

Birinchidan, bugungi kunda yirik xususiy qurilish obyektlari hamda barcha davlat qurilish obyektlari tenderlar asosida berilmoqda;

Ikkinchidan, qurilish obyektlari bo‘yicha bir yoki bir nechta alohida omillar natijalari asosida qabul qilingan boshqaruv qarorlari samaradorligi pasaymoqda;

Uchinchidan, xaridor tashkilotlar tomonidan ko‘plab tahliliy ko‘rsatkichlarni o‘rganish bo‘yicha vaqt hamda axborot manbalarining tor doiradaligi salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Qurilish korxonalarida tenderlarni shaffof o‘tkazish hamda barcha qurilish korxonalari uchun erkin raqobat muhitini shakllantirish bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Qurilish loyihalarini amalga oshirishda nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, jarayonning ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”da 17.11.2022-yilda PQ-425-sonli qarori tasdiqlangan.

Qaror bo‘yicha qurilish loyihalarini amalga oshirishda nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, jarayonning ochiqligi va shaffofligini ta’minlash bo‘yicha quyidagi vazifalar belgilangan:

Birinchidan, obyektlarning bosh loyiha-qidiruv va bosh qurilish-pudrat tashkilotlari Qurilish vazirligining «Shaffof qurilish» milliy axborot tizimida inson omilisiz o‘tkaziladigan elektron tender (tanlov) savdolari orqali aniqlanishi ta’minlansin;

Ikkinchidan, «Shaffof qurilish» milliy axborot tizimida o‘tkazilgan tender (tanlov) savdolari yakuni, shuningdek, qonunchilik hujjatlariga muvofiq to‘g‘ridan to‘g‘ri muzokaralar bo‘yicha buyurtmachi bilan loyiha-qidiruv va qurilish-pudrat tashkilotlari o‘rtasidagi loyiha-smeta

hujjatlarini ishlab chiqish va pudrat ishlarini bajarish to‘g‘risidagi shartnomalar mazkur tizimda elektron raqamli imzo orqali tuzilsin hamda ro‘yxatdan o‘tkazish yoki hisobga olish uchun Moliya vazirligining Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimiga elektron shaklda yuborilsin;

Uchinchidan, tasdiqlangan manzilli ro‘yxatlarga kiritilgan har bir obyekt identifikatsiya raqami berilgan holda, «Shaffof qurilish» milliy axborot tizimiga kiritilsin hamda ular bo‘yicha har qanday o‘zgartirish yoki qo‘shimchalar mazkur axborot tizimida aks ettirilsin;

To‘rtinchidan, xavf-xatar toifasidan qat’i nazar, barcha obyektlar qurilish-montaj ishlarini boshlash uchun vakolatli organda ro‘yxatdan o‘tkazilishi va nazoratga olinishi ta’minlansin;

Beshinchidan, mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchisi, mahalla faollari va yoshlar yetakchilari, ommaviy axborot vositalari va boshqa jamoat tashkilotlari tegishli hududda Dasturlar va Loyihalar doirasida amalga oshirilayotgan ishlarning holati, sifati hamda ko‘lami ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatsin, unda aniqlangan kamchiliklar haqida Davlat dasturlari ijro etilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman (shahar) shtablariga ma’lumot taqdim etsin;

Oltinchidan, «Shaffof qurilish» milliy axborot tizimida obyektlar bo‘yicha aniqlangan bosh pudrat tashkiloti tomonidan ishlar bajarilganligini (tovarlar yetkazib berilganligini) tasdiqlovchi dalolatnoma uning mazkur tizimdagi shaxsiy kabinetida elektron tarzda shakllantirilib, buyurtmachi tashkilot bilan elektron tarzda kelishilsin. Bunda, buyurtmachi tomonidan hisobvaraq-fakturalar Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimiga moliyalashtirish uchun elektron shaklda yuboriladi;

Yettinchidan, «Shaffof qurilish» milliy axborot tizimidagi loyiha-qidiruv va qurilish-pudrat tashkilotlarining reytingida mavjud bo‘lgan korxonalar, ularning reytingini hisoblash mezonlari

kesimidagi ballari, Dasturlar hamda Loyihalardagi har bir obyektning shaharsozlik hujjatlari, obyektda bajarilgan ish hajmlari va moliyalashtirilgan mablag‘lar haqidagi ma’lumotlar tizimda real vaqt rejimida jamoatchilik uchun ochiq e’lon qilinsin[72]. Ushbu qaror barcha qurilish korxonalari tomonidan tenderlarda ishtirok etish talablarini hamda tenderlarni tashkil qilish, unda g‘oliblarni aniqlash va qurilish obyektlarini topshirish masalalari tartibga solinadi.

Bugungi qurilish «Shaffof qurilish» milliy axborot tizimida amalga oshirilayotgan tenderlarida quyidagi tashkilotlar tomonidan qurilish korxonalari quyidagicha baholanmoqda.

Ushbu baholashlar o‘rganib chiqilganda qurilish korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy salohiyatini belgilab beruvchi yagona tahliliy ko‘rsatkich mavjudligi aniqlandi. Bu O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi tomonidan korxona aktivlarini aylanish koeffitsiyenti hisoblanadi.

Ammo faqatgina ushbu koeffitsiyent orqali qurilish korxonalarini iqtisodiy, ijtimoiy hamda moliyaviy salohiyatini to‘liq baholash mumkin bo‘lmaydi. Shu boisdan qurilish korxonalarining umumiy moliyaviy salohiyati ko‘rsatkichi hamda umumiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi hamda qurilish tenderlarida foydalanish bo‘yicha tavsiya qilindi.

5.12-jadval

O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jalik vazirligi tomonidan amalga oshiriladigan tenderlar baholash mexanizmi

Ko‘rsatkichlar nomi	Maksimal ball
O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi	
Baxtsiz hodisalar	0.0
Tegishli mutaxassislik bo‘yicha oliy ma’lumotga ega bo‘lgan muhandis-texnik xodimlar soni (mutaxassisliklar kodi bo‘yicha)	10.0
Tashkilot rahbarining qurilish sohasida mutaxassislik bo‘yicha oliy ma’lumotga egaligi (mutaxassisliklar kodi bo‘yicha)	3.0

[72] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qurilish loyihalarini amalga oshirishda nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, jarayonning ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”da 17.11.2022-yildagi PQ-425 sonli qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati	
Avtomikser	3.0
Avtoko‘targich, gidroko‘targich	1.0
Avtokran (balonda yuradigan)	5.0
Og‘ir yuk tashiydigan treyler	1.0
Yuk avtomashinasi	5.0
O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi	
Xalqaro ISO 14001 sertifikatiga egaligi (certificate_ISO_14001)	1.3
Xalqaro ISO 9001 sertifikatiga egaligi (certificate_ISO_9001)	1.4
Xalqaro ISO 45001 sertifikatiga egaligi (certificate_ISO_45001)	1.3
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi	
Oxirgi yillik ketma-ket o‘n ikki oy davomida korxonalar tomonidan jismoniy shaxslarga to‘langan yillik daromad solig‘i summasi (moliya yili yakuni bo‘yicha)	10.0
Foyda solig‘i to‘lagunga qadar foydaga egaligi (yillik)	3.0
Xodimlarning o‘rtacha ish haqi (so‘rov yuborilgandan keyin yillik oxirgi 12 oy uchun)	2.0
Hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i miqdori (QQS)	3.0
Realizatsiya qilishdan tushgan sof tushum (oxirgi 3 yilda topshirilgan hisobotlardagi eng yaxshi ko‘rsatkich)	7.0
Tashkilot tashkil topgan yili	5.0
Aktivlar rentabelligi koeffitsiyenti	4.0
Ishlaydigan xodimlar soni va ular bo‘yicha yillik oxirgi ketma-ket 12 oyda hisoblangan daromad solig‘i (moliya yili yakuni bo‘yicha)	10.0
O‘zbekiston Respublikasi sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi	
Avtokran (temir zanjirda yuradigan)	2.0
Minorali kran	4.0
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi	
Buldozer	3.0
Katok	2.0
Ekskavator	5.0
Frontal pogruzchik	3.0
Ko‘chma statsionar beton qorgich	1.0

Qurilish korxonasining umumiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholashda foydalanilishi mumkin bo‘lgan umumiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

UIIS=AR*XATD*IHH

Bu yerda:

AR- $\frac{sof\ foyda}{aktivlarning\ o'rtacha\ miqdori} - aktivlar\ rentabelligi;$

XATD- $\frac{aktivlarning\ o'rtacha\ miqdori}{mavjud\ xodimlar\ soni} -$

$xodimlarning\ aktivlar\ bilan\ ta'minlanganlik\ \ darajasi;$

IHH- $\frac{mavjud\ xodimlar\ soni}{xodimlarning\ o'rtacha\ soni} - xodimlar\ harakatining\ holati.$

Bunday ko‘rsatkichning amaliyotda foydalanilishi qurilish korxonalari hamda tenderlarni tashkil qiluvchi boshqaruv apparati va xaridorlar uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratadi.

Birinchidan, bir vaqtning o‘zida korxonaning rentabelligini, xodimlarini aktivlar bilan ta’minlanganlik darajasini hamda korxonada hozirgi holatda xodimlar sonini o‘rtacha xodimlar soni bilan taqqoslash imkoniyati yaratiladi;

Ikkinchidan, korxonaning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini, ya’ni aktivlari foydalilik darajasini (iqtisodiy samaradorligini) hamda qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratilib bugungi kundagi bandlik darajasini (ijtimoiy samaradorligini) baholash imkoniyati yaratiladi.

Ushbu ko‘rsatkichni ma’lum vaqt davomida dinamik o‘zgarishiga omillar ta’sirini baholashda iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan an’anaviy usullardan integral usulini qo‘llash tavsiya etildi.

Ushbu usulning qo‘llanilishi qurilish korxonalai hamda tahlilni amalga oshiruvchilar uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratadi.

Birinchidan, korxonaning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichiga omillar ta’sirini hisoblab chiqaradi;

Ikkinchidan, natijaga ta’sir etuvchi omillarning o‘rni almashtirilgan vaziyatda ham omillar ta’siri na‘tijalari o‘zgarmaydi.

Bu omilli tahlil quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

Birinchidan, natijaning umumiy farqi aniqlanadi:

$$\Delta\text{UIIS}=UIIS_h - UIIS_r$$

Ikkinchidan, natijaga birinchi omil ta'siri aniqlanadi.

$$\Delta UIIS_{AR} = \frac{1}{2}\Delta\text{AR} * (XATD_r * IHH_h) + (XATD_h * IHH_h) + \frac{1}{3}(\Delta\text{AR}*\Delta\text{XATD}*\Delta\text{IHH})$$

Uchinchidan, natijaga ikkinchi omil ta'siri aniqlanadi.

$$\Delta UIIS_{XATD} = \frac{1}{2}\Delta\text{XATD} * (AR_r * IHH_h) + (AR_h * IHH_r) + \frac{1}{3}(\Delta\text{AR}*\Delta\text{XATD}*\Delta\text{IHH})$$

To'rtinchidan, natijaga uchinchi omil ta'siri aniqlanadi.

$$\Delta UIIS_{IHH} = \frac{1}{2}\Delta\text{IHH} * (AR_r * XATD_h) + (AR_h * XATD_r) + \frac{1}{3}(\Delta\text{AR}*\Delta\text{XATD}*\Delta\text{IHH})$$

Beshinchidan, aniqlangan omlillar ta'siri to'g'ri hisoblanganligi tekshiriladi.

$$\Delta\text{UIIS}=\Delta UIIS_{AR} + \Delta UIIS_{XATD} + \Delta UIIS_{IHH}$$

Qurilish korxonasining qurilish korxonalarining umumiy moliyaviy salohiyati ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi.

$$\text{UMS}=\text{AAK}*\text{AR}*\text{TQ}$$

Bu yerda:

$$\text{AR-}\frac{sof\ foyda}{aktivlarning\ o'rtacha\ miqdori} - aktivlar\ rentabelligi;$$

$$\text{AAK-}\frac{sof\ tushum}{aktivlarning\ o'rtacha\ miqdori} - aktivlar\ likvidliligi;$$

$$\text{TQ-}\frac{joriy\ aktivlar}{muddati\ kelgan\ majburiyatlar} - to'lovga\ qodirlik.$$

Ushbu ko'rsatkichni ma'lum vaqt davomida dinamik o'zgarishiga omillar ta'sirini baholashda iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan an'anaviy usullardan integral usulini qo'llash tavsiya etildi.

Ushbu usulning qo'llanilishi qurilish korxonalani hamda tahlilni amalga oshiruvchilar uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratadi.

Birinchidan, korxonaning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichiga omillar ta'sirini hisoblab chiqaradi;

Ikkinchidan, natijaga ta’sir etuvchi omillarning o‘rni almashtirilgan vaziyatda ham omillar ta’siri natijalari o‘zgarmaydi.

Bu omilli tahlil quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

Birinchidan, natijaning umumiy farqi aniqlanadi:

$$\Delta\text{UMS}=UMS_h - UMS_r$$

*Ikkinchidan***,** natijaga birinchi omil ta’siri aniqlanadi**.**

$$\Delta UMS_{AAR} = \frac{1}{2}\Delta\text{AAR} * (AR_r * TQ_h) + (AR_h * TQ_h) + \frac{1}{3}(\Delta\text{AAR}*\Delta\text{AR}*\Delta\text{TQ})$$

*Uchinchidan***,** natijaga ikkinchi omil ta’siri aniqlanadi**.**

$$\Delta UMS_{AR} = \frac{1}{2}\Delta\text{AR} * (AAR_r * TQ_h) + (AAR_h * TQ_r) + \frac{1}{3}(\Delta\text{AAR} * \Delta\text{AR} * \Delta\text{TQ})$$

*To‘rtinchidan***,** natijaga uchinchi omil ta’siri aniqlanadi**.**

$$\Delta UMS = \frac{1}{2}\Delta\text{TQ} * (AAR_r * AR_h) + (AAR_h * AR_r) + \frac{1}{3}(\Delta\text{AAR} * \Delta\text{AR} * \Delta\text{TQ})$$

Beshinchidan, aniqlangan omlillar ta’siri to‘g‘ri hisoblanganligi tekshiriladi.

$$\Delta\text{UMS}=\Delta UMS_{AAR} + \Delta UMS_{AR} + \Delta UMS_{TQ}$$

Taklif qilingan ushbu ko‘rsatkichlar hamda ularni hisoblash, dinamik o‘zgarishiga omillarni ta’sirini hisoblash usullari tahlil natijalari samaradorligini oshishiga olib keladi.

5.3. Qurilish korxonalari samaradorligini baholashda ko‘p omilli korrelyatsion-regression tahlilni takomillashtirish

Korxonalarda aktivlar tahlilini amalga oshirishda muhim dastaklar bo‘lib matematik funksiyalar hamda statistik ko‘rsatkichlar va statistik usullar hisoblanadi. Statistika tahlil jarayonida qanday vazifalarni bajarishga xizmat qiladi?

Statistika korxonalarda tahlilni amalga oshirishda fan sifatida korxonalarning moliyaviy holatini tahlil qilishda omillar hamda natija o‘rtasidagi bog‘lanishlarni, kuzatish usullarini hamda kutiladigan xatolik darajalarini belgilashga xizmat qilsa, faoliyat sifatida tahlil jarayoni

uchun axborot to‘plash hamda asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan ta’minlash vazifasini bajaradi.

Natijaga omillar ta’siri ikki xil bo‘lishi mumkin.

1. Funksional bog‘lanish;
2. Korrelyatsion bog‘lanish.

Ba’zi holatlarda esa ikkala bog‘lanish aralash holatda ham kelishi mumkin.

Funksional bog‘lanishda bir o‘zgaruvchi belgining har qaysi qiymatiga boshqa o‘zgaruvchi belgining aniq bitta qiymati mos keladi. Bunday bog‘lanishning muhim xususiyati shundaki, bunda hamma omillarning to‘liq ro‘yxatini va ularning natijaviy belgi bilan bog‘lanishini to‘la ifodalovchi tenglamani yozish mumkin[73]. Masalan, qurilish korxonalarida jami bajarilgan qurilish ishlariga xodimlar soni hamda mehnat unumdorligini ta’sirini olaylik. Bunda korxona tomonidan jami bajarilgan qurilish ishlari hamda korxona xodimlar soni funksional hamda to‘g‘ri bog‘lanishda. Korxonaning xodimlar soni qancha ko‘paysa hamda mehnat unumdorligi saqlab qolinsa korxonaning qurilish ishlarini to‘g‘ri proporsional ravishda o‘sishiga erishiladi.

Funksional bog‘lanishlarni to‘liq bog‘lanishlar ham deb atashadi.

Korrelyatsion (yoki noto‘liq) bog‘lanishda omil belgining har bir qiymatiga natijaviy belgining aniq qiymati emas, balki har xil qiymatlari mos keladi. Masalan, kompaniya menejerining ma’lumoti, uning mehnat unumdorligiga ta’sir qiladi. Yoki quruvchini olaylik. Uning razryadi bilan ish haqi o‘rtasida bog‘liqlik bor, ya’ni razryad oshib borishi bilan ish haqi ko‘payib borishi mumkin. Lekin bizga ma’lumki, quruvchining razryadiga uning ish haqi to‘liq bog‘liq emas. Ikkinchidan, bir xil razryadga ega bo‘lgan quruvchilar, ishlayotgan obyektiga qarab turli miqdorda ish haqi oladilar. Buning asosiy sababi, ish haqi hajmi faqat ish razryadiga emas, balki boshqa omillarga ham (masalan, shaxsiy qobiliyat, ish sharoiti, soliq darajasi, ma’lumoti, korxonaning moliyaviy holati va h.k.) bog‘liqligidir[74].

[73] Х.А.Шодиев. “Статистика” – Дарслик. Тошкент – 2004. 161-бет.
[74] Х.А.Шодиев. “Статистика” – Дарслик. Тошкент – 2004. 161-бет.

Yuqoridagi fikrlarga tayanadigan bo‘lsak korxonada natijaga omillar ta’siri funksional bog‘liqlikda bo‘lsa bizga natijaviy omilni kuzatish hamda uni prognoz qilish hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydi, ammo natija hamda omillar o‘rtasidagi bog‘lanish korrelyatsion bo‘lsa bu tahlil oldiga bir qancha qiyinchiliklar tug‘diradi. Chunki tahlil o‘tgan hamda bugungi kunni o‘rganish hamda kelajakni prognoz qilishdir.

Korxonalarda yoki butun mamlakatning qurilish tarmog‘ida korrelyatsion bog‘lanishda bo‘lgan natija hamda omillar tahlilini amalga oshirish hamda natijaviy ko‘rsatkichni prognoz qilishga regressiya tenglamasi orqali erishish mumkin.

Mamlakatda olib boriladigan qurilish ishlari hajmining o‘zgarishiga quyidagi omillar o‘z ta’sirini o‘tkazadi hamda ushbu omillar quyidagilar:

X_1- Qurilish korxonalari soni (dona);

X_2- Qurilish tarmog‘ida band ishchi soni (dona);

X_3- Qurilish korxonalari tomonidan foydalanilgan o‘rtacha asosiy vositalar qiymati (ming so‘mda);

X_4- Qurilish korxonalari tomonidan foydalanilgan o‘rtacha aylanma mablag‘lar qiymati (ming so‘mda);

X_5 – Mamlakatdagi aholi soni (ming kishi);

X_6- Qurilish korxonalari tomonidan foydalanilgan o‘rtacha nomoddiy aktivlar qiymati (ming so‘mda);

X_7- Qurilishga kiritilgan investitsiyalar hajmi (mln.so‘mda);

X_8- Qurilish materiallari o‘rtacha narxi o‘zgarishi (so‘mda);

X_9- Inflyatsiya darajasi (foizda);

U – Jami bajarilgan qurilish ishlari (mlrd.so‘m).

Ushbu omillarni natijaga, ya’ni jami qurilish ishlariga ta’sirini aniqlashda natija va omillar o‘rtasidagi bog‘lanishlar korrelyatsion bo‘lganligi sababli regressiya tenglamasini ishlab chiqiladi. Ushbu ishlab chiqiladigan regressiya tenglamasi mamlakat bo‘yicha bajariladigan barcha qurilish xizmatlari hajmini modelga kiritiladigan omillarni o‘zgarish tendinsiyalarini bilgan holda prognoz qilish imkoniyatini yaratadi.

5.13-jadval

O‘zbekiston Respublikasida jami qurilish ishlariga ta’sir qiluvchi omillar hamda jami qurilish ishlari (2003-2023-yil ma’lumotlari asosida)[75]

	Y	X1	X2	X3	X4	X5	X6	X7	X8	X9
2003	831,10	11 874	882,00	542 652,00	1 245 642,00	24 813,10	98 540,00	1 320,80	144,00	26,60
2004	1 121,90	12 372	895,00	652 324,00	1 459 874,00	25 115,80	112 589,00	1 526,60	136,70	21,60
2005	1 453,10	12 975	904,00	756 874,00	2 542 874,00	25 427,90	142 652,00	1 978,50	127,10	3,80
2006	1 938,40	13 475	925,00	845 645,00	3 542 652,00	25 707,40	168 474,00	2 629,00	126,50	3,70
2007	2 733,50	13 873	963,00	894 652,00	4 698 784,00	26 021,30	179 652,00	3 165,20	128,10	7,80
2008	3 575,90	14 072	984,00	942 543,00	5 698 654,00	26 312,70	182 984,00	4 041,00	124,00	6,80
2009	7 067,40	14 576	986,00	963 521,00	5 987 474,00	26 663,80	195 874,00	5 903,50	110,90	6,80
2010	8 245.8	15 172	998,00	987 452,00	6 522 988,00	27 072,20	195 987,00	9 559,50	107,70	7,80
2011	9 504 .8	15 479	1 002,00	993 652,00	8 747 210,00	27 533,40	201 000,00	12 531,90	129,50	7,40
2012	11 753.9	15 874	1 033,70	1 254 622,00	8 982 230,00	28 001,40	224 542,00	16 463,70	116,40	7,30
2013	15 219.3	16 370	1 068,80	1 322 584,00	9 745 654,00	29 123,40	236 698,00	19 500,00	120,40	7,60
2014	20 060.4	16 775	1 105,70	1 356 550,00	10 524 654,00	29 555,40	239 875,00	24 455,30	110,80	7,00
2015	25 423.1	17 352	1 144,00	1 396 542,00	10 876 640,00	29 993,50	242 875,00	30 490,10	112,70	6,80
2016	29 413.9	18 374	1 183,30	1 452 658,00	10 987 587,00	30 492,80	246 987,00	37 646,20	114,80	6,10
2017	34 698.0	19 616	1 222,20	1 458 754,00	14 698 574,00	31 022,50	248 784,00	44 810,40	113,80	5,60
2018	51 129.3	20 863	1 263,60	1 542 698,00	15 742 362,00	31 575,30	249 854,00	51 232,00	113,00	5,70
2019	71 156.5	21 790	1 290,00	1 563 875,00	18 324 897,00	32 120,50	256 323,00	72 155,20	131,10	14,40
2020	88 130.3	23 807	1 205,50	1 587 960,00	20 514 654,00	32 656,70	359 874,00	124 231,30	139,60	14,30
2021	107 492.7	28 955	1 324,60	1 658 794,00	21 548 966,00	33 255,50	452 698,00	195 927,30	128,20	15,20
2022	130 790.9	36 199	1 305,60	1 897 654,00	21 987 888,00	33 905,20	645 874,00	210 195,00	107,10	11,10
2023	150 792.6	40 950	1 294,50	1 987 422,00	30 254 879,00	34 558,90	754 874,00	224 542,00	113,00	10,00

[75] stat.uz маълумотлари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

Mamlakat bo‘yicha qurilish xizmatlari hajmini prognoz ko‘rsatkichlarining ishlab chiqilishi esa mamlakat bo‘yicha qurilish sohasidan kelib tushadigan soliq tushumlarini, yangi yaratilishi mumkin bo‘lgan ish o‘rinlari sonini, aholining yangi uy-joy bilan ta’minlanish darajasini, qurilish xizmatlari hajmiga ta’sir qiluvchi omillarni boshqarish darajalarini, mamlakatning infrastrukturasining yaxshilanish hamda yangilanish darajasini va shu kabi boshqa ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarining kutilmalarini aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Buning uchun biz barcha omillarni hamda natijani yillar kesimida o‘zgarish tendensiyasini jadvalda aks ettirilgan (5.13-jadval).

Odatda natijaning o‘zgarishi bir qancha omillar bilan staxostik (bilvosita) tarzda bog‘lanadigan bo‘lsa, bunday bog‘lanish statistikada korrelyatsion bog‘lanish deb aytiladi. Bunday holda omillarning ta’sirini korrelyatsiya va regressiya usullarini qo‘llab aniqlash mumkin bo‘ladi. Biroq natijaga juda ko‘p omillar ta’sir qiladi. Ammo amaliyotda barcha omillarning ta’sirini aniqlash biroz murakkab. Birinchidan, juda ko‘p omillarni hisobga olish, ularni raqamlarda ifodalash qiyin bo‘lsa, ikkinchidan barcha omillar bo‘yicha hisob-kitoblar olib borilmaydi. Shu tufayli tahlil jarayonida hisobga olinishi mumkin bo‘lgan va asosiy deb baholanidigan omillargina tahlil qilinadi. Ma’lum natijaga ta’sir etuvchi belgilar omillar, omillar ta’sirida shakllangan belgi natija deyiladi[76].

Biz yuqorida keltirib o‘tilgan omillar hamda natijani davrlar kesimida dinamik o‘zgarishini ko‘rib o‘tamiz.

5.2 – rasmdan ko‘rinib turibdiki, natijaviy belgining o‘zgarish trendiga, X1, X2, X3, X4, X5, X6 va X7 omil belgilarining o‘zgarish trend chizig‘i grafigi yaqin ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Natijaviy ko‘rsatkichga omillar ta’sirini aniqlashda asosan juft korrelyatsiya qo‘llaniladi. Juft korrelyatsiyani aniqlash bizga bir-birini takrorlaydigan omillarni aniqlash imkonini beradi hamda natijaviy ko‘rsatkichga ta’sir etish darajasi kuchsiz bo‘lgan omillarni aniqlash uchun foydalaniladi. Ushbu usul bilan juft korrelyatsiyani aniqlash orqali regressiya tenglamasiga kiritiladigan omillarni aniqlab olamiz va ularni regressiya tenglamasiga kiritamiz.

[76] Худойбердиев У.Х., Алиев Б.Р. Статистика.Самарқанд. СамИСИ 2006 -88-бет.



5.2-rasm. Natijaviy va omil belgilarning trend chizig‘ining grafiklari[77].

Buning uchun quyidagi juft koeffitsiyent korrelyatsiya formulasidan[78] foydalanildi:

$$r = \frac{\overline{YX} - \overline{Y} * \overline{X}}{\sigma_Y * \sigma_X}$$

Bunda $\overline{Y}$, $\overline{X}$, – natijaviy va omillarni ifodalovchi ko‘rsatkichlarning o‘rtacha miqdorlari;

$\overline{YX}$ – natija bilan omillarni ifodalovchi ko‘rsatkichlarninng ko‘paytmasi;

[77] 10-жадвал маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси.
[78] Статистика: учебник. / под ред. С.А.Орехова. – М.: Эксмо, 2010. – с. 172.

σ_u, σ_x -natijaviy va omillarning o‘rtacha kvadratik chetlanishi.

Koeffitsiyent korrelyatsiyaning miqdori (-1)dan (+1)gacha oraliqdagi bog‘liqlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Koeffitsiyentning miqdori quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Koeffitsiyent korrelyatsiyasi (-1) va (+1)ga qancha yaqin bo‘lsa natija bilan omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik shuncha zich bo‘ladi.

2. Agar r = 0 bo‘lsa bular o‘rtasidagi bog‘liqlik yo‘q, degan xulosa uchun asos bo‘ladi.

3. Agar 0 < r < 1 bo‘lsa ushbu ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlik bevosita to‘g‘ri bo‘lib, bir xil yo‘nalishga ega bo‘ladi.

4. -1< r < 0 bo‘lsa ular o‘rtasidagi bog‘liqlik teskari ekanligini ko‘ramiz.

5. r = 1 (-1) bo‘lsa ular o‘rtasidagi bog‘liqlik funksional, degan xulosaga kelish uchun asos bo‘ladi.

Ushbu formuladan foydalangan holda kompyuterdagi “*Exzel* dasturi”ni va ayrim amallarni qo‘llab o‘zaro takrorlanuvchi omillarni aniqlash uchun quyidagicha juft korrelyatsiya koeffistiyentlari matritsasi tuzildi.

Tanlab olingan va regressiya tenglamasiga kiritilgan omillar o‘zaro chiziqli yoki juda kuchli korrelyatsion bog‘lanishda bo‘lsa, ular ma’lum darajada bir-birini takrorlashi natijasida regressiya ko‘rsatkichlari buziladi. Shu sababli barcha omillarning o‘zaro bog‘lanish kuchi juft korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblash yo‘li bilan aniqlanib, bir-birini takrorlaydigan omillar tenglamadan chiqarib tashlanadi. Keyin esa regressiya tenglamasining ma’lum parametrlari (a_0, a_1, a_2, … a_n) aniqlanadi.

5.14-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki X3 omil bilan X4 hamda X5 omillar o‘zaro yuqori korrelyatsiyaga ega hamda X3 omilning o‘zi natijaviy ko‘rsatkich (Y) bilan kuchli korrelyatsiyaga ega ekanligini hamda X8 va X9 omillarning korrelyatsion bog‘liqligi pastligini (bu omillarni yuqiridagi grafiklarda ham ko‘rishimiz mumkin) inobatga olib modelga X1, X2, X3 hamda X7 omillarini olamiz.

5.14-jadval

O‘zbekiston Respublikasida jami qurilish ishlari va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarning o‘zaro bir-biri bilan juft korrelyatsion bog‘liqligi

Korrelyatsiya koeffitsiyentlari, kuzatish davrlari 2003 - 2023 5%
o‘rtacha xatolik darajasi = 0,4329 uchun n = 21

Y	X1	X2	X3	X4	
1,0000	0,9667	0,8563	0,8671	0,9289	Y
	1,0000	0,8215	0,8743	0,9403	X1
		1,0000	0,9603	0,9300	X2
			1,0000	0,9529	X3
				1,0000	X4
X5	X6	X7	X8	X9	
0,9039	0,9332	0,9883	-0,1922	0,1576	Y
0,8840	0,9863	0,9727	-0,3046	0,0650	X1
0,9801	0,7511	0,8006	-0,3563	-0,0562	X2
0,9831	0,8429	0,8264	-0,4572	-0,1596	X3
0,9714	0,9004	0,9139	-0,2760	0,0047	X4
1,0000	0,8326	0,8620	-0,3358	-0,0321	X5
	1,0000	0,9522	-0,3527	0,0075	X6
		1,0000	-0,1615	0,1826	X7
			1,0000	0,6499	X8
				1,0000	X9

Korrelyatsion matritsa tahlilidan so‘ng ko‘p omilli regressiya tenglamasini tuzishda natijaviy ko‘rsatkich (U) va X1, X2, X3 hamda X7 omillardan foydalanish kerakligini aniqlab oldik. Ushbu ko‘rsatkichlarni Gretl dasturi yordamida tahlil qilamiz. Eng kichik kvadratlar usulidan foydalanib quyidagi ma’lumotlar olindi (5.15-jadval).

Olingan ma’lumotlardan ko‘rishimiz mumkinki natijaviy ko‘rsatkich (Y) bilan X1 hamda X3 omillarning r qiymati 0.1 dan katta bo‘lganligi sababli modeldan chiqarib yuboriladi.

5.15-jadval

Natija hamda omillar o‘rtasidagi bog‘lanish

№	Ko‘rsatkichlar	Koeffitsiyent	St.xatolik	t-statistika	p-ko‘rsatkich	bog‘liqlik darajasi
1	const	-34012.6	15711.2	-2.165	0.0459	**
2	X1	-0.0495499	0.533167	-0.09294	0.9271	
3	X2	40.1868	19.1300	2.101	0.0519	*
4	X3	-0.00320990	0.00861940	-0.3724	0.7145	
5	X7	0.325237	0.048677	6.691	5.18e-06	***

***- natija hamda omil o‘rtasida bog‘liqlik bor.**
****- natija hamda omil o‘rtasida bog‘liqlik o‘rtacha.**
*****- natija hamda omil o‘rtasida bog‘liqlik yuqori.**

Bizda modelda qolgan ikkita omil ko‘rsatkichlari qoldi. Shu sababli ko‘rsatkichlarni Gretl dasturi yordamida qayta tahlil qilamiz. Eng kichik kvadratlar usulidan foydalanib quyidagi ma’lumotlar olindi (5.16-jadval):

5.16-jadval

Natija hamda omillar o‘rtasidagi bog‘lanish

№	Ko‘rsatkichlar	Koeffitsiyent	St.xatolik	t-statistika	p-ko‘rsatkich	bog‘liqlik darajasi
1	const	-30426.2	77.4284	-3.930	0.0010	***
2	X2	32.7624	7.64112	4.288	0.0004	***
3	X7	0.317799	0.0159273	19.95	1.01e-0.13	***

***- natija hamda omil o‘rtasida bog‘liqlik bor.**
****- natija hamda omil o‘rtasida bog‘liqlik o‘rtacha.**
*****- natija hamda omil o‘rtasida bog‘liqlik yuqori.**

Olingan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, U uchun X2 hamda X7 omillar yordamida tuzilgan model o‘rinli, chunki model uchun r-qiymat 0.1dan yuqori emas.

Natija hamda omillar o‘rtasidagi bog‘lanish eng kichik kvadratlar usuli orqali tekshirilganda natija va omillar o‘rtasidagi bog‘lanish me’yorlarga mosligi aniqlandi. Keyingi vazifa tenglamamiz normal taqsimotga ega yoki ega emasligini tekshiramiz. Tenglamaning normal

taqsimotga egaligi bu natija hamda omillarning harakat trayektoriyasining bir biri bilan mutanosibligini tekshirishga xizmat qiladi,natija (-3:3) oralig‘iga tegishli bo‘lsa normal taqsimot testidan o‘tadi. Buning uchun Gretl dasturidan foydalanib olingan regressiya tenglamasi uchun taqsimot grafigini olamiz:



5.3-rasm: Gretl dasturidan foydalanib olingan regressiya tenglamasi uchun taqsimot grafigi.

Grafik ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki X2 hamda X7 omillarimiz birgalikda normal taqsimotdan o‘tmadi. Shu sababli biz X1, X2, X3 hamda X7 omillardan foydalangan ma’lumotlarimizga qaytamiz va bu yerdan korrelyatsiya bog‘lanishi past bo‘lgan omilni modeldan chiqaramiz. Bu omil X2 omilidir. Endilikda bizda faqatgina X7 omili qoldi.

Bizda modelda X7 omil ko‘rsatkichlari qoldi. Shu sababli ko‘rsatkichlarni Gretl dasturi yordamida qayta tahlil qilamiz. Eng kichik kvadratlar usulidan foydalanib quyidagi ma’lumotlar olindi (5.17-jadval).

5.17-jadval

Natija hamda omil o‘rtasidagi bog‘lanish

№	Ko‘rsatkichlar	Koyeffitsient	St.xatolik	t-statistika	p-ko‘rsatkich	bog‘liqlik darajasi
1	const	2577.02	1160.61	2.220	0.0388	**
3	X7	0.372412	0.0132068	28.2	5.73e-0.17	***

***- natija hamda omil o‘rtasida bog‘liqlik bor.**

****- natija hamda omil o‘rtasida bog‘liqlik o‘rtacha.**

*****- natija hamda omil o‘rtasida bog‘liqlik yuqori.**

Olingan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, U uchun X3 omili yordamida tuzilgan model o‘rinli, chunki model uchun r-qiymat 0.0049.

Keyingi bosqichda natija hamda X7 omili bilan birgalikdagi tenglamamiz normal taqsimotga ega yoki ega emasligini tekshiramiz. Buning uchun Gretl dasturidan foydalanib olingan regressiya tenglamasi uchun taqsimot grafigini olamiz:



5.4-rasm: Gretl dasturidan foydalanib olingan regressiya tenglamasi uchun taqsimot grafigi.

Grafikdagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki regression tenglamamiz normal taqsimotga ega, chunki xi-kvadrat [-3;3] oralig‘iga tegishli.

Endi modelni Uayt testi yordamida Geteroskedastichnost (bir jinsli dispersiya) ga tekshirib ko‘ramiz. Buning uchun Gretl dasturidan foydalanib olingan regressiya tenglamasi uchun Uayt testini o‘tkazib modelimiz bir jinsli (моноскидостичный), chunki ushbu test uchun r-qiymat 0.0049 ga teng.

Yuqoridagi o‘tkazilgan tahlillar natijasida shuni aytishimiz mumkinki, tuzilayotgan regressiya tenglamasi iqtisodiy jihatdan mazmunga ega va u quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Y=0.372412*X7 + 2577.02

Regressiya chiziqli tenglamasi parametrlarining mohiyatli ekanligini tekshirishda t mezonlaridan foydalaniladi. Buning uchun har bir parametrga mos kelgan t ning haqiqiy qiymatlarini quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi[79].

$$t_{a0} = \frac{a_0\sqrt{n-2}}{\sigma_k};$$

$$t_{a1} = \frac{a_1\sigma_x\sqrt{n-2}}{\sigma_k};$$

Styudent me’zoni bilan tekshirish uchun biz t_f ni aniqlab olishimiz kerak. t_j quyidagi formula[80] yordamida topildi:

$$t_f = R\sqrt{\frac{n-p-1}{(1-R^2)}}$$

Hisob-kitoblar quyidagi natijalarni berdi. Ishonchlilik darajasi r = 0,95 bo‘lganda t- Styudent mezonining jadval qiymati t_j = 2,845 bo‘ladi. Bizda t_f=20,75 ni tashkil etdi. Demak, $t_f > t_j$ (20,75> 2,845). Bu esa, hosil qilingan tenglamamiz natijaviy ko‘rsatkich bilan omillar o‘rtasidagi bog‘lanishni to‘g‘ri ifodalanganligidan dalolat beradi.

O‘tkazilgan tahlil natijasida ishlab chiqilgan regressiya tenglamasi bizga keyingi 6 yilda qurilish sohasiga kiritiladigan investitsiya miqdorini bilgan holda bajariladigan qurilish ishlari prognozini qilish

[79] Абдуллаев Ё. Статистика назарияси. Т. Меҳнат. 2000. – Б. 212.
[80] Денискин В.В. Основы экономического прогнозирования в пищевая промышленности. М. Легкая и пишевая промышленность. 1984. – С. 136.

hamda ushbu prognoz orqali qurilish tarmog‘ida oldindan quyidagi masalalar yechimini qilish imkoniyatini beradi.

- Biz keyingi davrda qurilish ishlarini qanchaga yetkazishni rejalashtirmoqdamiz,
- Ushbu hajmga chiqish uchun qancha investitsiya lozim,
- Investitsiya manbalarini shakllantirish yo‘nalishlari aniqlanishi,
- Qurilish ishlarini bajarishga kerakli moddiy, moliyaviy hamda mehnat resurslari masalalarini hal etish.

Statistik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish natijasida aniqlandiki qurilish sohasiga kiritilayotgan investitsiyalar o‘rtacha 30% o‘sayotganligini faqatgina bu ko‘rsatkich 2020 hamda 2021-yillarda pandemiya sababli 7%ga tushib qolgan. Tadqiqot jarayonida o‘rtacha o‘sishni hamda oxirgi 2 yillik ko‘rsatkichni olib qurilish sohasiga kiritiladigan investitsiya miqdorining o‘zgarishi bo‘yicha uch xil ssenariy shakllantirildi va ushbu ssenariylar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida qurilish tarmog‘ining uch yillik prognozini ishlab chiqildi.

Qurilishga kiritiladigan investitsiya miqdorining o‘zgarishi bo‘yicha quyidagi ssenariylar ishlab chiqildi.

1. Qurilishga kiritiladigan investitsiyalar miqdori 15%ga oshsa (obyektiv baho ssenariysi),
2. Qurilishga kiritiladigan investitsiya miqdori 30%ga oshsa (yuqori baho ssenariysi).

Ishlab chiqilgan ssenariylar bo‘yicha qurilish sohasiga kiritiladigan investitsiya miqdorlarining 2024-2030-yillar bo‘yicha ko‘rsatkichlari aniqlanib, agarda investitsiya shu tartibda va shu miqdorda o‘zgartirilib borilganda O‘zbekiston Respublikasida qurilish xizmatlari hajmining prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi.

Ishlab chiqilgan ssenariylar hamda O‘zbekiston Respublikasida qurilish xizmatlari hajmini prognoz qilish imkonini beruvchi regressiya tenglamasi asosida qurilishga kiritiladigan investitsiyalar hajmi hamda qurilish xizmatlari hajmi prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi (5.18-jadval).

Topilgan prognoz ko‘rsatkichlari shuni ko‘rsatmoqdaki agar qurilish tarmog‘iga kiritiladigan investitsiyalar 15 % ga ko‘payish tendensiyasiga ega bo‘lsa 2030-yilga kelib qurilish xizmatlari hajmi 328 932.38 mlrd.ni va 30%ga o‘sganda 606 000.99 mlrd.ni tashkil qiladi.

Ushbu ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari mamlakat darajasida quyidagi jihatlari bo‘yicha ahamiyatga ega.

Birinchidan, ushbu ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari orqali o‘rtacha qurilish hajmi aniqlanadi, aniqlangan o‘rtacha qurilish hajmidan uy-joy qurilish ishlari nisbatan aniqlanadi hamda aholining uy-joy bilan ta’minlanish darajasini ham baholash imkoniyati yaratiladi.

5.18-jadval

Qurilish tarmog‘i hamda qurilish korxonalari faoliyat natijaviyligiga funksional bog‘liq bo‘lmagan omillar asosida mamlakat bo‘yicha qurilish xizmatlari hajmining 2024-2030-yillarga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlari

№	Ssenariy nomi	O‘zgarish foizi	Prognoz yillari	Investitsiya miqdori *(mln. so‘m)*	Qurilish xizmatlari hajmi *(mlrd .so‘m)*
1	Obyektiv baho ssenariysi	+15%	2025	341 500,32	164 833,31
			2026	392 725,37	189 171,76
			2027	451 634,17	217 160,97
			2028	519 379,3	249 348,56
			2029	597 286,19	286 364,29
			2030	686 879,12	328 932,38
2	Yuqori baho ssenariysi	+30%	2025	493 318,77	165 096,64
			2026	641 314,41	213 852,53
			2027	833 708,73	277 235,18
			2028	1 083 821,3	359 632,62
			2029	1 408 967,8	466 749,31
			2030	1 831 658,1	606 000,99

Ikkinchidan, mamlakat iqtisodiy o‘sish darajasida qurilish sohasining salmog‘ini prognoz qilish imkoniyati yaratiladi;

Uchinchidan, mamlakatda qurilish sohasida yangi ochilishi mumkin bo‘lgan ishchi o‘rinlari sonini prognoz qilish imkoniyati yaratiladi;

To‘rtinchidan, mamlakat darajasida qurilish sohasidan kelib tushishi mumkin bo‘lgan soliq tushumlari prognoz qilinadi.



	2025	2026	2027	2028	2029	2030
Investitsiya	341 500,32	392 725,37	451 634,17	519 379,30	597 286,19	686 879,12
Qurilish hajmi	164 833,31	189 171,76	217 160,97	249 348,56	286 364,29	328 932,38

5.4-rasm.Qurilish tarmog‘iga kiritiladigan investitsiyalar hajmini 15 %ga oshirganda qurilish hajmining 2030-yilga prognozi



	2025	2026	2027	2028	2029	2030
Investitsiya	493 318,77	641 314,41	833 708,73	1083821,3	1 408 967,80	1 831 658,10
Qurilish hajmi	165 096,64	213 852,53	277 235,18	359 632,62	466 749,31	606 000,99

5.4-rasm.Qurilish tarmog‘iga kiritiladigan investitsiyalar hajmini 30%ga oshirganda qurilish hajmining 2030-yilga prognozi

V bob bo‘yicha xulosa.

1. Qurilish korxonalari faoliyatining alohida xususiyatlari o‘rganilib korxonada iqtisodiy tahlil o‘tkazishning K5B modeli ishlab chiqildi. Ushbu model korxonalarda kompleks axborotlardan foydalanib jamlanma ko‘rsatkichlar tizimini aniqlash orqali korxona faoliyatini umumlashtirilgan tahlildan o‘tkazishga hamda tahlil natijasida kompleks xulosa chiqarishga va natijalar bo‘yicha qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshishiga olib keladi.

2. K5B modelini qo‘llash jarayonida foydalanilishi lozim bo‘lgan minimum ko‘rsatkichlar tizimi taklif qilindi. Bu ko‘rsatkichlar tizimi modelning ishlash samaradorligi hamda natijaviyligini oshirishga xizmat qiladi.

3. Qurilish korxonalarida moliyaviy holat tahlilini amalga oshirish jarayonida ko‘p omilli korrelyatsion-regression tahlilni takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqildi. Natijada jami bajarilgan qurilish ishlariga qurilish sohasiga kiritiladigan investitsiyalar ta’sirini baholab beruvchi regressiya tenglamasi yaratildi. Ushbu tenglama orqali qurilishga kiritiladigan investitsiyalar miqdorining o‘zgarishini bilgan holda jami qurilish ishlari prognozini qilish imkoniyati yaratildi.

4. Qurilish korxonalarida aktivlar tahlilini amalga oshirgan holda qurilish korxonalarining umumiy samaradorlik darajasini baholash imkoniyatini yaratuvchi K5B model ishlab chiqildi.

5. Qurilish korxonasining umumiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholashda foydalanilishi mumkin bo‘lgan umumiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichi ishlab chiqildi.

6. Qurilish korxonasining qurilish korxonalarining umumiy moliyaviy salohiyati ko‘rsatkichi ishlab chiqildi.

VI BOB. QURILISH XIZMATLARINI KO‘RSATUVCHI KORXONALARDA BOSHQARUV TAHLILINI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

6.1. Qurilish korxonalarida o‘zgaruvchan va doimiy xarajatlar bo‘yicha zararsizlik nuqtasini aniqlash va tahlilini metodologiyasini takomillashtirish

Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxona o‘z faoliyatini samarali tashkil etish, zararsiz ishlab chiqarish hajmini belgilash va iqtisodiy tavakkalchilik darajasini aniqlashga intiladi. Shu nuqtai nazardan **kritik nuqta** (yoki **tafovutsizlik nuqtasi**, “break-even point”) tushunchasi korxonaning moliyaviy barqarorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kritik nuqta korxonaning mahsulot ishlab chiqarish hajmi bilan daromad va xarajatlar o‘rtasidagi munosabatni tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu nuqtani aniqlash orqali korxona o‘z faoliyatida qaysi hajmda ishlab chiqarish orqali foydaga erishishini va qaysi chegarada zarar yuzaga kelishini oldindan belgilay oladi. Bu esa xususan xizmat ko‘rsatish, savdo va ishlab chiqarish sohalarida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik sub'ektlari uchun strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.



6.1-rasm.Kritik nuqtaning amaliy ahamiyati

Kritik nuqtaning amaliy ahamiyati shundaki, u korxonaning faoliyat samaradorligini ta'minlaydi, boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslaydi va tavakkalchilikni kamaytiradi. Shu sababli, har bir korxona o‘z ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish jarayonida kritik nuqtani muntazam tahlil qilib borishi zarur.

Shu bilan birga korxonalarda kritik nuqta tahlilini quyidagi yo‘nalishlarda ham qo‘llaniladi (6.2-rasm).



6.2-rasm. Kritik nuqta tahlili qo‘llaniladigan yo‘nalishlar

Korxona faoliyatida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda kritik nuqta tahlili orqali korxona o‘zining foyda va zarar chegarasini aniq belgilaydi. Bu korxonaga joriy faoliyatda moliyaviy barqarorlikni saqlash va zarar keltiruvchi ishlab chiqarish hajmidan qochish imkonini beradi.

Rejalashtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda kritik nuqta tahlili ishlab chiqarish hajmini rejalashtirish, narx siyosati, xizmat turlarini tanlash va xarjatlarni optimallashtirish kabi qarorlarni ilmiy asosda qabul qilishga yordam beradi.

Tavakkalchilikni kamaytirishda kritik nuqta tahlili korxonaga xavfsizlik zaxirasi (margin of safety)ni aniqlash imkonini beradi. Bu ko‘rsatkich faoliyat hajmi qanchagacha kamayganda ham korxona zararsiz ishlay olishini ko‘rsatadi.

Xarajatlarni tahlil qilish va optimallashtirishda kritik nuqta orqali korxona xarajatlarining tuzilishini tahlil qiladi: qaysi qismi doimiy, qaysi qismi o‘zgaruvchan ekanligini aniqlaydi. Bu ma'lumotlar asosida xarajatlarni kamaytirish va foyda marjasini oshirish choralari ishlab chiqiladi.

Investisiya va rentabellik tahlilida investisiya loyihalarini baholashda kritik nuqta katta ahamiyatga ega, chunki u loyihaning “zararsiz ishlash chegarasi”ni ko‘rsatadi. Agar kritik nuqta juda yuqori bo‘lsa, bu tavakkalchilik darajasi yuqori ekanligini anglatadi.

Xizmat sohasida amaliy qo‘llanilishida xizmat ko‘rsatish sohalarida (masalan, turizm, ta'lim, restoran biznesi) kritik nuqta tahlili orqali xizmatlar hajmi, baholar va xarajatlar o‘rtasidagi muvozanat saqlanadi. Bu sohalarda mavsumiylik omillarini hisobga olib, zararsiz faoliyat hajmi aniqlanadi.

Iqtisodiy tahlildagi umumiy ahamiyatini ta'minlashda kritik nuqta tahlili nafaqat yakka korxonalar, balki butun tarmoq va iqtisodiyot kesimida ham qo‘llaniladi. U iqtisodiy barqarorlik, foydalilik va ishlab chiqarish potensialini baholashning muhim vositasidir.

Domingo Tarzia “Properties of the Financial Break-Even Point” maqolasida kritik nuqta mohiyatini investision loyihalar bo‘yicha yoritadi. Ilmiy izlanishlari natijasida kritik nuqta bo‘yicha quyidagi xulosalarni shakllantiradi:

1. U diskont stavkasi (r) oshganda bu nuqtaning qanday o‘zgaradiganligi, funksiya shaklida konveks xarakterga ega ekanligi va “accounting break-even” nuqtasi bilan nisbatini isbotlaydi.
2. Diskontlash usuli bilan NPV (Net Present Value) va break-even munosabatlarini birlashtiradi va sezgirlik tahlilini (sensitivity analysis) qo‘shadi, ya'ni mahsulot narxi (p) va o‘zgaruvchan xarajatlar (Cv) ta'siriga katta e'tibor qaratilganligini ko‘rsatadi.
3. Discount stavka kichik bo‘lsa, financial break-even tochka accounting break-even bilan bir xil bo‘lishi mumkin; stavka oshganda esa financial break-even tezligicha oshishi mumkinligini asoslaydi.

Xorijiy olimlardan Cafferky Wentworth o‘z tadqiqotlarida esa kritik nuqtaning kritik nuqtani aniqlash, break-even tahlilining chegaralari haqida izlanishlar olib borgan.

Shu bilan birga tadqiqotlarn natijasida yana ko‘plab xorijiy olimlarning kritik nuqta hamda uning tahlili bo‘yicha ilmiy izlanishlari o‘rganildi (6.1-jadval).

6.1-jadval

Kritik nuqta bo‘yicha xorijiy olimlarning qarashlari

№	Muallif(lar)	Asar nomi	Asosiy mazmun va ahamiyati
1.	Domingo A. Tarzia	Properties of the Financial Break-Even Point in a Simple Investment Project as a Function of the Discount Rate	Maqolada diskont stavkasi va qariylik nuqtasi (financial break-even) o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilingan. Muallif diskont stavka oshganda kritik nuqta tezda o‘sishini va bu funksiyaning konveks xususiyatga ega ekanligini isbotlaydi.
2.	Michael Cafferky, Jon Wentworth	Break-Even Analysis (kitob)	Kitobda CVP (Cost-Volume-Profit) modeli, break-even tahlilining nazariy asoslari va sezgirlik tahlili misollar bilan yoritilgan. Kitob menejerlar uchun amaliyotga yo‘naltirilgan.
3.	R. Hussey	Break-Even Analysis (Management Accounting Chapter)	Asarda break-even tahlilining nazariy asoslari, xarajat va foyda munosabati, shuningdek chegaraviy omillar (talab, narx) yoritilgan.
4.	Zahirovic, Okicic va Gadzo	Generalization of Linear Models for Multiproduct Break-Even Analysis	Bir nechta mahsulotli korxonalar uchun liney modellar asosida kritik nuqtani hisoblash usuli taklif etilgan. Ushbu tadqiqot ko‘p mahsulotli muhitda break-even tahlilini qo‘llash imkoniyatini ochadi.
5.	C.A. Tisdell	Economics Theory, Applications and Issues	Muallif an'anaviy break-even modelining bozor talabiga bog‘liq cheklovlarini ko‘rsatadi va tashqi omillarni inobatga

			olish zarurligini ta'kidlaydi.
6.	Fernandez-Bedoya va boshqalar	Break-Even Point and its Impact on Profit Planning in Institutions (Lima, Peru)	Peru ta'lim muassasalarida kritik nuqtaning rejalashtirish va foyda bashoratiga ta'siri amaliyotda tahlil qilingan.
7.	Ali-Momoh Betty Oluwayem	Break-Even Analysis and Decision Making: An Empirical Investigation of Selected Firms in Nigeria	Nigeriyadagi non-moliyaviy kompaniyalar misolida break-even tahlilining qaror qabul qilish samaradorligiga ta'siri empirik tahlil qilingan.
8.	Zanna Dalatu Gubio va boshqalar	The Effect of Break-Even-Point Analysis in Decision Making (Kaduna Metropolis)	Blok sanoati korxonalarida break-even tahlilining qaror qabul qilishdagi ahamiyati va foydalanish amaliyoti o‘rganilgan.

Mamlakatimiz olimlaridan Irina Kerimova va Zamira Ataniyazovalar lektron savdoda rivojlanish uchun “muvaffaqiyat uchun muhim omillar” (critical success factors) ni aniqlash va ekspertlar ishtirokida tahlil qilish ishlari bo‘yicha bevosita kritik nuqtaga to‘xtalgan bo‘lsa, Malikha Azizova Innovasiya iqtisodiy raqobatbardoshlikka qanday ta'sir qiladi — bu nuqtada ayrim “poroglar / chegaralar” (hadlar) mavjudligi tahlilida kritik nuqta tahlilini amalga oshirgan. Rizayeva Nilufar Oblakulovna esa Ijtimoiy iqtisodiy nuqtada kichik bizneslarda elektron saytlar va marketpleyslarning roli, ularning rivojlanishi uchun muhim omillar tahlilida bevosita kritik nuqta bo‘yicha tadqiqot olib borgan.

Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda kritik nuqta bu korxona tomonidan ma'lum hisobot davrida qancha xizmat ko‘rsatilsa barcha xarajatlarni qoplab zararsizlik nuqtasiga erishishini anglatadi.

Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda doimiy xarajatlar, o‘zgaruvchan xarajatlar hamda xizmatning sotish baholari boshqa faoliyat turlaridan ma'lum xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi.

Qurilish sohasining boshqa tarmoqladan alohida xususiyatlari shundan iboratki qurilishda sotish bahosi o‘zgarishsiz qolib, xizmat ko‘rsatish jarayoni uzoq vaqt davom etishi nuqtai nazaridan bir birlik ko‘rsatilgan xizmat hajmiga to‘g‘ri keladigan o‘zgaruvchan xarajat hajmi ham uzluksiz harakatda bo‘ladi.

Ushbu jihatlar inobatga olinib qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda kritik nuqtani aniqlashda quyidagi metodologiya taklif qilindi.



6.3-rasm. Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda kritik nuqtani aniqlash usullari

Natura shaklidagi ish hajmi nuqtai nazaridan qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda qancha miqdarda yani qancha metr kvadrat qurilish xizmatlari ko‘rsatilganda korxonaning barcha xarajatlari qoplanib daromadlari hamda xarajatlari tenglashishini ifodalab beradi va quyidagi tartibda aniqlanadi.

$$KN_N = \frac{DX}{SB - O'X}$$

KNn – qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda bajariladigan har bir metr kvadrat bo‘yicha kritik nuqta hajmi;

DX – qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda ma'lum hisobot davridagi doimiy xarajatlar yig‘indisi;

O‘X – har bir mert kvadratga to‘g‘ri keladigan o‘zgaruvchan xarajat miqdori;

SB – har bir metr kvadrat ko‘rsatilgan xizmatning sotish bahosi.

Natura shaklidagi ish hajmi nuqtai nazaridan qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda kritik nuqtani aniqlanishi qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalardagi zararsizlik nuqtasi bo‘yicha barcha

savollarni yopmaydi. Chunki qurilish xizmatlarini koʻrsatuvchi korxonalar bir vaqtni oʻzida ham ob'ektlar qurish, ham rekonstruksiya qilish bilan ham shugʻullanishi mumkin.

Bunday holda qurilish xizmatlarini koʻrsatuvchi korxonalarning zararsizlik nuqtasini aniqlashni “Pul birligidagi ish hajmi nuqtai nazaridan” zararsizlik nuqtasini aniqlash algoritimi taklif qilindi.

6.2. Qurilish xizmatlarini koʻrsatuvchi korxonalar samaradorligini oʻzgarishiga ta'sir etuvchi omillar va ularni tahlilini takomillashtirish

Yangi Oʻzbekistonda uchinchi renessans davrida faqatgina miqdorga emas asosiy etibor miqdor bilan birgalikda sifatga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasida ijtimoiy, iqtisodiy hamda huquqiy jabhalarda juda katta natijalarga erishilmoqda.

Har bir natija albatta ma'lum miqdor hamda samaradorlik kabi omillar ta'sirida vujudga keladi. Umumiy natijaning mutloq miqdorda oʻzgarishi bilan korxona faoliyatiga baho berish mumkin emas. Chunki ushbu koʻrsatkichga qaysidir omil yuqori darajada ta'sir qilishi boshqa bir omilning kichik miqdorda salbiy ta'sirini yashirishi mumkin.

Shu boisdan har qanday natija boʻyicha toʻgʻri xulosa chiqarilishi uchun albatta natijaga omillar ta'sirini hisoblash hamda shu asosda umumiy xulosa chiqarish maqsadga muvofiq boʻladi.

Natijaga omillar ta'sirini hisoblashda iqtisodiy tahlilda qoʻllanilib kelinayotgan an'anaviy usullardan foydalaniladi. Iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan an'anaviy usullarga solishtirish, muvozanat, qayta hisoblash, farqlash, indeks, integral, zanjirli almashtirish, nisbiy miqdorlardan foydalanish hamda kichik sonlardan foydalanish usullaridir.

Ushbu usullarning har birini oʻz qoʻllash doirasi hamda alohida xususiyatlari mavjud. Xususan, solishtirish usuli korxonaning dastlabki ma'lumotlarini dinamik taqqoslash asosida dastlabki xulosa berish uchun xizmat qilsa, muvozanat usuli korxnaning aktiv hamda passivlari hamrakatini balansga olib kelish asosida oʻzaro ta'sirlarini baholaydi. Qayta hisoblash usulidan natijaga ikki omil ta'sir qiganda hamda omillar

va natija o‘zaro funksional bog‘lanish bo‘lganda foydalanilsa, zanjirli almashtirish, farqlash va indeks usullaridan natijaga ixtiyoriy ***n (n>1)*** ta omil ta'sir qilganda foydalanish mumkin.

Iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan an'anaviy usullardan eng samarali usul bu integral usulidir. Integral usulining boshqa usullardan quyidagi alohida xususiyatlari mavjud:

Birinchidan, integral usuli matematik usullarga eng yaqin usul hisoblanadi.

Ikkinchidan, integral usuli asosida natiga omillar ta'siri hisoblanganda omillarning o‘rni almashtirilgan taqdirda ham natija o‘zgarmay qoladi.

Uchinchidan, omillarni asosiy hamda yordamchi omillar sifatida guruhlarga ajratish zarurati bo‘lmaydi.

Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar samaradorligini baholashda ham integral usulidan kengroq foydalanish umumiy samaradorlik darajasiga omillar ta'sirini to‘g‘ri hisoblashga, hisoblangan natijalar asosida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilinishiga hamda buning natijasida samaradorlik darajasini oshirishga erishiladi.

Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda samaradolikni baholashda integral usulining qo‘llanilishida asosan uchtagacha bo‘lgan holatlarda qo‘llanilib kelinmoqda. Buning asosiy sababi esa uchtadan ko‘p oml bo‘yicha natijaga omillar ta'sirini hisoblashni standart metodologiyasi mavjud emas.

O‘rganishlar natijasida qurilish korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy salohiyatini belgilab beruvchi yagona tahliliy ko‘rsatkich mavjudligi aniqlandi. Bu O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi tomonidan korxona aktivlarini aylanish koeffisienti hisoblanadi.

Ammo faqatgina ushbu koeffisient orqali qurilish korxonalarini iqtisodiy, ijtimoiy hamda moliyaviy salohiyatini to‘liq baholash mumkin bo‘lmaydi. Shu boisdan qurilish korxonalarining umumiy moliyaviy salohiyati ko‘rsatkichi hamda umumiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi hamda qurilish tenderlarida foydalanish bo‘yicha tavsiya qilindi.

Qurilish korxonasining umumiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholashda foydalanilishi mumkin bo‘lgan umumiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichi quyidagicha aniqlanadi.

UIIS=AR*XATD*IHH

Bu yerda:

AR- $\frac{sof\ foyda}{aktivlarning\ o‘rtacha\ miqdori} - aktivlar\ rentabelligi;$

XATD- $\frac{aktivlarning\ o‘rtacha\ miqdori}{mavjud\ xodimlar\ soni} -$

$xodimlarning\ aktivlar\ bilan\ ta‘minlanganlikdarajasi;$

IHH- $\frac{mavjud\ xodimlar\ soni}{xodimlarning\ o‘rtacha\ soni} - xodimlar\ harakatining\ holati.$

Bunday ko‘rsatkichning amaliyotda foydalanilishi qurilish korxonalari hamda tenderlarni tashkil qiluvchi boshqaruv aparati va xaridorlar uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratadi.

Birinchidan, bir vaqtning o‘zida korxonaning rentabelligini, xodimlarini aktivlar bilan ta'minlanganlik darajasini hamda korxonada hozirgi holatda xodimlar sonini o‘rtacha xodimlar soni bilan taqqoslash imkoniyati yaratiladi;

Ikkinchidan, korxonaning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini, ya'ni aktivlari foydalilik darajasini (iqtisodiy samaradorligini) hamda qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratilib bugungi kundagi bandlik darajasini (ijtimoiy samaradorligini) baholash imkoniyati yaratiladi.

Ushbu ko‘rsatkichni ma'lum vaqt davomida dinamik o‘zgarishiga omillar ta'sirini baholashda iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan an'anaviy usullardan integral usulini qo‘llash tavsiya etildi.

Ushbu usulning qo‘llanilishi qurilish korxonalai hamda tahlilni amalga oshiruvchilar uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratadi.

Birinchidan, korxonaning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichiga omillar ta'sirini hisoblab chiqaradi;

Ikkinchidan, natijaga ta'sir etuvchi omillarning o‘rni almashtirilgan vaziyatda ham omillar ta'siri natijalari o‘zgarmaydi.

Bu omilli tahlil quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

Birinchidan, natijaning umumiy farqi aniqlanadi:

$$\text{UIIS}=UIIS_h - UIIS_r$$

Ikkinchidan, natijaga birinchi omil ta'siri aniqlanadi.

$$UIIS_{AR} = \frac{1}{2}\Delta\text{AR} * (XATD_r * IHH_h) + (XATD_h * IHH_h) + \frac{1}{3}(\text{AR*XATD*IHH})$$

Uchunchidan, natijaga ikkinchi omil ta'siri aniqlanadi.

$$UIIS_{XATD} = \frac{1}{2}\Delta\text{XATD} * (AR_r * IHH_h) + (AR_h * IHH_r) + \frac{1}{3}(\text{AR*XATD*IHH})$$

To‘rtinchidan, natijaga uchunchi omil ta'siri aniqlanadi.

$$UIIS_{IHH} = \frac{1}{2}\Delta\text{IHH} * (AR_r * XATD_h) + (AR_h * XATD_r) + \frac{1}{3}(\text{AR*XATD*IHH})$$

Beshinchidan, aniqlangan olillar ta'siri to‘g‘ri hisoblanganligi tekshiriladi.

$$\text{UIIS}=UIIS_{AR} + UIIS_{XATD} + UIIS_{IHH}$$

Qurilish korxonasining qurilish korxonalarining umumiy moliyaviy salohiyati ko‘rsatkichi quyidagicha aniqlanadi.

$$\text{UMS=AAK*AR*TQ}$$

Bu yerda:

$$\text{AR-}\frac{sof\ foyda}{aktivlarning\ o‘rtacha\ miqdori} - aktivlar\ rentabelligi;$$

$$\text{AAK-}\frac{sof\ tushum}{aktivlarning\ o‘rtacha\ miqdori} - aktivlar\ likvidliligi;$$

$$\text{TQ-}\frac{joriy\ aktivlar}{muddati\ kelgan\ majburiyatlar} - to'lovgaqodirlik.$$

Ushbu ko‘rsatkichni ma'lum vaqt davomida dinamik o‘zgarishiga omillar ta'sirini baholashda iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan an'anaviy usullardan integral usulini qo‘llash tavsiya etildi.

Ushbu usulning qo‘llanilishi qurilish korxonalai hamda tahlilni amalga oshiruvchilar uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratadi.

Birinchidan, korxonaning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichiga omillar ta'sirini hisoblab chiqaradi;

Ikkinchidan, natijaga ta'sir etuvchi omillarning o‘rni almashtirilgan vaziyatda ham omillar ta'siri natijalari o‘zgarmaydi.

Bu omilli tahlil quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

Birinchidan, natijaning umumiy farqi aniqlanadi:

$$\text{UMS}=UMS_h - UMS_r$$

*Ikkinchidan***,** natijaga birinchi omil ta'siri aniqlanadi**.**

$$UMS_{AAR} = \frac{1}{2}\Delta\text{AAR} * (AR_r * TQ_h) + (AR_h * TQ_h) + \frac{1}{3}(\text{AAR*AR*TQ})$$

*Uchunchidan***,** natijaga ikkinchi omil ta'siri aniqlanadi**.**

$$UMS_{AR} = \frac{1}{2}\Delta\text{AR} * (AAR_r * TQ_h) + (AAR_h * TQ_r) + \frac{1}{3}(\Delta\text{AAR} * \Delta\text{AR} * \Delta\text{TQ})$$

*To‘rtinchidan***,** natijaga uchunchi omil ta'siri aniqlanadi**.**

$$UMS = \frac{1}{2}\Delta\text{TQ} * (AAR_r * AR_h) + (AAR_h * AR_r) + \frac{1}{3}(\Delta\text{AAR} * \Delta\text{AR} * \Delta\text{TQ})$$

Beshinchidan, aniqlangan olillar ta'siri to‘g‘ri hisoblanganligi tekshiriladi.

$$\text{UMS}=UMS_{AAR} + UMS_{AR} + UMS_{TQ}$$

Taklif qilingan ushbu ko‘rsatkichlar hamda ularni hisoblash, dinamik o‘zgarishiga omillarni ta'sirini hisoblash usullari tahlil natijalari samaradorligini oshishiga olib keladi.

Yuqorida takidlanganidek integral usuli bo‘yicha uchtadan ko‘p omil bo‘yicha natijaga omillar ta'sirini hisoblashni standart metodikasi mavjud bo‘lmaganligi sababli qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda umumiy samara ko‘rsatkichlarini uchtadan ko‘p omil asosida tahlil qilinganda malum muommolar vujudga keladi.

Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar samaradorligining asosiy muhim ko‘rsatkichlaridan biri bu korxonaning katta daromad qismini tashkil qiluvchi sof tushumni o‘z ichiga oladigan xizmatlarni sotishdan yalpi tushum bo‘lib hisoblanadi.

Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda yalpi tushum miqdorini quyidagicha aniqlash tavsiya qilindi.

$$\text{YaT=BBN*SO‘IH*MS*SMK} \quad (1)$$

YaT – qurilish xizmatlarini sotishdan yalpi tushum,

BBN – bir birlik xizmat hajmi,

SO‘IH – har bir mijozga o‘rtacha sotilgan xizmat hajmi,

MS – murojaatlar soni,

SMK – Sotilgan mijojlarni umumiy murojaat qilganlardagi ulushi.

Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda qurilish xizmatlarini sotishdan yalpi tushumni ushbu tartibda aniqlanishi quyidagi imkoniyatlarni beradi.

Birinchidan, bir birlik ko‘rsatiladigan xizmat narxi aniq bo‘ladi,

Ikkinchidan, har bir mijozga o‘rtacha sotilgan xizmat hajmi aniq ifodalangan bo‘ladi.

Uchunchidan, umumiy mijozlar hajmi hamda umumiy mijozlarda xizmat sotilgan mijozlarning ulushi aniq bo‘ladi.

To‘rtinchidan, ushbu to‘rtta ko‘rsatkichni o‘zaro taqqoslash asosida ham korxona bo‘yicha ma'lum xulosalar olish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Natijaga omillar ta'sirini hisoblashda integral usulidan foydalanilganda natijaga to‘rtta omil ta'sir qilganligi sababli quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirish taklif qilindi.

Yalpi tushumning rejadagi miqdori:

$$YaT_r = BBN_r * SO'IH_r * MS_r * SMK_r$$

Yalpi tushumning haqiqatdagi miqdori:

$$YaT_h = BBN_h * SO'IH_h * MS_h * SMK_h$$

Umumiy farq:

$$\mathbf{\Delta YaT} = \boldsymbol{YaT_h - YaT_r} = \boldsymbol{BBN_h * SO'IH_h * MS_h * SMK_h - BBN_r * SO'IH_r * MS_r * SMK_r}$$

Natijaga birinchi omilning ta'siri:

$$\Delta YaT_{BBH} = \Delta BBN * (SO'IH_r * MS_r * SMK_r + \frac{1}{2}(\Delta SO'IH * MS_r * SMK_r + \Delta MS * SO'IH_r * SMK_r + \Delta SMK * MS_r * SO'IH_r) + \frac{1}{3}(\Delta SO'IH * \Delta MS * SMK_r + \Delta SO'IH * \Delta SMK * MS_r + \Delta MS * \Delta SMK * SO'IH_r) + \frac{1}{4}(\Delta MS * \Delta SMK * \Delta SO'IH)) \quad (2)$$

Natijaga ikkinchi omilning ta'siri:

$$\Delta YaT_{SO'IH} = \Delta SIO'H * (BBN_r * MS_r * SMK_r + \frac{1}{2}(\Delta BBN * MS_r * SMK_r + \Delta MS * BBN_r * SMK_r + \Delta SMK * MS_r * BBN_r) + \frac{1}{3}(\Delta BBH * \Delta MS * SMK_r + \Delta BBN * \Delta SMK * MS_r + \Delta MS * \Delta SMK * BBN_r) + \frac{1}{4}(\Delta MS * \Delta SMK * \Delta BBN)) \quad (3)$$

Natijaga uchinchi omilning ta'siri:

$$\Delta YaT_{MS} = \Delta MS * (SO'IH_r * BBN_r * SMK_r + \frac{1}{2}(\Delta SO'iH * BBN_r * SMK_r + \Delta BBN * SO'IH_r * SMK_r + \Delta SMK * BBN_r * SO'IH_r) + \frac{1}{3}(\Delta SO'IH * \Delta BBN * SMK_r + \Delta SO'IH * \Delta SMK * BBN_r + \Delta BBN * \Delta SMK * SO'IH_r) + \frac{1}{4}(\Delta BBN * \Delta SMK * \Delta SO'IH)) \quad (4)$$

Natijaga to‘rtinchi omilning ta'siri:

$$\Delta YaT_{SMK} = \Delta SMK * (SO'IH_r * MS_r * BBN_r + \frac{1}{2}(\Delta SO'IH * MS_r * BBN_r + \Delta MS * SO'IH_r * BBN_r + \Delta BBN * MS_r * SO'IH_r) + \frac{1}{3}(\Delta SO'IH * \Delta MS * BBN_r + \Delta SO'IH * \Delta BBN * MS_r + \Delta MS * \Delta BBN * SO'IH_r) + \frac{1}{4}(\Delta MS * \Delta BBN * \Delta SO'IH)) \quad (5)$$

Tadqiqot davomida “O‘zqishloqelektrqurilish” AJ o‘rganilishi natijasida quyidagi ma'lumotlar olindi.

6.2-jadval

“O‘zqishloqelektrqurilish” AJning 2023-2024 yillarda yalpi tushum hajmi hamda unga ta'sir etuvchi omillar

№	Ko‘rsatkich nomi	O‘lchov birligi	2023	2024
1	Xizmatlarni sotishdan yalpi tushum	Mln so‘m	231 000 000,0	702 506 250,0
2	Bir birlik xizmat o‘rtacha narxi	Mln so‘m	6,0	7,5
3	Har bir mijozga o‘rtacha sotilgan xizmat hajmi	M kv	50 000	90 500
4	Murojatlar soni	Dona	1 000	1 500
5	Sotilgan mijojlarni umumiy murojaat qilganlardagi ulushi	Koeffisent	0,77	0,69

“O‘zqishloqelektrqurilish” AJning xizmatlarni sotishdan yalpi tushum hajmi 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 471 506 250,0 ming so‘mga oshdi. Natijaning ushbu o‘zgarishiga omillar ta'sirini quyidagi ketma ketlikda aniqlandi.

Natijaga birinchi omilning ta'siri hisoblandi:

$$\Delta YaT_{BBN} = \Delta BBN * (SO‘IH_r * MS_r * SMK_r + \frac{1}{2}(\Delta SO‘IH * MS_r * SMK_r + \Delta MS * SO‘IH_r * SMK_r + \Delta SMK * MS_r * SO‘IH_r) + \frac{1}{3}(\Delta SO‘IH * \Delta MS * SMK_r + \Delta SO‘IH * \Delta SMK * MS_r + \Delta MS * \Delta SMK * SO‘IH_r) + \frac{1}{4}(\Delta MS * \Delta SMK * \Delta SO‘IH) = \Delta 1{,}5 * (50000 * 1000 * 0{,}77 + \frac{1}{2}(40500 * 1000 * 0{,}77 + 500 * 50000 * 0{,}77 - 0{,}88 * 1000 * 50000) + \frac{1}{3}(40500 * 500 * 0{,}77 + 40500 * (-0{,}08) * 1000 + 500 * (-0{,}08) * 50000) + \frac{1}{4}\big(40500 * 500 * (-0{,}08)\big) = \mathbf{97\ 145\ 000{,}0}$$

Natijaga ikkinchi omilning ta'siri hisoblandi:

$$\Delta YaT_{SO‘IH} = \Delta SIO‘H * (BBN_r * MS_r * SMK_r + \frac{1}{2}(\Delta BBN * MS_r * SMK_r + \Delta MS * BBN_r * SMK_r + \Delta SMK * MS_r * BBN_r) +$$

$\frac{1}{3}(\Delta BBN * \Delta MS * SMK_r + \Delta BBN * \Delta SMK * MS_r + \Delta MS * \Delta SMK * BBN_r) + \frac{1}{4}(\Delta MS * \Delta SMK * \Delta BBN) = 40500 * (6{,}0 * 1000 * 0{,}77 + \frac{1}{2}(1{,}5 * 1000 * 0{,}77 + 500 * 6{,}0 * 0{,}77 - 0{,}08 * 1000 * 6{,}0) + \frac{1}{3}(1{,}5 * 500 * 0{,}77 - 1{,}5 * 0{,}08 * 1000 - 500 * 0{,}08 * 6{,}0) + \frac{1}{4}(1000 * (-0{,}08) * 1{,}5) = \mathbf{249\,885\,000{,}0}$

Natijaga uchinchi omilning ta'siri hisoblandi:

$\Delta YaT_{MS} = \Delta MS * (SO'IH_r * BBN_r * SMK_r + \frac{1}{2}(\Delta SO'IH * BBN_r * SMK_r + \Delta BBN * SO'IH_r * SMK_r + \Delta SMK * BBN_r * SO'IH_r) + \frac{1}{3}(\Delta SO'IH * \Delta BBN * SMK_r + \Delta SO'IH * \Delta SMK * BBN_r + \Delta BBN * \Delta SMK * SO'IH_r) + \frac{1}{4}(\Delta BBN * \Delta SMK * \Delta SO'IH) == 500 * (50000 * 6{,}0 * 0{,}77 + \frac{1}{2}(40500 * 6{,}0 * 0{,}77 + 1{,}5 * 50000 * 0{,}77 - 0{,}08 * 6{,}0 * 50000) + \frac{1}{3}(40500 * 1{,}5 * 0{,}77 + 40500 * (-0{,}08) * 6{,}0 + 1{,}5 * (-0{,}08) * 40500) + \frac{1}{4}(1{,}5 * (-0{,}08) * 40500) = \mathbf{173\,663\,750{,}0}$

Natijaga to‘rtinchi omilning ta'siri hisoblandi:

$\Delta YaT_{SMK} = \Delta SMK * (SO'IH_r * MS_r * BBN_r + \frac{1}{2}(\Delta SO'IH * MS_r * BBN_r + \Delta MS * SO'IH_r * BBN_r + \Delta BBN * MS_r * SO'IH_r) + \frac{1}{3}(\Delta SO'IH * \Delta MS * BBN_r + \Delta SO'IH * \Delta BBN * MS_r + \Delta MS * \Delta BBN * SO'IH_r) + \frac{1}{4}(\Delta MS * \Delta BBN * \Delta SO'IH) = (-0{,}08) * (50000 * 1000 * 6{,}0 + \frac{1}{2}(40500 * 1000 * 6{,}0 + 500 * 50000 * 6{,}0 + 1{,}5 * 1000 * 50000) + \frac{1}{3}(40500 * 500 * 6{,}0 + 40500 * 1{,}5 * 1000 + 500 * 1{,}5 * 50000) + \frac{1}{4}(500 * 1{,}5 * 40500) = \mathbf{-49\,187\,500{,}0}$

Natijaga omillar ta'siri to‘g‘ri hisoblanganligini tekshirildi hamda quyidagi natijalar olindi.

$$\Delta YaT = \Delta YaT_{BBN} + \Delta YaT_{SO'IH} + \Delta YaT_{MS} + \Delta YaT_{SMK} =$$
$$97\,145\,000{,}0 + 249\,885\,000{,}0 + 173\,663\,750{,}0 - 49\,187\,500{,}0 = 471\,506\,250$$

Natijaga omillar ta'siri to‘g‘ri hisoblangan, chunki umumiy farq bilan natijaga omillar ta'siri yig‘indisi bir-biriga teng.

Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda samaradorlikni ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri bu rentabellik ko‘rsatkichidir.

Boshqaruv tvhlilining asosiy maqsadi ham korxonada aktivlarni to‘g‘ri boshqarish hamda samarasiz yoki past samaraga ega xarajatlarni qisqartirish orqali korxona samaradorligini, foydalilik darajasini oshirish bo‘lib hisoblanadi.

Qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda rentabellikga juda ko‘plab korrelyasion hamda regression omillar ta'sir ko‘rsatadi hamda umumiy rentabellik quyidagicha aniqlanadi.

$$Rentabellik = \frac{Sof\ foyda * 100}{Aktivlarning\ o'rtachamiqdori}$$

Ammo ushbu rentabellik darajasini ta'minlash hamda uni oshirib borish uchun qurilish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda aktivlar aylanuvchanligi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bo‘lishi, mehnat resurslaridan samarali foydalanish uchun aktivlar bilan ta'minlangan bo‘lishi, aktivlardan kelgan daromadlar nazorat qilinishi, korxona tomonidan qo‘yiladigan ustamani to‘g‘ri baholangan bo‘lishi hamda har bir birlik xizmat sotilishida band xodimlar solmog‘i hisobga olingan bo‘lishi lozim.

VI bob bo‘yicha xulosalar

1. Qurilish korxonalarida boshqaruv tahlili ishlab chiqarish va moliyaviy jarayonlarning murakkabligi, loyihalarning uzoq muddatli xarakteri hamda bosqichma-bosqich bajarilishi bilan bog‘liq holda maxsus metodologik yondashuvni talab etadi.

2. Boshqaruv tahlilining asosiy vazifasi qurilish loyihalari bo‘yicha xarajatlar, daromadlar va moliyaviy natijalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash hamda resurslardan foydalanish samaradorligini baholashdan iboratdir.

3. Qurilish korxonalarida boshqaruv tahlilini loyiha, obyekt va shartnoma kesimida amalga oshirish moliyaviy natijalarni aniq baholash va rentabellikni oshirishga xizmat qiladi.

4. Boshqaruv tahlili orqali smeta va haqiqiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlash qurilish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy yo‘qotishlarni kamaytirish imkonini beradi.

5. Qurilish korxonalarida boshqaruv tahlilining muhim yo‘nalishlaridan biri xarajatlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita xarajatlarga ajratgan holda ularning ta’sirini baholash hisoblanadi.

6. Rentabellik, marjinal daromad va zararsizlik nuqtasi kabi ko‘rsatkichlar asosida olib borilgan boshqaruv tahlili qurilish korxonalarida strategik va operativ qarorlar qabul qilishni ilmiy jihatdan asoslaydi.

7. Boshqaruv tahlilini byudjetlashtirish va moliyaviy rejalashtirish tizimi bilan integratsiyalash qurilish loyihalarida moliyaviy muvozanatni saqlashga yordam beradi.

8. Qurilish korxonalarida boshqaruv tahlilini amalga oshirishda axborot tizimlari va raqamli texnologiyalardan foydalanish tahlil jarayonining tezkorligi va aniqligini oshiradi.

9. Boshqaruv tahlilining samaradorligi ko‘p jihatdan hisob axborotlarining ishonchliligi va boshqaruv hisobi tizimining rivojlanganlik darajasiga bog‘liq.

10. Umuman olganda, qurilish korxonalarida boshqaruv tahlilini tizimli va uzluksiz amalga oshirish resurslardan samarali foydalanish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

VII BOB. QURILISH KORXONALARIDA AKTIVLAR BILAN BOGLIQ RISKLARNI TAHLIL QILISH IMKONIYATLARI

7.1. Qurilish korxonalarida aktivlar bilan bog'liq risklarni baholashdagi taxminlarni tushuntirish.imkoniyatlari.

Risk kelajakda kutilishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarni ifodalashi hamda uni ma’lum bir o‘lchovda hisoblash zaruratining mavjudligi kabi xususiyatlari risklarni baholashda ko‘plab munozarali holatlarni yuzaga chiqaradi.

Markovits risklarni hisoblashda metodologiyalarni yaratgan olim hisoblanib u risklarni hisoblashda qiyinchiliklarga duch keladi. Keyinchalik u o‘zi bilan Nobel mukofotini baham ko‘rgan aspiranti Uilyam Sharp hamkorligida alohida qimmatli qog‘ozlar o‘rtasidagi kovariatsiyani hisoblash jarayonini chetlab o‘tishga imkon beruvchi metodni ishlab chiqdi. U aksiyalar yoki obligatsiyalar dispersiyasini bozorga nisbatan yaxlit baholashni taklif qildi, bu masalani sezilarli darajada soddalashtirdi. Shu asosda Sharp keng dovruq qozongan uzoq muddatli moliyaviy aktivlarni baholash modeli (Capital Asset Pricing Model (kapital bozorining narx modeli), CAPM) ni ishlab chiqdi, u barcha investorlar o‘z portfellarini Markovits tavsiyalariga mos ravishda tashkil qilgan holat uchun qimmatli qog‘ozlarni baholash imkonini berardi. Bu model muayyan davr uchun umumiy bozorga nisbatan alohida aksiyalar yoki boshqa qimmatli qog‘ozlarning o‘rtacha kurslari og‘ishini tavsiflash uchun “beta” koeffitsiyentidan foydalanadi. Boshqa matematik muammo shundan iborat ediki, portfellar va qimmatli qog‘ozlar bozorining o‘zi faqat ikkita ko‘rsatkich – kutilgan daromadlilik va dispersiya bilan tavsiflangan edi. Ushbu ikki ko‘rsatkichga bog‘liqlik faqatgina qimmatli qog‘ozlar daromadliligi Gauss egri chizig‘i orqali tavsiflangan hol uchun o‘rinli sanaladi. Normal egri chiziqdan og‘ishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi va o‘rtacha qiymatdan har bir tomonda joylashgan qiymatlar to‘plami qat’iy simmetrik taqsimlangan bo‘lishi kerak.

Agar ma’lumotlar an’anaviy taqsimot bilan tavsiflanmagan bo‘lsa, u holda dispersiya portfel noaniqligini 100% aniqlik bilan tavsiflay

olmaydi. Real dunyoda hech narsa mukammal emas. Bu albatta muammo, lekin ayrim investorlar uchun mazkur muammo boshqalariga nisbatan jiddiyroq muammo sanaladi. Ko‘pincha ma’lumotlar normal taqsimotga ularning asosida riskni hisoblash va portfel haqida qaror qabul qilish uchun yetarli darajada aniq joylashadi. Boshqa hollarda ma’lumotlar taqsimotining nomutanosibligi yangi strategiyalarni ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Riskni o‘lchash hal qilinuvchi masala hisoblanadi.

Risk o‘lchanmaguncha, riskka borish-bormaslikni investorlar qanday hal qilishlari mumkin?

O‘zgaruvchanlik yoki dispersiya risk o‘lchovi sifatida jozibali ko‘rinadi. Statistik tahlil bu taxminni tasdiqlaydi: o‘zgaruvchanlikning o‘sishi, qoida tariqasida, qimmatli qog‘ozlar narxining pasayishi bilan birga yuz beradi. Bundan tashqari, noaniqlik qiymatning muhim va tezroq tebranishlari bilan tavsiflanishi kerakligini ko‘rsatadi. Kursning jadal va sezilarli darajada o‘sish qobiliyati, odatda, uning xuddi shu darajada pasayishga moyilligi bilan uyg‘unlashtiriladi. Biroq o‘zgaruvchanlik sabablari masalasida hech qanday yakdillik yo‘q, o‘zgaruvchanlikning kattaligi nima uchun o‘zgarib borayotganining sabablari haqida esa gapirmasa ham bo‘ladi.

Kutilmagan vaziyat sodir bo‘lganda biz o‘zgaruvchanlikni qanday kuzatamiz. Boshqa tomondan, o‘zgaruvchanlik hammani ham bezovta qilmaydi. Risk mavjudligi, aslida, yuz berishi mumkin bo‘lgan hodisalarning faqat bir qismini anglatadi – o‘zgaruvchanlik ta’rifi ham shunga ishora qiladi – ammo vaqt noaniq bo‘lib qolaveradi. Vaqt unsurlarini joriy etish orqali biz risk bilan o‘zgaruvchanlik o‘rtasidagi aloqani kuchsizlantiramiz. Vaqt riskning o‘zgaruvchanlik bilan aloqasini emas, balki uni ko‘p jihatdan o‘zgartiradi. O‘zgaruvchan portfelning riskliligi uni nima bilan solishtirishga bog‘liq. Ba’zi investorlar va ko‘plab portfel menejerlari portfellar daromadliligi muayyan darajadan past bo‘lish ehtimoli kam bo‘lsa, o‘zgaruvchan portfellarni riskli deb hisoblashmaydi. Bu daraja nol bo‘lishi shart emas. Bu, masalan, korporativ pensiya jamg‘armasining to‘lov qobiliyatini yoki ba’zi bir model indekslarini yoki portfel daromadliligining qandaydir namunaviy

indeksini ushlab turish uchun zarur bo‘lgan minimal daromadlilik bo‘lishi mumkin. Shunga qaramay, kursning hisob nuqtasidan pasayish ehtimoli sifatida riskni o‘lchash portfellarni boshqarish uchun Markovits ko‘rsatmalarini bekor qilmaydi. Daromadlilik kutilgan, risk esa kutilmagan hol sifatida qolaveradi. Riskni minimallashtirgan holda kutilgan daromadlilikni maksimallashtirish lozim. O‘zgaruvchanlik avvalgidek yo‘qotish ehtimolidan dalolat beradi. Bunday sharoitda optimallashtirish Markovits nazarda tutganidan ko‘p ham farq qilmaydi. Risk qimmatli qog‘ozlarning ishbilarmon faollik, inflatsiya va foiz stavkalari, shuningdek, ular sotilayotgan bozordagi tebranishlar kabi iqtisodiy o‘zgaruvchilarga ta’sirchanligi bilan bog‘liq ko‘p qirrali tushuncha deb tasavvur qilinsa ham, jarayon davom etaveradi.

Riskni boshqacha tarzda, faqatgina o‘tmish tajribasini tahlil qilish asosida ham o‘lchash mumkin. Faraz qilaylik, investor bozorni ortda qoldirmoqchi, ya’ni, kotirovkalar o‘sishidan oldin sotib olishga va ular pasayishidan avval sotishga harakat qiladi. Sotib olingan qimmatli qog‘ozlarga shunchaki egalik qilishdan ko‘ra ko‘proq pul ishlab topish uchun u necha foiz xatoga yo‘l qo‘yishni qoniqarli deb hisoblashi mumkin?

Bozorni dog‘da qoldirish strategiyasi kotirovkalarda katta o‘sish paytini o‘tkazib yuborish xavfi bilan bog‘liq. Agar parametrlar barqaror emas, o‘zgaruvchan bo‘lsa, riskni o‘lchash ancha murakkablashadi. Hatto o‘zgaruvchanlikning o‘zi ham bir joyda turmaydi. Muammo shu bilan oxiriga yetmaydi. O‘z umri davomida ko‘pchilik riskka munosabatini o‘zgartiradi. Biz ulg‘ayamiz, aqlimiz to‘lishadi, boylik orttiramiz yoki qashshoqlashamiz va risk hamda uni qabul qilmaslik haqida tushunchamiz u yoki bu tomonga o‘zgaradi.

Xuddi shuningdek, riskka investorlarning munosabati ham o‘zgarib, bu ularning aksiyalardan va uzoq muddatli obligatsiyalardan kelgusi daromadlarga munosabatida jiddiy o‘zgarishni keltirib chiqaradi.

Markovitsning hamkasbi, shogirdi va Nobel mukofoti sovrindori Uilyam Sharp tomonidan ushbu imkoniyatga nisbatan chuqur yondashuv taklif qilingan.

Risklarni baholash hamda ularni natijalarini aks ettirish imkoniyatini yaratuvchi modellardan yana biri bu **IS LM modeli** hisoblanadi.

IS LM model — iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan umumiy mahsulot va real foiz stavkasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirish uchun foydalaniladigan makroiqtisodiy model. IS LM modeli makroiqtisodiyotdagi eng muhim modellardan biridir. "IS" va "LM" qisqartmalari mos ravishda "investitsiya jamg'armalari" va "likvidlik pullari" degan ma'noni anglatadi. "FE" qisqartmasi "to‘liq bandlik" degan ma'noni anglatadi.

Model foiz stavkalarining naqd pul bo‘lgan likvid pul (LM) va investitsiyalar va jamg'armalar (IS) o‘rtasida pul taqsimotiga ta'sirini ko‘rsatadi. Bu odamlar tijorat banklariga qo‘yadigan va qarz oluvchilarga kredit beradigan puldir.

Model foiz stavkalarining birinchi navbatda pul taklifiga ta'sir qilishi haqidagi dastlabki nazariyalardan biri edi. U 1937-yilda iqtisodchi Jon Xiks tomonidan mashhur liberal iqtisodchi Jon Meynard Keynsning ishiga asoslanib yaratilgan.

IS LM modeli bozordagi muvozanat qandayligini ko‘rsatadigan makroiqtisodiy modeldir. tovarlar uchun (IS) o‘zaro ta'sir qiladi natijada LM egri chizig'i chapga siljiydi, bu esa iqtisodiyotdagi real foiz stavkasining oshishiga va ishlab chiqarilgan umumiy mahsulotning pasayishiga olib keladi.

IS egri chiziq turli real foiz stavkalaridagi tovar bozoridagi muvozanatni ifodalaydi. Har bir muvozanat iqtisodiyotdagi ishlab chiqarishning ma'lum miqdoriga to‘g'ri keladi.

Chap tomonda topishingiz mumkin bo‘lgan tovar bozori, jamg'arma va investitsiya egri chizig'idan iborat. Muvozanat real foiz stavkasi investitsiya egri chizig'i jamg'arma egri chizig'iga teng bo‘lgan joyda yuzaga keladi.

Buning IS egri chizig'i bilan qanday bog'liqligini tushunish uchun iqtisodiyotda Ko‘rsatilgan xizmat hajmi5000 dan 7000 gacha oshganida nima sodir bo‘lishini ko‘rib chiqaylik.

Iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan jami mahsulot hajmi oshganda daromad ham ortadi, bu esa iqtisodiyotdagi jamg’armalarning ko‘payishiga, tovar bozorida S1 dan S2 ga o‘tishiga sabab bo‘ladi. Jamg‘armaning o‘zgarishi iqtisodiyotdagi real foiz stavkasining pasayishiga olib keladi.

Mahsulot hajmi oshishi bilan iqtisodiyotda real foiz stavkasi pasayadi. IS egri chizig'i har bir ishlab chiqarish darajasi uchun tovar bozorini tozalaydigan, mos keladigan real foiz stavkasini ko‘rsatadi. Shuning uchun, IS egri chizig'idagi barcha nuqtalar tovar bozoridagi muvozanat nuqtasiga to‘g'ri keladi. IS egri chizig'i tovar bozoridagi ko‘p muvozanatni tasvirlaydi.

Qurilish korxonalarida asosiy katta hajmdagi risklar korxoan aktivlari bilan bog’liq risklar hisoblanadi.

Korxona oktivlari bilan bog’liq risklarga quyidagilar kiradi:

1. Moliyaviy risklar. Bu risklar aktivlarning moliyaviy qiymatida yo‘qotishlar, noto‘g‘ri baholash yoki yomon boshqaruv sababli yuzaga keladi.
2. Operatsion (ishlab chiqarish) risklar. Bu risklar aktivlar noto‘g‘ri yoki samarasiz foydalanilishi natijasida yuzaga keladi.
3. Huquqiy va normativ risklar. Bu risklar aktivlarning harakati bilan bog‘liq qonunlar va standartlar buzilishi bilan bog‘liq.
4. Logistik va ta’minot risklari. Aktivlarning tashilishi, saqlanishi va yetkazilishi bilan bog‘liq muammolarni qamrab oladi.
5. Texnologik risklar. Yangi texnologiyalarni joriy etishda yoki mavjud texnologiyalarni noto‘g‘ri boshqarishda yuzaga keladigan xavflar.
6. Firibgarlik va korrupsiya xavflari. Bu risklar odatda inson omili va ichki nazoratning sustligi bilan bog‘liq bo‘ladi.
7. Tashqi muhit risklari. Tashqi omillar natijasida aktivlar qiymati yoki holatiga ta’sir qiluvchi xavflar.

Moliyaviy risklarga aktivlar qiymatining pasayishi (masalan, mashinalar eskirishi, texnika va qurilish uskunalarining qadrsizlanishi) bilan bog’liq, qurilish asbob-uskuna va materiallarini haddan tashqari ko‘p yoki kam xarid qilish bilan bog’liq, inventarizatsiya va

buxgalteriya hisobidagi xatoliklar bilan bog’liq hamda qarzdorlik (moliya vositalari orqali olingan aktivlar) bilan bog‘liq to‘lovga layoqatsizligi bilan bog’liq risklar kiradi (7.1-rasm).



7.1-rasm. Qurilish korxonalarida aktivlar bilan bog’liq risklar

Qurilish korxonalarida operatsion (ishlab chiqarish) risklariga qurilish texnikasining buzilishi yoki nosozligi bilan bog’liq risklar, aktivlardan maqsadsiz foydalanish (masalan, texnikalardan shaxsiy maqsadlarda foydalanish) bilan bog’liq risklar, aktivlar noto‘g‘ri joylashtirilishi (masalan, obyektga uzoq masofada joylashgan texnikani ishlatish zarurati) bilan bog’liq risklar hamda zaxira qismlar yoki servis xizmatining mavjud emasligi sababli ishning to‘xtab qolishi bilan bog’liq risklar kiradi (7.2-rasm).

Qurilish korxonalarida aktivlar vilan bog’liq huquqiy va normativ risklarga aktivlar (masalan, yer, texnika) huquqiy jihatdan to‘liq rasmiylashtirilmagan bo‘lisshi bilan bog’liq risklar, litsenziyalarning yo‘qligi yoki muddati o‘tib ketganligi bilan bog’liq risklar, qurilish me’yorlariga mos kelmaydigan asbob-uskunalarning ishlatilishi bilan bog’liq risklar hamda soliq qonunchiligiga zid ravishda aktivlar harakati yuritilishi bilan bog’liq risklar kiradi.

Qurilish korxonalarida operatsion (ishlab chiqarish) risklari	qurilish texnikasining buzilishi yoki nosozligi bilan bog'liq risklar
	aktivlardan maqsadsiz foydalanish (masalan, texnikalardan shaxsiy maqsadlarda foydalanish) bilan bog'liq risklar
	aktivlar noto'g'ri joylashtirilishi (masalan, obyektga uzoq masofada joylashgan texnikani ishlatish zarurati) bilan bog'liq risklar
	zaxira qismlar yoki servis xizmatining mavjud emasligi sababli ishning to'xtab qolishi bilan bog'liq risklar

7.2-rasm. Qurilish korxonalarida operatsion (ishlab chiqarish) risklari

7.2. Qurilish korxonalarida aktivlar bilan bog'liq risklarni baholashdagi natijalarni tahlil qilishning statistik usullari. Ehtimollar matematikasi va simulyatsiya. Ehtimollik qoidalari.

Albatta kelgusidagi hodisalar oqibatlarini oldindan aniq prognoz qilish mushkul sanaladi. Biroq riskni baholashda kelgusidagi ehtimolli natijalar va ularni qo'lga kiritish imkoniyatlarini miqdor ko'rsatkichlar orqali ifodalash kerak hisoblanadi.

Eng sodda ko'rinishda bunday ifoda barcha ehtimolli natijalar qiymati va ularni amalga oshirish ehtimolligidan iborat bo'ladi.

Misol uchun ikkita *«A»* va *«V» firmalarning aksiyalarini sotib olish imkoniyatini ko'rsak.* Aksiyalar bo'yicha faraz qilinadigan daromadlilikning qiymati va ularning ehtimolligi haqida olingan ekspert baholari quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

7.1-jadval

Aksiyalar bo'yicha daromadlilik qiymati va ularning ehtimolliyligi

Prognoz	Ehtimollik, *r*	Aksiyalar daromadliligi, %	
		«A» firmasi	*«B»* firmasi
Pessimistik	0,3	-70	10
Ehtimolli	0,4	15	15
Optimistik	0,3	100	20

Ma’lumki, voqealarni rivojlantirishning ko‘plab turli xil senariylarini qo‘rish mumkin. U yoki bu hodisaning sodir bo‘lish oqibatlarini ta’riflashga qulay va universal yondashuv – bu barcha mumkin bo‘lgan tasodifiy qiymat (masalan, daromadlilik) uchun uning amalga oshish ehtimolliyligini belgilashdan iborat hisoblanadi. Bu qoida tasodifiy qiymatning ehtimolli taqsimot qonuni deb nomlanadi.

X tasodifiy qiymatning F_X(x) *ehtimolli taqsimot funksiyasi* deb shunday funksiyani aytiladiki, unda berilgan har qanday *x* ifodasiga {*X*<*x*} hodisa ehtimolligining qiymati mos keladi:

$$F_X(x) = p\{X < x\}$$

Bu yerda:

p – *X* tasodifiy miqdorning qiymati *x* dan oshmasligining ehtimolligi.

Agar F_X funksiyasi uzluksiz va differensiyalanuvchi bo‘lsa, tadqiq qilinayotgan tasodifiy qiymatning boshqa qulay ifodalash usuli $F_X(x)$ *ehtimollikning zichligi funksiyasi* hisoblanadi va u x nuqtadagi taqsimot funksiyasining hosila funksiyasi bo‘ladi:

$$f_X(x) = F'_X(x)$$

Taqsimot funksiyasi yoki tasodifiy qiymatning ehtimolli zichligini bilib olgach, uning sodir bo‘lish qiymatining aniqlik darajasi va unga mos keladigan hodisalar haqida xulosalar qilish mumkin.

Amaliyotda ko‘plab masalalarni yechish uchun ko‘pincha tasodifiy qiymatning ba’zi parametlarini bilish yetarli hisoblanadi. Ulardan eng muhimlari – bu o‘rta yoki kutilayotgan qiymat (matematik kutilish), dispersiya va standart (o‘rtacha kvadratik) chetlanishlar hisoblanadi.

Tasodifiy ifodaning o‘rta (kutilayotgan) qiymati.[81] *X* tasodifiy ifodaning ehtimolli taqsimotini asosiy ko‘rsatkichi bu – o‘rta yoki kutilayotgan qiymat *(expected value – E(X)) hisoblanadi.*

X tasodifiy ifodaning *E(X)* o‘rta (kutilayotgan) qiymati uning barcha mumkin bo‘lgan qiymatlarini amalga oshirish ehtimolligi bilan tortilish orqali aniqlanadi va quyidagi formula orqali hisoblanadi:

[81] Лукасевич И.Я. Финансовый менеджмент: учебник / 2-е изд. – М.: Эксмо, 2010. – 768с.

$$E(X) = \sum_{i=1}^{i=n} x_i * p_i$$

Bu yerda

p_i – mos keluvchi x_i qiymatining amalga oshish ehtimolligi.

Ushbu formulani misoldagi aksiyalar bo‘yicha kutilayotgan foydaning o‘rta qiymatini aniqlash uchun qo‘llaymiz:

$$E(A) = 0{,}3 * (-70) + 0{,}4 * 15 + 0{,}3 * 100 = 15\%,$$

$$E(B) = 0{,}3 * 10 + 0{,}4 * 15 + 0{,}3 * 20 = 15\%.$$

Tasodifiy ifodaning o‘rta qiymati uning ehtimolligini taqsimot markazi sifatida xizmat qiladi.

Umumiy holatlarda kutilayotgan natijani ehtimolli taqsimot diapazoni uning o‘rta qiymatiga nisbatan qancha kichik bo‘lsa, ushbu operatsiya bilan bog‘liq risk shuncha kichik bo‘ladi.

Ushbu fikrning miqdoriy isboti tasodifiy ifoda taqsimotining boshqa ikkita parametri, ya’ni *dispersiya va standart chetlanishlarni* aniqlash yo‘li orqali erishiladi.

Tasodifiy miqdorning dispersiyasi va standart chetlanishi. Dispersiya *(variance – VAR)* va standart yoki kvadratli chetlanish *(standard deviation, mean deviation squared – σ)*lar tasodifiy miqdorning taqsimot markazidan (o‘rta qiymat) yoyilishi (variatsiyalari) xarakteristikasi bo‘lib xizmat qiladi.

Dispersiya tasodifiy ifodaning o‘zining mos ehtimolligi bo‘yicha tortilgan o‘rta qiymatidan chetlanishlari kvadratining so‘mmasi sifatida aniqlanadi:

$$VAR(X) = \sum_{i=1}^{i=n} p_i(x_i - E(X))^2$$

Misoldan *«A»* va *«V»* firmalar aksiyalari bo‘yicha daromadlilik dispertsiyasini aniqlasak, ular mos holda quyidagilarga teng bo‘ladi:

$$\mathrm{VAR}(A) = 0{,}3(100 - 15)^2 + 0{,}4(15 - 15)^2 + 0{,}3(-70 - 15)^2 = 4335.$$

$$\mathrm{VAR}(B) = 0{,}3(200 - 15)^2 + 0{,}4(15 - 15)^2 + 0{,}3(10 - 15)^2 = 15.$$

Dispersiya moliyaviy operatsiyalar riski o‘lchovi bo‘lib xizmat qilishiga qaramasdan, amaliyotda undan foydalanish hamma vaqt ham qulay bo‘lavermaydi.

Shuning uchun tasodifiy ifodani yoyilma o‘lchovi sifatida boshqa ko‘rsatkichdan, ya’ni *standart (o‘rtacha kvadratli) chetlanishdan* foydalanish qulay hisoblanadi:

$$y_X = \sqrt{VAR(X)} = \sqrt{\sum_{i=1}^{i=n} p_i(x_i - E(X))^2}$$

Demak y – bu tasodifiy ifodaning o‘zinig matematik kutilishidan o‘rtacha tortilgan chetlanishi hisoblanadi va bunda o‘lchov og‘irligi sifatida mos ravishda ehtimollik olinadi. Ya’ni standart chetlanish bu tasodifiy ifoda o‘zining o‘rta qiymatidan qanchalik chetlanishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Standart chetlanish qancha kam bo‘lsa, ehtimolli taqsimot diapazoni shuncha tor bo‘ladi va ushbu operatsiya bilan bog‘liq risk ham mos ravishda past bo‘ladi.

Ko‘rilayotgan misol uchun aksiyalar daromadliligining standart chetlanishini hisoblaymiz:

$$y_A = \sqrt{4335} = \pm 65{,}84$$

$$y_B = \sqrt{15} = \pm 3{,}87.$$

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, *«A»* firma aksiyalari bo‘yicha daromadlilikning tebranish diapazoni kutilayotgan qiymatdan bir standart chetlanish chegarasida 50,84% dan 80,84% gachani tashkil etadi (15 ± 65,84), *«V»* firma uchun esa 11,13% dan 18,87% gacha (15 ± 3,87).

Moliyaviy risklarni baholash nazariyasi va amaliyotida ehtimollikni normal taqsimoti qonunidan keng foydalaniladi. Bu esa faqat ikki parametrni – tasodifiy ifodaning o‘rtacha qiymati va dispersiyasini (yoki standart chetlanishni) bilishni talab qiladi.

Variatsiya koeffitsienti. Risklarning tahlilida qo‘llaniladigan yana bir foydali ko‘rsatkich – bu *variatsiya koeffitsienti (coefficient of variation — CV)* hisoblanadi va quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$CV = \frac{\text{у}_X}{E(X)}$$

Standart chetlanishdan farqli ravishda variatsiya koeffitsienti nisbiy ko‘rsatkich hisoblanadi va o‘rtacha daromad birligiga to‘g‘ri keladigan risk darajasini ko‘rsatadi. Variatsiya koeffitsienti qancha yuqori bo‘lsa, risk ham shuncha yuqori bo‘ladi.

«A» va *«V» firmalari uchun variatsiya koeffitsientini hisoblaymiz:*

$$\text{CV}_\text{A} = \frac{65{,}84}{15} = 4{,}39$$

$$\text{CV}_\text{B} = \frac{3{,}87}{15} = 0{,}26.$$

Ushbu ko‘rsatkichga muvofiq, *«A»* firma aksiyalari bo‘yicha daromadning o‘rtacha birligiga to‘g‘ri keladigan risk *«V» firmanikiga nisbatan 17 barobar yuqori.*

O‘rta qiymat va standart chetlanishdan tashqari asimmetrik taqsimot qo‘shimcha yana bir parametrini, ya’ni asimmetriya koeffitsienti bilishni talab qiladi.

Asimmetriya (qiyalik) koeffitsienti. Asimmetriya koeffitsienti (skewness) quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$\text{г} = \frac{\sum_{i=1}^{n} p_i (x_i - E(X))^3}{\text{у}_X^3}$$

Koeffitsientning musbat qiymatida eng yuqori daromad (o‘ng «dum») eng pastkisiga nisbatan ehtimolligi yuqori hisoblanadi. Aksincha asimmetriyaning manfiy koeffitsientida eng past daromadlar ehtimolli hisoblanadi.

Ekstsess. Ekstsess ko‘rsatkichi (kurtosis) quyidagi formula bilan hisoblab chiqiladi:

$$\text{д} = \frac{\sum_{i=1}^{n} p_i (x_i - E(X))^4}{\text{у}_X^4}$$

Agar ekstsessning qiymati noldan katta bo‘lsa, taqsimot egri chizig‘ining shakli normal egri chiziqqa nisbatan ancha o‘tkir, uchli bo‘ladi. Manfiy ekstsess qiymatida egri chiziqli taqsimot normalga nisbatan ancha qiya, yassi bo‘ladi.

Ushbu ko‘rsatkichning iqtisodiy ma’nosi quyidagicha: agar ikkita xo‘jalik operatsiyasining daromadlari simmetrik taqsimotga va bir xil o‘rta qiymatga ega bo‘lsa, ekstsessning kattaroq qiymatga ega bo‘lgani pastroq riskka ega hisoblanadi. Normal taqsimot uchun ekstsessning qiymati 3 ga teng.

Riskning chegaraviy darajasi ko‘rsatkichi sifatida moliyaviy amaliyotda ehtimolli taqsimotning kvantilidan foydalaniladi.

Taqsimot kvantili va risk narxi.[82] Umumiy holatda *F(x)* uzluksiz taqsimot funksiyasiga ega tasodifiy *X*ning α tartibdagi kvantili (quantil) deb $X < u_{\alpha}$ni qanoatlantiradigan shunday u_{α} qiymatki, u uchun hodisaning ehtimolligi α ga teng bo‘ladi:

$$\mathrm{F}(u_{\alpha}) = \mathrm{p}(\mathrm{X} < u_{б}) = \alpha$$

Quyidagi jadvalda o‘rta qiymatdan chetlanish ehtimolliklariga mos keluvchi, standart chetlanishlar sonda ifodalangan normal taqsimot kvantillari keltirilgan.

Normal taqsimot kvantillari

Ehtimollilik α, %	99,99	99,00	97,72	95,00	90,00	84,13	50,00
Kvantil i_{α}	3,715	2,326	2,000	1,645	1,282	1,000	0,000

Ushbu ko‘rsatkichdan α ehtimollikdan ortmaydigan yoki 1–α ehtimollikdan ortishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar yoki zarar ko‘rishning chegaraviy qiymatini aniqlash uchun foydalanish mumkin. Qayd etish qiyin emaski, oxirgi holat uchun masala qiymatini topish quyidagicha bo‘ladi:

$$\mathrm{p}(\mathrm{X} \geq u_{б}) = 1 - \mathrm{F}(u_{\alpha})$$

Kvantil tushunchasi moliya bozori ishtirokchilari orasida, shuningdek, uning faoliyatini tartibga soluvchi tashkilotlar va xizmatlar orasida keng tarqalgan risk narxi (qiymati) (*Value at Risk — VaR)*[83]

[82] Энциклопедия финансового риск-менеджмента под ред. канд. экон. наук А. А. Лобанова и А. В. Чугунова 4-е издание, исправленное и дополненное. М.: Альпина бизнес букс. 2009

[83] VaR ko‘rsatkichi Bazel qo‘mitasi, Xalqaro svop va hosilaviy instrumentlar assotsiatsiyasi, AQSh milliy sug‘urtachilar assotsiatsiyasi tomonidan tartibga solish instrumenti sifatida foydalanish tavsiya etilgan.

ko‘rsatkichining asosida yotadi. VaR (Value at Risk – riskning qiymatdagi o‘lchovi) ko‘rsatkichi ma’lum shartlar ostida *t* vaqt *oralig‘ida* investorning maksimal *yo‘qotishlarini ifodalaydi.*[84]

Rasman bu ko‘rsatkich t davr uchun va berilgan α aniqlik darajasi bilan ma’lum aktiv yoki aktivlar portfeliga egalik qilishdan kutilayotgan maksimal yo‘qotishlar VaR qiymatidan oshmaslik ehtimolligi α-ga teng bo‘lgan qiymatni baholaydi. Boshqacha aytganda, α ehtimollik bilan V_t aktiv (portfel) qiymati t vaqtda o‘zining V_0 dastlabki qiymatidan [0; *t]* davr oralig‘ida *VaR dan ortmaydigan qiymatga og‘maydi*:

$$p(V_t - V_0 < VaR) = б$$

Agar, ehtimollik *VaR dan ortiq bo‘lsa, u holda zarar ko‘rish ehtimolligi* 1–α ga teng bo‘ladi, ya’ni:

$$p(V_t - V_0 > VaR) = 1 - б$$

E’tibor qilsak, matematik nuqtai nazardan *VaR* ko‘rsatkichi α tartibdagi tasodifiy ifoda taqsimotining kvantili hisoblanadi.

Agar narx(daromad)lar o‘zgarishining ehtimolli taqsimoti normal taqsimot qonuniga bo‘ysunsa, *VaR* miqdorini quyidagi formula bo‘yicha hisoblash mumkin:

$$\mathrm{VaR} = \mathrm{V}_0 * u_б * \mathrm{y}_t$$

Bu erda

V_0 – aktiv (portfel)ning dastlabki qiymati;

t – ko‘rilayotgan davr;

$б_t$ – *t vaqt davomida aktiv (portfel) qiymati yoki daromadining standart chetlanishi;*

α – ishonchlilik (haqqoniylik)ning tanlangan darajasi.

Ehtimolli yo‘qotishlarni baholashdan tashqari VaR ko‘rsatkichi va uning analoglari moliyaviy tashkilotlar tomonidan kapitalni boshqarishda, shuningdek, riskni hisobga olgan holda korrektirovka qilingan samaradorlik mezonlari (*Risk-adjusted Performance Measurement — RAPM)*ni aniqlash uchun foydalaniladi.

Bularni orasidan eng ko‘p tanilgani – bu kiritilgan kapital daromadliligining risk bo‘yicha korrektirovka qilingan ko‘rsatkichi *(Risk-adjusted Return On Capital — RAROS)* hisoblanadi. Birinchi bor

[84] Crouhu M., Galai D., Mark R. Risk management. – N.Y.: McGraw Hill, 2001

Bankers Trust guruhi tomonidan taklif qilingan. Eng sodda ko‘rinishida *RAROS sof foydani uning VaRiga nisbati sifatida aniqlanadi:*

$$RAROC = \frac{NP}{VaR}$$

Hozirgi kunda ushbu ko‘rsatkich amaliyotda keng tadbiq qilinmoqda.

Korxonalarda risklarni baholashda tasodifiy kutilmalarni baholashdan tashqari qo‘shimcha ravishda quyidagi usullardan ham foydalaniladi (7.3-rasm).



7.3-rasm. Korxonalarda risklarni baholashda tasodifiy kutilmalarni baholashdan tashqari qo‘shimcha ravishda foydalaniladigan usullar

Riskka moyillik ta’sir kuchi va ehtimollikka bevosita bog‘liq. Korxona qanchalik riskka moyilligi kuchli bo‘lsa shuncha riskning ta’sir kuchi yuqori bo‘ladi. Agar nazoratni o‘z ichiga olgan riskka qarshi choralar o‘z o‘rnida va tegishli tarzda qo‘llanilmasa, risk hodisasi sodir bo‘lish ehtimolligi oshadi. Moyillikni baholash korxonalarda riskni boshqarish qanday yaxshi joriy etilganini aniqlashga imkon beradi.

Riskka moyillikni baholash mezoni quyidagi choralarni joriy qilishni o‘z ichiga oladi: stsenariyaviy rejalashtirish, real optsionlar, risk hodisasi sodir bo‘lganda unga tez moslashib kapital zihiralarini

shakllantirish kabi qarshi choralarni qo‘llash. Biroq universal baholash mezani mavjud emas. Har bir korxona o‘z mezonini talablarini qondirishga mos tarzda ishlab chiqishi kerak.

Moliyaviy risklarni baholashning asosiy miqdoriy usullari orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish odatiy holdir:

- Statistik usullar.
- Analitik texnikalar.
- Moliyaviy tavakkalchilikni baholash usuli, moliyaviy imkoniyatlar va barqarorlik tahlilini o‘z ichiga oladi.
- Loyiha xarajatlarini baholash metodologiyasi.
- Ekspert baholash usuli.
- Moliyaviy risklarni analoglardan foydalangan holda baholash usuli.

Moliyaviy risklarni baholashning hududiy usullari quyidagi tasnifni nazarda tutadi:

- Chegirma.
- Loyiha uchun xarajatlarni qoplash tahlili.
- Xavfli qarordan kelib chiqqan zararni baholash.
- Ishlab chiqarishning zararsizligi tahlili.
- Sezuvchanlik tahlili.
- Barqarorlik tahlili.
- Simulyatsiya (boshqacha aytganda, Monte-Karlo usuli).
- Ssenariy tahlili.
- Bu “qaror daraxti” deb nomlanuvchi texnika, unga ko‘ra moliyaviy risklarni baholashning zonal usullari hisob-kitoblarning murakkabligi ortishi darajasiga ko‘ra tartiblanadi.

Iqtisodiy faoliyat risklarini hisoblash uchun korxonaning moliyaviy risklarini baholashning statistik usullari juda kam qo‘llaniladi. Shunga qaramay, so‘nggi paytlarda klaster tahlili texnikasi nisbatan mashhurlikka erishdi, buning yordamida ba'zan foydalanish uchun mos bo‘lgan ma'lumotlarni tortib olish mumkin. Ko‘pincha jarayonda klaster

tahlili qo‘llaniladibiznes-rejalarni ishlab chiqish. Aynan shundan so‘ng umumiy xavf koeffitsientini hisoblash ma'lumotlar bazasida amalga oshiriladi, ular xavflarni guruhlarga bo‘lish orqali olinadi.

Qurilish korxonalarida pul oqimlari harakati bilan bog’liq risklarni baholashni eng optimal variantlaridan biri bu tasodifiy kutilmalarni baholash usuli hisoblanadi.

Tasodifiy kutilmalarni baholashda dastlab tasodifiy ifodaning o‘rtacha kutilayotgan qiymati orqali aniqlanadi. Ushbu ko‘rsatkich natijaga ta’sir etuvchi omilning natijaga ta’siri orqali natijaning o‘rtacha o‘zgarish oralig’ini aniqlashga xizmat qiladi hamda quyidagi tartibda aniqlanadi.

$$\boldsymbol{E(X) = \sum_{i=1}^{i=n} x_i * p_i}$$

$x_i - pul\ oqimiga\ ta'sir\ \ etuvchi\ o'zgaruvchi;$
$p_i_mos\ keluvchi\ pul\ oqimiga\ ta'sir\ \ etuvchi\ o'zgaruvchi$
$qiymatining\ amalga\ oshish\ ehtimolligi.$

Tasodifiy ifodaning o‘rta qiymati uning ehtimolligini taqsimot markazi sifatida xizmat qiladi.

Umumiy holatlarda kutilayotgan natijani ehtimolli taqsimot diapazoni uning o‘rta qiymatiga nisbatan qancha kichik bo‘lsa, ushbu operatsiya bilan bog‘liq risk shuncha kichik bo‘ladi.

Bundan kelib chiqadiki korxonalarda pul oqimlari bilan bog’liq risklar baholanganda o‘rtacha kutilayotgan qiymatning pastligi risk darajasini ham past ekanligini ifodalaydi.

Korxonalarda risklarni tasodifiy kutilmalarini baholashda keyingi bosqich sifatida tasodifiy ifodaning yoyilma o‘lchovi sifatida standart (o‘rtacha kvadratli) chetlanish aniqlanadi.

$$\mathrm{y}_X = \sqrt{VAR(X)} = \sqrt{\sum_{i=1}^{i=n} p_i(x_i - E(X))^2}$$

y – bu tasodifiy ifodaning o‘zinig matematik kutilishidan o‘rtacha tortilgan chetlanishi hisoblanadi va bunda o‘lchov og‘irligi sifatida mos

ravishda ehtimollik olinadi. Ya’ni standart chetlanish bu tasodifiy ifoda o‘zining o‘rta qiymatidan qanchalik chetlanishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Ushbu ko‘rsatkich korxonalarda pul oqimi bo‘yicha kutilayotgan natijaning o‘rtacha o‘zgarishini o‘zini qancha miqdorda o‘rtacha harakat trayektoriyasini belgilaydi.

Kutilayotgan natijaning o‘rtacha o‘zgarish darajasini o‘zining o‘rtacha harakati aniqlangach korxonalarda asosiy risklarni baholash uchun asos bo‘luvchi ko‘rsatkich sifatida variatsiya koeffitsenti aniqlanadi.

$$CV = \frac{y_X}{E(X)}$$

Ushbu koeffitsent korxonalar tomonidan olinishi kutilayotgan natijaning bir birligiga to‘g’ri keladigan risk miqdorini bildiradi.

Tadqiqot davomida «YTI» MCHJ faoliyati o‘rganilish natijasida quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlandi (7.2-jadval).

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki «YTI» MCHJda xaridorlar oldida debitorlik qarzlari 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 4 755 128,0 ming so‘mga yoki 49,4 foizga kamaygan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 2023-yilga nisbatan 1 426 769,0 ming so‘mga yoki 29,4 foizga kamayib 3 437 741,0 ming so‘mni tashkil qilgan.

Korxonaning Qurib tugatilgan ammo sotilmagan obyektlar hajmi 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 3 227 451 ming so‘mga yoki 42,1 foizga kamaygan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 2023-yilga nisbatan 10 870 742,0 ming so‘mga yoki qariyb 3,5 barobarga oshib 15 390 524,0 ming so‘mni tashkil qilgan.

«YTI» MCHJning sotuv hajmi 2023 hamda 2024-yillarda oldinga yilga nisbatan kamaygan.

«YTI» MCHJda tayyor mahsulotlarni qarzga sotish hamda ularni talabdan yuqori darajada ishlab chiqarish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohatlar hamda ularning pul oqimlari harakati bo‘yicha yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan risk darajalari tahlil qilindi.

7.2-jadval

«YTI» MCHJning yillar kesimida korxona pul oqimlariga katta miqdorda ta’sir etuvchi omillar dinamikasi

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar						
		2022	2023	farqi		2024	farqi	
				Mutloq	%		Mutloq	%
1.	Xaridorlar oldidagi debitorlik qarzlari (har bir yilning 31.12 holatiga)	9 619 638	4 864 510	-4 755 128	-49,4	3 437 741	-1 426 769	-29,4
2.	Qurib tugatilgan ammo sotilmagan obyektlar (har bir yilning 31.12 holatiga)	7 797 233	4 519 782	-3 277 451	-42,1	15 390 524	10 870 742	340
3.	Sotuv hajmi	284 462 261	174 610 516	-109 851 745	-39,9	147 074 024	-27 536 492	-15,8

7.3-jadval

«YTI» MCHJda tayyor mahsulotlarni qarzga sotish hamda ularni talabdan yuqori darajada ishlab chiqarish bo‘yicha ehtimollik ko‘rsatkichlari

Prognoz	Ehtimollik, r	Pul oqimining qaytmaslik darajasi, %	
		Qarzga sotish	Talabdan yuqori qurish
Past daraja	0,3	10	50
O‘rta daraja	0,6	15	80
Yuqori daraja	0,1	25	90

Agarda «YTI» MCHJda qurib tugatilgan ammo sotilmagan obyektlar past darajadagi ehtimollik ya’ni 30 foizli ehtimollik asosida sotuvni yo‘lga qo‘ysa 10 foiz pul qaytimi bo‘yicha muommo bo‘lishi, o‘rta darajada esa 15 foizli pul qaytimi bo‘yicha muommo bo‘lishi hamda yuqori darajada 25 foizni tashkil qilishi aniqlandi.

Shu bilan birga agar korxona shu darajadagi ehtimolliklar bilan talabdan yuqori darajadagi qurishni amalga oshirsa u holda past darajada 50 foiz, o‘rta darajada 80 foiz hamda yuqori darajada 90 foizgacha pul qaytimi bo‘yicha muommo bo‘lishi kuzatilishi aniqlandi.

Ushbu ikki holat bo‘yicha ham pul oqimlarining qaytimi bo‘yicha muommolar vujudga kelishi inobatga olinib tasodifiy kutilmalar tahlili asosida har bir jarayon tahlil qilib chiqildi.

Dastlab tasodifiy ifodaning o‘rtacha kutilayotgan qiymati ikki islohat uchun ham aniqlandi.

Mahsulotlarni qarzga sotish.

$$\boldsymbol{E(G) = \sum_{i=1}^{i=n} x_i * p_i = 0,3 * 10 + 0,6 * 15 + 0,1 * 25 = 14,5}$$

Talabdan yuqori darajada mahsulot ishlab chiqarish.

$$\boldsymbol{E(G) = \sum_{i=1}^{i=n} x_i * p_i = 0,3 * 50 + 0,6 * 80 + 0,1 * 90 = 60}$$

«YTI» MCHJga taklif qilinayotgan ikki islohatdan birinchisida o‘rtacha kutilayotgan qiymat 14,5 foizga teng bo‘lsa, ikkinchisi bo‘yicha bu ko‘rsatkich 60 foizni tashkil qilgan.

Keyingi bosqich sifatida ikki islohat uchun ham tasodifiy ifodaning yoyilma o‘lchovi sifatida standart (o‘rtacha kvadratli) chetlanish aniqlandi.

Mahsulotlarni qarzga sotish.

$$y_X = \sqrt{\boldsymbol{VAR(X)}} = \sqrt{\sum_{i=1}^{i=n} \boldsymbol{p_i}(\boldsymbol{x_i} - \boldsymbol{E(X)})^2}$$

$$= \sqrt{\boldsymbol{0,3} * \boldsymbol{(10 - 14,5)^2} + \boldsymbol{0,6} * \boldsymbol{(15 - 14,5)^2} + \boldsymbol{0,1} * \boldsymbol{(25 - 14,5)^2}}$$

$$= \pm \boldsymbol{4,15}$$

Talabdan yuqori darajada mahsulot ishlab chiqarish.

$$y_X = \sqrt{\boldsymbol{VAR(X)}} = \sqrt{\sum_{i=1}^{i=n} \boldsymbol{p_i}(\boldsymbol{x_i} - \boldsymbol{E(X)})^2}$$

$$= \sqrt{\boldsymbol{0,3} * \boldsymbol{(10 - 60)^2} + \boldsymbol{0,6} * \boldsymbol{(80 - 60)^2} + \boldsymbol{0,1} * \boldsymbol{(90 - 60)^2}}$$

$$= \pm \boldsymbol{21,9}$$

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, berilgan ikki islohat bo‘yicha qarzga sotishdaning tebranish diapazoni kutilayotgan qiymatdan bir standart chetlanish chegarasida 10,35% dan 18,65% gachani tashkil etadi (14,5 ± 4,15), talabdan yuqori qurish bo‘yicha esa 38,1% dan 81,9% gacha (60± 21,9).

Risklarni tasodifiy kutilmalarni baholash orqali aniqlash ketma-ketligi bo‘yicha yakuniy natija ya’ni bir birlik olinishi kutilayotgan natijaga erishishda vujudga keladigan risk hajmi, variatsiya koeffitsenti aniqlandi.

Mahsulotlarni qarzga sotish.

$$\boldsymbol{CV} = \frac{y_X}{\boldsymbol{E(X)}} = \frac{\boldsymbol{4,15}}{\boldsymbol{14,5}} = \boldsymbol{0,29}$$

Talabdan yuqori darajada qurish.

$$CV = \frac{y_X}{E(X)} = \frac{21,9}{60} = 0,37$$

Olingan natijalardan xulosa qilish mumkinki «YTI» MCHJda pul oqimlari harakati bo‘yicha vujudga keladigan risk miqdori debitorlik qarzlari bo‘yicha 0,29 birlikni tashkil qilsa, talabdan yuqor iqurish bo‘yicha 0,37 birlikni tashkil qiladi.

Bu ko‘rsatkichlarni so‘mda ifodalaydigan bo‘lsa, agar «YTI» MCHJ 2024-yildagidek 147 074 024,0 ming so‘mlik mahsulot sotib daromad olish istagida bo‘lsa har 100 so‘mlik daromad uchun mahsulotni qarzga sotish bo‘yicha 29 so‘m, talabdan yuqori miqdorda mahsulot ishlab chiqish bo‘yicha 37 so‘mlik pul oqimi bilan bog’liq riskni bo‘yniga olishi lozim bo‘ladi.

Buni «YTI» MCHJning yuqoridagi ma’lumotlaridan ham ko‘rish mumkin. Korxonada 2024-yil yakunida talabdan yuqori qurish natijasida 2023-yilning mos davriga qaraganda 10 870 742,0 ming so‘mlik mahsulot ko‘p qolgan bu ushbu davrga nisbatan 3,4 barobar yuqoridir.

Ushbu pul oqimlari harakati bo‘yicha risklarni vujudga keltiruvchi omillarni to‘g’ri boshqarish korxonada pul oqimlari yetishmovchiligini oldini olishga hamda samaradorligini oshishiga olib keladi.

7.3. Qurilish korxonalarida aktivlar bilan bog’liq risklarni baholashdagi ma'lumotlar va statistika.

Har qanday ixtiyoriy ko‘rsatkichni aniqlash ma’lum ushbu ko‘rsatkich bilan bog’liq ko‘rsatkichlar guruhi to‘g’risidagi axborotlarni talab qiladi. Risklarni hisoblash jarayonida ham bir nechta axborot manbalarida mavjud ko‘rsatkichlardan foydalaniladi (7.4-rasm).

Bu axborot manbalarining eng muhimlaridan biri bu moliyaviy hisobot shakllari hisoblanadi. Kompaniyaning moliyaviy hisobotlari moliyaviy, operatsion yoki boshqa xavflarning foydali ko‘rsatkichlarini taqdim etadi. Masalan, kompaniyaning moliyaviy hisoboti ma'lumotlaridan olingan ko‘rsatkichlar asosida yaratilgan koeffitsientlar korxonaning potentsial moliyaviy riskni aniqlash uchun ishlatilishi mumkin.



7.4-rasm: Biznes risklari hisoblashdagi axborot manbalari

Bundan tashqari, moliyaviy hisobotlar vaqt o‘tishi bilan pul oqimlari va daromadlarning o‘zgaruvchanligi haqida ma'lumotni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, Altman modeli kabi miqdoriy modellar odatda ushbu hisob ma'lumotlariga tayanadi.

Auditor xulosasining mazmuni tavakkalchilik to‘g'risida o‘z vaqtida ma'lumot manbai emas, shuning uchun uning foydaliligi cheklangan. Biroq, auditorning bergan xulosasi tahlilchi sinchiklab tekshirishi kerak bo‘lgan ogohlantiruvchi belgidir. Shu boisdan investorlar tomonidan xalqaro darajada investitsiya kiritishi jarayonida dastlab xalqaro auditor tashkilotlarining auditorlik xulosalari talab qilinadi.

Kompaniyaning eslatmalarida odatda moliyaviy hisobot foydalanuvchilariga kompaniyaning riskini tushunishga yordam beradigan muhim ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari, kompaniyalar kompaniyaning moliyaviy, operatsion, hisobot yoki boshqa risklari haqida ma'lumot berishi mumkin bo‘lgan ma'lum ma'lumotlarni oshkor qilishlari kerak. Masalan, rahbariyatning sharhi kompaniya duch keladigan muhim risklarni rahbariyat baholashini ta'minlaydi.

Boshqa ma'lumotlarga kapitalni oshirish, moliyaviy hisobotlarni o‘z

vaqtida taqdim etmaslik, boshqaruvni o‘zgartirish yoki qo‘shilish va sotib olish kiradi. Tahlilchilar ushbu oshkoralarni sinchiklab ko‘rib chiqishlari kerak, chunki ular xavfni baholashda muhim ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin.

Xalqaro standartlarga muvofiq, moliyaviy hisobotlarda asosiy va sharh bo‘limi bo‘lishi kerak. Sharh moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarga kompaniyaning xavf-xatarlarini, risklarni boshqarishga yondashuvini va risklarni boshqarish samaradorligini tushunish imkonini beradi. Boshqaruv sharhi biznesning tabiati, maqsadlari va strategiyalari, resurslari, risklari va munosabatlari, natijalar va istiqbollari, samaradorlik ko‘rsatkichlari va ko‘rsatkichlari haqidagi ma'lumotlarni o‘z ichiga oladi. Nazariy jihatdan, kompaniyalar boshqaruv sharhlarida aksariyat korxonalar duch keladigan xavflardan farqli o‘laroq, biznesga xos bo‘lgan asosiy risklarni o‘z ichiga olishi kerak.

Kapitalni ko‘paytirish, moliyaviy hisobotlarni o‘z vaqtida taqdim etmaslik, boshqaruvni o‘zgartirish yoki qo‘shilish va sotib olish kabi muayyan hodisalar bo‘yicha oshkor qilish risklarni baholashga tegishli ma'lumotlarni o‘z ichiga oladi.

SEC shakli 8-K va "NT" Qo‘shma Shtatlardagi firma kerakli hisobotlarni o‘z vaqtida taqdim eta olmaganida topshiriladi. Ushbu kechikishlar ichki nazoratdan kelib chiqadigan buxgalteriya hisobidagi qiyinchiliklar, tegishli moliyaviy xodimlarning yetishmasligi yoki qo‘shimcha tekshirishni talab qiladigan buxgalteriya hisobidagi firibgarlik bilan bog'liq bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, bunday arizalar odatda moliyaviy hisobot sifati bilan bog'liq muammolar haqida signal beradi. O‘zbekistonda bu bevosita soliq hamda statistic organlarga qilingan so‘rovnomalar natijasida olinadi.

Buxgalteriya hisobidagi tartibsizliklar yoki umumiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar moliyaviy motbuot ma’lumotlaridan olinishi mumkin. Tahlilchilar buni har qanday buxgalteriya hisobi va moliyaviy ma'lumotni tasdiqlash uchun tartibga soluvchi hujjatlar kabi aniq manbalardan foydalangan holda qo‘shimcha tekshirishlari kerak. Bundan tashqari, ular, agar mavjud bo‘lsa, boshqa manbalardan qo‘llab-

quvvatlovchi ma'lumotni izlashlari kerak. Bu aniqlangan ma'lumotlarning asosli ekanligini ta'minlaydi va qoidabuzarlik darajasi va ta'sirini aniqlaydi.

Xatarlarni tahlil qilish tizimi moliyaviy hisobotning har bir moddasi uchun zarur bo‘lgan tahlilni va unga qo‘shiladigan eslatmalarni belgilaydi:

- resurslarning ustuvorligini aniqlashda yordam berish va
- zarur natijalarga erishish uchun qabul qilinadigan darajaga (ortiqcha bo‘lmagan holda) jiddiy noto‘g'ri ma'lumotlar xavfini kamaytirish uchun yetarli nazorat mavjudligini aniqlash.

Korxona bir qator omillarga, jumladan bayonotlarning murakkabligi va jarayonning yetukligiga asoslanib, xavfni baholash siyosatini rasmiylashtiradigan ilg'or amaliyotlarni qo‘llashi kerak. Jarayon quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- moliyaviy hisobot satridagi risklarni ko‘rib chiqish uchun muntazam tsikl;
- boshqaruv qo‘mitalariga hisobot berish;
- standart format, har bir hisob bo‘yicha batafsil tahlil va ma'lumot.

Moliyaviy hisobotlar bo‘yicha risklarni baholashning to‘rtta amaliy bosqichi mavjud:

1. Moliyaviy hisobotning har bir moddasi bo‘yicha o‘ziga xos riskni baholashni o‘tkazish, unda quyidagilar ko‘rib chiqiladi:

–operatsiyalarning muhimligi va hajmi;
–operatsion muhit;
–hisobot talablari;
–hukm qilish darajasi;
–uchinchi tomon ma'lumotlariga tayanish;
–qo‘lda aralashuv va ma'lumotlar manbasining nomutanosibligi;
–tizim o‘zgarishlari;
–oldingi yildagi audit/mustaqil sharhlovchi muammolari.

2. Moliyaviy hisobotning har bir bandi uchun oydan oldingi va keyingi kafolat tizimini hisobga olgan holda qoldiq riskni baholashni

o‘tkazish va boshqa mavjud yengillashtiruvchi nazorat vositalarini aniqlash.

3. Korxonaning tavakkalchilik darajasini inobatga olgan holda kerakli yaxshilash usullarini aniqlash.

Bunda xavfni maqbul darajaga tushirish uchun qo‘shimcha yaxshilash usullarini talab qiladigan xavfli faoliyatni aniqlash muhim bo‘lsa-da, mavjud nazorat haddan tashqari bo‘lishi mumkin bo‘lgan va natijalarga sezilarli ta'sir qilmasdan qayta ishlab chiqilishi, qisqartirilishi yoki olib tashlanishi mumkin bo‘lgan faoliyatni aniqlash bir xil darajada muhimdir.

4. Moliyaviy hisobot satrlari bo‘yicha hisobot tavakkalchiligining umumiy ko‘rinishini berish uchun tavakkalchilik reytinglarini umumlashtirish va risk manbasini aniqlash.

Olib borilgan o‘rganishlar natijasida korxonada moliyaviy hisobotda jiddiy xatolarning aniqlanmasligi va noto‘g'ri moliyaviy ma'lumotlar taqdim etilishining oldini olish uchun riskga asoslangan qo‘lda nazorat tizimini qabul qilishi kerak. Bunga quyidagilar kiradi:

- hisobotlar chop etilishidan oldin ikkita alohida xodim tomonidan tayyorlanadi va ko‘rib chiqiladi;
- har oyning boshida barcha hisoblash hisobotini qayta ishlash va kerak bo‘lganda qayta hisoblash;
- hisobotni tasdiqlash ierarxiyasini o‘rnatish, masalan:

–tegishli belgilangan miqdordan kattaroq hisobotlar uchun direktorning tasdiqlanishi va

–CFO ma'qullashi:

- kapitalga bevosita ta'sir qiluvchi jurnallar;
- tegishli belgilangan miqdordan kattaroq hisobotlar.

Ushbu nazorat boshqa oy oldidan ishonch hosil qilish jarayonlari bilan birgalikda umumiy kitob yopilishidan oldin xatolarni oldini olish, aniqlash va tuzatish uchun zarurdir. Oylik boshqaruv hisobotlarining to‘g'riligi, haqqoniyligi va foydaliligini oshirish va yopilgandan keyingi tuzatishlarga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirish uchun tashkilot moliyaviy

hisobotlar bo‘yicha guruh direktorlari quyidagi majburiyatlarni o‘z ichiga olgan oydan oldingi tasdiqlash jarayonini qabul qilishi kerak:

- bosh kitob yopilishidan oldin tashkilot va boshqariladigan moliyaviy hisobotlarning (daromadlar, xarajatlar, aktivlar, majburiyatlar va kapital) asosliligini tekshirish
- mohiyatan test (agar katta, noodatiy, murakkab yoki takrorlanmaydigan ob'ektlar davr oxiridagi qoldiqlarga sezilarli ta'sir ko‘rsatishi aniqlangan bo‘lsa)
- solishtirishda harakat oqilona deb hisoblanmasa, tergov va keyingi tahlil:

–byudjetga to‘g'ri kelganlar (qayta ko‘rib chiqilgan byudjetlarga nisbatan X% yoki X million dollardan ko‘proq farq);

–oylik harakat (X% dan kattaroq yoki X million dollar kutilganidan farq qiladi)

–salbiy hisoblar;

–boshqa ob'ektlar va tashqi ma'lumotlar bilan aloqasi.

- bosh kitobni yopishdan oldin barcha aniqlangan moddiy xatolarni tuzatish.

Hisob-kitoblarni muvofiqlashtirishni talab qilingan muddatlarda, zarur sifat va tahlil darajasi bilan yakunlash uchun tashkilot moliyaviy hisobotlar guruhidagi tegishli direktorlar uchun barcha hisoblarni solishtirish va ko‘rib chiqish siyosatini rasmiylashtiradigan eng yaxshi amaliyotlarni qabul qilishi kerak, shu jumladan:

- Xavf darajasini aniqlash uchun barcha hisoblar bo‘yicha risklarni baholashni amalga oshirish. Keyinchalik jiddiy noto‘g'ri tavakkalchilik xavfi yuqori bo‘lgan hisoblar risklarni maqbul darajaga kamaytirish uchun tez-tez solishtirishlar, tahliliy protseduralar, mohiyatni tekshirish va o‘zaro tekshirishlardan o‘tishi kerak.
- Natijalarga sezilarli ta'sir qilmasdan muvofiqlik faoliyatini qayta loyihalash, kamaytirish yoki olib tashlash imkoniyatlarini aniqlash uchun baholashni yakunlash .
- 14.2-rasmda ko‘rsatilganidek, xavfga asoslangan hisoblarni solishtirish, tahlil qilish va sinovdan o‘tkazish siklini qabul qilish.

- Xavf va tafovut chegaralaridan kelib chiqqan holda, barcha solishtirishlar keyingi oyning 10-ish kunigacha yakunlanishi kerak bo‘lgan holda, solishtirishlarga ustuvorlik berishni talab qilish.
- Har bir hisob bo‘yicha ma'lumot uchun standart format va tahlildan foydalanish.
- Har bir hisob uchun bitta tayyorlovchi va bitta sharhlovchini tayinlash, har bir kishi quyidagilarni tushunadi: tadbirkorlik faoliyati; asosiy drayverlar; maqsad; hujjatlar manbasi; va hisob balansi bo‘yicha ishonchli ishonch darajasini olish va noto‘g'ri ma'lumotlar xavfini maqbul darajaga kamaytirish uchun tahlil qilish.
- Hisobning tabiati, ahamiyatliligi yoki xavf profili o‘zgargan bo‘lishi mumkin bo‘lgan belgilar mavjud bo‘lsa, o‘ziga xos xavfni baholash va kamaytirish nazoratini ko‘rib chiqish.

Xavfga asoslangan hisoblarni solishtirish, tahlil qilish va sinovdan o‘tkazish sikli quyidagi ketma-ketlikda hamda tartibda olib boriladi (20-rasm).

Moliyaviy hisobot loyihasi uchun risklarni tahlil qilish resurslarni ustuvorlashtirishga yordam beradi va loyihaning bajarilmasligi xavfini maqbul darajaga kamaytirish uchun yetarli nazorat mavjudligi yoki yo‘qligini aniqlashga yordam beradi. Korxona quyidagi eng yaxshi amaliyotlarni qo‘llashi kerak:

- tashkilotning risklarni boshqarish tizimi asosida risklarni baholash siyosatini rasmiylashtirish;
- moliyaviy hisobot loyihasi risklarini ko‘rib chiqish va boshqaruv qo‘mitalariga hisobot berish uchun muntazam tsiklni qabul qilish, shu jumladan:



7.5-rasm. Xavfga asoslangan hisoblarni solishtirish, tahlil qilish va sinovdan o‘tkazish sikli ketma-ketligi hamda amalga oshirish tartibi.

- moliyaviy hisobotlarni rejalashtirish va tayyorlash;
- hisobot berish va moliyaviy hisobotlarni nashr etish;
- egalik va majburiyat;

– risklarni boshqarish amaliyoti va ichki nazorat;

– yil davomida moliyaviy hisobot amaliyoti;

– asosiy manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi munosabatlar;

– xodimlar va resurslarni boshqarish;

– umumiy xizmat ko‘rsatish tartibi;

– tizimlar yoki operatsion muhitdagi o‘zgarishlar;

– butun davlat mas'uliyati.

- quyidagi to‘rtta amaliy qadam:

1. ajralmas xavfni baholashni o‘tkazish.

2. mavjud yumshatuvchi nazorat vositalarini hisobga olgan holda loyihani amalga oshirish uchun qoldiq riskni baholashni o‘tkazish;

3. Korxonaning tavakkalchilik darajasinini inobatga olgan holda kerakli yaxshilash usullarini aniqlash.

Bunda, xavfni maqbul darajaga tushirish uchun qo‘shimcha yaxshilash usullarini talab qiladigan xavfli faoliyatni aniqlash muhim bo‘lsa-da, mavjud nazorat haddan tashqari bo‘lishi mumkin bo‘lgan va natijalarga sezilarli ta'sir qilmasdan qayta ishlab chiqilishi, qisqartirilishi yoki olib tashlanishi mumkin bo‘lgan faoliyatni aniqlash yuqori darajada muhimdir.

4. Moliyaviy hisobot satrlari bo‘yicha hisobot tavakkalchiligining umumiy ko‘rinishini berish uchun tavakkalchilik reytinglarini umumlashtirish va risk omilini aniqlash.

Riskga asoslangan moliyaviy hisobotni tasdiqlash jarayoni bu ko‘zda tutilgan risklarni inobatga olgan holda moliyaviy hisobot satrlarining yangi shakllanadigan ko‘rsatkichlari asosida moliyaviy hisobotni shakllantirish jarayoni tushuniladi.

Ushbu jarayonda quyidagi muhim bosqichlar amalga oshiriladi.

	Analitik protseduralardan o'tkazish
Riskga asoslangan moliyaviy hisobotni tasdiqlash jarayoni	**Substantiv test o'tkazish**
	Natijalarni umumlashtirish

7.6-rasm. Riskga asoslangan moliyaviy hisobotni tasdiqlash jarayoni

Analitik protseduralar g'ayrioddiy o‘zgarishlar va shubhali narsalar uchun harakatlarni, muhim nisbatni, tendentsiyalarni va munosabatlarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Analitik jarayonlarga quyidagilar kiradi:

- real ko‘rsatkichlarni byudjet bilan solishtirish;
- joriy yil natijalarini oldingi yil natijalari bilan taqqoslash;
- oylik harakatlarning tahlili;
- nisbat va trend tahlili;
- segmentlarni tahlil qilish;
- moliyaviy ob'ektlar o‘rtasidagi mantiqiy munosabatlarni baholash (masalan, kreditorlik qarzlari xarajatlarga; debitorlik qarzlari daromadga; yer va binolarga mulkni ishlatish xarajatlari; texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlari aktivlarga);
- eski sinov balansini tahlil qilish (debitorlik / kreditorlik qarzlari / ochiq xarid buyurtmalari)
- boshqa biznes yoki atrof-muhit ma'lumotlari va hujjatlariga muvofiqligi (bayonnomalar, shartnomalar, yuridik da'volar, yozishmalar va boshqalar);
- xodimlar soniga ish haqi to‘lash xarajatlarini tahlil qilish (o‘rtacha xarajatlar va yillar bo‘yicha o‘rtacha xarajatlar harakati);
- xodimlar soniga beriladigan ta'tillarni tahlil qilish;
- kunlik ish haqini davr oxiridagi hisoblangan ish haqi fondiga solishtirish;
- innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash ishlari sonini va har bir ish uchun o‘rtacha xarajatlarni byudjetga solishtiring;

- raqobatbardosh betaraflikni va dividendlar daromadini tegishli ravishda operatsion daromadga/ortiqchalikka mutanosiblik sifatida ko‘rib chiqish.

Substantiv test quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- tranzaktsiya sodir bo‘ldi/balans mavjud va amal qiladi;
- operatsiya/balans to‘g'ri davrda qayd etilgan;
- bitim yoki balansning qiymati to‘g'ri va amalga oshirilishi mumkin;
- murakkab hisob-kitoblar aniq;
- mulohazalar to‘g'ri va ekspert va mustaqil maslahatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi;
- buxgalteriya hisobi standartlari to‘g'ri talqin qilingan va qo‘llangan;
- xarajatlar tegishli ravishda tasniflangan.

Katta va noodatiy o‘zgarishlarni ko‘rib chiqish - balansning xususiyatiga qarab, bu ko‘rib chiqishni quyidagilar o‘z ichiga olishi mumkin:

- belgilangan chegaradan yuqori operatsiyalar;
- daromadlar schyotlaridagi debetlar/xarajatlar schyotlaridagi kreditlar;
- noodatiy tavsiflarga ega operatsiyalar;
- oy oxiridan oldin yoki undan keyin katta operatsiyalar yoki tuzatishlar;
- boshqaruvning yuqori darajadagi ishtiroki yoki mulohazasiga ega bo‘lgan operatsiyalar;
- o‘tgan operatsiyalar yoki qoldiqlar;
- bir necha marta qayta hisoblangan narsalar;
- yirik murakkab operatsiyalarni qayta hisoblash;
- odatdagi biznes jarayonidan tashqarida qayta ishlangan narsalar.

Mohiyatni tekshirish katta va noodatiy ob'ektlarga nisbatan qo‘llanilishi kerak va tranzaktsiyalar va balanslar jiddiy noto‘g'ri ko‘rsatilmaganligiga ishonch hosil qilishdan iborat.

Muhim sinov quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- to‘g'ri qayd etilganligiga ishonch hosil qilish uchun dastlabki hujjatlardan hisob kitobigacha bo‘lgan operatsiyani kuzatish;
- tranzaktsiya sodir bo‘lganligini tasdiqlash uchun buxgalteriya kitobidan dastlabki hujjatlarga (masalan, schyot-faktura yoki kvitansiya) qaytishni kuzatish;
- keyingi tushumlarni ko‘rib chiqish;
- uchinchi shaxslarni tasdiqlash protseduralari (masalan, qarzdorlar va naqd pul);
- kuzatish (masalan, aktivlarni va ortiqcha ijara maydonini ko‘rish);
- qayta hisoblash (hisoblash va kechiktirishlar, ijara xarajatlari, ortiqcha ijara maydoni va boshqalar);
- aktivlarni qo‘shish va yo‘q qilishni asoslash (masalan, sotuvdan tushgan tushumga aktivlarning chiqarilishini kuzatish);
- xarajat operatsion yoki kapital sifatida to‘g'ri tasniflanganligini tasdiqlash;
- buzilish va qayta ishlash bo‘yicha boshqaruvni tasdiqlash;
- obligatsiyalar stavkalari, nafaqa stavkalari va ish haqi o‘sish sur'ati taxminlarini ko‘rib chiqish.

Barcha yuqorida qayd etilgan tekshiruvlar hamda amalga oshirilgan testlar natijalari quyidagicha umumlashtirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

7.4-jadval

Riskga asoslangan buxgalteriya balansini tasdiqlash jarayoni

Sinov	Sinov tartibi	Bajarildi	Natijalarga misollar	Qo‘shimcha harakatlar talab qilinadi
1.	Kichik daftarlarni solishtiring va tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim eting.	Ha	Hisoblar uchinchi tomon tasdiqlashlari bilan solishtirildi. Hech qanday istisnolar aniqlanmagan. Ular tayyorlangan va ko‘rib chiqilgan holda imzolanadi.	Yo‘q
2.	Byudjet va hujjatlashtirish natijalari bo‘yicha faktlar tahlilini tayyorlang.	Ha	XXXX ga qarang. Hech qanday g'ayrioddiy harakatlar qayd etilmaydi. Byudjetdan asosiy farq 20XX yil 30 iyundagi amaldagi yakuniy balansni aks ettiradi.	Yo‘q
3.	Oldingi natijalar bo‘yicha haqiqiylarning tahlilini tayyorlang.	Ha	XXXX ga qarang. Yillar orasidagi harakat X% ni tashkil qiladi va asosan quyidagilarni aks ettiradi: Xxx asosida xxx o‘sishi Xxx tufayli xxxning qisqarishi (Eslatma: asosiysi tafovutni nimaga olib kelishini tushunishdir.)	Yo‘q
4.	Boshqa tegishli elementlar yoki tashqi ma’lumotlar tahlili ushbu hisobdagi harakatlarga mos keladimi?	Yo‘q	Xodimlarning ta'minoti xodimlar sonining ko‘payishini aks ettiruvchi xodimlarning xarajatlariga mos keladigan mutanosib foizga oshdi. O‘rtacha ish haqi	Ha

			20XX-XX dan X% ga oshdi, bu 20XX-yil iyul oyida belgilangan ish haqining oshishini aks ettiradi. Belgilangan nafaqa rejasi bo‘yicha pensiya xarajatlarining X% harakati PSS/CSS stavkalari bo‘yicha X% o‘zgarishiga mos kelmaydi. Qo‘shimcha tekshiruv talab qilinadi.	
5.	Tushuntirishni talab qiladigan noodatiy harakatlar bormi?	Ha	Obligatsiyalar stavkasining X% dan Y% gacha o‘zgarishi oktyabr oyida $ Xm tuzatishga olib keldi.	Yo‘q
6.	Iltimos, boshqa tendentsiyalar haqida fikr bildiring.	NA	Boshqa muhim tendentsiyalar qayd etilmagan.	Yo‘q
7.	Katta (o‘rtacha besh baravar), g'ayrioddiy (masalan, kredit hisobvaraqlaridagi debetlar, dumaloq ko‘paytmalar, tavsiflar yo‘q, hafta oxiri/bayram kunlari e'lonlari), murakkab yoki takrorlanmaydigan narsalar tekshirildimi?	Ha	O‘rtacha tranzaksiya X million dollarni tashkil etadi, shuning uchun XX million dollardan ortiq tranzaktsiyalar XXX bilan bog'liq holda jiddiy sinovdan o‘tkazildi. QTY ob'ektlari dastlabki hujjatlarga qayta ko‘rib chiqildi va aniqlik va haqiqiylik uchun sinovdan o‘tkazildi. Hech qanday muammo qayd etilmadi. Oxirgi ikki oydagi tranzaksiyalar ro‘yxati noodatiy narsalar uchun skanerdan o‘tkazildi. Ushbu test natijalari XXXX ish qog'ozida keltirilgan. Barcha kredit ob'ektlari	Yo‘q

			tekshirildi. XXXX dollarga baholangan ikkita element sozlashni talab qildi. Jurnal qayta ishlandi (ref: xxx).	
8	Tranzaktsiyalarning tasodifiy tanlovi (yil davomida 60 ta tranzaktsiya) bo‘yicha jiddiy sinov o‘tkazildimi? Muhim sinov satr elementiga bog'liq bo‘ladi. Yetkazib beruvchi xarajatlariga qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan sinov namunasi: • Tovarlarni qabul qilish fakturada tegishli tarzda hujjatlashtirilganmi? • Hisob-faktura to‘g'ri bosh kitob hisobiga sarflanganmi? • Xarajatlar to‘g'ri davrda qayd etilganmi? • Hisob-fakturadagi summa bosh kitobga mos keladimi?	Ha	Namuna tranzaksiya identifikatorlari va tasodifiy sonlar generatori yordamida tasodifiy tanlangan. Natijalar XXX ish qog'ozida keltirilgan. Quyidagi muammolar qayd etildi: XXXAction talab qilinadi: Jurnallar xxx tomonidan qayta ishlanishi kerak (davr yopilishidan oldin).	Ha
9	Mohiyatli test kesilgan, ikki tomonlama, jurnallar va tizim operatsiyalarini o‘z ichiga oladimi?	Ha	Tranzaktsiyalarning butun populyatsiyasi namunaga kiritilgan.	Yo‘q

10	Xavf tekshiruvi o‘tkazildimi? Bu quyidagilarga taalluqli bo‘lishi kerak: • hisobning tabiati • moddiylik • xavf va • nazoratni yumshatishning samaradorligi va chastotasi.	Ha	Hisobdagi qoldiqning tabiati riskni dastlabki baholash amalga oshirilganidan beri o‘zgarmadi. Byudjet va o‘tgan yil ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi kichik tafovut va muhim muammolarning yo‘qligi hisobga olingan holda, o‘ziga xos xavf reytingini o‘rtacha darajadan o‘zgartirish uchun hech qanday sabab yo‘q va mavjud nazorat qoldiq xavfni maqbul darajaga kamaytirish uchun etarli.	Yo‘q
11	Nazoratni ortiqcha deb hisoblaysizmi? Ya'ni, natijani sezilarli darajada o‘zgartirmasdan, ularni qisqartirish mumkinmi? Keraksiz qadamlar yoki jarayonlar bormi? Profilaktik nazorat bilan almashtirilishi mumkin bo‘lgan detektiv boshqaruvlar bormi?	Ha	Tahlil har oy o‘tkaziladi. Boshqa xavf omillari yo‘qligini hisobga olgan holda, ushbu tahlilning chastotasini har ikki oyda bir marta o‘tkazish tavsiya etiladi. Oy oxiridagi operatsiyalarni ko‘rib chiqish xatolarni oy oxirigacha aniqlash va tuzatish imkonini beradi. Maqsadli trening kodlashning aniqligini oshirishi mumkin.	Ha

Ushbu tahlillar hamda testlarning amalga oshirilishi korxonalarda risklar natijasida vujudga keladigan yo‘qotishlarni aniqlash hamda

yo‘qotishlardan keyingi moliyaviy holatni baholash imkoniyatini yaratadi.

VII bob bo‘yicha xulosalar

1. Moliyaviy risklarga aktivlar qiymatining pasayishi (masalan, mashinalar eskirishi, texnika va qurilish uskunalarining qadrsizlanishi) bilan bog’liq, qurilish asbob-uskuna va materiallarini haddan tashqari ko‘p yoki kam xarid qilish bilan bog’liq, inventarizatsiya va buxgalteriya hisobidagi xatoliklar bilan bog’liq hamda qarzdorlik (moliya vositalari orqali olingan aktivlar) bilan bog‘liq to‘lovga layoqatsizligi bilan bog’liq risklar kiradi.

2. Qurilish korxonalarida operatsion (ishlab chiqarish) risklariga qurilish texnikasining buzilishi yoki nosozligi bilan bog’liq risklar, aktivlardan maqsadsiz foydalanish (masalan, texnikalardan shaxsiy maqsadlarda foydalanish) bilan bog’liq risklar, aktivlar noto‘g‘ri joylashtirilishi (masalan, obyektga uzoq masofada joylashgan texnikani ishlatish zarurati) bilan bog’liq risklar hamda zaxira qismlar yoki servis xizmatining mavjud emasligi sababli ishning to‘xtab qolishi bilan bog’liq risklar kiradi.

3. Qurilish korxonalarida aktivlar vilan bog’liq huquqiy va normativ risklarga aktivlar (masalan, yer, texnika) huquqiy jihatdan to‘liq rasmiylashtirilmagan bo‘lisshi bilan bog’liq risklar, litsenziyalarning yo‘qligi yoki muddati o‘tib ketganligi bilan bog’liq risklar, qurilish me’yorlariga mos kelmaydigan asbob-uskunalarning ishlatilishi bilan bog’liq risklar hamda soliq qonunchiligiga zid ravishda aktivlar harakati yuritilishi bilan bog’liq risklar kiradi.

4. Riskka moyillik ta’sir kuchi va ehtimollikka bevosita bog‘liq. Korxona qanchalik riskka moyilligi kuchli bo‘lsa shuncha riskning ta’sir kuchi yuqori bo‘ladi. Agar nazoratni o‘z ichiga olgan riskka qarshi choralar o‘z o‘rnida va tegishli tarzda qo‘llanilmasa, risk hodisasi sodir bo‘lish ehtimolligi oshadi. Moyillikni baholash korxonalarda riskni boshqarish qanday yaxshi joriy etilganini aniqlashga imkon beradi.

5. Riskka moyillikni baholash mezoni quyidagi choralarni joriy qilishni o‘z ichiga oladi: stsenariyaviy rejalashtirish, real optsionlar, risk hodisasi sodir bo‘lganda unga tez moslashib kapital zihiralarini shakllantirish kabi qarshi choralarni qo‘llash. Biroq universal baholash mezani mavjud emas. Har bir korxona o‘z mezonini talablarini qondirishga mos tarzda ishlab chiqishi kerak.

6. Iqtisodiy faoliyat risklarini hisoblash uchun korxonaning moliyaviy risklarini baholashning statistik usullari juda kam qo‘llaniladi. Shunga qaramay, so‘nggi paytlarda klaster tahlili texnikasi nisbatan mashhurlikka erishdi, buning yordamida ba'zan foydalanish uchun mos bo‘lgan ma'lumotlarni tortib olish mumkin. Ko‘pincha jarayonda klaster tahlili qo‘llaniladibiznes-rejalarni ishlab chiqish. Aynan shundan so‘ng umumiy xavf koeffitsientini hisoblash ma'lumotlar bazasida amalga oshiriladi, ular xavflarni guruhlarga bo‘lish orqali olinadi.

VIII BOB. QURILISH KORXONALARIDA MEHNAT RESURSLARI SAMARADORLIGI TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH

8.1.Qurilish korxonalarida inson resurslarini ifodalovchi ko‘rsatkilar tarkibida mehnat unumdorligi va ularni aniqlash yo‘llari.

Qurilish korxonalarida inson resurslarini ifodalovchi ko‘rsatkichlar holatni ifodalovchi ko‘rsatkichlari, harakatini ifodalovchi ko‘rsatkichlari hamda samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlari kabi asosan uch guruhga bo‘lib o‘rganiladi.

Qurilish korxonalarida inson resurslarining samaradorligini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkich bu mehnat unumdorligi ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblanadi. Qurilish korxonalarida mehnat unumdorligini ifodalovchi ko‘rsatkich umumiy darajada quyidagicha aniqlanadi.

$$Mehnat\ unumdorligi = \frac{Bajarilgan\ qurilish\ ishlari\ \ hajmi}{Xodimlar\ o'rtacha\ soni}$$

Ushbu ko‘rsatkich korxonaning o‘rtacha bir xodimiga to‘g’ri keladigan ishlab chiqarish hajmini bildiradi. Masalan, korxona tomonidan 100,0 mln birlik qurilish ishlari bajarilgan hamda ushbu davrda korxonada o‘rtacha 20 ta xodim faoliyat olib borgan. Ushbu holatda korxona xodilarining mehnat unumdorligi aniqlandi.

$$Mehnat\ unumdorligi = \frac{Bajarilgan\ qurilish\ ishlari\ \ hajmi}{Xodimlar\ o'rtacha\ soni}$$

$$= \frac{100,0}{20} = 5,0$$

Korxonaning o‘rtacha bir xodimi ushbu hisobot davridv 5,0 mln birlik qurilsih ishlari bajargan hisoblanadi.

Korxona xodimlarini mehnat unumdorligini aniqlashda muhim ko‘rsatkichlardan biri bu xodimlarning o‘rtacha sonini aniqlash bo‘lib hisoblanadi. Korxonada xodilarning o‘rtacha son korxona xodilari to‘g’risidagi axborotning qaysi tartibda berilganligiga qarab quyidagi uchta usuldan biridan foydalangan holda aniqlanadi.

- Oddiy o‘rtacha arifmetik;
- Tortqichli o‘rtacha arifmetik;

- O‘rtacha xronologik.

Oddiy o‘rtacha arifmetik usuli teng taqsimlangan davrlar uchun ma’lumotlar berilganda qo‘llaniladi hamda xodimlarning o‘rtacha miqdori quyidagicha aniqlanadi.

$$Xodimlarning\ o'rtacha\ miqdori = \frac{x_1 + x_2 + x_3 + x_4 + \cdots + x_n}{n}$$

Masalan, xodimlar soni quyidagi tartibda berilgan.

8.1-jadval

«YTI» MCHJning 2024 yilda xodimlar soni

№	Oylar	Xodimlar soni (kishi)
1.	Yanvar	110
2.	Fevral	112
3.	Mart	98
4.	Aprel	95
5.	May	120
6.	Iyun	135
7.	Iyul	132
8.	Avgust	130
9.	Sentyabr	122
10.	Oktyabr	122
11.	Noyabr	120
12.	Dekabr	128

$$Xodimlarning\ o'rtacha\ miqdori = \frac{x_1 + x_2 + x_3 + x_4 + \cdots + x_n}{n}$$

$$= \frac{110 + 112 + 98 + 95 + 120 + 135 + 132 + 130 + 122 + 122 + 120 + 128}{12}$$

$$= 108{,}5$$

Aniqlangan ko‘rsatkichdan bilish mumkinki “Sifat”MChJning 2024 yildagi xodimlarining o‘rtacha soni 108,5 ga teng ekan.

Agarda korxona xodimlari to‘g’risidagi axborot ma’lum davrlar oralig’ida alohida berilganda, masalan, dastlabki uch oy uchun o‘rtacha xodimlar soni, keyingi olti oy uchun alohida xodimlar soni hamda keyingi uch oy uchun xodimlar soni kabi berilsa o‘rtacha tortqichli arifmetikdan foydalaniladi.

$$\textit{Xodimlar o'rtacha soni} = \frac{\textit{dastlabki uch oydagi xodimlar soni} * 3 + \textit{keyingi olti oydagi xodimlar soni} * 6 + \textit{oxirgi 3 oydagi xodimlar soni} * 3}{12}$$

Masalan, xodimlar soni quyidagi tartibda berilgan.

8.2-jadval

«YTI» MCHJning 2023 yilda xodimlar soni

№	Oylar	Xodimlar soni (kishi)
1.	Yanvar-mart	110
2.	Aprel-sentyabr	112
3.	Oktyabr-dekabr	98

$$\textit{Xodimlarning o'rtacha miqdori} = \frac{110 * 3 + 112 * 6 + 98 * 3}{12} = 108$$

Aniqlangan ko‘rsatkichlardan ko‘rish mumkinki Sifat”MChJning 2024 yildagi xodimlarining o‘rtacha soni 108 ga teng ekan.

Agarda korxona xodimlari to‘g’risidagi axborot har oyning ma’lum sanasiga, asosan oyning birinchi sanasiga berib borilsa o‘rtacha xronologik usul orqali aniqlanadi.

$$Xodimlarning\ o'rtacha\ miqdori = \frac{\frac{x_1}{2} + x_2 + x_3 + x_4 + \cdots + \frac{x_n}{2}}{n-1}$$

Masalan, xodimlar soni quyidagi tartibda berilgan.

8.3-jadval

«YTI» MCHJning 2022 yilda xodimlar soni

№	Oylar	Xodimlar soni (kishi)
1.	1-yanvar 2022 yil	109
2.	1-fevral	111
3.	1-mart	110
4.	1-aprel	99
5.	1-may	108
6.	1-iyun	105
7.	1-iyul	103
8.	1-avgust	115

9.	1-sentyabr	121
10.	1-oktyabr	122
11.	1-noyabr	120
12.	1-dekabr	124
13.	1-yanvar 2023 yil	108

$$Xodimlarning\ o'rtacha\ miqdori = \frac{\frac{x_1}{2} + x_2 + x_3 + x_4 + \cdots + \frac{x_n}{2}}{n-1}$$

$$= \frac{\frac{109}{2} + 111 + 110 + 99 + 108 + 105 + 103 + 115 + 121 + 122 + 120 + 124 + \frac{108}{2}}{13-1}$$

$$= 112$$

Aniqlangan ko‘rsatkichlardan ko‘rish mumkinki Sifat”MChJning 2024 yildagi xodimlarining o‘rtacha soni 112 ga teng ekan.

Korxonada xodimlarning mehnat unumdorligini aniqlashda asosiy ko‘rsatkichlardan biri xodimlarning o‘rtacha soni ekanligi inobatga olinsa xodimlarning o‘rtacha sonini to‘g’ri tartibda aniqlash mehnat unumdorligini to‘g’ri baholashga xizmat qiladi.

8.2. Qurilish korxonalarida mehnat unumdorligi o‘zgarish holati va uning dinamikasi tahlili.

Qurilish korxonalarida xodimlarning mehnat unumdorligi umumiy darajada baholanganda mehnat unumdorligi holati hamda harakati tahlili amalga oshiriladi hamda tahlil natijasi sifatida korxonaning bugungi kundagi mehnat unumdorligi baholanib o‘tgan davrlarga nisbatan o‘zgarishi aniqlanadi.

Qurilish korxonalarida xodimlar mehnat unumdorligiga xodimlarning to‘g’ri boshqaruvi, kasb psixalogiyasi, to‘g’ri boshqaruv qarorlarining qabul qilinishi, xodimlarning rag’batlantirilishi kabi ko‘plab omillar ta’sir qiladi. Qurilish korxonalarida xodimlarning mehnat unumdorligini umumiy baholash usuli orqali aniqlash hamda unga baho berish korxonaning barcha bo‘lim xodimlarini, ma’muriyat, ishlab chiqarish hamda savdo bo‘limi xodimlarini mehnat unumdorligini to‘g’ri baholashga imkon yaratmaydi.

Shu boisdan korxona xodimlarini mehnat unumdorligin to‘g’ri baholash uchun quyidagicha bo‘limlar bo‘yicha mehnat unumdorligini baholash maqsadga muvofiqdir.

8.4-jadval

Korxonada bo‘limlar bo‘yicha xodimlar mehnat unumdorligini aniqlash yo‘llari

№	Ko‘rsatkich nomi	Aniqlash usuli	Natija
1.	Xizmat ko‘rsatish xodimlariningmehnat unumdorligi	$XKXMU = \frac{Bajarilgan\ qurilish\ ishlari\ hajmi}{Xizmat\ ko'rsatish\ xodilari\ o'rtacha\ soni}$	O‘rtacha 1 ta xizmat ko‘rsatish xodimi tomonidan ko‘rsatilgan xizmat hajmi
2.	Savdo xodimlarining mehnat unumdorligi	$SXMU = \frac{Sotuv\ hajmi}{Savdo\ xodilari\ o'rtacha\ soni}$	O‘rtacha 1 ta savdo xodimi tomonidan sotilgan mahsulot hajmi
3.	Ma’muriyat xodimlarining mehnat unumdorligi	$MXMU = \frac{\triangle Ishlab\ chiqarish\ hajmi + \triangle Savdo\ hajmi}{Ma'muriyat\ xodilari\ o'rtacha\ soni}$	To‘g’ri boshqaruv qarorlari asosida ishlab chiqarish hamda savdo hajmining qo‘shimcha o‘sish darajasini 1 ta ma’muriy xodimga to‘g’ri kelish hajmi

Ushbu usullarda mehnat unumdorligini aniqlash korxonada har bir bo‘limning xodilarini alohida mehnat unumdorligini baholash, samarasiz bo‘limlarni samaradorligini oshirish, xarajatlarni minimallashtirish hamda korxona foydasini oshirishga olib keladi.

Masalan, «YTI» MCHJ to‘g’risida quyidagi ma’lumotlar berilgan bo‘lsa.

8.5-jadval

«YTI» MCHJ to‘g’risida ma’lumotlar

№	Ko‘rsatkichlar	2023	2024	O‘zgarishi
1.	Ko‘rsatilgan xizmat hajmi(ming so‘mda)	249 645,0	298 458,0	+48 813,0

2.	Savdo hajmi (ming so‘mda)	354 478,0	365 896,0	+11 418,0
3.	Ishlab chiqarish xodimlarining o‘rtachi soni	45	48	+3
4.	Savdo xodimlarining o‘rtacha soni	5	4	-1
5.	Ma’muriyat xodimlarining o‘rtacha soni	10	15	+5

Olingan ma’lumotlardan ko‘rish mumkinki «YTI» MCHJda ko‘rsatilgan xizmat hajmi 48 813,0 ming so‘mga hamda savdo hajmi 11 418,0 ming so‘mga o‘sganligini ko‘rish mumkin. Ushbu holatda «YTI» MCHJda bo‘limlar bo‘yicha xodimlarning mehnat unumdorligi aniqlandi hamda quyidagi natijalar olindi.

8.6-jadval

“Sifat”MChJning bo‘limlar bo‘yicha xodimlar mehnat unumdorligi

№	Ko‘rsatkich nomi	2023	2024
1.	Xizmat ko‘rsatish xodimlariningmehnat unumdorligi	$XKXMU = \frac{249\,645,0}{45} = 5547,6$	$XKXMU = \frac{298\,458,0}{48} = 6217,8$
2.	Savdo xodimlarining mehnat unumdorligi	$SXMU = \frac{354\,478,0}{5} = 70895,6$	$SXMU = \frac{365\,896,0}{4} = 89224,0$
3.	Ma’muriyat xodimlarining mehnat unumdorligi		$MXMU = \frac{\triangle 48\,813,0 + \triangle 11\,418,0}{15} = 4015,4$

Olingan natijalardan ko‘rish mumkinki «YTI» MCHJda ishlab chiqarish xodimlarining mehnat unumdorligi 2023 yilda 5 547,6 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa bu ko‘rsatkich 2024 yilda 6 217,8 ming so‘mni tashkil qilgan. Savdo xodimlarining mehnat unumdorligi esa 2023 yilda 70 895,6 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa bu ko‘rsatkich 2024 yilda 89 224,0 ming so‘mni tashkil qilgan. Ma’muriyat xodimlarining mehnat unumdorligi 2024 yilda 4 015,4 ming so‘mga teng.

Korxona bo‘yicha mehnat unumdorligi holati baholangandan so‘ng ushbu ko‘rsatkichlarning o‘tgan yillarga nisbatan o‘zgarish darajasi baholanadi. «YTI» MCHJda ishlab chiqarish xodimlarining hamda savdo bo‘limi xodimlarining mehnat unumdorligi darajasi o‘sish tendensiyasiga ega.

8.3. Qurilish korxonalarida mehnat unumdorligi o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillar va ularni tahlil qilish yo‘llari.

Korxonada mehnat unumdorligi dinamikasi o‘rganilganda asosiy masala ushbu o‘zgarishga yani korxonada xodimlar mehnat unumdorligini o‘zgarishiga qaysi omillar qay darajada tahsir qilishini aniqlash bo‘lib hisoblanadi. Bunda asosiy tahlil instrumenti bu omilli tahlil bo‘lib hisoblanadi

Omilli tahlil natija ko‘rsatkichiga ta’sir etuvchi omillarni hisoblash yo‘li bilan shu tahlil qilinayotgan ko‘rsatkichni yaxshilashni, ichki va tashqi imkoniyatlarni aniqlash va uni kelgusi davr uchun safarbar qilish yo‘llarini ishlab chiqish imkonini beradi. Hozirgi ishlab chiqarish korxonalarini davlat tomonidan moliyalashtirish asosan barham topgan bir paytda, ichki imkoniyatlarni axtarib topish va uni xo‘jalik faoliyatiga safarbar qilish tahlil orqali amalga oshiriladi[85].

Omilli tahlil – bu natijaviy ko‘rsatkichlar darajasiga omillar ta’sirini kompleks hamda tizimli tadqiq qilish jarayonidir.

Omilli tahlil turlari	
→	1. Determinatsiyalangan va stoxastik
→	2. To‘g‘ri va teskari
→	3. Bir darajali va ko‘p darajali
→	4. Statik va dinamik
→	5. Retrospektiv va istiqbolli (prognoz)

8.1-rasm.Omilli tahlil turlari[86]

[85] M.Q.Pardayev, A.N.Xoliqulov, T.I.Yahyoyev “Iqtisodiy tahlil” darslik. Samarqand-2024. 109-bet.

[86] B.J.Hakimov, B.B.Alimov, U.A.Xolmirzayev, A.X.Po’latov “Iqtisodiy tahlil nazariyasi”.O’quv qo’llanma. Toshkent-2013. 89-bet.

Omilli tahlilini amalga oshirish jarayonida har bir omilning natijaga ta’sirini baholashda iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan an’anaviy usullardan foydalaniladi (7.1-rasm).

Ushbu an’anaviy usullarning har birining o‘z xususiyati bilan birga savdo korxonalarida qo‘llanilishi bo‘yicha ham alohida xususiyatlari mavjud.



8.2-rasm. Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan an’anaviy usullar

Mehnat unumdorligini baholash solishtirish usulini qo‘llash bilan tahlil boshlanadi. Shu usul orqali tahlil qilinayotgan ko‘rsatkichning farqi aniqlanadi. Qolgan barcha usullar solishtirish natijasida aniqlangan farqni isbotlashga, aniqlashga qaratilgan bo‘ladi. Solishtirishda asos qilib miqdorlar olinadi. Miqdor ko‘rsatkichlari asosan buxgalteriya hisobi va hisobotida o‘z ifodasini topadi, chunki sodir bo‘lgan iqtisodiy jarayonlar birinchi galda buxgalteriya hisobida aks ettiriladi va hisobotida jamlanadi. Tahlil qilish uchun miqdor ko‘rsatkichlarining barcha turlari : mutloq miqdor, nisbiy miqdor, o‘rtacha miqdor kabilar qo‘llaniladi.

Mutloq miqdor har qanday miqdorning asosi, iqtisodiy jarayonlarni sanaydigan va o‘lchaydigan boshlang’ich raqamdir. Masalan, savdo korxonalari soni, korxonada ishlaydigan xodimlar soni, korxonadagi jihozlar soni, ishlab chiqarilgan mahsulotlar soni kabilarni

sanash yo‘li bilan aniqlasa, ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot, tovar mahsuloti, Ko‘rsatilgan xizmat hajmikabilar bevosita o‘lchash yo‘li bilan aniqlanadi. Bunday mutloq miqdorlar hajm ko‘rsatkichlari deb ataladi. Mutloq miqdordan tahlilda foydalanishda asosan qo‘shish va ayirish amallari ishlatiladi. Mutloq miqdorlar o‘lchov birligiga qarab nutura, shartli natura, pul va kompleks turlarga bo‘linadi. Rejali iqtisodiyot sharoitida ko‘rsatkichlar asosan pul birligida ifodalanar edi. Endilikda pulning qadrsizlanish jarayoni davom etib turgan paytda va ko‘p mulkchilik shaklidagi iqtisodiyotning vujudga kelishi tahlil qilishda natura, shartli natura va kompleks ko‘rsatkichlardan keng foydalanish zaruratini tug’dirdi.

Umuman olganda iqtisodiy jarayonlar ayniqsa ularni ma’lum raqamlarda ifodalash shunchalik murakkabki unda faqat bir xil o‘lchovga ega bo‘lgan ko‘rsatkich bilan cheklanib bo‘lmaydi. Shu tufayli uni tahlil qilishda bir qancha ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Bularsiz tahlil qilish, umuman ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga baho berish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish qiyin. Shu bilan birgalikda faqat mutloq miqdor orqali xo‘jalik faoliyati haqida chuqur va batafsil xulosa qilish ham mumkin emas. Shu tufayli tahlil uchun mutloq miqdor bilan birgalikda nisbiy miqdorlardan ham keng foydalaniladi.

Nisbiy miqdorlar tahlil qilishda dastlabki va eng muhim xulosa chiqarish uchun asos bo‘ladi. Nisbiy miqdorlardan tahlilda foydalanishda asosan bo‘lish va ko‘paytirish usullari ishlatiladi. Bularning hajmini solishtirish va farqini aniqlash uchun ayirish amalidan foydalaniladi.

Nisbiy miqdor tahlil jarayonida asosan mutloq miqdorlarni bir-biriga bo‘lish natijasida vujudga keladi va iqtisodiy jarayonlar haqida aniq ma’lumotlarni beradi. Masalan, biror ko‘rsatkich bo‘yicha rejaning bajarilishi, o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati, me’yorga nisbatan erishilganlik darajasi kabilar.

Tahlil jarayonida nisbiy miqdorning nimani ifodalash mohiyatiga qarab, birqancha turlari qo‘llaniladi:

- reja topshirig’i va bajarilishini ifodalovchi nisbiy miqdor ;
- o‘zgarish sur’atini ifodalovchi nisbiy miqdor ;

- tarkibni ifodalovchi nisbiy miqdor ;
- me’yorga (standartga, o‘rtachaga) nisbatan erishilgan darajasini ifodalovchi nisbiy miqdor ;
- intensivlik darajasini ifodalovchi nisbiy miqdor va h. k.

Mana shu keltirilgan har bir ko‘rsatkich tahlil qiluvchi uchun ma’lum xulosaga kelishda real asos bo‘lib xizmat qiladi. Tahlil jarayonida mutloq va nisbiy miqdorlar bilan birgalikda o‘rtacha miqdorlardan ham keng foydalaniladi.

O‘rtacha miqdorlar tahlilda iqtisodiy xodisa va jarayonlardagi ma’lum qonuniyatlarni va umumiy yo‘nalish tendensiyalarini aniqlashda qo‘llaniladi. Bu miqdorni qo‘llashning zarurligi shundaki iqtisodiy jarayonlar alohida obyektlar bo‘yicha o‘rganilganda vaqtinchalik tasoddiflar ta’sirida bo‘lishi mumkin. Masalan, korxona chet mamalakat xom ashyosi asosida ishlaydi.

Qayta hisoblash usuli mehnat unumdorligini tahlil qilishda keng qo‘llaniladi. Bu usul natijaga bitta yoki ikkita omil ta’sir qilgan paytlarda qo‘llanilishi qulay. Uning mohiyati rejadagi natijani birinchi omilning haqiqiy miqdori bilan qayta hisoblab olinishidan iboratdir. Masalan, ko‘rsatilgan xizmat hajmi(T) xodimlar o‘rtacha soni (Ak) va shu mehnat unumdorligi bilan funksional bog’liq. Bu quyidagi formulada ifodalanadi:

$$\mathbf{T = Ak * Ks}$$

Bunda: Ks- mehnat unumdorligi.

Ushbu formuladan ko‘rinib turibdiki, natijaga ikkita omil ta’sir qiladi. Har bir omilning ta’sirini hisoblash uchun natijani qayta hisoblab olinadi. Bu birinchi omilning haqiqiy miqdorini (Ak1) ikkinchi omilning rejadagi miqdori bilan ko‘paytirish yo‘li bilan aniqlanadi(Kso), ya’ni:

$$\mathbf{Tkx = Ak_1 * Ks_o}$$

Omillarning ko‘rsatilgan xizmat hajmiga ta’sirini topish uchun quyidagi hisob-kitoblarni amalga oshirish lozim.

1. Ko‘rsatilgan xizmat hajmining xodimlarning o‘rtacha sonini o‘zgarishi evaziga o‘zgarganligini (ΔTak) topish uchun ko‘rsatilgan xizmat hajmining qayta hisoblangan miqdoridan (Tkx) uning rejadagi

hajmini ayirish kifoya (To) :

$$\Delta \text{ Tak} = \text{Tkx} - \text{T}_o = (\text{Ak}_1 * \text{Ks}_o) - (\text{Ak}_o * \text{Ks}_o)$$

2. Ko‘rsatilgan xizmat hajmi o‘zgarishiga mehnat unumdorligining ta’sirini (Δ Tks) aniqlash uchun Ko‘rsatilgan xizmat hajmining haqiqiy so‘mmasidan (T1) uning qayta hisoblangan miqdorini (Tkx) ayirish kifoya :

$$\Delta \text{ Tks} = \text{T}_1 - \text{Tkx} = (\text{Ak}_1 * \text{Ks}_1) - (\text{Ak}_1 * \text{Ks}_o)$$

Ikki omilning ta’siri ko‘rsatilgan xizmat hajmi farqining umumiy so‘mmasiga teng bo‘lishi kerak :

$$\Delta \text{ T} = \Delta \text{ Tak} \pm \Delta \text{ Tks}$$

8.7-jadval

“Sifat”MChJning savdo bo‘limi bo‘yicha xodimlar mehnat unumdorligi

№	Ko‘rsatkich nomi	2023	2024
1	Savdo xodimlarining mehnat unumdorligi	$SXMU = \frac{354\,478{,}0}{5} = 70895{,}6$	$SXMU = \frac{365\,896{,}0}{4} = 89224{,}0$

Ushbu holatda 1 bosqich sifatida natija qayta hisoblanadi.

$$\boldsymbol{T_{qh} = \frac{Ak_1}{Ks_0} = \frac{365\,896{,}0}{5} = 73\,179{,}2}$$

Keyingi bosqich sifatida natijaga birinchi omilning ta’siri aniqlanadi.

$$\Delta \text{ Tak} = \text{Tkx} - \text{T}_o = (\text{Ak}_1 / \text{Ks}_o) - (\text{Ak}_o / \text{Ks}_o) = 73\,179{,}2 - 70\,895{,}6 = 2\,283{,}6$$

Keyingi bosqich sifatida natijaga ikkinchi omilning ta’siri aniqlanadi.

$$\Delta \text{ Tks} = \text{T}_1 - \text{Tkx} = (\text{Ak}_1 / \text{Ks}_1) - (\text{Ak}_1 / \text{Ks}_o) = 89\,224{,}0 - 73\,179{,}2 = 16\,044{,}8$$

Umumiy farq 18 328,4 ga teng bo‘lib, korxonada savdo hajmining o‘sishi mehnat unumdorligini 2 283,6 ming so‘mga oshirgan bo‘lsa savdo xodimlarining kamayishi mehnat unumdorligini 16 044b8 ming so‘mga oshirgan.

Mehnat unumdorligini tahlil qilishda zanjirli almashtirish usuli tahlilda keng qo‘llaniladigan usullardan biridir. Natija o‘zgarishiga uchta va undan ko‘p omillar ta’sir qilsa, ular o‘rtasidagi bog’liqlik funksional bo‘lsa ushbu usuldan foydalaniladi. Masalan, ko‘rsatilgan xizmat hajmi (T) o‘zgarishi xodimlarning ro‘yxatdagi soni (X), ularning o‘rtacha ish kunlari (K) va bir kunlik mehnat unumdorligi (M) ko‘rsatkichlari bilan funksional bog’liqdir. Bu quyidagicha ifodalanadi:

$$\mathbf{T= X * K * M}$$

Ushbu formula asosida natijaga uchta omil ta’sir, qilganligini ko‘ramiz. Omilli tahlilning asosiy vazifasi natijaning shu har bir omil evaziga o‘zgarishini topishdan iboratdir. Zanjirli almashtirish usulidan foydalanadigan bo‘lsak rejadagi natijani har bir omil evaziga qayta hisoblab olish lozim. Bu uchun quyidagi hisob-kitoblar amalga oshiriladi:

1. Ko‘rsatilgan xizmat hajmi hajmining xodimlarning ro‘yxatdagi soni o‘zgarishi evaziga o‘zgarganligini topish uchun birinchidan shu ko‘rsatkich rejasini xodimlarining ro‘yxatdagi sonining haqiqiy miqdori bilan hisoblab olinadi:

$$\mathbf{Tx = X_1 * K_o * M_o}$$

Bunda “ 1 “ va “ 0 “indekislari ko‘rsatgichlarning haqiqiy va rejadagi miqdorini ifodalaydi.

Ikkinchidan esa, shu qayta hisoblagan miqdordan rejadagi Ko‘rsatilgan xizmat hajmi ayirib tashlanadi:

$$\mathbf{\Delta Tx = Tx - To = (X_1 * Ko * Mo) - (Xo * Ko * Mo)}$$

Bunda ΔTx - Ko‘rsatilgan xizmat hajmining xodimlarning ro‘yhatdagi sonining o‘zgarishi ta’sirida o‘zgargan qismi.

2. Ko‘rsatilgan xizmat hajmining ikkinchi omil, ya’ni xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha ish kunining o‘zgarganligi evaziga

o‘zgarishini (Δ Tk) topish uchun birinchi omil bilan hisoblongan miqdorini ikkinchi omilning miqdori bilan hisoblab olinadi:

$$\mathbf{Tk = X_1 * K_1 * M_0}$$

Shu chiqqan natijadan birinchi omilning haqiqiy miqdori bilan hisoblangan Ko‘rsatilgan xizmat hajmi hajmi olib tashlanadi:

$$\mathbf{\Delta Tk = Tk - Tx = (X_1 * K_1 * M_0) - (X_1 * K_0 * M_0)}$$

3. Natijaning uchinchi omil - mehnat unumdorligining ta’siri evaziga o‘zgarishini topish uchun ko‘rsatilgan xizmat hajmining haqiqiy summasidan (T1) uning ikkinchi omilning haqiqiy miqdori bilan qayta hisoblangan (Tk) miqdori ayrilib tashlanadi:

$$\mathbf{\Delta T_m = T_1 - Tk = (X_1 * K_1 * M_1) - (X_1 * K_1 * M_o)}$$

Bu uchta omilning ta’siri Ko‘rsatilgan xizmat hajmining umumiy farqiga (Δ T) teng bo‘lishi kerak:

$$\mathbf{\Delta T = \Delta Tx \pm \Delta Tk \pm \Delta Tm}$$

8.4. Qurilish korxonalarida korxonalarda inson resurslarining qo‘nimsizligi va ularga ta’sir etuvchi omillar tahlili

Kadrlar qo‘nimsizligi haqidagi masalalar kadrlar bo‘limi xodimlari va HR-mutaxassislar o‘rtasidagi «hamkorlik nuqtasi»dir. Kompaniyadagi kadrlar qo‘nimsizligini doimiy ravishda birgalikda tahlil qilish foydali bo‘ladi.

Kadrlar qo‘nimsizligi haqida gapirganda bir nechta muhim ko‘rsatkichlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- tashkilotdagi kadrlar qo‘nimsizligi darajasi – bu ma’lum bir davrda tashkilotni tark etgan xodimlarning foizi (turli sabablarga ko‘ra);
- ixtiyoriy kadrlar qo‘nimsizligi – tashkilotni ixtiyoriy ravishda tark etgan xodimlar soni;
- majburiy kadrlar qo‘nimsizligi – tashkilotni tark etishga majbur bo‘lgan xodimlar soni;
- yuqori salohiyatga ega kadrlar qo‘nimsizligi (malaka, tajriba);
- bo‘linmalar, bo‘limlar bo‘yicha ishdan bo‘shagan xodimlar soni;
- moslashuv davrida kadrlar qo‘nimsizligi (3 – 6 oy).

Moslashuv davrida va birinchi ish yili davomida yuqori darajadagi kadrlar qo‘nimsizligi xodimlarni tanlashdagi xatolarni ko‘rsatadi: tanlov mezonlari noto‘g’ri belgilangan, lavozim talablariga javob bermaydigan xodimlar qabul qilingan, yetarli darajada moslashish amalga oshirilmaganligi kabi sabablar. Ehtimol, insonning motivlari va qadriyatlari kompaniyada qabul qilingan qoidalar va me’yorlarga mos kelmaydi va rahbariyat bilan munosabatlar yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan.

Bu sabablarning barchasi umuman olganda HR-mutaxassisning javobgarligi doirasiga kiradi.

- tanlash va moslashtirish jarayonini optimallashtirish;
- lavozim profiliga, nomzodlarni baholash usullariga tuzatish kiritish;
- kompaniyaga yangi kelganlarni kiritish dasturlarini kuchaytirish, ularni dastlabki o‘qitish.

Turli sohalarda kadrlar qo‘nimsizligi darajasi juda katta farq qiladi, shuning uchun tegishli tadqiqot o‘tkazish orqali kadrlar qo‘nimsizligiga necha foizgacha yo‘l qo‘yish mumkinligini tushunish mumkin. Ammo agar kadrlar qo‘nimsizligi 30% ga yetsa, umuman kompaniya faoliyatini chuqur tahlil qilish zarur bo‘ladi: uning strategiyasi, mahsulot va xizmatlar marketingi, xodimlarni boshqarish tizimi, xususan rag’batlantirish, motivasiya, imtiyozlar va bonuslar, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish dasturlari, korporativ madaniyat.

Kadrlar qo‘nimsizligi baholanganda quyidagilarni qo‘shimcha tahlil qilish mumkin:

- ishdan bo‘shatish vaqtida xodimlarning o‘rtacha ish staji.

Agar bunday statistik ma’lumotlar to‘plansa, 2-3 yildan keyin xodimlarni ushlab qolish va xodimlarni ushlab turish uchun o‘qitish va rivojlanish dasturlariga, lavozim o‘sishiga, ishning mazmuniga va boshqa omillarga bog’liqligi haqida ishonchli prognoz qilish mumkin.

Masalan, transport sohasidagi loyihalash institutining geodezist muhandislari olti oy tog’li hududlarda ekspedisiyalarda bo‘lishadi. Institutning HR-mutaxassisi avvalgi statistik ma’lumotlarga ko‘ra sivilizasiyadan uzoqda bo‘lgan yosh xodimlar yuqori maosh va xizmat safarlariga qaramay, 2 yildan ortiq bu ishda ushlanib qolmasliklarini

aniq bilar edi. U ularga barcha sharoitlar haqida ochiq gapirgan, moslashish davrida yuqori sifatli o‘qitish va murabbiylik qilgan, ularni 2 yil ishlashga ruhlantirgan. Bu muddatga kelib u keyingi mutaxassislarni jalb qilgan va shu yo‘l bilan bo‘limning uzluksiz ishlashini ta’minlagan;

- bo‘limlarda, bo‘linmalarda kadrlar qo‘nimsizligi;

Kompaniyaning alohida bo‘linmalari kadrlar qo‘nimsizligiga ta’sir qiluvchi o‘ziga xos muammolarga ega bo‘lishi mumkin, shuningdek rahbariyatning shaxsiy vakolatlari ham muhimdir – xodimlarni boshqarish qanchalik to‘g’ri yo‘lga qo‘yilgan;

- ishdan tashqari ish.

Ish jadvallari va tez-tez ishdan tashqari ish kadrlar qo‘nimsizligiga sabab bo‘lishi mumkin. Ishdan tashqari ishlashni tahlil qilish yuklamani to‘g’rilashga, mas’uliyatni qayta taqsimlashga, ish jadvallariga tuzatish kiritishga yordam beradi.

HR-mutaxassisning ishi HR-xizmatning ish rejasi va byudjetning bajarilishi bo‘yicha baholanadi.

Yil oxirida bunday reja va byudjet rahbariyat tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi, rejalashtirish davri oxirida esa rejalashtirilganlardan qancha vazifalar muvaffaqiyatli bajarilganligi baholanadi.

HR-xizmatning byudjeti tanlash, moslashtirish, xodimlarni o‘qitish xarajatlaridan shakllantiriladi: korporativ tadbirlarni tashkil etish, tashqi provayderlarni jalb qilish, xodimlarni boshqarish uchun mahsulot va xizmatlarni sotib olish. Bunda, xarajatlar va ularning samaradorligi byudjetning barcha tarkibiy qismlari bo‘yicha tahlil qilinadi.

Ish rejasi, boshqa narsalar qatori, kadrlar qo‘nimsizligi foizini kamaytirishni maqsad qilib qo‘yishi mumkin. Bunda, davr natijalariga ko‘ra unga erishilganmi-yo‘qmi, tushunish mumkin.

Har qanday xodimning faoliyat natijalarini faqat mehnat qonunchiligida belgilangan tartibda rejalashtirilgan baholash, attestasiya natijalariga ko‘ra to‘g’ri baholash mumkin. Bunday baholash uchun HR-mutaxassislar bilan birgalikda nizomlar, uslubiy materiallar va hujjatlar ishlab chiqiladi va kompaniyaning ichki hujjatlari shaklida tasdiqlanadi.

Zamonaviy boshqaruv konsepsiyasida xodimlarni baholash va attestasiyadan o‘tkazishning asosiy mazmuni lavozimni pastlatish, jazolash yoki ishdan bo‘shatish emas, balki ularni kompaniyaning maqsadlariga erishish uchun o‘qitish, rivojlantirish va rag’batlantirishdir.

Agar tanlash va moslashtirish jarayoni mos ravishda yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, ish joyida xodimga qo‘yiladigan lavozim majburiyatlari va talablarning aniq tavsifi mavjud bo‘lsa, o‘qitish va murabbiylik tashkil etilsa, maqsadlar rejalashtirilsa va ularning bajarilishi nazorat qilinsa, attestasiya o‘tkazish shunday qo‘llab-quvvatlovchi xususiyatga ega bo‘ladi.

Bugungi kunda xodimlarni ishdan bo‘shatish ish joyidagi asosiy muammoga aylandi. Ishdan bo‘shatilgan xodimlarda motivatsiya va g’ayrat yo‘q, bor kuchini sarflamaydi va ish beruvchiga sodiqlik hissi yo‘q. Ular kasal bo‘lib qo‘ng’iroq qilishlari yoki umuman ishga kelmasliklari ehtimoli bor, bu esa unumdorlikning pasayishiga va qimmat xatolarga olib keladi.

Xodimlar ishdan bo‘shatilganda, ular o‘z ishlaridan, jamoasidan va umuman tashkilotdan uzilib qoladilar. Bu ular qilayotgan ishiga befarqlik va egalik qilmaslikka olib keladi. Bu tezda zaharli madaniyatga olib kelishi mumkin, bu yerda hyech kim o‘z harakatlarining o‘zgarishini his qilmaydi.

Tashkilotlar xodimlarni ishdan bo‘shatish zarurati paydo bo‘lishidan oldin uning oldini olishda faol bo‘lishi kerak.

Birinchi qadam - jamoangiz a’zolarida ajralish belgilarini aniqlash. Bularga ruhiy tushkunlik, ish samaradorligining pasayishi, ishda qatnashmaslik, shikoyatlarning ko‘payishi va hamkorlikning pasayishi kiradi.

Ajralish belgilarini aniqlaganingizdan so‘ng, harakat qilish vaqti keldi. Ishdan bo‘shatilgan xodim bilan muloqot qilishdan boshlang, ular nima sababdan shunday his qilishlarini bilib oling. Buning sababi ish vazifalarini tushunmaslik, ularning hissasi qadrlanmasligi yoki bajarish uchun juda ko‘p ish bo‘lishi mumkin.

Ishdan bo‘shatishning asosiy sababini tushunganingizdan so‘ng, siz xodim bilan uning ehtiyojlariga javob beradigan harakat rejasini yaratishingiz mumkin. Bunga qo‘shimcha ta’lim yoki yordam taklif qilish, ularning sa’y-harakatlari uchun e’tirofni oshirish yoki ularga o‘z ishlarida ko‘proq avtonomiya berish kiradi.

Asosiysi, har bir xodimning hissasini qadrlaydigan va ularni qo‘llaridan kelganini qilishga undaydigan muhit yaratishga e’tibor qaratishdir. Jamoangizda ishtirok etish va maqsad tuyg’usini rivojlantirish orqali siz hamma umumiy maqsad sari harakat qilishini va muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiyani his qilishiga ishonch hosil qilishingiz mumkin.

Xodimlarni ishdan bo‘shatish bugungi kunda ko‘plab tashkilotlarda asosiy muammo hisoblanadi. Xodimlar ishdan bo‘shatilganda, ular ishda qo‘llaridan kelganicha harakat qilish motivatsiyasi va istagini yo‘qotadilar, natijada unumdorlik, ma’naviyat va ishdan qoniqish kamayadi.

Xodimlarni ishdan bo‘shatishning salbiy oqibatlari keng qamrovli bo‘lib, tashkilot uchun jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Rag’batlantiruvchi va jalb qilingan ishchi kuchi bo‘lmasa, tashkilot innovasiyalar, mijozlar ehtiyojlarini qondirish va raqobatdosh ustunliklarni yaratish uchun kurash olib borishi mumkin.

Xodimlarni ishdan bo‘shatishning moliyaviy oqibatlari ham mavjud. Ishdan bo‘shagan xodim o‘z g’oyalariga hissa qo‘shishi va muammolarni hal qilishda ijodiy bo‘lish ehtimoli kamroq, bu kompaniyaga xarajatlarni kamaytirish yoki foydani oshirishni qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, ishdan bo‘shatilgan xodimlar tashkilotni tark etish ehtimoli ko‘proq bo‘ladi, bu esa aylanmaning yuqori sur’atlarini va yangi xodimlarni yollash va o‘qitish bilan bog’liq xarajatlarni anglatadi.

Va nihoyat, ishdan bo‘shatilgan xodimlar ma’naviyat past bo‘lgan va jamoaviy ruh hissi bo‘lmagan zaharli muhitni keltirib chiqarishi mumkin. Bu ish joyidagi mojaroga, yuqori stress darajasiga va mijozlar va potentsial xodimlar o‘rtasida yomon vaziyatga olib kelishi mumkin.

Xodimlarni ishdan bo‘shatish tashkilotning daromadiga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan keng qamrovli oqibatlarga olib kelishi aniq. Tashkilotlar xodimlarining ishdan bo‘shashiga qarshi kurashish va o‘z xodimlarining g’ayratli va samarali bo‘lishini ta’minlash uchun ko‘rishi mumkin bo‘lgan qadamlar mavjud.

Xodimlarni ishdan bo‘shatish sabablari:

Xodimlarni ishdan bo‘shatish ko‘plab tashkilotlarda tobora ortib borayotgan muammodir, chunki xodimlar o‘z ishlaridan norozi va qiziqishsiz bo‘lib qolishi mumkin. Garchi bu ishdan bo‘shatish uchun ko‘plab mumkin bo‘lgan sabablar bo‘lsa-da, bu erda bir nechta umumiy sabablar mavjud: rivojlanish uchun imkoniyat yo‘qligi, rahbarlarning fikr-mulohazalarining yo‘qligi, o‘zini haddan tashqari ishlaganlik yoki tashkilot tomonidan qadrlanmaslik.

Ushbu muammolarga qarshi kurashish uchun kompaniyalar barcha xodimlarning ehtiyojlari va tashvishlari bilan farq qilishini tan olishlari kerak. Ular, shuningdek, har bir xodim sog’lom ish/hayot muvozanatini saqlab, mazmunli vazifalar bilan shug’ullanishi uchun etarli resurslarga ega ekanligiga ishonch hosil qilishlari kerak.

Xodimlarning ishdan bo‘shatilishiga qarshi kurashish yo‘llari:

Xodimlarning ishdan bo‘shatilishi tashkilotning mahsuldorligiga, ijodkorligiga, ma’naviyatiga va pirovardida uning natijalariga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Xodimlarning faol va motivatsiyali bo‘lishini ta’minlash uchun tashkilotlar va rahbarlar ushbu muammoga qarshi kurashish uchun harakat qilishlari muhimdir.

Mehnat unumdorligini oshirish hamda mahsulot birligiga to‘g’ri keladigan mehnat haqi xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlarini axtarib topishning muhim vositalaridan biri xodimlar qo‘nimsizligini tahlil qilish bo‘lib hisoblanadi. Xodimlarning qo‘nimsizligi – bu ishdan bo‘shatilgan xodimlar sonini ushbu davrda yollangan xodimlarning o‘rtacha soniga bo‘lish orqali topiladi. Buni quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$\frac{\boldsymbol{Ishdan\ chiqarilgan\ xodimlar\ miqdori} * \mathbf{100}}{\boldsymbol{Barcha\ xodimlarning\ o'rtachasoni}}$$

Xodimlar bilan ishlash bo‘limining bosh maqsadi ishchi kuchi qo‘nimsizligini kamaytirish bo‘lib hisoblanadi. Xodimlarni almashtirish korxona tomonidan qo‘shimcha qo‘yidagi xarajatlarni amalga oshirishiga olib keladi:

• Bo‘sh ish joylari to‘g’risida e’lon berish va tanlab olish

• Xodimlarni jo‘natishni tashkil qilish va almashtirish

• O‘qitish

• Yangi xodim o‘rgangunga qadar mehnat unumdorligining pasayishi

Xodimlar qo‘nimsizligini nazorat qilish, personal harakatini doimiy ravishda tahlil qilib borish maqsadida kadrlar bo‘limida xodimlar to‘g’risida quyidagi ma’lumotlar to‘planishi, saqlanishi hamda tahlil qilib borilishi lozim.

- Shaxsiy ma’lumotlari
- Xodim ishlagan bo‘lim, sex va lavozimi
- Mehnat staji, ma’lumoti, malaka oshirganligi, maoshi
- Ishdan chiqish sababi va boshqa ma’lumotlar

Xodimlarning ishdan chiqarish holatlarini ikki guruhga ajratishimiz mumkin bo‘ladi:

Oldini olish mumkin bo‘lgan holatlar:

1) kam ish haqi;

2) yomon ish sharoitlari;

3) o‘qitishning imkoniyatlari yetarli emasligi;

4) ko‘tarilishga imkoniyatning yo‘qligi.

Oldini olish mumkin bo‘lmagan holatlar:

1) Pensiyaga chiqarilishi;

2) kasal bo‘lishi/o‘limi;

3) oilaviy holati;

4) yashash joyining o‘zgarishi

Kelajakni ko‘rib ishlaydigan rahbar xodimlar qunimsizligi sabablarini o‘rganib chiqadi. Oldini olish mumkin bo‘lgan hollarda xodimlarning ishdan ketish holatlarini bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘radi.

VIII bob bo‘yicha xulosalar

1. Qurilish korxonalarida inson resurslarini ifodalovchi ko‘rsatkichlar holatni ifodalovchi ko‘rsatkichlari, harakatini ifodalovchi ko‘rsatkichlari hamda samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlari kabi asosan uch guruhga bo‘lib o‘rganiladi.

2. Qurilish korxonalarida inson resurslarining samaradorligini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkich bu mehnat unumdorligi ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblanadi.

3. Qurilish korxonalarida korxona xodimlari to‘g’risidagi axborot ma’lum davrlar oralig’ida alohida berilganda, masalan, dastlabki uch oy uchun o‘rtacha xodimlar soni, keyingi olti oy uchun alohida xodimlar soni hamda keyingi uch oy uchun xodimlar soni kabi berilsa o‘rtacha tortqichli arifmetikdan foydalaniladi.

4. Qurilish korxonalarida xodimlarning mehnat unumdorligi umumiy darajada baholanganda mehnat unumdorligi holati hamda harakati tahlili amalga oshiriladi hamda tahlil natijasi sifatida korxonaning bugungi kundagi mehnat unumdorligi baholanib o‘tgan davrlarga nisbatan o‘zgarishi aniqlanadi.

5. Qurilish korxonalarida xodimlar mehnat unumdorligiga xodimlarning to‘g’ri boshqaruvi, kasb psixalogiyasi, to‘g’ri boshqaruv qarorlarining qabul qilinishi, xodimlarning rag’batlantirilishi kabi ko‘plab omillar ta’sir qiladi.

6. Qurilish korxonalarida xodimlarning mehnat unumdorligini umumiy baholash usuli orqali aniqlash hamda unga baho berish korxonaning barcha bo‘lim xodimlarini, ma’muriyat, ishlab chiqarish hamda savdo bo‘limi xodimlarini mehnat unumdorligini to‘g’ri baholashga imkon yaratmaydi.

XULOSA

Olib borilgan monografik tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Qurilish tarmog‘i mamlakatning iqtisodiy hamda ijtimoiy hayotida muhim ahamiyatga ega, bir tomondan mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qilsa, ikkinchi tarafdan mamlakatning go‘zalligini ko‘rsatib berishga ega va aholini uy-joy bilan ta’minlanish darajasini yaxshilovchi hamda tarmoq sifatida alohida xususiyatlari mavjud bo‘lgan soha hisoblanadi.

2. Qurilish korxonalarida tahlilini amalga oshirish korxonaning aktivlari hamda uning tashkil topish manbalarini holati, harakati va samaradorligi bilan bir qatorda korxonaning to‘lovga qodirligi, moliyaviy barqarorligi, moliyaviy mustaqilligi, moliyaviy qaramliligi, daromadliligi, natijaviyligi hamda samaradorligini ifodalab beradi.

3. Qurilish korxonalari tomonidan bajariladigan ish (xizmat)lar ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish xususiyatiga ega ekanligi inobatga olinib qurilish korxonalari tomonidan amalga oshirilayotgan ish (xizmat)larning tasnifi ishlab chiqildi.

4. Qurilish korxonalarida boshqaruv tizimini rivojlantirishda, boshqaruv qarorlari samaradorligini oshirishda hamda tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilishda aktivlar tahlilinining ahamiyati va zaruriyat ekanligi ochib berildi.

5. Qurilish korxonalarida moliyaviy holat tahlilini amalga oshirish jarayonida foydalaniladigan axborot manbalari ma’lum xususiyatlariga ko‘ra tasniflandi.

6. Qurilish korxonalarida aktivlar tahlilini amalga oshirish jarayonida foydalaniladigan ko‘rsatkichlar tizimi tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqqan holda holatni ifodalovchi, harakatni ifodalovchi, samaradorlikni ifodalovchi hamda moliyaviy holatni ifodalovchi maxsus ko‘rsatkichlarga bo‘linishi tavsiya qilindi.

7. Qurilish korxonalarida samaradorlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlardan rentabellik ko‘rsatkichini individual rentabellik, alohida obyektlar rentabelligi hamda umumiy rentabellik sifatida tasniflanish qurilish korxonalari foydalilik darajasi bo‘yicha to‘liq

tasavvur hosil qiladi. Shu sababli rentabellik koʻrsatkichi tasnifi hamda har bir rentabellik turi tavsifi berib oʻtildi.

8. Qurilish korxonalarida moliyaviy holat tahlilini amalga oshirish jarayonida omilli tahlilning alohida xususiyatlari yoritilib, an'anaviy usullardan foydalanish metodikasi berildi.

9. Korxonalarda aktivlarni holati hamda harakati tahlilini amalga oshirish zarurati mavjud ekanligi asoslandi.

10. Qurilish korxonalari faoliyatini alohida xususiyatlari inobatga olinib qurilish korxonalari faoliyatining alohida xususiyatiga koʻra qurilish korxonalarida aktivlar holatini ifodalovchi qurilish jarayonining ma'lum bosqichlarida foydalaniladigan aktivlar ulushi hamda ijaraga berilgan aktivlarning jami aktivlardagi ulushi koʻrsatkichlarini aniqlash tartibi keltirildi.

11. Qurilish korxonalarining moliyaviy holatini baholashda korxonaning holat (uzoq muddatli hamda joriy aktivlarning balansdagi ulushi, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlarning eskirish hamda yaroqlilik koeffitsiyentlarii, korxona sof aktivlari qiymati, oʻz mablagʻlari naqdligi, oʻz va qarz mablagʻlari naqdligi va b.q.ni, harakati (korxona aktivlari hamda tashkil topish manbalarining dinamik harakat koeffitsiyentlari, korxona aktivlari hamda kapitalining tarkibiy harakat koʻrsatkichlari, korxona aktivlarining oʻz mablagʻlari hisobiga harakat koʻrsatkichlari va b.q.ni hamda samaradorlik (aktivlar hamda passivlarning daromadlilik, natijaviylik hamda rentabellik va b.q.ni koʻrsatib beruvchi koʻrsatkichlar tizimi orqali baholashni tavsiya qilindi.

12. Mamlakat darajasida qurilish xizmatlari 2023-yilda 150 792.6 mlrd. soʻmni tashkil qilganligi, hududlar boʻyicha eng katta koʻrsatkichni 37 245.5 mlrd. soʻm bilan Toshkent shahri, eng past koʻrsatkich 3 947.7 mlrd.soʻm bilan Jizzax viloyatiga toʻgʻri kelishi, qurilish xizmatlarining oʻzgarish tendensiyasi boʻyicha 10,5 foiz bilan Surxondaryo viloyatiga, eng past oʻsish 1,6 foiz bilan Sirdaryo viloyatiga toʻgʻri kelishi aniqlandi.

13. Qurilish korxonalarida bir qism ishlar subpudratchilar tomonidan bajarilishi hamda yana bir qismi ijaraga olingan aktivlar tomonidan bajarilishi va qaysidir qism ishlar transport xizmatlari

koʻrsatuvchi korxonalar tomonidan bajarilishi inobatga olinib qurilish korxonalarida aktivlar rentabelligini aniqlashda mavjud formula orqali aniqlash koʻrsatkichni realligini ta’minlamasligi, chunki qurilish korxonalarida sof foydani jami aktivlarning oʻrtacha qiymatiga boʻlinsa korxonaning aktivlarini rentabellik koʻrsatkichi sun’iy oshirilib koʻrsatilishi, bunga asosiy sabab erishilgan sof foydaning barchasi korxonaning aktivlari hissasiga toʻgʻri kelmasligi, bu yerda subpudratchilar xizmati, transport xizmatlarini koʻrsatuvchi korxonalar xizmati hamda ijaraga olingan asosiy vositalar samarasi hisobga olinmay qolishi asoslandi hamda,qurilish korxonalarida rentabellik koʻrsatkichlarini turlarga ajratib aniqlash kerakligi va rentabellik koʻrsatkichlarini aniqlash algoritmlari berildi.

14. Qurilish korxonalari faoliyatining alohida xususiyatlari oʻrganilib korxonada iqtisodiy tahlil oʻtkazishning K5B modeli ishlab chiqildi. Ushbu model korxonalarda kompleks axborotlardan foydalanib jamlanma koʻrsatkichlar tizimini aniqlash orqali korxona faoliyatini umumlashtirilgan tahlildan oʻtkazishga hamda tahlil natijasida kompleks xulosa chiqarishga va natijalar boʻyicha qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshishiga olib keladi.

15. K5B5 modelini qoʻllash jarayonida foydalanilishi lozim boʻlgan minimum koʻrsatkichlar tizimi taklif qilindi. Bu koʻrsatkichlar tizimi modelning ishlash samaradorligi hamda natijaviyligini oshirishga xizmat qiladi.

16. Qurilish korxonalarida moliyaviy holat tahlilini amalga oshirish jarayonida koʻp omilli korrelyatsion-regression tahlilni takomillashtirish masalalari koʻrib chiqildi. Natijada jami bajarilgan qurilish ishlariga qurilish sohasiga kiritiladigan investitsiyalar ta’sirini baholab beruvchi regressiya tenglamasi yaratildi. Ushbu tenglama orqali qurilishga kiritiladigan investitsiyalar miqdorining oʻzgarishini bilgan holda jami qurilish ishlari prognozini qilish imkoniyati yaratildi.

17. Qurilish korxonalarida aktivlar tahlilini amalga oshirgan holda qurilish korxonalarining umumiy samaradorlik darajasini baholash imkoniyatini yaratuvchi K5B5 model ishlab chiqildi.

18. Qurilish korxonasining umumiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholashda foydalanilishi mumkin bo‘lgan umumiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichi ishlab chiqildi.

19. Qurilish korxonasining qurilish korxonalarining umumiy moliyaviy salohiyati ko‘rsatkichi ishlab chiqildi.

20.Qurilish korxonalarida inson resurslarini ifodalovchi ko‘rsatkichlar holatni ifodalovchi ko‘rsatkichlari, harakatini ifodalovchi ko‘rsatkichlari hamda samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlari kabi asosan uch guruhga bo‘lib o‘rganiladi.

21.Qurilish korxonalarida inson resurslarining samaradorligini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkich bu mehnat unumdorligi ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblanadi.

22. Qurilish korxonalarida korxona xodimlari to‘g’risidagi axborot ma’lum davrlar oralig’ida alohida berilganda, masalan, dastlabki uch oy uchun o‘rtacha xodimlar soni, keyingi olti oy uchun alohida xodimlar soni hamda keyingi uch oy uchun xodimlar soni kabi berilsa o‘rtacha tortqichli arifmetikdan foydalaniladi.

23.Qurilish korxonalarida xodimlarning mehnat unumdorligi umumiy darajada baholanganda mehnat unumdorligi holati hamda harakati tahlili amalga oshiriladi hamda tahlil natijasi sifatida korxonaning bugungi kundagi mehnat unumdorligi baholanib o‘tgan davrlarga nisbatan o‘zgarishi aniqlanadi.

24.Qurilish korxonalarida xodimlar mehnat unumdorligiga xodimlarning to‘g’ri boshqaruvi, kasb psixalogiyasi, to‘g’ri boshqaruv qarorlarining qabul qilinishi, xodimlarning rag’batlantirilishi kabi ko‘plab omillar ta’sir qiladi.

25.Qurilish korxonalarida xodimlarning mehnat unumdorligini umumiy baholash usuli orqali aniqlash hamda unga baho berish korxonaning barcha bo‘lim xodimlarini, ma’muriyat, ishlab chiqarish hamda savdo bo‘limi xodimlarini mehnat unumdorligini to‘g’ri baholashga imkon yaratmaydi.

26.Moliyaviy risklarga aktivlar qiymatining pasayishi (masalan, mashinalar eskirishi, texnika va qurilish uskunalarining qadrsizlanishi) bilan bog’liq, qurilish asbob-uskuna va materiallarini haddan tashqari

ko‘p yoki kam xarid qilish bilan bog’liq, inventarizatsiya va buxgalteriya hisobidagi xatoliklar bilan bog’liq hamda qarzdorlik (moliya vositalari orqali olingan aktivlar) bilan bog‘liq to‘lovga layoqatsizligi bilan bog’liq risklar kiradi.

27.Qurilish korxonalarida operatsion (ishlab chiqarish) risklariga qurilish texnikasining buzilishi yoki nosozligi bilan bog’liq risklar, aktivlardan maqsadsiz foydalanish (masalan, texnikalardan shaxsiy maqsadlarda foydalanish) bilan bog’liq risklar, aktivlar noto‘g‘ri joylashtirilishi (masalan, obyektga uzoq masofada joylashgan texnikani ishlatish zarurati) bilan bog’liq risklar hamda zaxira qismlar yoki servis xizmatining mavjud emasligi sababli ishning to‘xtab qolishi bilan bog’liq risklar kiradi.

28.Qurilish korxonalarida aktivlar vilan bog’liq huquqiy va normativ risklarga aktivlar (masalan, yer, texnika) huquqiy jihatdan to‘liq rasmiylashtirilmagan bo‘lisshi bilan bog’liq risklar, litsenziyalarning yo‘qligi yoki muddati o‘tib ketganligi bilan bog’liq risklar, qurilish me’yorlariga mos kelmaydigan asbob-uskunalarning ishlatilishi bilan bog’liq risklar hamda soliq qonunchiligiga zid ravishda aktivlar harakati yuritilishi bilan bog’liq risklar kiradi.

29. Riskka moyillik ta’sir kuchi va ehtimollikka bevosita bog‘liq. Korxona qanchalik riskka moyilligi kuchli bo‘lsa shuncha riskning ta’sir kuchi yuqori bo‘ladi. Agar nazoratni o‘z ichiga olgan riskka qarshi choralar o‘z o‘rnida va tegishli tarzda qo‘llanilmasa, risk hodisasi sodir bo‘lish ehtimolligi oshadi. Moyillikni baholash korxonalarda riskni boshqarish qanday yaxshi joriy etilganini aniqlashga imkon beradi.

30. Riskka moyillikni baholash mezoni quyidagi choralarni joriy qilishni o‘z ichiga oladi: stsenariyaviy rejalashtirish, real optsionlar, risk hodisasi sodir bo‘lganda unga tez moslashib kapital zihiralarini shakllantirish kabi qarshi choralarni qo‘llash. Biroq universal baholash mezani mavjud emas. Har bir korxona o‘z mezonini talablarini qondirishga mos tarzda ishlab chiqishi kerak.

31. Iqtisodiy faoliyat risklarini hisoblash uchun korxonaning moliyaviy risklarini baholashning statistik usullari juda kam qo‘llaniladi.

Shunga qaramay, so‘nggi paytlarda klaster tahlili texnikasi nisbatan mashhurlikka erishdi, buning yordamida ba'zan foydalanish uchun mos bo‘lgan ma'lumotlarni tortib olish mumkin. Ko‘pincha jarayonda klaster tahlili qo‘llaniladibiznes-rejalarni ishlab chiqish. Aynan shundan so‘ng umumiy xavf koeffitsientini hisoblash ma'lumotlar bazasida amalga oshiriladi, ular xavflarni guruhlarga bo‘lish orqali olinadi.

32.Qurilish korxonalarida pul oqimlari harakati bilan bog’liq risklarni baholashni eng optimal variantlaridan biri bu tasodifiy kutilmalarni baholash usuli hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –T.:O‘zbekiston - 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni (13-aprel 2016-yil).

3. O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni 2021-yil 25-fevral.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

4. 2023-yil 13-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni.

5. 2018-yil 2-apreldagi PF-5392-son “Qurilish sohasida davlat boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni.

6. 2024-yil 23-apreldagi “Qurilish sohasidagi normativ hujjatlarni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 231-son Qarori.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.11.2018-yildagi PF-5577-sonli “Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

8. 14.03.2020-yildagi PF-5963-son “O‘zbekiston Respublikasining qurilish sohasida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.11.2020-yildagi PF-6119 son “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

10. 2024-yil 17-apreldagi **“**O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi to‘g‘risida”gi 214-son Nizom.

III. Buxgalteriya hisobi milliy va xalqaro standartlari.

11.1-son Buxgalteriya hisobi milliy standarti –Adliya vazirligi 26.07.1998.

12.15 – son Buxgalteriya hisobi milliy standarti – Adliya vazirligi 20.03.2003

13.9-son Buxgalteriya hisobi milliy standarti – Adliya vazirligi tomonidan 519-son bilan ro‘yxatga olingan, 04.11.1998.

14.37-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar.

15.19-son MHXSShQ Sharhi “Moliyaviy majburiyatlarni ulushli instrumentlar bilan so‘ndirish”.

16.1-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish.

IV. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Farmoish va Qarorlari

17.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.07.2018-yilda 603-son “O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, uning tarkibiy bo‘linmalari, shuningdek, Respublika va hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashlari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida” Qarori.

18.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.05.2019-yilda
451-sonli “Loyihalash va qurilish sohasidagi mutaxassislar malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” Qarori.

V. O‘zbekiston respublikasi Prezidenti asarlari va ma’ruzalari

19.Mirziyoyev Sh. M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”.-T.: «O‘zbekiston», 2016. - 56 b.

20.Mirziyoyev Sh. M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. – T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2017. - 48 b.

21. Mirziyoyev Sh. M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. - T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2017. - 458 b.

22. Mirziyoyev Sh. M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. – T.: «O‘zbekiston», 2017. -104 b.

VI. Adabiyotlar.

23. B.K.Subash “Construction managment” textbook, Nepal-2022 142 c.

24. Duncan Cortlidge “Construction Projekt Manager”s” textbook, Californiya-2024 82 c.

25. Puneet Kuthila “Battle Field Project Management” textbook, India-2024, 148 c.

26. Kory kogon, Suzette Blakemore “Project management for the unoffissial project manager” Californiya-2024, 254 c.

27. Jac Hayden “Project management mastery” textbook, Californiya-2024, 64 c.

28. Knut Sydsaeter, Peter Hammond, Arne Strom, Andres Carvajal “Essintial Mathematecs for economic analysis” textbook, Californiya-2021, 451 c.

29. L.G.Pashtova “Economic Anallysis” textbook, Moskva-2022, 152 c.

30. David Sharipo, Daniel MacDonald “Prinsiples of Economics” textbook, Rice Uneversity-2022, 344 c.

31. N.K.Choudhard “Economic analysis” textbook, India-2023, 342 c.

32. Yoram Barzel “Economic analysis of property rights” textbook, Kolumbia-2023, 46 c.

33. M.E.Po‘latov.“Xizmat ko‘rsatish sohasida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari” ilmiy maqola "Экономика и социум" №3(118)-1 2024.

34. K.B.Urazov, M.E.Po‘latov. “Buxgalteriya hisobi”. Darslik, Toshkent-2020, 69 bet.

35. M.M.Muxammedov.“Xizmat ko‘rsatish va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari”. Monografiya, Samarqand, “Zarafshon” nashriyoti 2017 54-bet.
36. M.Q.Pardayev, A.N.Xoliqulov, T.I.Yahyoyev.“Iqtisodiy tahlil”.Darslik, Samarqand-2024.
37. M.Q.Pardayev, A.N.Xoliqulov, T.I.Yahyoyev.“Boshqaruv tahlili”.O‘quv qo‘llanma, Samarqand-2022.
38. M.Q.Pardayev, A.N.Xoliqulov, T.I.Yahyoyev.“Moliyaviy hamda iqtisodiy ma’lumotlarini tahlil qilish”. O‘quv qo‘llanma, Samarqand-2022.
39. M.Q.Pardayev, A.N.Xoliqulov, T.I.Yahyoyev, B.I.Isroilov “Mehnat ko‘rsatkichlari tahlili” o‘quv qo‘llanma, Samarqand-2022.
40. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari(International Financial Reporting Standards). Darslik – T. “Iqtisod-Moliya”, 2019.
41. Pardayev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Samarqand.: Zarafshon, 2005-yil, 183-bet.
42. A.D.Sheremet.,R.S.Sayfulin. Moliyaviy tahlil metodikasi. O‘quv qo‘llanma, M:INFRA-M, 112 bet, 2005 yil.
43. Kovalev V.V. Korxonaning iqtisodiy faoliyatini tahlil qilish. Darslik. Prospekt-2004. 240 bet.
44. Savitskaya G.V. Iqtisodiy faoliyatni tahlil qilish. Qo‘llanma. INFRA-M, 2004. 69 bet
45. V.I.Podolskiy. Iqtisodiy tahlil. Qo‘llanma. SPb: Piter, 2004. 54 bet.
46. M.Q.Pardayev. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. Toshkent-2021. 234-bet.
47. M.Q.Pardayev.“Moliyaviy va boshqaruv tahlili”. O‘quv qo‘llanma. Cho‘lpon.Toshkent-2012.
48. Bernstayn L.A. Analiz finonsovoy otchyotnosti: teoriya, praktika i interpritatsiya: Per s ang.- M.: Finonsы i statistika, 1996.-7,480 str.
49. Dodoboyev Yu., Xudoyberdiyev A. Korxona iqtisodiyoti. – Andijon, «ANDIJON NAShRIYoTI» OAJ, 2002, 228-b.
50. Musayev H.N. Audit. Darslik. – T.: Moliya, 2003, 175-b.

51. B. Annayev. Savdo korxonalarida daromadlar hisobi va auditining dolzarb masalalari. Monografiya. “NAVRO‘Z” nashriyoti, - T.: 2011, 16-b.

52. K.B.Urozov. Buxgalteriya hisobi va audit. T.: “O‘qituvchi”, 2004. 245-bet.

53. Yusupova M.B, Soliyev B.K. Moliyaviy hisob. Andijon-2006. 57-bet.

54. S.N.Toshnazarov. Xalqaro hisob asoslari. Ma’ruzalar matn to‘plami. Samarqand-2008. 83-bet.

55. X.A.Shodiyev. “Statistika” Darslik. Toshkent – 2004. 161-bet.

56. Xudoyberdiyev U.X., Aliyev B.R. Statistika. Samarqand. SamISI 2006 -88-bet.

57. Statistika. Uchebnik. / pod red. S.A.Orexova. – M.: Eksmo, 2010. – s. 172.

58. Abdullayev Yo. Statistika nazariyasi. T. Mehnat. 2000. – B. 212.

59. Deniskin V.V. Osnovы ekonomicheskogo prognozirovaniya v pişçevaya promыshlennosti. M. Legkaya i pishevaya promыshlennost. 1984. – S. 136.

60. Abdullayev Yo. Statistika umumiy nazariyasi. Darslik. T. O‘qituvchi. 1993. – B-144

61. Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy holatining tahlili.T.: Moliya-iqtisod, 2015.-316 b.

62. K. R. Subramanyam. Financial statement analysis, eleventh edition Published by McGraw-Hill Yeducation, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by, 646 bet.

63. L.I.Donsova, N.I. Nikiforova., “Analiz finonsovoy otchyotnost”, M: Delo i servis, str-6.

64. Kalmetov B.D. Senobrazavaniyai problemq razvitiya perebaziruemix predpriyatiy v stroitelstve. Toshkent. “AKATM”, 2004.

65. Maxmudov E.X, Isokov M.Yu.Kapital qurilish iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma.Toshkent: TDIU,2005y.

66. Leshenko B.A., Kalmetov B.D., Kazimov V.A. Uglublenie ekonomicheskix reform v stroitelnom komplekse Uzbekistana.TOshkent. “AKATM”.2006 g.

67. Stepanov P.S. Ekonomika stroitelstva. Uchibnek. Moskva: Izd “Yurayt”,2005 g

68. B.Kattakishiyev, N.Saidaxmedova. D.Kazakova,I.Fayzieva. Iqtisodiyot va menejment fanidan praktikum. Toshkent-2019.154 bet.

69. B.A.Xasanov., A.A.Xashimov. Boshqaruv hisobi. Darslik.Toshkent 2005.126 bet.

70. A.N.Li va S.I.Shevchinkolarning “Korxonalar moliyaviy tahlilining asosiy yo‘nalishlari” nomli maqolasi. 1999-yil.“O‘zbekiston Respublikasining Moliya resurslari”gi to‘plami.

71. M.Q.Pardayev. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Toshkent 2022. Darslik. 202 bet.

72. L.I.Lapotnikov Ekonomika – matematicheskiy slovar. – M.: “Nauka”, 1987. – 323 bet.

73. Dj.A.Xoffer, J.F.Djordj, J.S.Valachich. Sovremennыy sistemnыy analiz i proyektirovanie. – SShA.: Piarson edukatsion. 2002./, A.V.Antonov Sistemnыy analiz M. 2002., V.S.Anfilotov Sistemnыy analiz: ucheb. Dlya vuzov.2008.

74. S.Otamurodov.Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik. T. “O‘zbekiston”. 2013,

75. V.A.Karimova va boshqalar. Tizimli tahlil asoslari. Darslik. T. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2014., A.Xudoynazarov.Tizimli tahlil. Darslik.-T.:TDYu,2016.

76. *Brigxem Yu., Erxardt M.* Finansovыy menedjment. 10-ye izd. / Pod. red. k.e.n. Ye. A. Dorofeeva. — SPb.: Piter, 2007. — 960 s.

77. Ross S., Vesterfild R., Djordan B. Osnovы korporativnыx finansov. — M.: Laboratoriya Bazovыx Znaniy, 2001. — 720 s

78. V.S. Panfilov // Bolshaya rossiyskaya ensiklopediya : [v 35 t.] / gl. red. Yu. S. Osipov. — M. : Bolshaya rossiyskaya ensiklopediya, 2004—2017.

79. O. I. Lavrushina. Dengi, kredit, banki : uchebnik / koll. avt. ; pod red. zasl. deyat. nauki RF, d-ra ekon. nauk, prof.— 3-ye izd. pererab. i dop. — M. : KNORUS, 2006. — 560 s.

80. *Chernov V. B., Urazbaxtin I. R.* Vliyanie oborachivayemosti zapasov na finansovыy rezultat // Vestnik Yujno-Uralskogo

gosudarstvennogo universiteta. Seriya: Ekonomika i menedjment,. — 2012. — № 9. — S. 40—42.

81. *Prudnikov A.G., Novojilov I. M., Lola N. A.* Sovershenstvovanie metodiki analiza oborachivayemosti materialno-proizvodstvennых zapasov.

VII. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferati

82. S.N.Tashnazarov. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) avtoreferati. T.: 2019. 74-bet.

83. Pardayeva O.M Xizmat ko‘rsatish sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va samaradorligini oshirish yo‘llari. Iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, 2020 y, 44-bet.

84. Urazov K.B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining nazariy va metodologik muammolari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, 2006, 169-170 b.

85. Juravleva M.A. Sovershinestvovanie mexanizma formirovaniya dogovornix sen v stroitelstve: Dis.kand.ekon. nauk:08.00.05.Ekaterenburg.2006 g.265 s.

86. Aydiyeva S.A. Metodicheskie osnovы stroitelstve na sovremennom etape xozyayestvennie:08.00.05: maxachkala.2000 g. 156 str.

87. Kuzminskiy A.G.Sisiematika metodov i modeley formirovaniya smetnых sen na stroitelguyu produksiyu. Diss.08.00.05. Novosibirsk. 2002 g 490 str.

88. Dorojkin V.R.Ekonomicheskie problыmi formirovaniii stoimosti stroitelnom prodeutsii.Diss.08.00.05.Voronej.1999 g

VIII. Internet saytlari

69.http://www.economics.com

70.http:// www.gov.uz

71.http://www.stat.uz

72.http://www.samstat.uz

73.http:// www.lex.uz

IX. Statistik materiallar

74.O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari (https://stat.uz/uz/180-ofytsyalnaia-statystyka-uz/6576-kichik-biznes-va-tadbirkorlik)

75.O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulleteni, Toshkent, 2020 yil, 287 bet.

76.Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (UNECE) ma’lumotlari.

T.I.YAHYOYEV

XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA BOSHQARUV HISOBI VA TAHLILI

Monografiya

Muharrir: Z.N. Bobodustov
Musahhih: M.O. Mardiyeva
Texnik muharrir: N. Ergashev

Monografiya Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashining 2025-yil 27-noyabrdagi 4-sonli qaroriga asosan nashr etishga tavsiya etilgan.

“STAP-SEL” MChJ nashriyoti, Samarqand - 2026

ISBN: 978-9910-225-49-9

Tasdiqnoma № 033337 (27.07.2022)
Nashrga ruxsat etildi: 18.03. 2026 y.
© “STAP-SEL” MChJ nashriyoti, Samarqand 2026 y.

2026-yilda chop etildi.
Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog`i 16.25
Buyurtma № 0025A/26. Adadi 50 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo`limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko`chasi 60-uy.